



Feruz ABDULLAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:feruza.abdullayeva.1997@mail.ru

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, U.Saydazimova taqrizi ostida

IN XIGYONNING "DUET" HIKOYASIDA IKKI AYOL OBRAZI

Annotatsiya

Maqolada XX asr ikkinchi yarmi koreys milliy adabiyotining shakllanishi hamda taraqqiy etishida ayol ijodkorlarning roli, xususan, adiba In Xigyon ijodida hikoya janrining yangi tamoyillar asosida yaratilgani bayon qilingan. Adiba In Xigyon asarlari orqali koreys xalqiga xos bo'lmagan, ammo insonlar o'rtasida yuzaga kelgan ayol bilan bog'liq bo'lgan har qanday munosabatlarga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: duet, peyzaj, dekabr, qish, sovuq, bahor, hayot, oila, nikoh.

HE CHARACTERS OF TWO WOMEN IN THE STORY "DUET" OF EUN HEEKYUNG

Annotation

The article discusses the role of female artists in the formation and development of Korean national literature in the second half of the 20th century, especially Eun Heekyung's works, it is stated that the story genre was created on the basis of new principles. Through her works, author Eun Heekyung focuses on all kinds of relationships related to women, which are not typical of the Korean people, but arise among people.

Keywords: duet, landscape, december, winter, cold, spring, life, family, marriage.

ДВА ЖЕНСКИХ ПЕРСОНАЖА В РАССКАЗЕ ЫН ХИКЁН "ДУЭТ"

Аннотация

В статье рассматривается роль женщин-художниц в становлении и развитии корейской национальной литературы второй половины XX века, особенно в произведениях Ын Хикён утверждается, что жанр рассказа создавался на основе новых принципов. В своих работах Ын Хикён фокусируется на всевозможных отношениях, связанных с женщинами, которые не типичны для корейского народа, но возникают среди людей.

Ключевые слова: дуэт, пейзаж, декабрь, зима, холод, весна, жизнь, семья, брак.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida yashab, ijod qilgan koreys adibasi In Xigyon koreys milliy adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega. Bolaligi 1960-yillardagi kaos, o'smirlik yillari 1970-yillardagi sanoatlashirish hamda harbiy diktatura rejimida o'tgan yozuvchi bir tomondan, jahon adabiyoti yutuqlaridan bahramand bo'ldi, ikkinchi tomondan mumtoz davrda yaratilgan asarlardan ozuqa oldi. Bu o'z navbatida, adiba mahoratining imkoniyat eshiklarini ochdi. Ijtimoiy o'zgarishlar adiba tafakkurining yangi qirralarini namoyon qildi. Hikoyalari uchun tanlagan ayol obrazlarida davrning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini berishga muvaffaq bo'lgan In Xigyon jamiyatning og'riqli nuqtalarini ro'yi-rost ko'rsata oldi.

Adabiy sahnaga 1995-yili "Duet" hikoyasi bilan kirib kelgan adiba tanqidchilar bilan birga kitobxonlar e'tiboriga tushdi. Hikoya "Tona Ilbo" gazetasining maxsus sovrinini qo'lga kiritdi. Hikoyada o'zgarayotgan koreys jamiyati muammolari ayol ruhiyati, uning hayotga bo'lgan munosabatida ochib berilgan. Hikoyada barcha voqea-hodisalar ona va qiz obrazlari atrofida sodir bo'ladi, ularning ruhiyatida anglashiladi, hatto ota o'limidan so'ng birga ovqatlanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Hikoyadagi ota va o'g'il, kuyov, sanitar yigit (qizning sobiq sinfdoshi) obrazlari esa ikki ayol obrazini to'ldirishga, ularning hatti-harakatini asoslashga xizmat qiladi.

Hikoyaning qisqacha syujeti quyidagicha: voqea Chonchju shahri kasalxonalaridan birida tasvirlanadi: og'ir xastalik tufayli to'shakka mixlangan otaning umri poyoniga yetib bormoqda, bir umr eriga sadoqatli xizmat qilgan ayol bemorga qarash bilan ovora; zamonaviy ta'lim olgan va poytaxt shaharda istiqomat qiladigan o'g'il va qiz farzand

otasining ahvoli og'irligi sababli tashrif buyurishgan; avval qizi yetib keldi, so'ng o'g'li yetib kelishi bilan shifokorlar qo'ygan tashxis va ko'rsatilgan vaqtda ota olamdan ko'z yumdi; dafn marosimlarini o'tkazib bo'lgan ona qizi tabiatida ro'y bergan o'zgarishlarga e'tibor qaratdi.

Asosiy qism. Umuman olganda, adiba hikoyasining bosh qahramonlari ayollar bo'lib, hikoyaning syujet chizig'i ayol tabiatining tilsimlariga, ularga xos tutum, turli taqdirlar masalasiga bag'ishlangan. Adibaning hikoya yaratish mahorati o'quvchi e'tiborini tortadi. Jumladan, hikoyada keltirilgan personajlar monologidan ko'p narsa anglashilsa-da, hikoya tuguni mavhumligicha qoladi. Tugunning ma'lum bo'lishi esa, hikoyaning yechimiga olib keladi. Hikoya ikki qismdan iboratdek taassurot uyg'otadi: birinchisi, qahramonlar xotirasiga muhrlangan ota-onaning yoshlik va farzandlarning bolalik yillari bo'lsa, ikkinchisi, qari ota-ona va katta yoshdagi farzandlar hayotidir. Ona xotirasidagi o'tmish va qizning bugungi kundagi hayoti tasvirida avlodlar muammosi ayol obrazlarida yoritiladi. Hikoyada barcha qahramonlarga ism berilgani holda, oila boshlig'i uchinchi shaxsda beriladi.

In Xigyon hikoyada hech bir qahramon xatti-harakatini qoralamaydi, aksincha inson ruhiyatini peyzajda ochishga harakat qiladi: "Peyzaj qahramonlar harakatlariga sharoit yaratish, paytni belgilash, muayyan sharoitdagi holatini, kayfiyatini ta'kidlash, voqealar rivojiga ta'sir etish kabi xususiyatlari bilan asarning g'oyaviy yo'nalishida juda muhim o'rin tutadi"[1]. Hikoyadagi voqealar dekabr-qish-sovuq detallari atrofida sodir bo'ladi. Ammo adiba qish fasli haqida gapirmaydi. Hikoyada berilgan dekabr oyi, sovuq xona, sovuq havo kitobxon ko'z o'ngida qish fasli qiyofasini shakllantiradi. Dastlab sovuq detali otaning onasi, ya'ni

Inxening buvisi xarakterini ochib berishda qo'llaniladi. Adiba jahldor va qahri qattiq qaynonani qish fasliga qiyoslaydi. Kelini qiz farzandli bo'lganidan norozi bo'lgan qaynona dekabr oyi bo'lishiga qaramasdan xonani ititish uchun pechkanini yoqishga ruxsat bermaydi. Qishning so'nggi oyi kabi qaynonaning umri ham qisqa bo'ldi. Nevarasi uch yoshga to'lganida qaynona qish faslida, sovuq ayni avjiga chiqqan pallada olamdan o'tdi.

Hikoya syujetida kitobxon kutgan burilish yuz bermaydi. Qaynona o'limidan so'ng yosh er-xotin tinchtotuvlikda, bir-birini tushunib, qo'llab-quvvatlab yashay boshladi, tarzida davom ettirilganida hikoya kitobxonga kuchli ta'sir ko'rsatmagan bo'lar edi: "Haqiqiy badiiy asar o'quvchi kutmagan, tasavvur qilmagan voqealari, yechimi bilan esda qoladi" [2].

Oila boshlig'i boshqa provinsiyaga ishga ketganligi sababli, uyda kam bo'lar edi. Onasi tabiatiga xos sovuqlik o'g'liga o'tdi. Er ayoliga faqat farzandining onasi tarzida munosabat qildi, chunki u o'zi ishlayotgan joyda boshqa ayol bilan don olisha boshlagan edi. Ammo ayol bu sovuqlikni matonat bilan yengib o'tdi: "...boshlagan ishini yarim yo'lda tashlab ketmas, har qanday ishni maromiga yetkazib bajarar edi" [3]. Qishning sovuq kunlarida yosh bolasi bilan sovuq uyda yotganida hech kimga, hatto eriga ham nolimagan ayol, yashashda davom edi. Bu orada ikkinchi – kutilgan o'g'il farzand ham dunyoga keldi. Ayol o'zining o'jizligini ko'rsatmas, o'ksik qalbini hech kimga ochmas, baxtsizligini oshkora qilmas edi. U erining sovuq munosabati oldida yengilmadi, sovuq qish fasliga taslim bo'lmadi. Ayolning sabr-toqati sabab oilada osuda hayot hukmronlik qilar, uy saranjom-sarishta bo'lib, hatto farzandlariga kerakli bilimlarni egallashlari uchun sharoit yarata oldi. Er ham ma'shuqasidan voz kechdi, tadbirkorlik bilan shug'ullana boshladi.

Ammo bularning barchasi er-xotin o'rtasidagi sovuq munosabatlarga iliqlik olib kelmadi. Er atrofidagi boshqa ayollar bilan yaqin munosabat o'rnatishda davom etdi:

"Har safar eri boshqa ayollar bilan ko'ngilxushlik qilganida, haqoratlangan Chonsunning qalbidagi, xiyonat xuddi yurakka mix qoqqandek iz qoldirar edi" [4].

Chonsun obrazida ayollik sha'nini asrashga intilayotgan koreys ayolining milliy qiyofasi namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar va an'analarga qat'iy amal qilib yashagan Chonsun uchun erining bu xatti-harakatlari vaqt o'tgan sari odatiy hol kabi qabul qilina boshladi. Ayolning xotiralaridagi o'tgan umri davomida biror kun baxtli va quvonchga to'la kechgan emas. Butun umrini qaynona va eriga xizmat qilish, farzandlari tarbiyasiga bag'ishlagan ayol gohida erining xurmocha qiliqlarini oqlab ham qo'yadi:

"Shunday davrda yashashga to'g'ri kelgan bo'lsa, nima qilish mumkin? Hamma shunday yashardi...U davrlarda er boshqa ayol bilan ko'ngilxushlik qilishi uyat sanalmas edi" [5].

Bu yerda adiba qadimdan koreys jamiyatida qabul qilingan me'yorlarga ko'ra, ayol va kanizaklarning bir oilada tinch-totuv yashaganini yodga soladi. Darhaqiqat, bu masalaga bag'ishlab juda ham ko'plab asarlar yaratilgan, jumladan, birinchi katta hajmli asarlar asoschisi Kim Manjuning "Sa xonimning janub bo'ylab sargardonliklari" romanida bosh qahramon Sa xonim farzandi yo'qligi sababli o'zi eriga kanizak tanlaydi. Merosxo'rni dunyoga keltirgan kanizak bosh beka bo'lish uchun oila tartiblarini buza boshlagach, Sa xonim erining ishlariga zarar yetkazmaslik, obro'sini to'kmaslik maqsadida o'z ixtiyoriga ko'ra oilani tark etadi.

Muallif yaratgan Chonsun obrazi kitobxon ko'z o'ngida ayrim fazilatlar bilan Sa xonim obrazini gavdalantiradi. Patriarxal qonunlar doirasida tarbiya ko'rgan ayol eri va qaynonasiga qarshi birorta fikr bildira olmaydi, aksincha ularga tobe va itoatkor. Hatto qizining xotirasida

mahkam o'rmashib qolgan mana bu epizod bunga yorqin misol bo'la oladi: Inxe yoshligida otasining onasiga qilayotgan xiyonatlarini sezardi. Seuldan qaytgan ota uyda ziyofat uyushtirdi. Ziyofatda onasi erini qurshagan yengil tabiatli, ammo erining nazarida zamonaviy ayollarga dasturxon yozdi, ularni o'z qo'llari bilan pishirgan mazali taomlar bilan mehmon qildi, aniqrog'i majbur bo'ldi. Inxe ziyofat tugaguncha, devor ortida sovuq havoda o'tirishga majbur bo'ldi. U onasining bunday iztiroblarga, xo'rliklarga chidab yashashini, otasi tomonidan xo'rlanishlarini ko'rgisi kelmasdi.

Nazarimizda, Chonsun obrazi "Chxunxyan haqida"gi qissa qahramoni onasi obraziga ham o'xshab ketadi. Qizi hokimga bo'ysunishdan, unga kanizak bo'lishdan bosh tortganida, hokim qizni zindonga tashlash va savalashga buyruq beradi. Mazkur feodal qoloqlik davrida ayollar erkaklar tomonidan berilgan har qanday buyruqqa so'zsiz itoat qilishi kerak edi. Ammo Chxunxyan ilk bor bu itoatkorlikka qarshi bosh ko'tardi. Bu onaning quyidagi jumllarida ayon bo'ladi:

"Sening sodiqliging kimga kerak? Qanday dahshatli jazoga dosh berishga to'g'ri keldi! Gapimga kirib, hokimga kanizak bo'lishga rozilik berganingda, bunday bo'lma edi. Sening sodiqliging hech kimga kerak emas" [6].

Mumtoz davrda yaratilgan qissa qahramoni Chxunxyan ruhiyatida sodir bo'lgan yangi tafakkur kurtaklari XX asrning ikkinchi yarmiga kelib keng qanot yozdi. Inxe ham yoshligidan onasining itoatkorligi, hatto kasal holatida ham uy ishlarini bajarishi, otasining xiyonatini kechirib yashashiga ko'nika olmadi. Chxunxyan itoat qilmagani va keskin javobi uchun hokim tomonidan jazolangan bo'lsa, Inxe onasining yonini olgani uchun otasi yuziga tarsaki soldi. Bu avval boshda aytib o'tilgan sovuq ota va qiz farzandi o'rtasida kuchayishiga ta'sir ko'rsatdi.

Dastlab Inxe onasi bergan tarbiyaga ko'ra, itoatkor, bo'ysunuvchan bo'lib ulg'aydi. U otasining xiyonati haqida biror marotaba og'iz ochib gapirmasa-da, onasining ichki iztiroblarini qalban his qiladi, go'dakligida kasal bo'lib, otasini uyga qaytishga majbur qilgan qizaloq xuddi "onasining holatini his qilgandek" edi. Ammo talabalik yillarida ilk bor otasiga qarshi farzand sifatida emas, bir ayol kabi keskin javob berishi, qizning hayotga, oilada ayolning o'rniga bo'lgan qarashlari o'zgarib boshlaganidan dalolat beradi:

"Oila, nikoh... Mana shu tushunchalarni asrash uchun u har kuni ruhan cho'kardi. Umuman, bu kenglik ustiga ikki qism-er va ayoldan iborat tom qo'yilishi lozim. Ana shunda bu kenglik mustahkam imoratga aylanadi. Ammo nima uchun u bir o'zi azoblardan qiynalib, o'zini ikki bo'lakka bo'lib bu kenglikni saqlab qolish uchun kurashishi lozim? Shu yo'l bilan qurilgan oila axloqiy ramkaga solingan navbatdagi bir uya bo'ladi, xolos. Onasi aytganidek, u qizini o'ziga o'xshatib tarbiyaladi, qizi ham o'z navbatida bunga amal qiladi. Ammo bu itoatkorlik, xo'rliklarning oxiri bormi, yoki bu ayollik qismatimi?" [7].

Inxening xayolidan kechgan bu fikrlar mumtoz davrda yaratilgan "Chxunxyan haqida qissa" bosh qahramoni Chxunxyaning hokimga bergan javobini yodga soladi:

"Qadimda: "Sodiq fuqaro ikki podshoga xizmat qilmaydi, bokira ayol ikki marta erga tegmaydi", deyishgan. Boshimizga kulfat tushib, mamlakatimiz isyonchilar hukmi ostida qolsa, siz, hokim, ularning oldida bosh eggan bo'lardingiz" [8].

Aslida Chxunxyan ijtimoiy vaziyatdagi o'rmini inkor etgan holda, oddiy bir ayol sifatida o'z muhabbati uchun kurashadi. Lekin bu kurashning zamirida kisenlarning ham ayollik haq-huquqlari, ongidagi o'zgarishlari yotadi. Bu adabiyotshunos olim U Jo'raqulov bildirgan fikrlarda o'z tasdig'ini topadi:

"Mening tasavvurimdagi hikoya nainki davr, ijtimoiy muhit, millat, adabiy doira, mualliflarning almashinuvi bilan,

balki muayyan ijodkorda yosh, ruhiyat, kayfiyatning o'zgarishi bilan ham tamomila boshqacha shakliy-mazmuniy mohiyat kasb etishi mumkin. Shu ma'noda biz hikoya janri haqida so'z yuritayotganda uning originalligi ostida o'tmish, tarixiyli ostida kelajak namoyon bo'lishi mumkinligini nazarda tutishimiz lozim" [9].

Inxe maktabni yuqori ko'rsatkichlar bilan yakunladi, mazkur davr yoshlari kabi poytaxt shaharga o'qishga borishni orzu qildi, bunga erishdi ham. Ammo onasini yolg'iz tashlab ketishga hamda ortiqcha sarf-xarajat qildirishga ixtiyor qilmadi. Chunki ukasi ham Seul shahridagi oliy o'quv yurtiga o'qishga qabul qilining edi. Shu sababli u o'z shahrida o'qishni davom ettirdi.

Adiba qizning tafakkuridagi o'zgarishlarni ko'rsatish uchun turmushga chiqish epizodini kiritadi. Mazkur davr yoshlari kabi Inxe ham sevishib turmush quradi. Muallif juda ham mohirlik bilan bo'lajak kuyov xarakterini quyidagi satrlarga joylaydi:

"Sen haqiqatan mukammal insonsan. Sen bilan birga bo'lgan chog'imda xuddi hozirgina toat-ibodat qilgan odamga o'xshayman, qalbm orom oladi va xotirjam tortaman" [10].

Inxening otasi ham har doim uydan ko'ngli to'q edi. Chonsun hech qachon uy ishlaridan nolimas, kam-ko'stini aytib erining jahlini chiqazmas, hatto erining tadbirkorlik ishlari orqaga ketganida uni bu vaziyatdan qutqargan ham edi. Ammo u churq etmasdi. Inxening eri esa vaqt o'tishi bilan "aqlli ayol" bilan yashashdan charchadi. Har ikki erkak faqat o'zi uchun yashadi, o'z manfaatlarini doirasida harakat qildi.

Yosh oila Seulga istiqomat qilish uchun ketdi. Ona qizining poytaxt shahardagi hayotidan bexabar. Ammo otasi og'ir xastalikka chalinganida yetib kelgan qizining zuhuridagi o'zgarishlarni onalik qalbi bilan tez ilg'adi. Bu yo'l charchog'i emas edi. Otaning so'ngi nafasi oldidan adiba hikoya boshida kitobxon uchun sirli bo'lgan haqiqatni ochadi-tugunning yechimini ko'rsatadi:

"Inxe o'rnidan dast turdi. Palatadan chiqib ketar ekan, u Inxoga bir og'iz shunday dedi: "Bir oydan ortiq vaqt oldin biz kelishgan holda ajrashdik". Uning ortidan palataga sovuq shamol yendi. Palatada suv quygandek jimlik cho'kdi. Mana shu onda oilaning so'nggi xotirjamligidan darak beruvchi uchunchi belgi ham ovoz berdi. Chonsunning eri yotgan krovatdan qush ovozigina o'xshash qandaydir tovush eshitildi. Qo'rqib ketgan Chonsun o'zini krovatga tashladi, Inxo (ukasi) navbatchi vrachni chaqirib kelish uchun palatadan yugurib chiqib ketdi" [11].

Onaning yoshlik davri konfusiychilik me'yorlariga qat'iy amal qilib yashash davriga to'g'ri kelgani bois u barcha azoblariga bardosh berib yashadi. Ammo qizi Inxe zamonaviy ta'lim oldi, ko'p kitob o'qidi, erkin fikr-mulohaza yuritishni o'rgandi, adabiy tanlovlarning mutlaq g'olibiga aylandi. Shu sababli ham adiba ayollar tafakkuridagi o'zgarishlarni Inxe obraziga joylashtirar ekan, ayollar uchun savodxon bo'lishning rolini oshirib ko'rsatadi.

In Xigyonning hikoyasida barcha voqea-hodisalar "baxtsizlik, g'amgin" qish faslida, "Chxunxian haqida qissa"da esa "yashash, yasharish, mehnat qilish, uyg'onish" bahor fasli fonida tasvirlanadi. Qish faslida tug'ilgan Inxening taqdiri go'dakligida onasi aytgan: "Dunyoga kelgan kundan boshlangan azob haqida gapirsam, demak, bu senga ham tegishli", Chxunxian taqdiri esa: "...bahor quyoshining hayotbaxsh nurlaridan bahra olibdi" jumlasiga singdirib yuborilgan.

ADABIYOTLAR

1. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir (Oybek, A. Qodiriy, A. Qahhor va S. Ahmad prozasi asosida). – Toshkent, 1973. 49-bet.
2. O'zbek adabiy tanqidi. [antologiya] / tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi B. Karimov. – T.: "Turon-iqbol", 2011. Solijonov Y. Detallar tilga kirganda. 209-bet.

In Xigyon o'z hikoyasini "Duet" deb nomlagan. Hikoya mavzuida adibaning fikr va maqsadi uyg'unlashib ketgan. Izohli lug'atda bu so'zga "ikki musiqa asbobi yoki ikki xil ovoz bilan ijro etiladigan musiqa asari" deb ta'rif berilgan. Bir tomondan, ona va qizning qismati o'xshash, ikkinchi tomondan, ularning hayoti qish fasli kabi g'amgin kuydan iborat. Ona g'amgin kuy ohangida o'tgan umriga achinmaydi. Inxe g'amgin kuyni sobiq sinfdoshini uchratgan chog'ida biroz unutadi:

"Nimagadir gaplashish ohangi qo'polligi haqida biror narsa deyish qiyin, ammo hayotida qandaydir o'zgarishlar ro'y beradiganga o'xshardi, bu Inxega yoqadigandek tuyulardi" [12].

Chonsun qalbida azob bilan birga qiziga bo'lgan ishonch ham mavjud. Bu uning ayollarga xos donoligi, oqilaligi, hayot bilan murosa qila olishidan darak beradi. Inxe ham hayotda "hammasi yaxshi bo'lishiga" ishonadi.

"– Xo'sh, endi qanday yashamoqchisan?"

– Bezovta bo'lmang, ona. Hammasi yaxshi bo'ladi...

Chonsun bu gaplarni ikkincha marotabi eshitishi. Qizi "Ona, ishlarimning hammasi yaxshi bo'ladi", degan edi. To'y sayohatiga ketish oldidan yuzlari baxtga to'lgan holda gapirgan edi. Oradan qancha vaqt o'tdi, mana u yana shu jummalarni takror aytdi. O'sha paytda bu so'zlarni eshitish Chonsun uchun og'ir bo'lgan edi. Ammo hozir, shu jummalarni yuzida baxt aks etmagan holda takror aytgan Inxega qarab o'tirar ekan, Chonsun qizining qarashlarida o'ziga bo'lgan ishonchni ko'rdi" [13].

Balkim, bu ishonch Xyonsok bilan uchrashuvdan keyin paydo bo'lgandir. Bu uchrashuv unga o'zini haqiqiy ayol kabi his etishga yordam berdi, yaxshi kelajak uchun umid uyg'otdi. Ona o'zi hech qachon his etib ko'rmagan, balki tan olgisi kelmagan "o'ziga bo'lgan ishonch" tuyg'usi aksini qizida ko'rdi.

Xulosa. Mazkur hikoyada bosh qahramonlar sifatida olingan ikki ayol-sabr bilan yo'g'rilgan, oqila va mehribon, farzandlarining kelajagi va oilasining tinchligi uchun har qanday qurbonlikka tayyor ona; an'anaviy patriarxal oilada tarbiya topganligiga qaramasdan oilaviy munosabatlarga yangicha nazar bilan qaraydigan qiz. Inxe yoshligidan ichididan otasining qilmishlarini qoralaydi, talabalik chog'larida esa otasining onasiga nisbatan qo'pol munosabati, oilada inson o'rnida ko'rmasligiga qarshi ochiq-oydin o'zining fikrini bildiradi, va, nihoyat, turmushga chiqib va eri bilan yetti yil birga yashagach, onasining qismatini takrorlamaslik uchun ajrashishga ahd qiladi. Bu juda ham og'ir va mushkul ish edi. Chunki jamiyatda ham, oilada ham ajrashgan ayolga nisbatan munosabat keskin edi. Ammo Inxe bundan cho'chimadi, bu tanlovni faqat o'zligini anglab yetgan zamonaviy ayolgina amalga oshirishi mumkin edi. U o'z yo'lini tanlash huquqiga ega, u oilada sevish va baxtli bo'lishga haqli, oilaviy munosabatlarni faqat samimiy muhabbat va o'zaro hurmat asrab qoladi.

In Xigyon qahramonlar xarakterini yaratishda va uning ruhiy olamini ochishda zo'raki tasvirlarga o'rin qoldirmaydi, voqealar rivojiga aralashmaydi, balki bu vazifani hikoyachi zimmasiga yuklaydi. Shu bilan birga adiba hikoyada ayollarning iztiroblarga to'la shaxsiyat dinamikasini shakllantirishga muvaffaq bo'lgan. Bu adibaning o'ziga xos uslubidan dalolat beradi.

3. Li San Yun “Рассказ в творчестве современных писательниц Республики Корея (Пак Вансо, Син Кёнсук и Ын Хигён)”. – Sankt–Peterburg: 2007. 163-bet.
4. Li San Yun “Рассказ в творчестве современных писательниц Республики Корея (Пак Вансо, Син Кёнсук и Ын Хигён)”. – Sankt–Peterburg: 2007. 163-bet.
5. Li San Yun “Рассказ в творчестве современных писательниц Республики Корея (Пак Вансо, Син Кёнсук и Ын Хигён)”. – Sankt–Peterburg: 2007. 168-bet.
6. 춘향전의 비밀 설성경.-서울:대학교출판부. 2001. 392.쪽.
7. Li San Yun “Рассказ в творчестве современных писательниц Республики Корея (Пак Вансо, Син Кёнсук и Ын Хигён)”. – Sankt–Peterburg: 2007. 168bet.
8. 춘향전의 비밀 설성경.-서울:대학교출판부. 2001. 392.쪽.
9. Jo'raqulov U. “Ummon sog'inchi” So'z boshi. “XX asr jahon hikoyasi”. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2009. 5–bet.
10. Li San Yun “Рассказ в творчестве современных писательниц Республики Корея (Пак Вансо, Син Кёнсук и Ын Хигён)”. – Sankt–Peterburg, 2007. 165-bet.
11. Li San Yun “Рассказ в творчестве современных писательниц Республики Корея (Пак Вансо, Син Кёнсук и Ын Хигён)”. – Sankt–Peterburg: 2007. 167-bet.
12. Li San Yun “Рассказ в творчестве современных писательниц Республики Корея (Пак Вансо, Син Кёнсук и Ын Хигён)”. – Sankt–Peterburg: 2007. 170-bet.
13. Li San Yun “Рассказ в творчестве современных писательниц Республики Корея (Пак Вансо, Син Кёнсук и Ын Хигён)”. – Sankt–Peterburg. 2007. 171-bet.



UO'K: 316.61:373.5:94:372.36(575.1)(043.3)

Dilraxon ABDURAXMONOVA,
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: abdurakhmonova.dilrabokhon@inbox.ru

NamDU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) A.X. Tursunov taqrizi ostida

**“BOBURNOMA”NING NEMISCHA TARJIMALARIDA AYOL SIYMOSINI QAYTA YARATISH USULLARI
XUSUSIDA (H. DALOV VA V. STAMMLER TARJIMALARI MISOLIDA)**

Annotatsiya

Maqolada jahon adabiyotining buyuk durdonasi hisoblangan “Boburnoma”da ayollar tasviri, ularning olmon tarjimonlari V. Stammeler va H. Dalovlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarida ayol siymosini qayta yaratish usullari haqida fikr yuritilgan. Hayot ko'zgusi bo'lmish adabiyotda ayolning alohida mavqeyi mavjudligi, shuningdek hukmdorlarning hayotida, olamshumul zafarlarida, ravnaqi va hatto inqirozida ham malikalar katta o'rin tutganligi, tarjimalar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tarixiylik, malikalar, ayol siymosi, katta unvonlar, ilm sohibasi, yomon fe'lli, qaysar ayollar, vaysaqi xotin, badiiy adabiyot.

**О СПОСОБАХ ВОСПРОИЗВЕДЕНИЯ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА В НЕМЕЦКИХ ПЕРЕВОДАХ "БАБУРНАМЕ"
(НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕВОДОВ Х. ДАЛОВА И В. ШТАММЛЕРА)**

Аннотация

В данной статье рассматривается образ женщины в «Бабурнаме», который считается великим шедевром мировой литературы, и методы воссоздания образа женщины в их переводах немецких переводчиков – В. Штаммлера и Х. Далова. Существование особого положения женщины в литературе, являющейся зеркалом жизни, а также тот факт, что королевы играли большую роль в жизни правителей, в их всеобщих триумфах, в их процветании и даже в их кризисах, были проанализированы с помощью переводов.

Ключевые слова: Историчность, принцессы, женский образ, великие титулы, ученый, плохой глагол, упрямые женщины, отважные жены, вымысел.

**ON WAYS OF REPRODUCING A FEMALE IMAGE IN GERMAN TRANSLATIONS "BABURNAME" (BY THE
EXAMPLE OF THE TRANSLATIONS OF H. DALOV AND V. STAMMLER)**

Annotation

This article discusses the image of a woman in "Baburnam", which is considered a great masterpiece of world literature, and the methods of recreating the image of a woman in their translations by German translators - V. Stammeler and H. Dalov. The existence of the special position of women in literature, which is the mirror of life, and the fact that queens played a large role in the lives of rulers, in their general triumphs, in their prosperity and even in their crises, have been analyzed through translations.

Key words: Historicity, princesses, female image, great titles, scholar, bad verb, stubborn women, brave wives, fiction.

Kirish. Tarixdan ma'lumki, qadim davrlardan beri insoniyat ayol shaxsiga doim hurmat va cheksiz ehtirom ko'rsatib kelgan. Buning boisi ayolga hayot gultoji va oila bekasi sifatida qarashlarning keng tarqalganligidir. Boshqacha ifodalaganda, qadimiy falsafiy tasavvurlarga ko'ra ayol birinchidan, ona, ikkinchidan, mahbuba, uchinchidan, erkaklarni sehrlaydigan va yo'ldan ozdiradigan “mahluq” sifatida gavdalangan [1].

Arxaik madaniyatlarda ayollik negizi hayotbaxshlikni mujassamlashtirgan va muqaddas maqomini olgan. Hind asotirlarida ayollik fazilatlar bilan bog'lanadi, ya'ni ayol timsoliga yaratuvchilik quvvati sifatida qaraladi. Masalan, Oliy ma'bud Shivaning rafiqasi erga sadoqat va ehtirosning, vayron qiluvchi va yaratuvchi kuchning mujassami hisoblanadi [2. B. 89].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ayol to'g'risidagi qarashlar va tabular barcha jahon dinlarida mavjud bo'lib, masalan, nasroniylikda ayol la'natlangan birinchi jonot sifatida gavdalangsa, Avesto'da oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq solish xususida ham diqqatga sazovor mulohazalar mavjud. Shuningdek, xotin-qizlar haq-huquqini e'zozlash, oila daxlsizligi va mustahkamligiga erishish, otanonaning farzand oldidagi, farzandning ota-ona oldidagi burchi,

farzandlarni oila qurishga tayyorlash va ko'plab turmush an'analariga oid fikr mulohazalar bayon etilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola umumqabul qilingan metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik va ilmiy xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Qanday davrda, qanday davlatda yoki jamiyatda tug'ilgan bo'lsa-da, ayol o'z ichki olami, ziddiyatlari va murakkabligi bilan bir-biriga o'xshashdir. Ayol har qanday sohada, har qanday faol qatlamda o'z o'rniga ega. Ayniqsa, hayot ko'zgusi bo'lmish adabiyotda ayolning alohida mavqeyi mavjud.

O'z navbatida, badiiy adabiyotda ayol obrazi yetakchilik qiladigan, butuni bo'yicha namoyon bo'ladigan asarlar sifatida Lev Tolstoyning “Anna Karenina”, Margaret Mitchellning “Shamollarda qolgan hislarim”, Chingiz Aytmatovning “Jamila”, Lermontovning “Demon” va Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi”ni e'tirof etish mumkin. Ko'rib turganimizdek, ayol obrazi adabiyotda hech qanday sarhad bilmaydi, xoh realizm, xoh romantizm bo'lsin, barchasida ayol yetakchilik qiladi [4. B. 31].

Insoniyat adabiy tafakkuri hech qachon muhabbat haqidagi sof tushunchani jinslarning tavsiflovchi nomlariga qaratmagan. Balki, muhabbatni poklik va poklanishning

o'ziga xos fazilatlarini bo'lgan Anaxitaga o'xshatish bizning uzoq ajdodlarimiz "sevgi" va "ayol" tushunchalarini o'ylab topganligining ifodasidir.

Tarixdan ma'lumki, har bir buyuk inson ortida buyuk ayol turadi. Xususan, hukmdorlarning hayotida, olamshumul zafarlarida, ravnaqi va hatto inqirozida ham malikalar katta o'rin tutgan. Zahiriddin Muhammad Boburning katta ayoli Mohim begim ham temuriylar tarixidagi nihoyatda xushxulq, teran ilm sohibasi bo'lgan malikalardan biri edi. Tarixiy manbalarda Mohim begimning ota-onasi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Ammo, uning XV asrning oxirlarida Xurosonda tug'ilgani taxmin qilinadi. Bobur ham "Boburnoma" da Mohimni nikohiga olgani haqida yozarkan, qizning oilasi haqida to'xtalmagan. Ayrim tarixchilar Mohim begim Xost shahri hokimi Xoja Muhammad Alining singlisi bo'lganini aytishadi. Boburning o'zi ham tez-tez bu shaharga borib turar, uning bir qancha farzandlari shu yerda tug'ilgan edi

1506-yilda Xuroson hukmdori Husayn Boyqaroning o'limi munosabati bilan bu shaharga kelgan Bobur Mirzo Mohim begimni uchratib qolgan va uni nikohiga olgan. Mohim begimning oilasi Husayn Boyqaro xonadoniga aloqador bo'lishi ham mumkin. Mirzo Bobur har sohada Mohim begimga suyanar, fikrlarini tinglab, oilaviy muhitning nazoratini unga topshirgan edi. Shunisi e'tiborga loyiqki, Bobur o'zining sevimli rafiqasi Mohimbegim bilan chiqargan har bir farmonini maslahat qilardi. Unga Boburiylar saltanatidagi eng katta unvonlardan biri – "Podshoh begim" unvoni beriladi.

Jahon adabiyotining noyob durdonalaridan biri bo'lgan "Boburnoma"da ayollar obrazi alohida mahorat bilan tasvirlangan. Biz tadqiqot ishimizning hususiyatidan kelib chiqib "Boburnoma" ayollar tasvirini nemis tilida qayta berilishiga e'tibor qaratib, ayrim tahlillarni keltirmoqchimiz.

Asarda keltirilgan quyidagi matnga to'xtalsak, "Avval olgan xotini Beka Sultonbegim edi. Sanjar mirzo Marviyning qizi edi. Badiuzzamon mirzo undan tug'ilgan. Xulqi juda egri edi. Sulton Husayn mirzoni ko'p ranjartardi. Xulqi yomonligidan mirzo bezor bo'ldi, oxiri qo'ydidi va xalos bo'ldi. Nima qilsin, haqiqat mirzo tomonida edi.

Zani bad dar saroi mardi vako',

Ham dar in olam ast do'zaxi o'. (Sa'diy Sheroziy)

Mazmuni:

Yaxshi er uyida yaramas xotin,

Shu dunyoda erning do'zaxi tayin.

Tangri hech musulmonga bu baloni solmasin. Yomon fe'lli, xulqi egri xotin, iloho, olamda qolmasin" [5. B. 138].

Mazkur matn nemischada yani V. Stammler tomonidan quyidagicha tarjima qilinadi: Die erste die Sultan Husayn Mirza zur Frau nahm war Bege Sultan Begim, eine Tochter des Sultan Sanjar von Marv. Sie war es, die ihm Badiuzzaman Mirza geboren hatte. Sie hatte einen schwierigen Charakter und fügte Sultan Husayn Mirza viel Leid zu. Als das Maß voll war, verstieß er sie und befreite sich von ihr. Was hätte er auch anderes machen können? Das Recht stand auf seiner Seite.

Ein böses Weib in eines guten Mannes Haus

Macht ihm allein schon diese Welt zur Hölle.

Möge Gott einen jeden Moslem vor solchem Mißgeschick bewahren! Möge er alle eigensinnigen und störrischen Weiber, aus der Welt verbannen! [6].

Mazmuni: Sulton Husayn Mirzo birinchi xotinlikka olgan ayol Marvning Sulton Sanjarining qizi Sulton Begim edi. U unga Badiuzzamon Mirzoni tug'ib berdi. Uning karakteri og'ir va Sulton Husayn Mirzoga ko'p azob keltirdi. Toqati toq bo'lgach, u uni ruhsatini berdi va undan qutildi.

Boshqa nima ham qilishi mumkin edi? Huquq u tomonida edi. Yaxshi erning uyidagi badxulq ayol unga bu dunyoni jahannamga aylantiradi. Alloh har bir musulmonni

bunday ko'rgulikdan asrasin! Bunday qaysar ayollar yer yuzidan qirilib ketsin!

H. Dalov esa ushbu tarjimani quyidagicha amalga oshirgan: "Seine erste Frau war Bike Sultan Bikim, eine Tochter Sultan Sandjars von Merv. Sie gebar ihm Badi'az-Zaman Mirza. Sie hatte einen streitbaren Charakter. Ihm war ihre Widerspenstigkeit zuwider. Er befreite sich von ihr, indem er sie verließ. (169a) Was hätte er auch anderes machen können? Das Recht stand auf seiner Seite.

Ein böses Weib in eines guten Mannes Haus

Macht ihm allein schon diese Welt zur Hölle.

Möge Gott einen jeden Moslem vor solchem Missgeschick bewahren! Möge er alle Weiber, die im Kopf Hummeln haben und zanksüchtig sind, aus der Welt verbannen! [7].

Mazmuni: Uning birinchi ayoli Marvning Sulton Sanjarining qizi Sulton Begim edi. U unga Badiuzzamon Mirzoni tug'ib berdi. U urushqoq karakterli edi. Unga uning qaysarligi haddan ortdi. U uni tark eitsh orqali undan qutildi. Boshqa nima ham qila olardi? Huquq u tomonida edi.

Yaxshi erning uyidagi badxulq ayol unga bu dunyoni jahannamga aylantiradi. Alloh har bir musulmonni bunday ko'rgulikdan asrasin! Miyyasiga qurt tushgan va urushqoq ayollar yer yuzidan yo'qolsin!

Ta'kidlash joizki, "Boburnoma"ning H.Dalov talqinidagi tarjimasi ham mukammal amalga oshirilgan. Tarjimon asarni to'la qamrab olish barobarida asliyatni olmon o'quvchisiga adekvat tarzda yetkazib berishga harakat qilgan. Biroq mutarjim tarjima jarayonida ayrim o'rinlarda asliyatning xiralashishiga yo' qo'ygan. Masalan tarjimon "Yomon fe'lli, xulqi egri xotin" borasida bir oz yangilish tarjima qilganligini aytib o'tish lozim. "Miyyasiga qurt tushgan va urushqoq ayol" o'rniga "Doim janjal qiladigan, yomon xulq-atvorli xotin" deb berilisa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu borada V. Stammler tarjimasi asliyatga yaqinroq amalga oshirilgan. Haqiqatdan ham, ota-bobolarimiz "Yomon xotin eriga do'zax qilar", deb bejiz aytishmagan.

Yana bir misol; Yana, Xadichabegim edi. Sulton Abusaid mirzoning g'unchachisi edi. Mirzodan Oqbegim ismli bir kizi bor edi. Iroqda Sulton Abusaid mirzo yengilganidan so'ng Hirotda keldi. Hirotda Sulton Husayn mirzo oldi va sevdi. G'unchachilik martabasidan begimlik martabasigacha yetishdi. Keyinchalik ham bosh begim shu edi. Muhammad Mo'min mirzoni uning sa'y-harakati bilan o'ldirdilar. Sulton Husayn mireoning o'gillari yovlashdilar. Kuprog'i shu ayol tufayli edi. O'zini oqila tutar, lekin beaql va vaysaqi xotin edi. Rofiziya (shia) ham ekan. Shohg'arib mirzo bilan Muzaffar Husayn mirzo undan tugilgan edi.

V. Stammler tarjimasi: Eine andere Frau, Khadija Begim, war zuvor die Beischläferin von Sultan Abu Said Mirza gewesen, von dem sie eine Tochter namens Ag Begim hatte. Nach der Niederlage Sultan Abu Said Mirzas in Iraq kam sie nach Herat, wo Sultan Husayn Mirza sie zur Frau nahm und sie sehr liebte. Er erhob sie vom Rang einer Konkubine in den einer Begim. Später gewann sie große Macht und Ansehen. Die Ermordung von Muhammad Mumin Mir-za geschah auf ihr Betreiben hin. Sie war es auch hauptsächlich, die die Söhne des Mürzas dazu anstachelte, sich gegen ihren Vater zu empören. Sie hielt viel auf ihre Klugheit, war dabei aber nur ein verleumderisches, törichtes Weib und muß wohl auch eine Ketzerin gewesen sein. Sie gebar Schah Gharib Mirza und Muzaffar-i Husayn Mirza [8].

Mazmuni: Boshqa bir ayoli esa Sulton Abu Said Mirzoning sobiq yostiqdoshi va undan Ag Begim ismli qizi bo'lgan Hadicha Begim edi. Sulton Abu Said Mirzoning Iroqdagi mag'lubiyatidan so'ng u Hirotda keladi va Sulton Husayn Mirzo uni xotinlikka oladi va uni juda sevib ardoqlaydi. U uni kanizak darajasidan begim darajasigacha ko'taradi. Keyinchalik u hokimiyatga ham ega bo'ladi.

Mirzoning o'g'illarini otasiga qarshi borishga undaganlarning boshi ham u edi. U o'zini aqlli sanagan, aslida esa tuhmatchi, yolg'onchi va bid'atchi ayol edi. U Shoh G'arib Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzolari dunyoga keltirdi.

X. Dalov tarjiması: Eine andere hieß Khaditscha Bikim. Sie war zuvor eine Beischläferin von Sultan Abu Sa'id Mirza gewesen. Sie hatte von ihm eine Tochter namens Aq Bikim.

Nach der Niederlage Sultan Abu Sa'id Mirzas in Iraq kam Khaditscha Bikim nach Herat, wo Sultan Huseyn Mirza sie zur Frau nahm und sie sehr liebte. Er erhob sie vom Rang einer Beischläferin in den einer Bikim. Später gewann sie große Macht. Auf ihr Drängen wurde Muhammed Mu'min Mirza ermordet. Hauptsächlich ihretwegen erhoben sich die Söhne Sultan Huseyn Mirzas gegen ihren Vater. Sie hielt viel auf ihre Klugheit, war jedoch ein unvernünftiges und schwatzhaftes Weib und muss wohl auch eine Ketzerin gewesen sein. Sie gebar Schah Gharib Mirza und Muzaffar Huseyn Mirza [9].

Mazmuni: Yana boshqasi Hadicha Begim edi. Oldin u Sulton Abu Said Mirzoning yostiqdoshi bo'lgan edi. Va u undan Oq Begim ismli qizni dunyoga keltiradi.

Sulton Abu Said Mirzoning Iroqdagi mag'lubiyatidan so'ng u Sulton Husayn Mirzo uni xotinlikka oladigan va sevib-ardoqlaydigan Hirotga keladi. U uni kanizak darajasidan Begim darajasigacha ko'taradi. Keyinchalik hokimiyatga ham ega bo'ladi. Uning bosimi bilan Muhammad Mo'min Mirzo o'ldiriladi. Asosan u tufayli Sulton Husayn Mirzoning o'g'illari o'z otalariga qarshi borishadi. U o'zini aqlli sanardi, aslida esa uzoqni ko'ra olmaydigan, g'iybatchi va bid'atchi ayol edi. U Shoh G'arib Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzolari dunyoga keltiradi.

Xadichabegim haqida fikr bildirilar ekan, u o'zini oqila tutar, lekin beaql va vaysaqi xotin bo'lganligi ta'kidlanadi. H.Dalov tarjimini aniq va yorqin tarjima qiladi.

Tarixiy va adabiy manbalardan ma'lumki, Mohim begim Bobur Mirzoning didiga munosib ayol edi. Mohim begim Boburning ko'plab safarlarida unga hamrohlik qilgan. Mohim begim Humoyundan keyin yana ikki o'g'il va ikki qiz – Borbul, Foruq, Mehr-Jahon begim va Eson Davlat begim ismli farzandlarni dunyoga keltirgan bo'lsa-da, ular go'dakligidayoq nobud bo'lgan.

Bobur hatto boshqa ayoli dunyoga keltirgan farzandlarining tarbiyasini ham Mohim begimga ishonardi. Mohim begim zukko, kamtarin va sabrliqligi bilan ajralib turardi. U o'g'li Humoyun Mirzoni nihoyatda zehni, jasur va mard etib tarbiya qilgan, shu sababli Boburning hurmatiga, cheksiz e'tiboriga sazovor bo'lganki, Bobur kichik ayoli – Dildor og'acha dunyoga keltirgan ikki farzandi – Hindol va Gulbadanbegimni ham Mohim begim tarbiya qilishini istagan.

O'z navbatida Gulbadanbegim ham o'zining akasiga bag'ishlab yozgan "Humoyunnoma" asarida Mohim begimni alohida hurmat va ehtirom ila tilga oladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Bobur Hindistonning katta qismini egallaganidan so'ng, Kobuldan Mohim begimni olib kelish uchun bir qancha o'tliqlar va qorovullarni yuboradi. Malikaning yaqinlashib qolgan eshitgan Bobur mirzo tezda uning istiqboliga oshiqadi. U hatto otini egarlashlarini ham kutmasdan yarim farsax (taxminan to'rt chaqirim) yo'lni piyoda bosib o'tadi. Nihoyat olisidan Mohim begimning mahofasi ko'rinadi. Buyuk hukmdor uning istiqboliga piyoda kelayotganini ko'rib Mohim begim ham mahofadan tushadi va Bobur tomon yuguradi.

Ma'lumki, 1530-yil 30-dekabrda Bobur vafot etadi. Uning katta o'g'li Humoyun yigirma uch yoshida taxtga o'tiradi. U onasini hamisha boshiga ko'tarar, uning maslahatlariga amal qilardi. Biroq, Mohim begim erining vafotidan so'ng yana to'rt yil yashaydi va 1534-yil 28-martda Agra shahrida dunyodan o'tadi [10].

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, jahon adabiyotining buyuk durdonasi hisoblangan "Boburnoma"da ayollar tasviriga alohida e'tibor bilan yondashilgan. Chunki, o'sha davr jamiyatida ayollarning roli ham anchagina yuqori bo'lib, ular hukmdorlar, ya'ni turmush o'rtoqlariga mahorat bilan ta'sir o'tkaza olgan. "Boburnoma"da tilga olingan bunday ayollar sirasiga Xonzodabegim, Mohimbegim, Qutlug' Nigorxonim, Malika Bayda va ayollarni kiritish mumkin.

O'z navbatida, "Boburnoma" bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan ko'plab tadqiqotchilar ham mazkur asarda keltirilgan ayol siyosi, ularning tashqi ko'rinishi, ichki kechinmalari yuzasidan o'z fikrlarini bildirishgan. Bu esa "Boburnoma" nafaqat Sharq, shu bilan birga G'arb tadqiqotchilarining ham doimiy e'tibor markazida bo'lib kelganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. Аширов А. А. "Авесто"дан мерос маросимлар. – Тошкент: Халқ мероси, 2001. – Б. 24.
2. Халмуратов Б. Р. Фарғона водийси аҳолиснинг қадимий диний эътиқодларида аёл талқини // Ўзбекистон тарихи. – 2014. – №2. – Б. 89.
3. Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий диний эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007. – Б. 56.
4. Ҳайитбоева Т. XX аср турк ва ўзбек адабиётида аёл талқини (Рашод Нури Гунтекиннинг "Чолиқуши", Абдулла Қаҳҳорнинг "Нурли чўккилар", Хуршид Дўстмуҳаммаднинг "Маҳзуна" асарлари қиёсида) / "Беруний издошлари" мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. – Урганч, 2021. – Б. 31–33.
5. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1991. – Б. 138.
6. Stammer W. Verlag. Die Erinnerungen des ersten Grossmoguls von Indien Das Babur-nama. Ins Deutsche übertragen und mit einem Vorwort von Wolfgang. – Zürich, 1990. –P.14
7. Dalov H. Babur-name. Produktion und Herstellung: Pro-Business GmbH. – Berlin, 2022. – P. 12/15.
8. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.... Тошкент: "Шарқ"нашриёти, 2002 – Б. 159.



UDK:811.1

*Nargizaxon ABDURAHMONOVA,
Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi*

ADCHTI f.f.n.dotsent, Z.Kabulova taqrizi asosida

MAISHIY XIZMAT JIHOZLARINING QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMASI VA INTERPRETASIYA JARAYONLARI

Аннотация

Mazkur maqola nutq vositasida yaratiladigan san'at asari, matnda reallashadigan, lisoniy va nolisoniy omillar bilan yuzaga chiqadigan nutqiy faoliyatni yuzaga chiqaradigan diskursga mo'ljallangan. U ma'lum bir kontekstda, turli ijtimoiy guruhlar ichida sodir bo'ladi, aniqroq aytganda, diskurs ma'lum diskursiv amaliyotdan tashkil topadi.

Kalit so'zlar: Yo'riqnoma matni, asosiy diskursiv omillar, maishiy jihozlarga yozilgan yo'riqnoma

ИНСТРУКЦИЯ ПО ПРИМЕНЕНИЮ И ПРОЦЕССЫ ИНТЕРПРЕТАЦИИ БЫТОВОЙ ТЕХНИКИ

Аннотация

Данная статья предназначена для дискурса, представляющего собой произведение искусства, созданное с помощью речи, речевой деятельности, реализуемой в тексте, с языковыми и нелесциплинарными факторами. Это происходит в определенном контексте, внутри различных социальных групп, точнее, дискурс состоит из определенной дискурсивной практики.

Ключевые слова: Учебный текст, основные дискурсивные факторы, инструкции к бытовой технике, обучающие тексты к бытовой технике

APPLICATION INSTRUCTIONS AND INTERPRETATION PROCESSES OF HOUSEHOLD SERVICE EQUIPMENT

Annotation

This article is intended for a discursive work of art created by the means of speech, discursive activity that is realized in the text, which is brought to the surface by linguistic and nonlinear factors. It occurs in a certain context, within different social groups, more precisely, the discourse is formed from a certain discursive practice.

Key words: Instructional text, main discursive factors, instructions for household appliances, instructional texts for household appliances, instructional texts

Kirish. Diskurs – bu nutq vositasida yaratiladigan san'at asari, matnda reallashadigan, lisoniy va nolisoniy omillar bilan yuzaga chiqadigan nutqiy faoliyat. U ma'lum bir kontekstda, turli ijtimoiy guruhlar ichida sodir bo'ladi, aniqroq aytganda, diskurs ma'lum diskursiv amaliyotdan tashkil topadi.

Adabiyotlar tahlili. Diskursning lisoniy mohiyati Yu.S.Stepanovning quyidagi fikrlarida o'z ifodasini topgan: "Diskurs – til ichidagi tildir, u maxsus ijtimoiy shaklga solingan bo'ladi. Diskurs biror bir tilda bo'lganidek o'z "grammatikasi" va "lug'ati" sifatida ko'zga ko'rinmaydi. U o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega bo'lgan matnlarda yashaydi, uning maxsus lug'ati hamda so'z qo'llash usuli, noodatiy sintaksisi, o'zgacha semantikasi bo'ladi. Umuman olganda, har bir diskurs alohida olamdir"[1].

Tadqiqot metodologiyasi. "Diskurs" atamasiga yana bir yondashuv "Le nouveau Petit Robert" lug'atida shunday ifoda etiladi: "Diskurs – fikrni verbal ifodalash demak" [2].

Maishiy xizmat jihozlarining tahlil qilingan/o'rganilgan instruktiv matnlari (matn fragmetnlari) turli mazmun-mundariyasi hamda uslubiy o'ziga xoslikka ega bo'lishidan qat'i nazar umumlashtirib turuvchi belgilarga ega:

1. Tipik intensiya – biror bir holatda qanday harakatlanish (nima qilish /nimadan tiyilish) o'rgatiladi.

2. Tipik mundarija va uning kompozitsiyasi. Har bir yo'riqnoma mazmuni va kompozitsiyasining to'liqligi/noto'liqligiga ko'ra o'ziga xosligi bilan ajralib tursada, turg'unlik va dinamiklik freymlari munosabati bir xil emas. Turg'un freymda ularning har biri bilan bog'liq bo'lgan

harakat hamda agent, ob'ekt, predmet va adresatlar to'plami mavjud. Dinamik freym – ssenariyda ma'lum bir harakatni amalga oshirish, natijaga erishish uchun turg'un freymda ko'rsatilgan voqelik unsurlari, bajarilishi kerak bo'lgan harakatlar ketma-ketligini ko'rsatadi.

3. Adresat javob reaksiyasi tipik yakunlanganligi, natijada, yo'riqnoma ko'rsatilgan harakat amalga oshirishili talab qilinadi.

4. Tipik lisoniy ifoda vositalarini qo'llash.

Tahlillar va natijalar. I.R.Gal'peringa ko'ra, yo'riqnoma matni ifoda uslubida ko'rsatma berish usuli yetakchilik qiladi. Verbal axborot bilan birga muloqot ishtirokchisi presuppozitsiyasiga ham tayanadi. Mazkur tipik harakatlarni bajarish lozim bo'lgan bir vaqtda (umumiy vaziyatlar) bilan birga maishiy jihozlarni ishlatish bo'yicha yo'riqnoma mazmunida faqat eksplisit emas, balki implisit shakl ham kuzatiladi[3].

O.B.Sirotina esa, "Ritorik axborot tashuvchi matnda ko'rsatma berish ifoda uslubi tashqi strukturaga aylanadi, bunda muallif "harakatni amalga oshirishning nisbatan effektiv usulini ko'rsatishga intiladi" deb yozadi[4,78].

S.A.Kanashukning "Instruktivniy diskurs IT korporatsiyasi: sociolingvistik aspekt" mavzusidagi monografik tadqiqotida yuqori texnologiyali uskunalarni yo'riqnomalari xususiyatlari diskursiv aspektda tadqiq etilgan[5.]. Bunday yondashuvda instruktiv nutqiy makrokomponentlarining ahamiyatini aniqlash asosiy maqsaddir. Matn tuzishning umumiy qoidalarining yo'riqnoma matnida xususiy holat sifatida yuzaga chiqishini

baholash ham muhim. Shuningdek, asosiy diskursiv omillar transformatsiyasi, yuqori texnologiyali uskunalar bilan ishlashni tushuntirishda o'ziga xosliklarni aniqlash, bu mavzudagi yo'riqnoma matnlarini mukammallashtirish imkonini yaratadi. Tadqiqotda so'zlovchi lisoniy ifodalari (yangi funktsiya haqida axborot berish, uskunadan foydalanish mumkinligi haqida bilim berish va h.) asosiy intensiyasi tahlil qilinadi. Bunday matnlarda odatda, foydalanuvchi loyalligiga da'vat, tovar reklamasi ham kuzatiladi.

Tadqiqotchi ob'ekt sifatida umumiy qo'llanishda bo'lgan zamonaviy texnologiyalarga oid uskunalar yo'riqnomasi tanlangan. Tadqiqot ob'ekti materiali hajmi 80 ta bosma va 200 ta elektron shakldagi matni tashkil etadi. Shuningdek, elektron ma'lumotlar bazasidagi 2500 maqola, wiki-ensiklopediyadagi 1000 ta maqola qamrab olingan. Materialning umumiy hajmi 10000 sahifani tashkil etgan.

Ko'rinadiki, instruktiv diskurs tahlili uchun katta hajmdagi material talab etiladi. Biz tadqiqot doirasida turli sohadagi yo'riqnomalarni tanlaganimiz sababli har xil mahsulotlar yo'riqnomasini tanlaymiz.

Instruktiv diskurs matni, barcha lingvomadaniy matnlar kabi, jamiyatning qadriyatlarini modellashtiradi va o'zida mujassam etadi. Asosiy maqsadi bilan birga instruktiv matnlar ideologik plandagi maqsadini ham amalga oshiradi: iste'molchining loyalligini shakllantirish, korporativ va davlat madaniyati, matn reklamasi amalga oshiradi. Instruktiv diskurs matnlaridagi o'zgarishlarni tabiiy va sun'iy o'zgarishlarga ajratish mumkin.

Tadqiq ob'ekti sifatida bir necha maishiy texnika buyumlarini qo'llash yo'riqnomalari tanlandi: "Sokany" dazmoli, "INDESIT" muzlatgichi, "SUMSUNG" televizorini ishlatish yo'riqnomalari. Mazkur yo'riqnomalarning ayrimi bir tilli (ingliz tili), ayrimi ikki (rus va ingliz) va ko'p tilli (rus, o'zbek, qozoq) ekanligi bilan farqlanadi. Ta'kidlash kerakki, bu kabi buyumlar instruksiyasi oldingi bo'limda tahlil qilingan farmasevtik instruksiyalardan tuzishili, mazmuni va taqdim qilish shakli bilan farq qiladi. Dori vositalari yo'riqnomalari dori o'ramlarining ichida bir varaqqing oldi va orqasida ikki tildi yozilgan (A4 yoki undan katta formatda kichik shriftida yozilgan bo'ladi) bo'lsa, maishiy texnika buyumlari yo'riqnomalari buklet yoki kattaroq kitobcha shaklida bo'ladi.

O'zbek tilidagi bu tipdagi yo'riqnomalarda gapning kesimi 2-shaxsga qaratilgan bo'lib, buyruq maylida shakllantiriladi:

Ushbu qo'llanmani saqlab qo'ying!

Sovutkich bino ichida foydalanish uchun ishlab chiqilgan. Har qanday sharoitda ham sovutkichni ko'chada, garajda va hokazo joyda ishlatmang.

Himoya qo'lqoplaridan foydalaning!

Zich yopish qoplamasi shikastlanganda uni darhol almashtirish choralari ko'ring!

Qurilma nosoz holatida elektr toki urmasligi uchun muzlatkichga nam qo'lingiz bilan tegmang!

Ba'zan buyruq maylidagi fe'llar III shaxsda ifodalanadi:

Eshiklar yopiq tursin!

Bunday holatni (!) olidini olish uchun shunchaki termosozlagichni pastroq holatga sozlang, qurilma sovutish bo'limida hosil bo'lgan qirov avtomatik tarzda erisin.

Bunday gaplarda maylidagi birliklarning kesimi majhul nisbatda bo'ladi:

Portlovchi jismlar, xususan tez alanga oluvchi moddalar to'ldirilgan aerazol balonlar saqlanmasin!

Ishlab chiqariluvchi tomonidan kafolatli ta'mirlash vakolati berilmagan shaxslar tomonidan sovutkich konstruksiyasini o'zgartirish yoki boshqa o'zgartirishlar kiritish ta'qiqlanadi.

Qurilma o'rnatilganda havo aylanishi erkin bo'lishi uchun orqa va yon taraflaridan eng kamida 5 sm va yuqorisidan 10 sm masofa qoldirilsin.

Maishiy texnika jihozlari foydalanuvchisi yosh chegarasi keng bo'lganligi sababli bunday yo'riqnomalarda shaxsi umumlashgan gaplardan foydalaniladi: Uskuna jismonan, aqliy va sezgirlik jihatidan zaif kishilar, shuningdek, bolalar tomonidan ularning xavfsizligi uchun javobgar shaxs tomonidan nazorat qilinmagan yoki uskunadan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma berilmagan holda foydalanishga mo'ljallanmagan. Bolalarning uskuna bilan o'ynashlariga yo'l qo'yamaslik kerak.

Shuningdek, harakat nomi + kerak/lozim konstruksiyali egasi ma'lum gaplar ham ko'p qo'llanadi:

Kabel faqat malakali mutaxassis tomonidan almashtirilishi kerak.

Sovutkich ishlash jarayonida uning kondensator va kompressor qiziydi, shuning uchun yetarli darajada ventillyasiya bo'lishi kerak.

Sovutkich yaxshi shamollatiluvchi, namlik darajasi normal bo'lgan xonaga joylashtirilishi kerak.

Yo'riqnoma xavfsizlik qoidalarini, ogohlantirishni bildirgan o'rinlarda inson diqqatini tortuvchi so'zlar qo'llaniladi:

Shuning uchun uning har bir kitobi juda ajoyib xususiyatga ega, "Jeyn Eyr", "Vilet" va "SHerli"ning eng yaxshi qismlari shunchaki badiiy mashqlar emas, balki yurakning yig'isi; qasddan o'z-o'zini tanitmoq emas, balki o'z-o'zini majburiy fosh qilishdir. Aslida Bronte qahramonlari deyarli bir xil bo'lib, ular adibaning o'zi ekanligi, shu bois asarlarida biografik yondashuv ustunlik qilishini rad etib bo'lmaydi. Uning ijod doirasi nafaqat shaxsning his-tuyg'ulari va taassuroflarini to'g'ridan-to'g'ri ifoda etish bilan cheklangan. Uning so'nggi cheklashlarida, biz uning romannavis sifatida ajralib turadigan haqiqatiga duch kelamiz. U yaratgan dunyo uning o'zigagina tegishli bo'lgan mavzu bo'lib, o'z ichki dunyosi – uning g'oyalari va tasvirlari shakllangan ruhiy olamidir. Bu, albatta, hech qachon o'z fe'l-atvori haqida hech narsa yozmaydi, degani emas. U hikoya qiluvchi va hikoyadan tashqaridagi hodisalar bilan aloqada bo'lganidek, harakatda, xarakter va shaxsiyatda namoyon bo'ladi. Faqat Sharlotta Bronte xayolining dunyoga munosabati aksariyat roman yozuvchisidan farq qiladi.

Sharlotta Bronte inson qalbining faqat birgina qismiga zarba berdi va bu – eng kuchli haqiqat sifatida insoniyatning e'tiborini zamonlarosha o'ziga jalb qilib kelmoqda. "SHerli"da xayolning o'zi gapiradi va xayol yagona ustoz bo'lsa, u g'alati, u'fli ehtirosarga, talqin qilish qiyin bo'lishiga ishonch hosil qiladi. Ulardan ilhomlanib, inson hayotining ba'zi bir qirralarini o'ziga xos bo'lmagan tarzda xolisona tasvirlaydi [2].

Muallif ayol yozuvchilarga qo'yilgan cheklovlarni tan oladi, lekin uning azoblanishini yoki hech bo'lmaganda unga ta'sirini rad etadi va uning umumiy betarafligini talab qiladi. U ismining jinsi haqida munozara qila olishi mumkin edi, lekin u haqiqatan ham jasur ayol bo'lsa, nima uchun asl ismi ostida yozishga jur'at etmasligini tushuntira olmasdi. Sharlotta Bronte tabiatan ta'sirchan edi, u asarlarini yozishda o'z oilasidan qisman ixtiyoriy ravishda yakkalanib qolganligi, shuningdek, o'sha davrning madaniy muhitiga ta'sir qilgan romantizm erasi sababli tabiat va hissiyotni o'rganishga ko'proq urg'u berib kelgan.

Sharlotta Bronte e'tirozlari nafaqat ijtimoiy rakursda, balki adabiyot sahnasida ham e'tiborli edi. Adiba erkak romantizm ijodkorlari tomonidan progressiv va regressiv oqimlarni qamrab oluvchi adabiy qoidalarni rad etar edi. Adabiyotda ham ayollarga xos yozish uslubi, novatorlik

mavjud bo'lishi lozim, chunki har ikkala jinsning o'z dunyoqarashi va o'z mezonlari borligini adiba e'tirof etgan. [3] Garchi bu o'ziga xos qahramonning o'tmishi voyaga yetmaganlar davrasida kuzatilgan bo'lishiga qaramay, uning zafari birinchi marta "Jeyn Eyr"da to'liq amalga oshirildi. Sharlotte Bronte o'z ijodi davomida romantizmning o'ziga xos formulasi – erkaklar ayollarning nafis va jozibali nutqining ta'sirchanligini nozik ilg'ashlarini o'z qahramonlari orqali ifodalaydi. Biroq romantik shoirlarning o'zlari singari Bronte nutqning chegaralarini tushunishini namoyish etadi. Sharlotta Bronte "Jeyn Eyr" romani orqali yozuvchi sifatida o'z obro'sini qozondi.

Bronte asarlarida gender masalasi olib tashlanishiga va unda erkak yozuvchilarga berilgan erkinlikka ega bo'lishga imkon berildi. O'zining romanlarini jamoat muallifi roliga ishora qilganda, uning erkak kishining ismi asosida tanlangan taxallusi Karer Bellning asarlari sifatida taqdim etib, Bronte jins bilan bog'liq muammolardan bosh tortdi. Ayol yozuvchilari boshqalarning baxtiga sadoqat ila xizmat qiladigan, o'zlarining uy sharoitlariga mos keladigan xonimlar haqidagi so'zlari uchun maqtovga sazovor bo'lishgan [4].

Shuningdek, muallif hayot yo'lini tanlash qiyinligi muammosini ham ochib beradi. Yosh Jeyn maktab umuman qiziq emasligini tushunadi. U biror narsani o'zgartirishdan qo'rqadi, ammo shunga qaramay, odatdagi mazmunsiz hayot tarzidan voz kechishni istaydi. Xarakterning qat'iyatligi va uning boshqa hayotni orzu qilishi va yuksak muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini anglashi unga yangi kelajak va yangi kashfiyotlar yo'lida shu qadarni tashlashga yordam beradi.

Erkak va ayol o'rtasidagi sevgi, muhabbat mavzusi, ijtimoiy maqomdagi farqni tan olish, bartaraf etishdagi qiyinchiliklar, ikkala adashgan va mag'rur odamlarning ziddiyati, qo'rquvni yengishda hayotdagi to'siqlar va qiyinchiliklar adiba asarlarining mazmun-mohiyatini tashkil etadi [5].

Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, ayol erkakka bog'liq bo'lmazligi kerak. Agar u o'zi biror narsaga erishmoqni niyat qilsa, demak u bunga mustaqil harakat qilishi kerak. Ayol turmushda ham o'z o'rnini saqlab qolishga intilishi, hatto jamiyatda tengsiz mavqega ega bo'lsa ham, u o'z qadr-qimmatini saqlab qolishi va qulga aylanishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Shunday dolzarb muammolarga yechim izlagan mazkur asar o'z badiiy qiymatini yo'qotmagan, bugungi kunda ham ayol kitobxonlar o'zlarini bosh qahramon qiyofasida tasavvur etmoqdalar.

Janr va mavzu jihatidan Sharlotta Brontening boshqa romanlaridan farq qiluvchi "SHerli" romani tarixiy, provinsial va ijtimoiy asar bo'lib, yozuvchining asosiy maqsadi o'rta sinf ayollarining ayniqsa yolg'iz ayollarning taqdirini yoritishdan iborat. Muallif iqrori shuni ko'rsatadiki, u viktorian jamiyatidagi ayollarning taqdirini ijtimoiy tomonga o'zgartira olmasa-da, ularning ijtimoiy to'siqlarini badiiy ochib berish orqali o'quvchilar ongida ayollarning ham farovon hayot sari intilishlarini singdirishdan iborat. Ayollar mehnatining jamiyatda erkaklarniki kabi qadrlanmasligi, ayollar ham erkaklardek majburiyat va vazifalarini fidoiy bajara olishi mumkinligini asar bosh qahramoni SHerlida ko'rish mumkin.

Muallif barcha asarlarida ayollarni ko'rish mumkin bo'lgan o'zgarimas makon – uy ekanligiga alohida urg'u beradi. Bekamu ko'st ta'minlangan baxtiyor ayollar uyda o'zlari uchun sevimli va tinch go'sha yarata oladi. Erkaklar – oila suyanchi, himoyachisi, ayollar esa ularga bo'ysunuvchi oila a'zolari. Bronte Viktoriya davri siyosiy manzarasi yordamida baxtsiz, chorasiz ayollargina jamiyatda ishlashga majburligini ifodalaydi. Guvohi bo'lganimiz, "Jeyn Eyr"da Jeyn, "SHerli"da SHerli, "Shaharcha"da Lusi – personajlarning barchasi yashash uchun kurashishi, o'z yo'lini topishga harakat qilishi shart edi. Ularning homiylari yo'q, o'z kunini o'zlari ko'rishlari uchun, avvalo, ta'limga intilishadi va

egallagan ma'lumoti orqali ish topishadi. O'n to'qqizinchi asr Yevropada ayollar uchun eng maqbul kasb sifatida Bronte gubernantkalik va o'qituvchilikni ta'kidlaydi.

Mashhur viktorian davri shoirasi Elizabet Barret Browning "ayollar nikohda o'zligini yo'qotadi" ta'kidida xotin erining mulki sifatida qabul qilinishi kabi mazmun anglatiladi. Demak, ayollar jismonan va ruhan qaram bo'lishardi. Ularda erkinlik yo'q bo'lib, hatto nikoh sulhida ham kuyovlar "sening nimang bo'lsa, bari meniki, mening barcha mulkim ham meniki", deb barchaning oldida e'lon qilishlari kerak edi. Ayol bor mulki va huquqini eriga baxshida etar, nikoh uning eriga bo'ysunishi uchun ramziy ifoda edi. Jamiyatda ayollarga ko'rsatilgan zulm natijasida ularda aqldan ozish, telabalik alomatlarini erkaklarinikiga nisbatan yuqori bo'lgan. Hatto qizlar bolaligidanoq barcha qonun-qoidalarga so'zsiz bo'ysunishlari uqtirib boriladi. Jejn xarakteridagi isyonkorlik boshqa qahramonlar tilidan "sociable and childlike disposition", "attractive and sprightly manner" – kirishimlilik va bolalarga xos samimiyat, jozibali va yorqin xulq-atvorning yo'qligi tanqid qilinadi.

Sharlotta Bronte Buyuk Britaniyadagi turmush qurmagan, yolg'iz ayollarni rohibalar timsolidagi gavdalanitiradi. Jejn Lovudda qizlar maktabida ta'lim olgan kezlarda ideal ayol "bokiralik, itoatkorlik, fidoyilik, ruhiy go'zallik va kamtarlik"ni o'zida mujassamlashtirishi haqidagi ma'lumotlarni keltiriladi. Bu turdagi maktablarning asosiy vazifasi qizlarga dunyoviy ta'lim berish emas, aksincha, ularni rohibalikka tayyorlash bilan bog'liq edi.

U Jeynga "You think too much of the love of human beings; you are too impulsive, too vehement... Why should we ever sink overwhelmed with distress, when life is soon over, and death is so certain an entrance to happiness -to glory?", -deganida insonga emas Xudoga muhabbati ustunligini, barcha, shuningdek, Jejn ham baxt, shon-shuhratga eltuvchi yo'l faqat o'lgandan keyin sodir bo'lishini his qilishi, tushunishi kerak edi. Helen Bell personaji bu qarashlari bilan viktorian ideal ayolining eng birinchi sifati – diniy ta'lim ta'sirini ko'rsatishga xizmat qiladi [6].

Ayollarning huquqlari poymol bo'layotgan Yevropa hamjamiyatidagi gender tengsizlikning mohirona badiiy tasviri ham asardan o'rin olgan. Romandagi Berta obrazi orqali qaysidir ma'noda jamiyatda ayollarning oilaviy turmush tarzi oqibatida savdoyi bo'lib qolishi va shu holatda bunday ayollarning oila a'zolariga va eriga ortiqcha, kerakmas

shaxsga aylanishlari tarixiy va badiiy haqiqat asosida ochib beriladi. Asar matnida garchi Berta Rochester va Jejn munosabatlarida to'siq vazifasini bajarishi ko'rsatilsa-da, aslida Berta sabab sodir bo'lgan voqealar Jejn va Rochesterni bir-biriga yaqinlashtiradi. Janob Masonning Berta tomonidan jarohatlanishi, Rochester xonasida Berta uyushtirgan yong'in sabab dastlab Rochester va Jejn o'rtasida boshqalarga oshkor etilmaydigan sir, qiyin vaziyatda bir-birini qo'llash natijasida do'stlik paydo bo'ladi. Ular endi qalban bir-biriga o'zaro yaqin kishilarga aylanishganini anglash qiyin emas. Matn ostidan anglangan mohiyat Berta aynan Jejn va Rochesterni bir-biriga yaqinlashtiruvchi qahramon ekanligi ochiqdanadi.

Bronte asarlarida ayollar dastlab o'zlariga ishonchli boshpana izlaydilar, ular uchun muqim yashay oladigan makon kerak. Ushbu tushuncha zamirida o'rta sinf vakillari garchi moliyaviy xarajatlarini o'zlari qoplay olsalar-da, ular ham turmush qurishni, oilali hayotda yashashni afzal ko'rishlarini anglash mumkin. Demak, "uy" konsepti o'z ichiga keng qamrovli mustaqil ayoldan eriga itoatkor ayolga o'tish ko'prigi vazifasini o'taydi.

Jejn noan'anaviy, Viktoriya ayollaridan farqli yangi tipni shakllantirdi. U Rochester tomonidan o'z fikriga ega ayol sifatida qabul qilindi. Rochester Jeynni himoya qila oladigan darajada emasdi. Bu o'rinda erkakning jamiyatda va hayotda o'rnini topishiga ayol sababchi. Asar butunligicha ayol dominant voqealar asosiga qurilgan. Muallif zamondoshlari erkak uchun xotini maslakdosh, do'st bo'la olishi mumkinligi haqidagi fikrni xayoliga keltira olmaydigan bir davrda eksklyuziv ayol personaji bilan ingliz realizmida yangi tendensiyani boshlab berdi.

Xulosa. Sharlotta Bronte romanlarida ayolning oiladagi va jamiyatdagi o'rni orqali adiba yashagan davr haqida tarixiy ma'lumotlarni olish mumkin. Feminizm masalalari Bronte asarlarida uch bosqichga ajratilgan holda ko'rsatiladi: baxtsiz bolalik, qahramon o'zligini anglash uchun ta'lim oladi va so'nggi bosqichda sevib, sevilib gender muammolariga yuzma-yuz keladi. Viktorian davri an'analari ta'sirida, asar so'ngida ayol personajlarning oilada rafiqqa sifatidagi baxtli hayotiga urg'u beriladi-yu, ijtimoiy faoliyati ochiqligicha qoladi. Feministik tanqidchilik nuqtai nazaridan ham muallif asarlari mavzu va g'oyani maqsadli qamrab oladi hamda jamiyatda ayollar va ularning o'rni muhim ekanligini ishonarlilik prinsipi vositasida yoritib beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ruth B. More True than Real: Jane Eyre's Mysterious Summons. 19 th Century Fiction. 29, 1974. – P. 127-143.
2. Ernst S. The Letters of William, Dorothy Wordsworth: The Early Years, 1787-1805. – Oxford, 1967.P.276
3. Schurz N. Reading in Detail: Aesthetics and the Feminine. – New York: Methuen, 1987.P. 295
4. Bronte Ch. Jane Eyre adapted by Margery Green. – Macmillan Publishers Limited, 2009.P. 450
5. Bronte Ch. Jane Eyre. – London: Smith, Elder and Co., Cornhill, Third Edition, 1957. – P. 9.
6. Жаҳон адабиёти журнали, Май, 2020. –Б. 177. III. Ахророва таржимаси.
7. Abrams. M.H. English romantic poets. - New York: Oxford univ. press, 1960. - VIII. 394 p.
8. Кулешов В.И. Литературные связи России и Западной Европы в XIX веке. М., 1976. С. 89.
9. <http://www.wwnorton.com/college/english/nael/victorian>
10. <https://www.history.ac.uk/ihr/Focus/Victorians/article.html>



UO'K: 811.111

Shoira DJABBAROVA,
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD,
E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

TerDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Sh.Yakubov taqrizi asosida

EXPRESSION OF ETHNOGRAPHIC REALITIES IN THE PRESS

Abstract

The given article deals with study of Uzbek lexicon in lingocultural and cultural aspects, as well as interrelation of language and culture analysis. one of the most significant branches of modern linguistics.

Key words: Lingoculture, Uzbek non-equivalent lexicon, ethnographic realia, English and Russian mass media of published in Uzbekistan.

ВЫРАЖЕНИЕ ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ РЕАЛЬНОСТЕЙ В ПЕЧАТИ

Аннотация

Данная статья посвящена изучению узбекских этнографических реалий в лингвокультурологическом аспекте, кроме того, анализируется взаимодействие языка и культуры, а лингвокультурология является одним из важнейших направлений современного языкознания.

Ключевые слова: Лингвокультурология, узбекская безэквивалентная лексика, этнографические реалии, англоязычные и русскоязычные СМИ Узбекистана.

MATBUOTDA ETNOGRAFIK REALIYALARNING IFODALANISHI

Аннотация

Ushbu maqola o'zbek etnografik realiyalarning lingvomadaniy va madaniy aspektlarda o'rganib chiqilishiga bag'ishlangan, bundan tashqari til va madaniyatning o'zaro ta'siri tahlil qilingan, lingvomadaniyatshunoslik esa o'z o'rnida zamonaviy tilshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Lingvomadaniyatshunoslik, o'zbek muqobilsiz leksikasi, etnografik realiyalar, O'zbekistondagi ingliz va rus tillaridagi ommaviy axborot vositalari.

Kirish. Har bir xalqda voqelikni aks ettirishning o'ziga xos vositalari va olamning lingvistik manzarasini idrok etish usullari mavjud. Turli jamiyatlarda umumiy hayot tushunchalari bir-biriga mos, o'xshash bo'lishi mumkin, ammo ularni talqin etish usullari o'zgacha tusga ega bo'lishi va bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bularning barchasi lingvomadaniy birliklarni o'rganish va tavsiflashning zamonaviy yondashuvlarini izlashga undaydi. Realialar alohida olingan xalq madaniyati va boshqa madaniyatda takrorlanmaydigan madaniyat ob'ektlari bilan chambarchas bog'liq. Aytish mumkinki, realiyalar alohida xalqning madaniyatiga xos atributiv xususiyatlarni namoyon etadi. Realia termini lot. realis– ashyoviy, haqiqiy degan ma'noni beradi va S.I.Ojegovning lug'atida qayd etilganidek, "realiyalar moddiy madaniyat predmeti, ob'ektiv dunyo hodisasi, alohida jism, narsa sifatida ham namoyon bo'ladi"[3].

Hozirgi bosqichidagi tilshunoslikka oid tadqiqotlarida til bilan etnik madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganishga, xususan, etnik guruhning kundalik hayotining milliy-madaniy xususiyatlarini tilda aks ettirish va ularning mediamatnda ifodalanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy madaniyatning ko'rinishlari tilda boshqa til madaniyatidan farqli o'ziga xos ma'noni o'z ichiga olgan ma'lum lisoniy birliklar shaklida mustahkamlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda qator tillar realiyalarining turli jixatlardagi ta'rifi ikkinchi til bilan qiyoslangan xolda keltirilgan boy material to'plangan. Ingliz tili realiyalariga L.S. Barxudarov, G.D.Tomaxin, S. Vlixov, S. Florinl, A.O.Ivanov va boshqa tadqiqotchilarning ishlari bag'ishlangan.

Muayyan bir xalq va millatga xos turmush tushunchalarini anglatadigan so'zlar - realiya deyiladi. Realialar ta'rifni S. Vlixov va S. Florinlar berganlar. Unga ko'ra: "Realialar – muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf odatlari, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet,voqea-hodisalarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari bo'lib,ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar" [1]. Mualliflar realikni turli tamoyillar asosida tasniflaydilar: ob'ekt, millat, vaqt va tarjima usuli. Birinchi tamoyil eng qadimgi va eng mashhurdir. Shunga ko'ra realiya 3 sinfga bo'linadi: geografik, etnografik va ijtimoiy-siyosiy. Vlahov va Florin tomonidan kundalik hayot va madaniyat tushunchalari va ob'ektlarini ifodalovchi so'zlar sifatida ajratilgan etnografik realiyalar o'z navbatida kundalik hayot, mehnat, san'at va madaniyat, etnik narsa va o'lchovlar va pul bilan bog'liq besh guruhga bo'linadi.

Til birliklari jumlasiga ma'lum bir lingvomadaniy hamjamiyat tomonidan tan olingan madaniy kodlar xotirasini o'zida saqlab qolgan madaniyat vakillari sifatida talqin qilinadigan etnografik voqeliklar kiradi. Sh Maxmaraimova ta'rifiga ko'ra "Etnografizmlar aniq bir xududga tegishli realiyani nomlovchi unsur sifatida etnotil tizimidagi tub birlik sanaladi" [2].

F.M. Tursunov etnografik voqelik so'zlari jumlasiga "turar joy", "kiyim", "ovqat va ichimliklar", "maishiy muassasalar", "transport voqe'liliklari", "urf-odatlar va an'analar/bayramlar", "vazn, masofa, suyuqlik o'lchovlari" va "pul birligi" kabilarni kiritadi. Uning fikricha, ular leksik birliklarning ekstralingvistik xususiyatlari va muayyan lingvistik madaniy muhitga xos bo'lgan aniq ma'lumotlar bilan chambarchas bog'liqdir[4].

Tahlil va natijalar. Maqolamizda etnografik realiyalar taxliligiga tortilgan bo'lib, etnografik voqealilar biror bir xalq turmush tarzi va madaniyatiga oid tushunchalarni anglatadi. Ingliz va rus matbuotida ushbu guruh realiyalarini qo'llanilishi kuzatildi:

1. Diniy-me'moriy inshootlar nomlanishi: "The combination of Khivas high clay walls and the famous Madrasas of Uzbekistan, with their blue and turquoise arabesques, give Khiva an «Arabian Nights» look and feel" (UA. №2, 2019.)

2. Tarixiy obidalar, qadamjolar: Ingliz matbuotida: "From Termez we went to the Khojaikon (Tuz-Gori) salt mines in the village of Chorbag, in Sherabad District. The area is in close proximity to the state border of Uzbekistan, so we had to obtain the necessary documents beforehand in order to gain entry" (UA. №2, 2019.); "Our first destination was the ancient stupa Zur-Mula (2nd century AD), which is situated only five kilometers from the centre of Termez..." (UA. №2, 2019)

Rus matbuotida: "Ещё один интереснейший пункт экскурсии – крепость Кирк Киз. Построена она была в Саманидский период, IX-X века" (УУ. 2019); "Посетили мавзолей суфия Аль-Хаким-ат-Термези и красивейший парк вокруг мавзолея. Цветущий оазис среди бескрайней степи"; "В настоящее время проводит исследования по истории святыни «Полвон ота», ее объемно-конструктивному решению"; "Ценнейшая находка Фаяз-тепы – вырезанная из известняка скульптура Будды с монахами, которая ныне хранится в историческом музее в Ташкенте" (UA. №2, 2019.).

3. Turar joy: Xalq tarixi va madaniyati bilan bog'liq shunday turar joy maskanlarining nomlanishi borki bu albatta faqat bir millatga tegishli tushuncha hisoblangani uchun realiya sifatida beriladi. Ana shunday realiyalar qatoriga qoraqalpoq tilida «jurt», o'zbek tilida "o'tov" so'zini misol qilish mumkin "The word utov in Uzbek or zhurt in Karakalpak has many meanings. It can be translated as dwelling, area, people and country". (UA. №2, 2018.).

4. Turar joy, uy qismlari bilan bog'liq realiyalar: ingliz tilida: "Panjara, small semicircular or rectangular windows placed above a door or another window, were must-haves in every oriental house" (U.A. №3, 2019); "Dwellings typically had two or four window openings and doors facing ayvan, a covered verandah" (U.A., №1, 2018.). Rus tilida: "Своеобразную прелесть узбекским айвонам и беседкам – шийпон – придавали резные колонны, у которых шаровидная нижняя часть и утончающийся кверху ствол имитировали форму вазы с цветами" (УУ., № 14, 2018.).

5. Milliy maskan nomlarini anglatuvchi realiyalar: ingliz tilida: "We lived modestly and got on well. Our house was situated in a remote mahalla in Samarkand's Darvoza Street. The street still exists, but it is much shorter now"; "Everyone who visited the exhibition has, for sure, felt the atmosphere of the Eastern bazaar with its bright colors, genius of national masters and great diversity of handmade products"; "For centuries, tea and chaikhans (tea houses) have played a very important part in Uzbek social life. They were places where business contacts were made, news was disseminated and parties held". Ushbu misolda chaikhana realiyasini matnda tea houses tarzida tarjimasi keltirilgan.

6. O'zbek milliy bayramlari: Atlas bayrami, Navro'z, Xosil bayrami, Xosil bayrami va h.k

Masalan, ingliz tilida: "The Embassy of Uzbekistan to the UK is celebrating Navruz on 27th March and I have been asked to give a talk at the reception about my unique business" Rus tilida: "Само слово «Наврүз» означает «новый день». А новый день у года — это, конечно же, весна, время пробуждения, обновления природы"; "К Наврузу люди готовятся заранее: чистят и моют дома, украшают

стены рисунками" (УУ.11.03.21); "В России в августе отмечают Ореховый, Медовый и Яблочный Спас, в Татарстане праздник урожая называется «Игинбайрами», у казахского народа — «Эсилмейрами», а в Узбекистане — «Хосил байрами» или «Ширинак»" (УУ. 25.06.20). Ushbu bayram bilan bog'liq realiyalar: "Принес вам посылку от Дехкон-бобо..." (УУ. 25.06.20).

7. Milliy kiyim-kechak (libos), gazlama va zargarlik buyumlari. Ingliz va rus matbuot sahifalarida o'zbek milliy liboslari hamda kiyim kechaklarini quyidagi guruhlarini uchratish mumkin: ingliz tilida: "gilam doppi"; "qalpoq, doppi, iroqi, qalampir"; kavush" va h.k. Rus tilida: "чапан", "дуппи", "куйлак", "иштон", "ковуш" va х.к.

Masalan, "The Shahrisabz carpet skullcap "gilam do'ppi" differs in special circular shape, multicolor and decorative compositional construction of ornamental design. Artistic decoration of skullcaps of Urgut, Boysum and Khorazm are of special interest as well" (UT.03.12.2010); "Skullcaps have many names – qalpoq, do'ppi, iroqi, qalampir and others. Looking at such a diversity one could understand that the skullcap is not only a part of the Uzbek national costume ..."; "Quite soon, however, the bay realized that the right kavush and his 'spouse' were just an ordinary pair of non-matching shoes" (Uz.A., №1, 2018).

Rus tilida: "Основу национального мужского костюма составляет чапан - стеганный халат, который подвязывается поясным платком - кийикча"; "Традиционный головной убор – дуппи (тюбетейка)..."; "На тело одеваются куйлак - нижняя мужская рубашка прямого покроя..."; "Это мужской халат «зарчапан» или женский халат «камзул», богато украшенные золотым шитьем" (UA. №1, 2019).

8. Gazlama (mato)ga oid realiya so'zlar. O'zbek lingvomadaniy muhitida bu turkumga mansub ingliz va rus tillariga nisbatan muqobilsiz bo'lgan so'zlar talaygina. Buning isbotini quyidagida ko'rishimiz mumkin: "In the evening the internal part of mirror azure waves is illuminated by adras (Uzbek semi-silk fabric) patterns giving the construction special effect of color play" (UT.17.09.2010).

Rus tilida: "Яркий тому пример атлас и адрас, изготовленные в Бухаре. Удивительные по красоте ткани стали частью мирового культурного наследия ЮНЕСКО"; "Как правило, атлас – это шелковая ткань со специальным переплетением шелковых нитей".

9. Milliy buyumlarni anglatuvchi realiya so'zlar.. Buyumlar nomlariga uy-ro'zg'or buyumlari, an'anaviy kashtachilik va zargarlik buyumlari, xunarmandchilikka oid leksika bosma mediamatnda o'zbek xalqining milliy buyumlarini aks ettirishda realiya sifatida keltiriladi.

a) An'anaviy kashtachilik va zargarlik buyumlari.

O'zbek kashtachilik san'atida ham o'ziga xos milliy-madaniy semaga ega termin-realiyalar qo'llaniladi. Bunday terminlar kashtachilikda qo'llaniladigan buyumlar (palak, so'zana, choyshab, gulko'rpa, kirpech, dorpech, zardevor kabilar, kiyimlar (ko'ylak, do'ppi, nimcha, peshonaband, belbog' kabilar) Ingliz matbuotida: "...which features a lying odalisque with an embroidered suzani hanging on the wall in the background"; "Bugjoma was another peculiar type of packing device. It was a rectangular piece of woven fabric to wrap clothes and bedding"; "In Surkhandarya, small floor mats made from pieces of dyed sheepskin are still used today (poustak, khasali poustak)" (Uz.A., №1. 2019)

10. O'zbek milliy taomlarini anglatuvchi realiyalar.

Ingliz tilida: "The list of Uzbek desserts is far from being complete. There is also sumalyak, made from germinating wheat in the spring days of Navruz; solid talkon (oatmeal mixed with sugar); khouroz-kand (lollipops shaped like cockerels); long and delicate threads of pashmak (sugar halvah) and more"; Halvaytar is usually cooked for

neighbours when a memorial ceremony is held.” (Uzbekistan airways, 2019. №1); “Surkhandarya is bursting with secrets and one of them is a recipe more than a 100 years old-chupancha, made from roast lamb.”;

Rus tilida: “Сумалак, халим, плов и блюда из теста с зеленью заполняли столы подразделений Минобороны, показавшие не только вкусную и здоровую еду, но и национальную одежду” Сурхандарья полна тайн... и один из них - рецепт больше, чем 100-летняя чупанча, сделанная из жареный ягненок;

O'zbekistondagi ingliz va rus tillaridagi matbuotda ham ko'p etnografik realiyalar aynan taom va

ichimliklardir.va ularni uzatishda milliylik yo'g'rilgan urf-odat bilan bog'liqligini kuzatish mumkin:

Xulosa. Ko'rinadiki, ushbu tushunchalar muqobilsiz leksikaning ko'plab guruhlaridan birini tashkil etuvchi va alohida xalqlarning milliy-madaniy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan etnografik voqeliklarga kiradi.

Haqiqatdan ham, har bir xalqning voqelikni aks ettiruvchi o'ziga xos vositalari va olamning lingvistik manzarasini idrok etish usullari mavjud. Turli jamiyatlarda umumiy hayot tushunchalari bir-biriga mos kelishi mumkin, ammo ularni talqin qilish usullari boshqacha tusga ega bo'lishi va bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi haqiqatdir.

ADABIYOTLAR

1. Влахов С., Флорин С. Непереводимые в переводе. Москва: Просвещение, 1986
2. Махмараймова Sh.T. Hozirgi O'zbek tili O'quv qo'llanma- T:"Firdavsiy- Shoh nashiriyoti", 2021.- B.366
3. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. – М.: Азбуковник, 2006. – С.1681.
4. Турсунов Ф.М. Сопоставительное исследование безэквивалентной лексики в лингвокультурном и переводческом аспектах (на материале английского и таджикского языков). Дис... док. филол. наук. -Душанбе, 2016. -С. 99.
5. <https://tashkenttimes.uz/culture/>
6. https://uzbekistan.travel/storage/app/media/jurnali/Visit_Uzbekistan_en.pdf
7. <https://xs.uz/ru/post/armejts>.



UDK:811.1

Rafiqjon ZARIPOV,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktranti, PhD

E-mail: zaripovrafiqjon1@gmail.com

ToshDO'TAU professori f.f.d. B.Mengliyev taqrizi asosida

LANGUAGE POLICY AND PRACTICE IN UZBEKISTAN ON THE EVE OF INDEPENDENCE

Annotation

In this study, language policy and practice on the eve of independence in the Republic of Uzbekistan are covered, and the linguistic, social, and political aspects of this period are covered. In connection with these issues, the researches carried out in world linguistics, sociology, and political science were referred to and the materials in them were analyzed. Also, attention is paid to the researches related to the language policy carried out in Uzbek linguistics, and the compatibility of the opinions presented in these researches with the social environment of the time is based.

Key words: Independence, language policy, language practice, language materials, language management, socialization, state language.

ЯЗЫКОВАЯ ПОЛИТИКА И ПРАКТИКА В УЗБЕКИСТАНЕ НАКАНУНЕ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данном исследовании освещаются языковая политика и практика накануне обретения независимости в Республике Узбекистан, а также освещаются языковые, социальные и политические аспекты этого периода. В связи с этими вопросами были упомянуты исследования, проведенные в мировой лингвистике, социологии, политологии, и проанализированы их материалы. Также уделяется внимание исследованиям, связанным с языковой политикой, проводимой в узбекском языкознании, и обосновывается соответствие представленных в этих исследованиях мнений социальной среде того времени.

Ключевые слова: Самостоятельность, языковая политика, языковая практика, языковые материалы, языковой менеджмент, социализация, государственный язык.

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK ARAFASIDA TIL SIYOSATI VA AMALIYOTI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasidagi mustaqillik arafasi til siyosati va amaliyoti yoritilgan bo'lib, unda mazkur davrning lingvistik, ijtimoiy, siyosiy jihatlarini qamrab olingan. Bu masalalar yuzasidan jahon tilshunosligi, sotsiologiyasi, siyosatshunosligida amalga oshirilgan izlanishlarga murojat qilingan va ulardagi materiallar tahlili olib borilgan. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida olib borilgan til siyosatiga oid tadqiqotlarga ham e'tibor qaratilib, mazkur izlanishlarda keltirilgan mulohazalarning davr ijtimoiy muhitiga muvofiqligi asoslangan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, til siyosati, til amaliyoti, til materiallari, til boshqaruvi, ijtimoiylashuv, davlat tili.

Kirish. Sobiq Ittifoq respublikalarida 1920–30-yillardan til siyosati bilan bog'liq muammolarni o'rganish boshlandi. E.D.Polivanov, N.F.Yakovlev, A.M.Selishev, V.M.Peshkov, J.P.Yakubinskiy kabi olimlarning asarlarida o'sha yillardagi mamlakatning turli mintaqalaridagi tillarning holati batafsil tavsiflangan. Qayd etilgan til siyosatining nazariyotchilari hisoblangan olimlarning qarashlari til muhitini va til siyosati mexanizmlarini belgilashda alohida ahamiyat kasb etdi. Til siyosatiga doir tadqiqotlar 30-yillardan keyin Sobiq Ittifoq hududida deyarli olib borilmadi. Biroq N.F.Yakovlev, B.Nikolskiy kabi olimlarning izlanishlarida Sobiq Ittifoq davridagi tilning ijtimoiy tabaqalanishi, rus bo'lmaganlarning rus tilini o'zlashtirish masalalari va boshqa dolzarb muammolar tadqiq etildi. Sobiq Ittifoqda sotsiologiyaviy tadqiqotlar 50-yillarning oxiri 60-yillarning boshlaridan yana rivojlandi. Biroq bu tadqiqotlar ma'lum darajada qat'iy sxemalarga bo'ysungan, ko'pincha, haqiqatdan uzoq (bizning mamlakatimizda barcha tillar tengdir. Har bir xalq o'z ona tilidan foydalanadi, shuningdek, rus tilini millatlararo muloqot tili sifatida bemalol ishlatadi...)[10] kabi mulohazalardan iborat) edi. Mazkur holat 80-yillarning ikkinchi yarmiga qadar olib borilgan tadqiqotlarga xos bo'lib, elementar nomuvofiqlik ko'pincha bunday nashrlarda kuzatilar edi. Umuman olganda, Sobiq Ittifoqda til holati va til siyosatiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yozilishi bilan birga,

ishonchli faktlar asosida sotsiologiyaviy rivojlanishi kuzatildi. Rasmiylarning rus tilini butun dunyo bo'ylab targ'ib qilish va rus tilidan tashqari barcha tillarni asta-sekin Sobiq Ittifoq hududidan yo'q qilish istagi rus bo'lmagan aholining tengsiz va beg'araz til erkinligi kurashiga qarama-qarshi harakat bo'lganligi uchun ham aholining bu qatlami: ...rus tilining buzg'unchi faoliyatiga qarshi turadi va o'z xalqlarining tillarini saqlab qolishga harakat qiladi[1]. Sobiq Ittifoq tarixining turli davrlarida til siyosatidagi aniq farqlar faqatgina doimiy ravishda mahalliy hokimiyatning taktik harakatlari sifatida e'tiborga olinmadi, balki baholandi. Ma'lum sxemalarga rioya qilish bunday tadqiqotlarni o'sha yillardagi Sobiq Ittifoq asarlariga yaqinlashtirdi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Biz ushbu kichik tadqiqotimizda Respublikamizdagi mustaqillik arafasi til siyosati va amaliyotini yoritishga harakat qilmoqdamiz. Bu masala yuzasidan jahon tilshunosligida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsa ham, ayrim tadqiqotchilarning izlanishlarida mavzuga doir qarashlar bayon qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Ammo o'zbek tilshunosligida yuzaga kelgan izlanishlarda mavzuga doir jihatlar muayyan darajada yoritilganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo ushbu davr til siyosati va amaliyoti monografik planda tadqiq etilmaganligini guvohi bo'ldik. Bu boradagi qarashlar, asosan, muayyan izlanishlar, maqolalarda yoritilgan. Mazkur maqolani

shakllantirishda quyidagi jahon, rus va o'zbek olimlari tadqiqotlariga tayanildi: M.Mirtojiyev, N.Mahmudov, M.Irisqulov, B.To'ychiboyev, E.Xudoyberdiyev, A.Nurmonov, E.Begmatov, H.Ne'matov, I.Qo'chqortoyev, H.Dadaboyev, S.Ashurboyev, B.Mengliyev, R.E.Zaripov, G.Rahimov, B.Karimov, Q.Xonazarov, S.Shermuxamedov, B.Karimov, K.Mira'zamov, J.Tulenov, B.Siddiqov, Z.G'ofurov, A.Abdunabiyev, E.Yusupov, J.Mamashukurov, E.D.Polivanov, N.F.Yakovlev, A.M.Selishev, V.M.Peshkov, J.P.Yakubinskiy, B.Nikolskiy, Fishman Joshua A, Gorman Tomas P(1973), Gumperz Jon J (1968), Xoll Robert A(1951), Haugen Einar(1959, 1987), Xockett Charlz F(1958), Jernudd Byorn H(1997), Kachru Braj B(1986), Labov Uilyam(1966), Markee Numa, Piers Filipp(1986), Miller Jorj A(1950), Nekvapil Jiri(2006), Neustupny Jiff V(1983) v.b..

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning obyekt sifatida mustaqillik arafasi til siyosati, ushbu davrdagi til amaliyotlari, davlat tili, til menejmenti birliklari, til menejmenti, til siyosati, tilni rejalashtirish masalalari yoritilgan mazkur davrga tegishli materiallar olingan. Tadqiqot tavsifida, lingvistlar, siyosatshunoslar, sotsiolingvistlar tahliliga tayangan holda ish ko'rildi. Qayd etish joizki, mazkur tadqiqotda ilk bor mustaqillik arafasi til siyosati, til amaliyotlari materiallari yaxlit tahlilga tortildi. Tadqiqotda lingvistik tavsiflash, sistem, statistik, kontekstual tahlil, tavsiflash, tasniflash, analiz, sintez, lingvistik eksperiment ilmiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Sovet ittifoqi jamoatchiligi munosabatidagi 1985-yildan so'ngi o'zgarishlar ilmiy tadqiqotlardagi qarashlarning o'zgarishiga ta'sir etdi va sotsiolingvistik muammolarni yangicha tadqiq usulida olib borishni talab qildi. Ayniqsa, tadqiqotchilar obyektiv tahlil qilishda ma'lum bir qarashga moyillikni 1987–1988-yillardagi izlanishlarida ifodaladilar. 1989-1990-yillarda sotsiolog olimlarning o'rmini, asosan, havaskorlar (yozuvchilar, publitsistlar va siyosatchilar) egallashgan. Buning sababi Respublika va mintaqalardagi taraqqiyot bilan bog'liq.

1991-yildan keyin vaziyat yanada keskin tus oldi. Ushbu davrga kelib "Bolsheviklar"ning 74 yil davomida birlashtirilgan va o'zgarimas milliy til siyosati qayta ko'rib chiqilishga muhtoj edi.

XX asr oxirlariga kelib mazkur sohada boshqa tarmoqlarga bog'liq ravishda yangi muammolar yuzaga chiqqan, oldingi yillardagi masalalar haligacha bartaraf etilmagan, vaziyat murakkablashgan edi. Ushbu davrga kelib adabiy me'yor va yozuv masalalarida ham ittifoq tarkibidan mustaqil bo'lib chiqqan davlatlar o'z siyosatini yuritmoqda edilar. Bu jihatga norozi bo'lgan Ittifoq rahbariyati rus tilining mavqeyini saqlab qolishga qaratilgan harakatlarni faol tarzda olib bordi. Ammo Ittifoq tarkibida yagona til siyosatini yuritish ko'p millatlilik va ko'ptillilik muhiti bo'lganligi uchun qiyinchilik tug'dirgan. Bu davrdan ancha ilgari Ittifoq tarkibidagi xalqlarning ko'plari rivojlangan adabiy me'yor va yozuvga ega edilar. T.M.Garipov va A.N.Garkavets, L.M.Zak va M.I.Isaevning tadqiqotlarida 20-yillarda Sobiq Ittifoq xalqlari tillaridan bir nechta rivojlangan adabiy me'yor va yozuvga ega bo'lganligi qayd etiladi va bu jihat bilan aloqador qator faktlar keltiriladi.

Shu tariqa mustaqillik yo'liga chiqqan mamlakatlar o'z til siyosatlarini yurita boshladilar va federatsiya tarkibidagi tillar turli xil ko'rinishlarda rivojlanib bordi. Turli tomondan tilni tadqiq etish atroflicha olib borila boshladi. Ayniqsa, jamoatchilikning til masalalariga bo'lgan munosabati bu boradagi ilmiy tadqiqning yangicha taraqqiyoti uchun turtki berdi. Bu qator ijobiy natijalarga erishilishida muhim rol o'ynadi. Tilshunoslarning til masalalaridagi jiddiy harakatlari va axborot minbarlaridagi chiqishlari ham til maqomining o'zgarishiga turtki berdi. Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy muhit ham bu jarayonning yuzaga kelishiga imkon berdi. J.Edvard til

masalalariga to'xtalar ekan: Tilni rejalashtirish – birinchi navbatda sotsiologik vazifa, unda tilshunoslarning roli muhim, ammo bu juda ehtiyotkorlikni talab qiladi [2] deb qayd etgan edi. Tilshunoslarning harakatlari va sotsiologik vaziyat o'zbek tilining taraqqiyotida yuqoridagi mulohazada qayd etilganidek, alohida rol o'ynadi.

Ittifoq tarkibida mavjud xalqlar vakillarining barchasi rus tilini o'rganishlari yuzasidagi harakatlar bilan birga mamlakatlar hududida tillarga bo'lgan munosabat o'zgarib borishi ham yuksaldi. Fikrlarimiz tasdig'ini quyidagi mulohazalarda ko'rish mumkin: har bir kishi o'z ona tillari bilan bir qatorda rus tilini – barcha Sobiq Ittifoq xalqlarining birodarlik tili, Oktabr inqilobining tili, Lenin tilini – o'rganishi kerak [11]. Xuddi shunday yo'lni Boshqa Respublikalarning rahbarlari ham tutishdi [9]. Bundan ko'rinadiki, rus tilini o'zlashtirishlari yuzasidan harakatlar adabiy tiliga ega bo'lgan respublikalarda yashovchi xalqlar orasida ham amalga oshirib kelingan. O'sha davr tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, Sobiq Ittifoq tarkibidagi mamlakatlar hududida yashovchi xalqlarning rus tilini bilish darajasi yuqori qatlam orasida kuchli ekani va rus tilini bilish darajasi oddiy aholi orasida pasayganligi Ittifoq hukmronligining so'nggi yillarida kuzatilgan. Xususan, A.I.Baskakov tadqiqotlarida ma'lumot darajasi past bo'lgan qishloq aholisi o'z ona tillarining so'zlashuv va dialektik shakllaridan foydalanadi va rus tilini bilmaydi[4] deya qayd etiladi. Butunittifoq hududida yashovchi millatlar vakillarining rus tilini bilish ko'rsatkichlari 1989-yildagi butunittifoq aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra quyidagicha edi: Qoraqalpoqlarning 20,7 foizi, o'zbeklarning 23,8 foizi, turkmanlarning 27,6 foizi, qirg'izlarning 35,2 foizi...[7]. Aytish lozimki, aholining erkak jinsiga mansub qismi rus tili bilan qanchadir miqdorda harbiy xizmat davrida tanishgan (umuman, Sobiq Ittifoqdagi armiya rus tilini bilish uchun nodavlat maktabining ikkinchi muhim manbasi sifatida baholanadi) [5].

Istiqloldan avvalgi Sobiq Ittifoq ta'lim tillariga nazar solsak, ma'lum bir tubjoy aholisi tillari rus tilidan keyingi til sifatida faoliyatda bo'lgan va o'qitishning asosiy tili sifatida rus tili qaralgan. Aslida, ko'plab rus bo'lmagan millatlarning oddiy aholisining rus tilini bilish darajasi talab darajasida bo'lmagan. A.I.Baskakovning quyidagi fikrlari qarashlarimizni tasdiqlaydi: umumta'lim maktablarining bitiruvchilari ham rus tilini yaxshi bilishmaydi, yoki umuman rus tilini bilmaydi, bu esa rus tilida o'qishni universitetlarda, kollejlarda va kasb-hunar maktablarida davom ettirishni qiyinlashtiradi [3].

Ko'p hollarda Sobiq Ittifoq davlati hududidagi millatlar aralashgan holda istiqomat qilishardi. Mahalliy aholi orasida rus va rus tilini tushunuvchi aholi vakillarini ko'paytirish maqsad qilingan va qator mamlakatlar hududlariga rus millati vakillarini ko'chirish ishlari olib borilgan. Bu esa turli xil vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni osongina hal etishni ko'zda tutgan edi. Shu boisdan ham O'rta Osiyo aholisi mamlakatning barcha hududida bo'lganidek, mahalliy va mahalliy bo'lmaganlarga bo'lingan. Mahalliy bo'lmagan xalqlar rus tilida gaplashar, boshqa tilni bilmas edilar. Ammo tub aholi, odatda, moslashuvchan, ikki tilli bo'lib shakllandi, agar vaziyat ikki tilli bo'lishni taqozo qilsa, unda rus emas, balki o'sha hududdagi ikkinchi darajaga ega bo'lgan tillarni o'zlashtirdilar. Masalan, o'zbekistonlik tojiklar rus tilidan ko'ra o'zbek tilida yaxshiroq so'zlashar edilar [3].

Sohalar kesimida ham millatlararo farq ko'zga tashlanganligi tadqiqotlar statistikasida keltirilgan. Yirik sanoat, texnologiya va tabiiy fanlarda mahalliy bo'lmagan odamlar yetakchilik qilishgan, qishloq xo'jaligida, tijoratda, kichik hajmli ishlab chiqarishda, shuningdek, gumanitar bilimlar sohasida va ko'p jihatdan boshqaruv tizimida tubjoy xalqlar ustunlik qilgan. Birgina A.I.Baskakovning keltirgan

misolida buning isboti ko'rinadi: Toshkent aviatsiya zavodida ishchilarning atigi ikki foizini o'zbeklar tashkil etgan [3].

Aslida mahalliy til vakillari ko'pincha muayyan vaziyat taqozosi bilan rus tilini o'zlashtirgan. Odatda tubjoy aholi orasidagi rus tilini biluvchi aholi vakillari mahalliy yuqori lavozimlarga tavsiya etilar, aksar hollarda, shu maqsaddagi aholi qatlami rus tilini o'zlashtirishga e'tibor qaratar edi. O'rta Osiyo respublikalari tub aholisining rus tilini yaxshi biladigan qismi uni ishda yoki armiyada 60–70 foizga uyushmagan holda o'zlashtirgan [3].

Sovet Ittifoqining turli davrlarida rus tilining obro'yi tobora yuksaldi hamda mahalliy tillarning nufuzi pasayib bordi. Bu holat keyinchalik barcha sohalarga o'z ta'sirini o'tkazdi. Mahalliy aholining katta qismining yetarlicha ilmiy salohiyatga ega bo'lishlariga turkii beruvchi turli manbalarning mahalliy tillardagi nashrlari ham keskin kamaydi.

Mintaqaviy tillarda ta'lim materiallarining, adabiyotlarning nashr etilishi juda muhim edi. 1984-yilda Sobiq Ittifoq xalqlarining tillarida umumiy tiraj 225 915 800 nusxada 15 149 kitob nashr qilindi, shu jumladan, Ukrainada 2 019 kitob, Litvada 1 940 ta, Gruziyada 1 714 ta, Latviyada 1 186, o'zbek tilida 1 004 va h. k. [8]. O'sha yili Sobiq Ittifoq xalqlarining tillarida 2 377 gazeta, shu jumladan, ukrain tilida 1 255, o'zbek tilida 204, qozoq tilida 172 va boshqalar [8].

Ikki jihatga e'tibor qaratish mintaqalardagi rus tilining holatiga oydinlik kiritishda aniq dalillarni taqdim etadi. 1. Yuqoridan o'tkazilgan ko'plab tadbirlar ruslashtirishni tezlashtirdi. 2. Mahalliy tillarda ta'lim berishning bosqichma-bosqich qisqartirilishi vaziyatni shu darajaga olib keldi. 1-faktga aloqador dalillarni yuqorida keltirdik. 2-omilga bog'liq bo'lgan dalillarni quyida taqqoslama statistik ma'lumotlar asosida tavsiflashga harakat qilamiz. Ittifoq hududida o'tgan asrning 60-yillarida 47 tildagi maktablar mavjud edi. 1982-yilga kelib atigi 17 tasi ta'lim tillarida qoldirilgan [6]. 32 tasi fan sifatida o'qitildi. Shunga o'xshash jarayonlar boshqa respublikalarda ham bo'lib o'tdi. 1939-yildan 1962-yilgacha O'zbekiston SSRda maktab ta'lim tillari soni 22 tadan 7 taga kamaydi [10].

SSSR shakllangandan buyon unda olib boriladigan til siyosati har bir davrda turli darajadagi xilma-xillikni kasb etgan. 1917-yildan 1930-yillarning boshlarigacha Sovet hukumati SSSR xalqlari mahalliy tillarining ijtimoiy funksiyalarini kengaytirishni ko'zda tutuvchi harakatlarni olib bordi. Bu mahalliy lashtirish siyosatining bir qismi sifatida namoyon bo'ldi. 1917-yil 15-noyabrda e'lon qilingan Rossiya xalqlarining huquqlari deklaratsiyasi mahalliy lashtirishning mafkuraviy asosi bo'lib xizmat qildi.

Keyinchalik SSSR hukumatining til va etnik ozchiliklarga nisbatan siyosati o'zgardi: milliy harakatlarni qo'llab-quvvatlash o'rniga ularning vakillariga qarshi repressiyalar boshlandi. O'rta Osiyo respublikalari va Kavkazda panturkistlar va panislomistlar, Ukraina ziyolilari va Belarus milliy demokratlari vakillariga qarshi 1930-

yillarning boshidan mafkuraviy kurash olib borildi. Qator mahalliy ziyolilar hibsga olindi va qatl etildi. Mazkur o'zgarishlar SSSR til siyosatiga dastlab jiddiy ta'sir o'tkazmadi. Moskvadagi partiya rahbariyati til siyosatini belgilashda mahalliy xalq ziyolilarining o'rni egalladi. Bu esa ishdan bo'shatish va hibsga olishlar evaziga sodir bo'ldi. Ushbu omillar yillar o'tgach til siyosatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi va tegishli o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

1950-yillarga qadar mahalliy lashtirish siyosati g'oyalari mahalliy til vakillarining ta'siri tufayli ma'lum darajada saqlanib qolgan bo'lsa, keyingi davrlarda bunga yo'l qo'yilmadi.

Sovet hukumatining rus tilini tarqatish bo'yicha 1960-yillardagi siyosatining rasmiy maqsadi rus tilini SSSRning har bir fuqarosi uchun "ikkinchi ona tili" qilishga urinish bo'lgan. Til siyosatidagi bunday yondashuvlar bir tili va ikki tili aholi o'rtasidagi maxfiy ijtimoiy tengsizliklarni saqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, mazkur siyosat XX asr o'rtalariga kelib SSSRning ko'plab xalqlarida milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishiga turkii berdi.

SSSRda qayta qurish siyosati 1985-yilda boshlangan bo'lsa, 1985-1988- yillarga qadar bu jarayon til siyosatida aks etmadi.

Umumiy sovet til siyosati amalda Respublikalarning siyosiy huquqlarining kengayishi bilan to'xtadi. Mahalliy hokimiyatlar tomonidan barcha jabhalarda bo'lgani kabi til siyosati boshqaruvi ham qo'lga olindi. Birinchilardan bo'lib, moldovan tilining qo'llanish doirasini kengaytirish to'g'risidagi qonunni 1987-yilda Moldova SSSR hukumati qabul qildi. Sovet respublikalari xuddi shunday qonunlarni 1990-yil may oyiga qadar to'liq qabul qildilar.

Xulosa va takliflar. SSSR shakllangandan buyon unda olib boriladigan til siyosati har bir davrda turli darajadagi xilma-xillikni kasb etgan. 1917-yildan 1930-yillarning boshlarigacha Sovet hukumati mahalliy lashtirish siyosatining bir qismi sifatida SSSR xalqlari mahalliy tillarining ijtimoiy funksiyalarini kengaytirishni ko'zda tutuvchi harakatlarni olib bordi. Sovet hukumati 1930-yillarning o'rtalaridan boshlab SSSRning til va etnik siyosatini butkul o'zgartirdi va rus tili nufuzini butunittifoq hududida yuksaltirishga qaratilgan til menejmentini yo'lga qo'ya boshladi. 1950-yillarga qadar mahalliy lashtirish siyosati g'oyalari mahalliy til vakillarining ta'siri tufayli ma'lum darajada saqlanib qolgan bo'lsa, keyingi davrlarda bunga yo'l qo'yilmadi. Mazkur mafkuralarga aloqador tarzda Sovet hukumatining rus tilini tarqatish bo'yicha 1960-yillardagi siyosatining rasmiy maqsadi rus tilini SSSRning har bir fuqarosi uchun "ikkinchi ona tili" qilishga urinish bo'lgan. SSSRda qayta qurish siyosati 1985-yilda boshlangan bo'lsa, 1985-1988- yillarga qadar bu jarayon til siyosatida aks etmadi. Umumiy sovet til siyosati amalda Respublikalarning siyosiy huquqlarining kengayishi bilan to'xtadi.

ADABIYOTLAR

1. Bruchis M. One Step Back, Two Steps Forward: on the Language Policy of the Communist Party of the Soviet Union in the National Republics (Moldavian, a Look Back, a Survey and Perspectives. 1924–1980). – New York, 1982. – P. 371.
2. Edwards J. Multilingualism. – London and New York: Routledge, 1994. – P. 276.
3. Баскаков А.И. Социолингвистический анализ языковой ситуации в регионе Средней Азии и Казахстана. – Нукус: Билим, 1992. – С. 48.
4. Баскаков А.И. Типы языковых конфликтов в регионе Средней Азии и Казахстана. // Язык в контексте общественного развития. – М., 1994. – С. 345.
5. Губогло М.Н. Современные этноязыковые процессы в СССР. – Москва: Наука. 1984. – С. 188.
6. Кузнецов Г.Д., Чехоева С.А. Национальные школы РСФСР в современных условиях. // Советская педагогика, 1982. – № 2. – С. 110.
7. Население СССР. – М., 1990. – С. 37.
8. Печать в СССР в 1984 году. – М., 1985. – С. 110–112.
9. Рашидов Ш.П. Русский язык – язык взаимного общения и сотрудничества всех наций и народностей Советского Союза // Русский язык в национальной школе. 1975. – № 6.
10. Ханазаров К.Х. Сближение наций и национальные языки в СССР. – Ташкент, 1963. – С. 240.



Zarina ISLAMOVA,
Uzbekistan State University of World Languages
Teacher of the Department of Applied English Language No. 1
E-mail: zaraislamova@mail.ru
Nargiza BAKHRIDINOVA,
Uzbekistan State University of World Languages
Teacher of the Department of Applied English Language No. 1

Based on the review of I. Osarov, associate professor of UzMU

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКОЙ ИЗБЫТОЧНОСТИ

Аннотация

В данной статье говорится о лексических значениях семантической избыточности. Кроме того, зафиксированы подробные исследования лингвистов по теме, а местами и их противоречивые мнения. Так как язык формируется как социальное явление, он стремится к лаконичности в процессе говорения, максимально опирается на краткие выражения. В статье анализируется лексическая сторона.

Ключевые слова: Принцип избыточности, фонетическая избыточность, лингвопрагматика, лингвистика, семантика.

SEMANTIK ORTIQCHALIKNING LEKSIK MA'NOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada semantik ortiqchalikning leksik ma'nolari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, tilshunos olimlarning mavzu ustida atroflicha olib borgan izlanishlari, ba'zi o'rinlarda esa ularning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan fikrlari ham qayd etib o'tilgan. Til ijtimoiy hodisa sifatida shakllanar ekan, so'zlashuv jarayonida ixchamlikka intiladi, imkon qadar qisqa ifodaga tayanadi. Maqolada leksik tomoni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ortiqchalik tamoyili, fonetik ortiqchalik, lingvopragmatika, tilshunoslik, semantika.

LEXICAL MEANS OF REDUNDANCY

Annotation

This article talks about the lexical meanings of semantic redundancy. In addition, the detailed research of linguists on the topic and in some places their conflicting opinions have been recorded. As language is formed as a social phenomenon, it strives for conciseness in the process of speaking, relies on short expressions as much as possible. The lexical side is analyzed in the article.

Key words: Principle of redundancy, phonetic redundancy, linguo-pragmatics, linguistics, semantics.

Introduction. As language is formed as a social phenomenon, it strives for conciseness in the process of speaking, relies on short expressions as much as possible. Also, along with the principle of economy, it is natural to observe various excesses in speech.

Interest in the phenomenon of linguistic redundancy arose, apparently, at a time when the so-called "principle of economy of language efforts" came to the attention of linguists;

The negative connotation inherent in the term "redundancy" is probably due to two naive, from the modern point of view, ideas that

1) wanting to be unambiguously understood, the speaker, nevertheless, tries to make as little effort as possible to formalize his message;

2) both in the language system and in the realized statement, each semantic component should ideally be presented once. However, many data show that if the principle of economy operates in the language, then its effect is extremely selective and manifests itself mainly in cases where economy is not at the expense of the meaning of the statement.

The history of the study of the principle of redundancy in language goes back to the distant past. The first ideas about this phenomenon can be found in the works of ancient scientists. Philosophers have studied redundancy, in particular, the phenomenon of pleonasm within the framework of rhetoric and stylistics.

The authors of antiquity evaluated the communicative value of pleonasm in different ways. For example, Quintilian, Donatus and Diomedes considered pleonasm as a stylistic flaw, excessive use of words in speech, while Dionysius Halicarnassus recognized it as a factor that complements speech.

Although it seems superfluous at first glance, at the same time, it enriches the speech with clarity, confidence, pathos and rhythm [8].

Linguistic redundancy is a multi-facet phenomena within language demonstrating that language is in essence successful communication. Redundancy penetrates deeply into a language and we can find many linguistic features in grammar, syntax and other aspects of language. We propose a new classification of linguistic redundancy into what we call contextual redundancy and grammatical redundancy. This new classification is powerful enough to incorporate and enlighten all forms of linguistic redundancy known to us.

Literature review and methodology. The principle of redundancy has been extensively researched by world scientists, researchers such as G.Paul, C.Hockett, A.Martine, O.Yesperson, M.Krongauz, K.Shannon have expressed their different opinions. For example, if G.Paul emphasized that any redundancy is foreign to the language, the American linguist C.Hockett, contrary to him, noted that redundancy cannot be interpreted as unnecessary and that it serves as an important factor for speech styles past. And A.Martine developed the main task of redundancy using the terms of communication

theory. O.Yesperson emphasizes that the redundancy used in the sentence represents a cumulative assessment, so it cannot be considered inappropriate and the redundancy is directly related to the methodology. It is known that phonetic, lexical-semantic, morphological, syntactic forms are omitted based on speech brevity or overused in order to express connotative meaning in poetic text, which is a form of artistic text.

In descriptive as well as prescriptive linguistics redundancy has commonly been regarded as a negative quality of language. The prescriptive grammarians advise us to eliminate wordiness, pleonasm and repetitions that clutter our writing and our speech.

In descriptive linguistics, even though it is acknowledged that natural languages are highly redundant, there is an explicit attempt to formulate descriptions of them in a non-redundant manner. It has even been argued, for example, that the mental lexicon processes language in a non-redundant fashion.

The argument is that a non-redundant mental lexicon preserves a certain economy (either in memory-storage, memory-retrieval or both) that allows the participants of a conversation speedy access to the words in their mental lexicon.

One of the maxims of Grice, i.e., Quantity, postulates that those participating in a language activity should employ as many distinctive features as to convey the message; not more and not less. An economy of expression is thought to be equivalent with clear and distinct communication.

Analysis and results. Although language redundancy has its critics, a place for redundancy has also been recognized in the psycholinguistic and linguistic literature. Some have argued that redundancy production seems to coincide with mental development, others have explicitly set out to prove the value of redundancy.

One disadvantage of the redundancy discussion is the striking absence of a proper definition of the subject in question: What is redundancy? The literature shows a wide interpretative range of definitions, some bearing on psycholinguistics, others purely on linguistics. In this paper, we shall attempt to accomplish two things. First, we shall give a short but comprehensive overview of what counts as redundancy.

We distinguish two kinds of redundancy: (i) grammatical redundancy and (ii) contextual redundancy. Having clarified these forms of redundancy, we shall secondly set out to demonstrate the value of redundancy in several kinds of language-processes. In some cases the redundant features are repeating bits of information to ensure comprehensibility.

In other cases, what appears to be redundant, is actually not because the redundancy is serving a function other than repetition. It may be used to contrast, to emphasize, to intensify, to resolve ambiguity or to serve other, more rhetoric purposes.

Semantic problems were raised and discussed by philosophical thought in ancient times. The debates about the origin of word meanings, their connection with existence and thinking were conducted by analogists and anomalists in antiquity, nominalists, realists, and conceptualists in the Middle Ages; such is the hypothesis developed by medieval scholasticism, that is, the doctrine of the change of meaning of words depending on the context and concrete situation;

Thus, redundant grammatical marking is a significant mechanism that ensures the generation of an utterance. The described mechanism reliably maintains the unfolding of the utterance at any moment of the course of this process; reliance on this mechanism is formed already at the early stages of ontogenesis and is essential for a native speaker who generates an utterance. We wanted to consider different understandings

of the term "redundancy", outline the main lines of its possible study, gather a team of researchers interested in this phenomenon at different levels of the language system and determine ways for further analysis.

To some extent, these first tasks have been solved. The main varieties of redundancy are distinguished, such as intentional (consciously used by the speaker) and non-intentional, syntagmatic and paradigmatic, informational and sign redundancy. Based on pilot studies conducted on the material modern literary language with the involvement of historical data and elements of typological comparison, it was possible to formulate psycholinguistic hypotheses to explain these phenomena from the synchronous and diachronic points of view.

The subject of linguistic redundancy is not an entirely new issue. In the past several decades linguists and non-linguists have been engaged in a study of redundancy. Also people outside the field of linguistics have dealt with the issue. In the field of statistics, the redundancy of an expression is a concept that appears in Information Theory. In the field of psychology, the level of redundancy used in speech is sometimes thought of as a measure of the developmental stage of an individual. In linguistics itself, language redundancy has been the subject of several empirical studies.

Out of this variety of disciplines several different definitions of redundancy have emerged. These definitions are basically of three different kinds. First there are the substantial definitions that try to capture what redundancy essentially is. Secondly, there are some operational definitions that attempt to quantify (a certain aspect of) redundancy. Finally, there are some functional definitions of redundancy that focus on what redundancy does, i.e., the function of redundancy. There are flaws in all of these definitions. Moreover, some of them are not at all linguistic. But our major objection is that these definitions are incomplete, too simple and often confuse the essence of redundancy with its function.

Before we attempt our own definition we shall begin by reviewing several substantial definitions of redundancy from the literature. All define linguistic redundancy from the point of view of information communication. Entering the field from a statistical angle, Campbell determines that the "extra ration of predictability is called redundancy" (Campbell, 1982, p. 68). Stantland writes that "redundancy is overdetermination" (Stantland, p. 56). Overdetermination and increased predictability both suggest that repetition of information is the essence of redundancy. We shall incorporate this idea. Hunnicut hints at a more linguistically substantial definition, when she argues that "Redundancy" [is] the systematicity in one's language (and speech). This refers to the information in a complete sentence over and above that which is essential." (Hunnicut, p. 53) This definition suggests that the rule-governed behavior of language, i.e., the grammar, may be instrumental with respect to linguistic redundancy. We shall return to this idea in the next section when we put forward our own definition of grammatical redundancy. In some experimental studies, one can find certain operational definitions of linguistic redundancy. The qualitative notion of redundancy is replaced by operational quantity. Hunnicut quantifies redundancy as follows.

The range of factors influencing the unconscious choice of one or another doublet form by the speaker is determined, as well as individual language preferences and errors of oral and written speech are explained. These hypotheses will be tested in further research.

Word forms: plural re'dundancies

1. the state or quality of being redundant; superfluity
2. a redundant quantity; overabundance
3. the use of redundant words
4. the part of a redundant statement that is superfluous

5. British discharge from a job or employment because of not being needed; dismissal.

Redundancy is the fraction of those people who do correctly guess the omitted word in a spoken Swedish sentence where that particular word has been replaced by an equally long beep. (Hunnicut, p. 47)

The majority of definitions of redundancy found in the literature are functional in nature. These definitions concentrate on the purpose of redundancy. Nubold and Turner, for instance, link redundancy directly to the insurance of comprehensibility of a communicated message.

Redundancy is a feature of an information source which insures that the communication receiver is able to reconstruct a message that has somehow suffered from transmission interference or deletion, and so interpret it satisfactorily. (Nubold and Turner, pp. 33-4)

Campbell expresses a similar idea, although on a slightly more statistical-linguistic level, when he argues that "Redundancy reduces error by making certain letters and groups of letters more probable, increasing predictability." (Campbell, p. 72) At the end of her experimental study, Hunnicut concludes that

"Redundancy" is the systematicity in one's language (and speech). This definition refers to the information in a complete sentence over and above that which is essential. ... Other research on redundancy in speech has frequently been concerned with the ability to use this systematicity in language in certain conditions. Accessibility to stimuli from which to make systematic inferences may depend upon environment and manner of speaking. In the presence of noise or a manner of speaking that degrades the speech, one would expect information (and redundancy) to be decreased. In such a situation, a listener would not be able to take advantage of a language's systematicity to the same extent. (Hunnicut, p. 53-4)

Given the idea that redundancy rescues communication in cases of a failure in the communication

system, it takes one more argumentative step for concluding, as Campbell does, that "redundancy makes complexity possible". (Campbell, p. 73) According to Campbell, we should think of communication failure not as a marginal annoyance but as an intricate part of any communication system. Therefore, redundancy in practical communication is the only way to transmit a complex message.

We shall use all of these ideas to develop a comprehensive definition of redundancy. In our discussion of the literature one can observe two diverging movements. One stresses that redundancy is a form of spurious use of language, whereas the other identifies redundancy as a certain forced systematicity within language. In order to be comprehensive these two elements have to be incorporated. In the next two sections we shall propose two new definitions of redundancy. They can briefly be described as follows:

Grammatical redundancy is internal to the language system, systematic and obligatory, whereas contextual redundancy is voluntary. Contextual redundancy involves the judgment of the speaker concerning the receptor's background or it may simply be used to achieve a certain rhetorical effect.

Conclusion. Although we have only provided anecdotal evidence, we do believe that our account of redundancy shows that this phenomena reaches the very core of language. Particularly the fact that languages are often strictly rule-governed, introduces by itself a whole category of linguistic redundancy - what we have called grammatical redundancy. Rather than an aiming for an economy of expression, we believe that the mental lexicon is a balance between economy and "superfluous" extra cues. Certainly languages themselves employ redundancy continuously. Besides containing grammatical redundancy languages also provide the possibility and freedom to the sender of a linguistic message to employ contextual redundancy, i.e., words or expressions that explicate, isolate, contrast, emphasize or even dramatize what was already contained in the message.

REFERENCES

1. .Виноградов В, «Вопросы языкознания»1961, стр.3-10)
2. Halle M., The Sound Pattern of Russian, The Hague: Mouton, 1971. Halle, M., Clements, G. N., Problem Book in Phonology, Cambridge, MA: MIT Press, 1983.
3. Nurmonov A. Hozirgi O'zbek adabiy tili. -T.: Sharq, 2002. -B. 62-63
4. Berg T., "Redundant-feature coding in the mental lexicon," in Linguistics, Vol. 29-5, 1991, pp. 903-25.
5. Campbell J., Grammatical Man, Information, Entropy, Language, and Life, New York: Simon and Schuster, 1982.
6. Hunnicutt, S., "Intelligibility versus Redundancy - conditions of dependency," in Language and Speech, Vol. 28 (1), 1985, pp. 47-56.
7. Nicolaci-da-Costa, A., Harris, M., "Redundancy of syntactic information: an aid to young children's comprehension of sentential number," in British Journal of Psychology, Vol. 74 (3), 1983, pp. 343-52.
8. Patterson, C. J., and Kister, M. D., "The development of listener skills for referential communication," in W. P. Dickson (Ed.), Children's oral communication skills, New York: Academic Press.
9. Pinker S., The language instinct, New York: HarperCollins Publishers Inc., 1995
10. Radtke, E., "A me mi piace als Standardform im Seicento?," in Zeitschrift fuer Romanische Philologie, Bd. 103 (1), 1987, pp. 370-9.
11. Ross S. M., A First Course in Probability, New York: MacMillan, 1994.



UDK:659.123:379.83:81'38

Laylo ISMAILOVA,

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Umumiy va aniq fanlar kafedrasida dotsent v.v.b.Ph.D

E-mail:laylohonismailova@gmail.com

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Sultonova Sh. M. taqrizi asosida

ON THE STYLISTIC MEANS OF EXPRESSION OF TEXTS RELATED TO TOURISM

Abstract

In this article, based on the different views of scientists about the text, the main criteria for the advertising text are discussed: information, definition, conveying the idea to the reader in an understandable and simple way. The article classifies the wide range of influence of tourist advertising, which is the object of current scientific research in world linguistics, as well as the fact that it is an important part of the country's economy and culture. It is considered as the main factor in the sharp increase in the scientific and practical importance of advertising research, and it allows to express the linguistic perceptions of tourists of different nationalities about the world.

Key words: Stylistics, linguistic, grammatical, rhetorical, culture, metaphors, national tourism, tourist, image, linguoculturology.

О СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВАХ ВЫРАЖЕНИЯ ТЕКСТОВ, СВЯЗАННЫХ С ТУРИЗМОМ

Аннотация

В данной статье на основе различных взглядов ученых на текст рассматриваются основные критерии рекламного текста: информативность, определенность, донесение мысли до читателя в понятной и простой форме. В статье рассматривается широкий спектр влияния туристической рекламы, являющейся объектом современных научных исследований в мировой лингвистике, и то, что она является важной частью экономики и культуры страны. резко возрастает научная и практическая значимость рекламных исследований, позволяющих выразить языковые представления туристов разных национальностей о мире, классифицированы лингвокультурологические особенности туристской рекламы.

Ключевые слова: Стилистика, языковая, грамматическая, риторическая, культура, метафоры, национальный туризм, турист, образ, лингвокультурология

TURIZMGA OID MATNLARNING STILISTIK IFODA VOSITALARI DOIR

Annotatsiya

Ushbu maqolada, olimlarning matnga nisbatan turli qarashlari asosida reklama matning asosiy mezonlari: axborot mazmuni, aniqlik, fikrni o'quvchiga aniq va sodda shaklda yetkazish. Maqolada jahon tilshunosligida zamonaviy ilmiy tadqiqotlar obyekti bo'lgan turizm reklamasi keng ko'lamli ta'siri, uning mamlakat iqtisodiyoti va madaniyatining muhim bo'g'ini yekanligi haqida so'z boradi. reklama tadqiqotining ilmiy va amaliy ahamiyati keskin ortib, turli millatga mansub turistlarning dunyo haqidagi lingvistik tasavvurlarini ifodalash imkonini beradi, turistik reklamani lingvokulturologik xususiyatlari tasniflanadi.

Kalit so'zlar: Stilistika, lisoniy, grammatik, ritorik, madaniyat, metaforalar, milliy turizm, sayyoh, imidj, lingvokulturologiya

Kirish. Sayyohlik reklamalaridan ko'zda tutilgan maqsad - bu tilning tasviriy va ifodali vositalari tizimidan unumli foydalanib, xalq madaniyatini namoyon etuvchi turistik destinatsiyaning jonli reklama tasvirini shakllantirishdir. Shuning uchun ham, bugungi kundagi aksariyat sayyohlik reklamalarida turli lisoniy birliklardan: frazeologiya va so'zlashuv tuzilmalaridan keng foydalanilishini kuzatish mumkin.

Ingliz va o'zbek tillaridagi sayyohlik reklamalari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning tuzilishi va uslubiy xususiyatlari bir-biridan sezilarli farq qilishi mumkin. Biroq lingvomadaniy jihatdan anchagina farqlanadi va bu, albatta, tabiiy jarayon. Ushbu bobda shu kabi masalalar atroflicha tahlil etilgan.

Bizga ma'lumki, nutq tovushlarining ifodaviy uslubiy funksiyasini fonetik stilistika o'rganadi. Bu ilmda ulardan nutqning ifodaliligi oshirish va undan foydalanish yo'llari tushuntiriladi. Leksik stilistika so'z va uning ko'chma ma'nolarini, sinonim, omonim, antonimlar kabi birliklarning stilistik imkoniyatlarini, shuningdek, uslubiy bo'yoqli so'zlarning, iboralarning nutqda qo'llanishini tadqiq etadi. So'z shakllarining uslubiy bo'yog'i, ularning transpozitsiyasini, sinonimlarning ma'no ottenkalari asosida

uzuga keluvchi so'z konnotativ ma'nolarining amalga oshishi ham shu bilimga xos tushuncha. Qo'shimchalar o'rtasidagi sinonimlik esa, morfologik stilistika deb yuritiladi. So'z birikmasi va gap sinonimiyasi, gapda so'zlar tartibining uslubiy roli sintaktik stilistikaning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Sub'ektiv maqsadlar asosida so'zning emotsional-ekspressivligini oshirish yoki ifodalashda fikrning ta'sirchanligini oshirishda stilistik imkoniyatlar muhim ahamiyatga ega. Sayyohlik reklama matnlariga xos bo'lgan lingvostilistik xususiyatlarni aniqlash deyilganda, sayyohlikka oid matnlar tilidagi emotsionallikni, jozibadorlikni, ohangdorlikni tushunmoq lozim.

Har qanday matn kabi reklama e'lonlari matni ham barcha ichki elementlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va muallifning nuqtai nazari bilan ma'lum bir estetik va kognitiv ma'lumotlarni uzatishga yo'naltirilgan bo'ladi. Reklama matni lingvistik vositalardan samarali foydalanishning namunasidir, chunki muloqot davomidagi munosabatlar deyarli barcha darajadagi til birliklari yordamida amalga oshiriladi. Reklama uslubi ko'p qirrali bo'lib, yuqorida keltirilgan jurnalistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, rasmiy uslublar xususiyatlari bilan, shuningdek, nutqiy va ishbilarmonlik uslublarini ham

birlashtirishi mumkin. Ushbu meyor yoki tanlov reklama mohiyatidan kelib chiqadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ko'plab tilshunoslarning nishoniga aylangan reklamaning stilistik vazifalari ushbu o'rinda muhim ahamiyat kasb etadi. Reklamaning funksional va uslubiy masalalarini ko'rib chiqishda reklama matnining, ya'ni tilining xususiyatlari va "reklama tili" tushunchasini chuqur anglashimiz lozim. Rus tilshunoslari D.E.Rozental' va N.N.Koxtev "Reklama matnlari tili" qo'llanmasida reklama tilining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashgan. Ularning fikriga ko'ra, reklama tilining bajaradigan asosiy vazifalari – axborot berish va ishonirishdir. Tilning va reklamaning o'ziga xosligi va maqsadga muvofiqligi ta'kidlanib, reklama qilinayotgan matnlar shakli, mazmuni jihatidan qisqa va ishonchli hamda mantiqan tushunarli bo'lishi kerak, deyiladi [1].

Lisoniy ekspressivlik vositalari juda xilma-xil va mavjud tilning barcha darajalarida yuzaga chiqadi. Reklamaning ifodali va esda qolarli darajada yaratish uchun kopirayterlar tilning leksik va stilistik birliklaridan, turli xil strukturaviy va semantik xususiyatlaridan foydalanadilar. Reklamaning ekspresivligini ta'minlash uchun maxsus leksik-stilistik vositalar: taqqoslash, metafora, epitet va boshqalardan keng foydalanish mumkin. Rus tilshunosi E. V. Kulikova reklama janrida eng ko'p foydalaniladigan ifoda vositalariga: metafora, giperbola, epitet, o'xshatish, litota, metonomiya, perifrasiy va alliteratsiyani kiritadi [2]. Zamonaviy lingvistik adabiyotda reklamani o'rganish uchun alohida uslubiy yondashuv keng tarqalgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Reklamaning uslubiy holatini tahlil etish ham ko'plab qiziqishlarga sabab bo'lmoqda. Lingvostilistika o'z o'rnida reklama xabarining tarkibini diqqat bilan o'rganishga undaydi. Turistik reklamaning stilistik bo'yoqdorligini aniqlash, uning lingvomadaniy birliklarda namoyon bo'lishini o'rganish biroz mashaqqatli.

Reklama tilini yoritishda tilning boshqa funksional-uslubiy turlarining xususiyatlariga nisbatan reklama matnining o'ziga xosliklariga oid nizolar kamroq. Reklama ularning tizimiga moslashmaydi, balki ularning til vositalarini olgan holda ulardan retsipientlarning reklama ob'ektiga bo'lgan munosabatini o'zgartirishda foydalanadi. Reklama tilida rasmiy ish uslubidan foydalanish kam. Buning sababi sifatida auditoriya bilan rasmiy muloqot o'rnatishga intilish yo'qligini ko'rsatish diqqatga sazovor[3].

Reklama matnini yaratuvchilar matn yaratishning barcha imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangan holda nafis uslubda ham, aniq sodda taqdimotda ham afzalliklarni topadilar

Navro'z bayramiga mo'ljallangan sayohat

Ushbu reklama matni orqali yurtimizning milliy bayrami bo'lgan "Navro'z"ni tarannum etish bilan mehmonlar nigohini tortishga harakat qilingan, aniqrog'i, sayyohlik turizmini rivojlantirish nazarda tutilgan. Bunda "Navro'z - Sharqda yangi yil" nomli sarlavha tanlangan. Balki chet ellik sayyohlar uchun bizning odatlar yot bo'lishi mumkindir, ammo ko'pchilik sayyohlar "Navro'z" sharqliklarning yangi yil ayyomi ekanligidan xabardor.

UK campervan holidays.

It's Easy to forget about the brilliance of your own country but there is so much to see on a campervan holiday in the UK. Explore the cathedral in Canterbury, splash in the waves around Durdle Door and devour a Mr Whippy ice cream on the south coast. Experience the white-sand beaches of Barra and the mythical standing stones at Callanish. Taste gingerbread in the Lake District, look for wild ponies in Exmoor National Park and jump underneath waterfalls in the Brecon Beacons. Soak up the spectacular natural beauty this country has to offer[4].

(Mamlakatingizning yorqinligi haqida unutilish mushkul, ammo Buyuk Britaniyada kampervanlar ta'tilida juda ko'p narsalarni ko'rish mumkin. Kanterberidagi cherkov bilan tanishib chiqing, Durdle Door atrofidagi to'liqlarda cho'miling va janubiy qirg'oqda janub Uippi muzqaymoqlarini tatib ko'ring. Barringing oq qumli plyajlar va Kallanishdagi afsonaviy toshlarni ko'ring. Ko'l hududidagi zanjabil nonidan tatib ko'ring, Eksmur milliy bog'ida yovvoyi ponilarni qidiring va Brecon Beaconsdagi sharshara etagiga sakrang. Ushbu mamlakat taqdim etgan ajoyib tabiiy go'zallikni tomosha qiling!) Ushbu reklama e'lonida sayyohlarni jalb etishda eksplisit uslubda ochiq ravishda mamlakatga tashrif buyurishga undab, o'ta ustalik bilan sayyohning ona yurti haqida pozitiv fikr bildirish – uning go'zalligi ham, muqarrar ekanligiga ham ishora etilib, bevosita sayyohga yaqin suhbatdoshdek murojaat etilmoqda.

Ushbu reklama e'lonining muaddosi ham yagona, ya'ni sayyohning fikrlarini harakatga yo'naltirish. Yuqoridagi e'lonni o'qigan potensial sayyoh tasavvurini ishga tushirib, aniq maqsad sari odimlashi muqarrar. Stilistik vositalardan unumli foydalanish orqali ta'sir doirasidagi sayyohlarni reklama qilinayotgan manzilning milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashishga undaydi.

Reklama matni iste'molchidagi ijobiy his-tuyg'ular: quvonch, hayrat, shafqat, muloyimlik va boshqalarni uyg'otish uchun mo'ljallangan. His-tuyg'ularni turli fonetik, leksik, morfologik, sintaktik vositalar va stilistik metodlardan foydalanish orqali uyg'otish mumkin. Shuning uchun reklama matnlarida troplardan, ya'ni so'z va iboralarning ko'chma ma'noda ifodalovchi maxsus til vositalaridan keng foydalanish reklama e'lonlariga o'ziga xos ifodaviylik bag'ishlaydi. Tilning ifodaviy vositalari uni jonlantiradi, reklama matnini aktuallashtiradi. Og'zaki ifoda etishning xilma-xil usullari, ya'ni hatto eng sodda mavzuga hamroh bo'ladigan ekspresivlikning oshirilishi ham reklama tamoyillaridan biri bo'lib xizmat qilishi kerak.

Tahlil va natijalar. Shuni yodda tutish kerakki, ma'lum bir trop yoki metaforadan tashkil topgan reklama bitta auditoriyaga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qilib, boshqa iste'molchilar uchun yoqimsiz va tushunarsiz holatni yuzaga keltirishi va o'z-o'zidan reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmatga nisbatan salbiy fikr uyg'otib qo'yishi mumkin. Demak, ularning ko'magidan to'g'ri foydalanish lingvomadaniy jihatdan to'g'ri ifodalinishini talab etadi. Turli iboralar, imo-ishoralar, shuningdek, ranglar ma'nosi dunyo bo'ylab ma'no va mazmun jihatidan farq qiladi. Bu borada ko'plab olimlar o'z fikrlarini bayon qilganlar: jumladan, Mark Toncar va Jeyms Munch o'z maqolasida amerikaliklar uchun ovoz chiqarib ovqatni chaynash qo'pol odat bo'lsa, yaponiyaliklar uchun bu mehmonnavozlikning belgisi ekanini ta'kidlab o'tadi[5].

Xuddi shu qoida turli madaniyatlar uchun reklama yaratishda ham qo'llaniladi, bu jihatlardan, asosan, turistik reklama e'lonlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, troplar reklamalarda esda qolish imkoniyati bilan bir qatorda, ishonuvchanlikka ham ta'sir ko'rsatishi isbotlangan.

Metafora sayyohlik reklamalari tilining jozibadorligini ta'minlovchi stilistik vositalardan biridir. Sayyohlar uchun jozibali va qiziqarli bo'lgan tasvirini yaratishda ushbu stilistik vositaning o'rni beqiyosdir. Metafora sayyohning diqqatini tortib, uning xayolidan o'rin olishi mumkin. Undagi hissiyotga boylik va baholovchi xususiyatlar adresatning ongiga ta'sir ko'rsata olishi aniq. Bu orqali sayyohlarning didiga ta'sir ko'rsatish va kutilmagan qarorlar qabul qilishga sharoit yaratib berishi mumkin. Metafora reklama tuzishda eng ommalashgan stilistik vositalardan biri bo'lib, u kundalik hayotimizning bir bo'lagiga aylangani haqiqat. Shuningdek, metafora reklama e'lonlarini ommaga etkazishdagi eng

samarali ifoda vositalaridan biri ham. To'g'ri qo'llangan istiora reklama qilinyotgan mahsulotning sotuvdagi muvaffaqiyatini belgilab beradi. Kognitiv tilshunoslikning rivoji hamda Lakoff va Jonsonlar(1980) tomonidan chop qilingan "Metaphors We Live By" asari "metafora" tushunchasining ma'nosini tubdan o'zgartirdi. Kognitiv tilshunoslar tilshunoslik tahliliga kotsseptual yondashadilar. Ular lingvistik bilimlar - ma'no va shaklni bilish, asosan, konsepsiya sifatida tuzilishga ega deya hisoblaydilar. Ko'plab insonlar tomonidan g'ayrioddiy til shakli bo'lib tushunilgan metaforalar borasidagi fikr yuqoridagi kitobning chop etilishi bilan butkul o'zgardi. Faqatgina adabiy tilga oid bo'lgan va asarga jilo berish uchun foydalaniladigan bezak sifatida o'rganilgan istiora san'ati Lakoff va Jonsonning asarida mohirona ishlatilgani sabab, insonlar tomonidan kundalik hayotdagi voqea- hodisalarni o'rganuvchi jarayon sifatida yangicha uslubda namoyon bo'ldi. Ular xulosa qilib shunday yozadilar: "Qisqasi, metafora – bu tabiiy hodisa". Konseptual metafora inson tafakurining tabiiy qismidir, lingvistik metafora esa, inson tilining tabiiy qismidir. Quyidagi misollar orqali reklamadagi stilistik vositalarni tahlil etaylik:

From the colourful leaves to the granite cliffs and trails around every corner, if you take a trip to New England with us, you'll find an outdoor paradise just waiting to be explored. (Agar siz biz bilan Nyu-Angliyaga sayohat qilsangiz rangli yaproqlardan tortib, har bir burchak atrofidagi granit qoyalarga va yo'llarga qadar, shunchaki tadqiq etilishini kutayotgan ochiq jannatni topasiz[6]. Ushbu misolda Yangi Angliyaning tabiati, atrof-muhiti, go'zalligi er yuzidagi "jannat"dek ta'riflangan. Bu tasviriy vosita orqali ushbu destinatsiyaning tabiati o'ta go'zal ekanligi "jannat" so'zi orqali ifodalangan. Bu so'z orqali insonlar, odatda, beqiyos go'zal afsonaviy bog'ni xayollarga keltiradilar. Bu reklama sayyohlarning ongiga affirmativ usulda unumli ta'sir ko'rsatadi.

If you're looking for some glitz and glamour then look no further! Soak up San Frans' uber-cool vibe. Hit the highway to the Grand Canyon and Hoover Dam, a Wonder of the World guaranteed to impress. The pace picks up as you enter Nevada and hit dazzling Vegas. In Los Angeles rub shoulders with the stars and drive over the hills. Remember to get your photo by Hollywood's famous sign! (Agar siz biroz jilo va glamur izlayotgan bo'lsangiz, uni izlashdan to'xtang! San Fransning ishonib bo'lmas borlig'ini o'zingizga singdiring! Siz, albatta, taassurot qoldiruvchi dunyoning mo'jizasi Grand Kanyon va Guver plotinasiga yo'l oling. Sizning Nevadga kirishingiz va serjilo, ko'zni qamashtiruvchi

Vegasga urilishingiz bilan tezlik oshadi. Los Anjelesda yulduzlar bilan suhbatlashing va adirlar bo'ylab sayohat qiling. Gollivudning mashhur belgisi yonida rasmga tushishni yodingizdan chiqarmang!) Ushbu e'longa e'tibor qarataylik, unda Los Anjeles shahrining e'tiborga molik joylari tasvirlangan. Sayyohlarni jalb etishda bir nechta usullardan foydalangan holda so'nggi gap maslahat tarzida yakunlanishi sayyohni harakatga undovchi ohangni yaratadi. Stilistik bo'yoqdor so'zlardan biri – bu "yulduz" so'zi bo'lib, unda Gollivudning mashhur ijrochilari "yulduz" sifatida ta'riflangan[7]. Destinatsiyaga oid sayyohlik e'lonlarida ko'p uchraydigan holat bu mashhur manzillardan samarali foydalanilish bo'lib, ushbu misolda Gollivudning belgisini eslatish orqali bu usul ham o'rinli ishlatilgan.

The Windy City, the Heart of America and the City by the Lake. Chicago has many names and much to offer anyone who visits it's streets, sights and venues. With great music, great food and fantastic shopping experiences around every corner, Chicago will welcome you in and give you a holiday to treasure. (Shamolli shahar, Amerikaning yuragi va ko'l bo'yidagi shahar. Chikagoning nomlari bir qancha bo'lib, uning ko'chalari, ko'rinishi, diqqatga sazovor joylariga tashrif buyuruvchilarga taklif qiluvchi narsasi juda ko'p. Har bir burchakda ajoyib musiqa, ajoyib taom va fantastik xarid qilish tajribalari bilan Chikago o'z bag'riga oladi va xazinalar ayyomini taqdim qiladi). Ushbu reklama e'lonida Chikago shahrining go'zalligi hamda ko'ngilochar joylarga boyligi ta'kidlanib, uni "Amerikaning yuragi" deya ta'riflanadi. Ma'lumki, yurak insonning eng muhim a'zosi bo'lib, u juda katta vazifani bajarib beradi. "Amerikaning yuragi" iborasi orqali metafora stilistik vositasidan foydalangan holda Chikago Amerikaning eng muhim shahri degan ma'no anglatilmoqda. Tabiyki, bu reklama e'lonini o'qigan sayyohlarda ushbu shaharni ko'rish ishtiyoqi yanada kuchayib boradi xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kundagi aksariyat sayyohlik reklamalarida lisoniy birliklardan keng foydalaniladi. Bu esa, o'z navbatida, xalq madaniyatini namoyon etuvchi turistik destinatsiyaning jonli tasvirini shakllantiradi. Sayyohlik reklamalari tiliga xos bo'lgan lingvostilistik xususiyatlarni aniqlash deganda, sayyohlikka oid matnlar tilidagi emotsionallik, jozibadorlik va ohangdorlikni tushunish lozim. Muloqot davomidagi munosabatlar barcha darajadagi til birliklari yordamida amalga oshirilgani sababli ham biz reklama matnini - lingvistik vositalardan samarali foydalanish namunasi deyishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Розенталь Д. Э. Язык рекламных текстов. – М.: Высш. шк., 1981. – С.27
2. Куликова Е. В. Рекламный текст: лингвистические приемы выразительности // Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского, 2009. – № 6 (2), – С. 276–282. URL:<http://cyberleninka.ru/article/n/reklamnyy-tekst-lingvisticheskie-priemuuyrazitelnosti> (дата обращения: 17. 03. 2017)
3. Мартинович Е. А. Рекламный текст в аспекте проблемы функционального стиля // Вестник ЧелГУ. 2012. № 21(275). – С. 81-85
4. <https://www.travelnation.co.uk/tailor-made-holidays/europe-uk-campervan-holidays>
5. Toncar M. , & Munch J. M.). Consumer Responses to Tropes in Print Advertising. Journal of Advertising, 2001. – P. 55–65. Google Scholar
6. <https://www.barrheadtravel.co.uk/worldwide/usa/new-england>
7. <https://www.barrheadtravel.co.uk/worldwide/usa/chicago>
8. https://www.tripadvisor.com/AttractionProductReview-g293968-d18750070-Along_The_Caravansaray_Trail-Tashkent_Tashkent_Province.html
9. https://www.tripadvisor.com/AttractionProductReview-g293968-d18750070-Along_The_Caravansaray_Trail-Tashkent_Tashkent_Province.html
10. Поликарпова Е.В. Гиперболические высказывания в современном немецком языке / Гос.ком. СССР по нар. образованию. Моск. гос. пед.ин-т им. В.И. Ленина. – М., 1989. – С.45.
11. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.



UDK:811.1

Saodat ISRAILOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
E-mail:israilovas404@gmail.ru

ToshDO‘TAU professori, f.f.d. Z.Xolmanova taqrizi asosida

INTERPRETATION OF COLORS IN HISTORICAL SOURCES

Annotation

In linguistics, the concept of color as one of the important cognitive categories in the understanding of the world surrounding a person is a “cultural code” that reflects many things and phenomena, that is, it is possible to eliminate “cultural daltonism” as a result of the interaction of different peoples. is the knowledge that gives”. Colors have their own expression, that is, a concept in each nation, which is manifested in language in connection with non-linguistic factors, in particular, the nation's knowledge of the world, and through color, each nation imagines certain events in the world. does.

Key words: Orhun-Enasoy, research, historical sources, colors, symbolism, historicity, semantic field.

ТОЛКОВАНИЕ ЦВЕТОВ В ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация

В языкознании понятие цвета как одной из важных познавательных категорий в понимании окружающего человека мира представляет собой «культурный код», отражающий многие вещи и явления, т. результатом взаимодействия разных народов является знание, которое дает». Цвета имеют свое выражение, то есть понятие у каждого народа, которое проявляется в языке в связи с неязыковыми факторами, в частности, познанием мира народом, и через цвет каждый народ представляет себе определенные события в мире делает.

Ключевые слова: Орхун-Энасой, исследование, исторические источники, цвета, символика, историчность, семантическое поле.

TARIXIY MANBALARDA RANGLAR TALQINI

Annotatsiya

Tilshunoslikda rang konseptini insonni o‘rab turgan olamni anglashida muhim kognitiv kategoriyalardan biri sifatida ko‘p narsa-hodisalarni o‘zida aks ettiradigan “madaniy kod”, ya’ni “turli xalqlarning o‘zaro munosabatlari natijasida “madaniy daltonizm” ni bartaraf etishga imkon beradigan bilimdir”. Ranglar har bir millatda o‘ziga xos ifodaga, ya’ni konseptga ega bo‘lib, u nolisoniy omillar, xususan, millatning dunyoni bilishi bilan bog‘liq holda tilda namoyon bo‘ladi va rang orqali har bir millat dunyodagi ma’lum hodisalarni tasavvur qiladi.

Kalit so‘zlar: O‘rxun-Enasoy, tadqiqotlar, tarixiy manbalar, ranglar, simvolika, tarixiylik, semantik maydon.

Kirish. Rang nazariyasining o‘zi bir ilmdir. Ranglarni turli xil odamlarga, yakka tartibda va jamoaviy tarzda, qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish shunday narsaki, ranglardan ilhomlanib, odamlar ish faoliyatlarini, orzu-maqсадlarini barpo etishadi. Oddiygina aniq rang va rangning o‘zgarishini o‘zgartirish ham mutlaqo boshqacha kayfiyat uyg‘otadi. Madaniy xilma-hillik shuni anglatadiki, bir mamlakatda bir rang anglatadigan ma’no xursandchilik va baxtiyorlik, boshqa birida tushkunlik bo‘lishi mumkin. Insonning murakkab ruhiy holati ranglar orqali yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bunda ranglar tabiiy xususiyatlariga xos ravishda qo‘llanadi.

Rang, eng avvalo, e’tiqodiy tushuncha emas, balki tabiiy hodisadir. Shu fizik hodisa xususiyatiga ko‘ra insoniyat rangdan e’tiqodiy maqsadlari yo‘lida, birinchi navbatda, uning tabiiy xususiyatlarini o‘zlashtirgani holda foydalangan. Ranglarga ramz vositasi sifatida, ranglarning qo‘llanishiga esa an’anaviy munosabat shaklida yondashish bilan chegaralash, nazarimizda, ozdek. Bu xususiyatlar esa ularning issiq yoki sovuqqa ajralishi bilan ahamiyat kasb etadi. Iliq ranglar – qizil, zarg‘aldoq va sariq ranglarni o‘z ichiga oladi va shu uchala rangning xilma-xilligidan iborat. Bular olov, kuz yaproqlari, quyoshning chiqishi hamda botishi, umuman, quvvat beruvchi, jo‘shqinlik va ijobiy ranglardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ranglarning o‘rganilishi, tarixiy manbalarda tadqiq etilishi, ularning talqin va xususiyatlari hamda bu boradagi ilmiy qarashlar tahlil

qilindi. Turkiy xalqlar tillarida ranglarning etimologik-milliy kelib chiqish tarixi qiyoslandi. Leksemalarning tadjrijiy xususiyatlarini yoritib berishda tarixiy manbalarga tayanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mazkur masalani hal qilishda dastlab o‘zbek tili tarixiga oid adabiyotlar, etimologik lug‘atlar, jumladan, Sh.Rahmatullayev, N.Sevortyan lug‘atlaridan va maqolalaridan, so‘ngra o‘zbek tili tarixiga oid adabiyotlar, xususan, N.Raahmanov asarlari tahlil qilindi.

Koloristika – bu ranglar haqidagi fan bo‘lib, u rang madaniyati va tili, rang garmoniyasining poydevoriga tayanadi hamda bir vaqtning o‘zida jamiyatning rang madaniyati haqidagi tasavvuriga ham asoslanadi. Ranglar haqidagi fan juda qadimdan paydo bo‘lgan. Inson rang sirlarini qadam-baqadam ochishga harakat qilgan.

Agar e’tibor bergan bo‘lsangiz, kamalakdagi ranglarni bir-biridan farqlash qiyin, chunki bir rang bilan keyingisi o‘rtasida aniq chegara yo‘q, ya’ni biri boshqasi bilan qorishib ketgan, Ular: qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, ko‘k, pushti, binafsha, ana shu 7 xil ranglarning ichida ko‘zga yaqqol ko‘rinadigan, yanada eng asosiysi hisoblangan 3 xil rang mavjud bo‘lib, ular: qizil, yashil va ko‘kdir. Qolgan 4 ta rang shu 3 ta rangning qo‘shilgan joyida hosil bo‘lgan.

Ranglar olamning lisoniy manzaralarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi, zero turli lingvomadaniy jamoalarda har bir rang ma’lum tushunchalarni, tasavvurlarni

ifodalaydi. Ranglar va ularning ramziy ma'no-mohiyatidan bahs yuritish oson emas, albatta. Chunki ranglar u yoki bu xalqning uni qurshab turgan olam, adabiyot va san'atga doir qadimiy qarashlari bilangina emas, balki kosmogonik, mifologik, diniy-iloohiy tushuncha va tasavvurlari bilan ham bog'lanib ketgan. Shuningdek, odamlarning dunyoqarashi, yashash sharoitlari, diniy hayot yo'llarining o'zgarishi bilan ranglarga munosabat, rangdan ko'zlangan maqsadlar ham o'zgarib, ba'zan butunlay yangilanib borgan.

Tahlil va natijalar. Eramizgacha bo'lgan IV asrlardayoq qadimgi grek faylasufi Aristotel rang va rang hodisalarini aniqlashga harakat qilgan. O'rta asrlarda esa rangni diniy nuqtai nazardan o'rganish boshlandi. Leonardo da Vinchi garmonik qarama-qarshi ranglarni aniqlagan: bular oq-qora, ko'k-sariq, qizil-yashil. Shunday qilib, ranglar haqidagi fan paydo bo'ldi. Olti xil rangli qatorlar haqidagi fikrni F.Runge, A.Shopengauer, U.Adame, E.Delakrua, V.Gog, V.Kandinski va boshqalar rivojlantirdilar.

Nemis shoiri va san'atshunosi I.Gyoteni [I.I.B.Гёте 1957:533] ko'proq ranglarning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri qiziqtirgan. Gyote ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratadi. Iliq ranglarga qizigan temirning taftini eslatuvchi sariq, zarg'aldoq, qizil, yashil kabi ranglar kiradi. Ular ko'zga tez tashlanadi. Sovuq ranglar esa muz, suv, osmonning ranglarini eslatuvchi ko'k, yashil, zangori va binafsharang, havorang, to'q yashil, ko'kish ranglardir. Tabiatdagi mavjud ranglarni ikki qismga axromatik va xromatik ranglarga ajratish muhimdir.

Rang nazariyasining o'zi bir ilm bo'lib, u bizni falsafiy mushohadaga chorlaydi. Shuning uchun til va matnda ranglarning talqini turli xil ishlarda tadqiq qilingan V.Alpatov, F.Kunio, L.Samarina, A.Kudrina, B.Mesheryakov, V.Maslova, A.Vejbiskaya, Y.Lotman kabi olimlarning bu xususidagi ishlarini ta'kidlab o'tish lozim.

O'zbek tilida ham mumtoz adabiyot namunalarida ba'zan ko'kning sinonimi sifatida niliy so'zining ishlatilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan, "Mumtoz adabiyot manbalari lug'ati"da niliy so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: Niliy – ko'k, havorang. Charxi niliy – zangori falak.

Alo, to abri nayson zinda pili,

Kiyar bargustvon charxi niliy [Б.РАХМОНОВ, 2009:238].

("Farhod va Shirin")

Demak, tillardagi so'zlarning o'zaro mutanosibliigi shu nuqtalarda bo'y ko'rsatgan. Fors tilidagi manbalarda va asarlarning bu tildagi namunalarida biz bunga guvoh bo'lamiz.

Tillar	Rang			
	Ko'k	havorang	yashil	
Qipchoq tillari	boshqird	kük	zängär	jäsel, kük
	tatar	kük	zängär	jäsel,
	qozoq	kök	zenger (razg.)	zasil
	qoraqalpoq	kök	kök	zasil
	no'g'ay	kök	kök, zenger	jasil
	qorachoy bolqor	kök	kök	dzasil
	qoraim	kök	kök	jesil
Qirg'iz-qipchoq tillari	qirg'iz	kök	kök	zasil
	oltoy	kök	çanqır, kök	d'azil, nogon
O'g'iz tillar	ozarbayjon	köj	mavi	jasil
	gagauz	gök	mavi	jesil
	turkman	gök	mavi	jasil
	turk	mavi, gök	mavi	tur. mavi, gök mavi jesil
Qarluq tillari	o'zbek	ko'k	zangori, movij	jasil, sabza
	uygur	kök	kök, havaraj	jesil
Uyg'ur-o'g'iz tillari	tuva	kök	kök	nogan, kök
	xakas	kök	kök	noyan, kök
	yoqut	küöx	küöx	küöx
	bulg'or tillari	chuvash	kävak	senker

Turk tilshunosligida rang bilan bog'liq misollar ularning turkiy madaniyatdagi o'rni va ahamiyatidan dalolat

Turkiy tillardagi ranglarning semantikasini o'rganish bo'yicha dastlabki ishlar akademik A.Kononovning asarlari bo'lgan. Ushbu masalani o'rganish uchun A.Kononovning "Turk geografik terminologiyasida "oq" va "qora" so'zlarining semantikasi haqida" [A.H.Кононов, 1975:145-153] asariga murojaat qilish mumkin. Ushbu asarda muallif turkiy xalqlar madaniyatida ranglar va ularning ma'nosini shakllantirish usullarini o'rganadi.

Rang nazariyasi bo'yicha qilingan ilmiy tadqiqotlarda A.Kononovning [A.H.Кононов, 1978:169-172] o'rni katta ahamiyatga ega. Xususan, u kök – gök so'zlarining quyidagicha ma'nolarini keltirib o'tadi: 1) "kök", "och ko'k", "azure", "och yashil", "kulrang", "osmon rangi", "yosh ko'katlar rangi", "kulrang"; 2) "osmon", "yosh", "o't", "ko'kat", "o'tloq". Sinonimlari sifatida yashil, havorang so'zlarini, onomastik jihatdan Köktosh, Kökbo'ri birliklarini, etnonim jihatdan kökturkka borib taqalishini, geografik jihatdan Köksuv, Kökchatov kabi gidronim va oronimlarni keltirib o'tadi. Bundan tashqari, o'simliklar, qushlar, hayvonlar nomi sifatida ham kelishini ta'kidlab o'tgan.

Yana kökning Oltin O'rda, Oq O'rda, Kök O'rda shaklida ham kelishini tahlil etib, XIV asrning oxiri XV asrning boshlarida Jo'ji ulusining chap qanoti Kök O'rda [T.I.Султонов, 1972:72], o'ng qanoti esa Oq O'rda deb nomlanishiga e'tibor qaratadi. Bunda geografik joylashuviga qarab, mo'g'ullar g'arbni – oq, sharqni esa "kök" deb ataganiga bog'liq, degan fikrlar kelib chiqadi. Ba'zi qadimiy manbalarda ham "kök" leksemasi "sharq – sharqiy" degan ma'nolarni ifodalaydi. O'tuken o'lkasining sharqida yashovchi turkiylar ham Kök turklar deb atalgan. Qadimgi turkiy moniylik qarashlarida ham Kökmen-dag', ya'ni Kökmentog' toponimi mavjud bo'lib, bunga esa quyosh aynan sharqdan, shu tog' ortidan ko'tarilganligini sabab, deb ko'rsatilgan. Chingizxon ham qadimgi turklar an'anasiga ko'ra, chap qanotini Kökmo'g'ul deb ataganligi keltiriladi.

Yuqoridagi nomlari keltirilgan ilmiy ishlarda ko'k rangi bo'yicha ma'lumotlar faqat uning tarkibida keltiriladi, boblarida ba'zan to'xtalib o'tiladi. Bundan tashqari, ko'kning ramziy ma'nolari, semantikasi, etimologiyasi, lingvokulturologiyasiga tegishli ba'zi fikrlar berib o'tilgan.

Turkiy tillarning barchasida "ko'k" leksemasi bilan birgalikda sinonim sifatida yashil, havorang, ba'zan moviy so'zlari ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Mana bu jadvalda turkiy tillarda ko'k, havorang va yashil so'zlarining qiyoslanishini ko'rishimiz mumkin:

Ba'zi adabiyotlarda "turkuaz" leksemasining tag zamirida ko'k ma'nosi borligining ilmiy asoslari

keltiriladi. Turkuaz turk rangi sifatida ham tanilgan, turkcha so'zning fransuzcha talaffuzidan olingan. Buning sababi mamlakatda O'rta Yer dengizi sohillarida bir firuza rang bor, deb hisoblanishidir. Turkuazning boshqa ma'nodoshlari ko'k va moviy bo'lib, bundan tashqari, firuza rangi (firuze) uning sinonimi sifatida keltiriladi. Shu bilan birga, turkuaz ham Karib suvlari ma'nosida Britaniya floti vakillari tomonidan ishlatiladi. Turkuaz rangi ko'k va yashil aralashmasidan iborat. Yoqut tilidagi "ko'k" ma'nosidagi küöx shakli ham turkuaz so'zida "ko'k" (yashil) ma'nolari mavjudligini asoslashga xizmat qiladi.

Qadimgi turkiy tilda qizil olov, quyosh belgisi deb hisoblansa, ko'k muqaddas rang qiymatiga ega. Qozoq madaniyatida ko'k rang tinchlik va birdamlik, farovonlik va hayot belgisidir. Moviy – yaratuvchining so'ziga teng, shuning uchun bu rang kuch, g'alaba, yuksak ruh, ustunlik, fahrlanish, degan ma'noni anglatadi. Moviy – yulduzlar, sayyoralar, galaktikalar joylashgan Kosmos, cheksiz koinotning nomini ham ifodalagan. Moviy – qadimgi turkiy madaniyatda kosmonim belgi sifatida tushunilgan. Turk minoralari, shu jumladan, qozoq xalqining milliy bezaklari, gumbazlari, ko'pincha, ko'k rangga ega bo'lib, ko'k rangining alohida ramziy ma'noga ega ekanligini ko'rsatadi.

Qozoq tilida ko'k so'zi faol qo'llanilishini va juda ko'p ma'noga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Quyida biz qozoq tilidagi "ko'k" leksemasi bilan shakllangan birliklarni keltirib o'tamiz: kök sheshék → chechak (kasallik); kök kepter → kaptar; kök tas → qabr toshi; aqshyl kök → zangori;

kök aspan → moviy osmon; kök boyau → ko'k bo'yoq; kök zeñgir → jozibali; kök köz → ko'k ko'z; kök şır → och kulrang; kulrang-ko'k; kök tytın → kulrang tutun; qara kök → to'q ko'k; havo rang; kök ala → och ola kulrang (otning rangi haqida); kök at → ko'k ot; kök bie → ko'k biya; kök boz → to'q kulrang; kök boz at → to'q kulrang ot; kök burğıl saqal → oqar soqol; kök kögershin → ko'k kaptar; kök tuman → zich tuman; kökjal → tajribali bo'ri (ko'p qirrali); kök shay → ko'k choy; kök shalg'ım → baland, zich yashil o't; kök şöp [K.Бектаев, 1995:234] → ko'k o't; sabza.

Qayd etilgan misollardagi kök kepter → kaptar; kök aspan → moviy osmon; kök boyau → ko'k bo'yoq; kök köz → ko'k ko'z; kök at → ko'k ot; kök bie → ko'k biya; kök kögershin → ko'k kaptar; kök shay → ko'k choy birliklari o'zbek tilida ham kuzatiladi. Bu holatni o'zbek va qozoq tillarining umumturkiy tabiati bilan izohlash mumkin.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni qilish mumkin: Ranglar nazariyasi, ranglarning inson ruhiyatiga ta'siri masalasi qadimdan dunyo xalqlarini qiziqtirib kelgan. Ranglarning dastlabki talqinlari mifologik xarakterda bo'lib, xalq e'tiqodi, dunyoqarashini ifodalashga xizmat qiladi.

Ranglar semantikasida simvolika eng qadim davrlarda shakllangan va ramziy ma'no hozirgi kunga qadar yashab kelmoqda. Dunyo xalqlari madaniyatida ko'k rang tushunchasi ijobiy va salbiy baho semantikasini ifodalaydi. Ko'k simvolikasining xotirjamlik, sokinlik, beg'uborlik kabi ijobiy semalari ustunlik qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Гёте И.В. Избранные сочинения по естествознанию. – М.: Наука, 1957. – С. 533;
2. Rahmonov B. Mumtoz adabiyot manbalari lug'ati. – Toshkent: Mumtoz so'z. 2009. – 238 b.
3. Кононов А.Н. О семантике слов «ак» и «кара» в тюркской географической терминологии // Известия АН Таджикской ССР, отд. общ. наук. Вып. В. 1954. С. 81-86; Семантика цветообозначений в тюркских языках. // Тюркологический сборник. – Москва, 1975. – С. 145-153.
4. Кононов А.Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках / А.Н.Кононов // Тюркологический сборник – 1975. – М.: Наука, 1978. – С.169-172.
5. Султанов Т.И. О терминах Ак-Орда, Кок-Орда и Иуз-Орда. – ИАН КазССР. Серия общественная. – 1972, – №3. – С. 72.
6. Мажитаева Ш., Каскатаева Ж., Хан Н. Семантика цвета в казахском языке: лингвокультуроведческий аспект. Еуропеан Ресерчар, 2013. – № 5-3. – С. 1454.
7. Бектаев К. Большой казахско-русский, русско-казахский словарь. – Алматы, 1995.



Mastura KARIMOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi,
E-mail: karimovam94@gmail.com

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi f.f.f.d PhD A. Murtazayev taqrizi asosida

VIEWS ON THE DEFINITION OF PRINCIPLES AND TYPES OF ALLUSIVE UNITS IN A LITERARY TEXT

Annotation

The article provides information on the principles of quoting allusive units in the text. The views of world linguists on the types of allusive units are summarized and analyzed. An opinion is expressed about the use of anthroponyms as allusive names in Muhammad Yusuf's poem "Armonlaring bor".

Key words: Intertextuality, allusion, literary text, recipient, anthroponym, religious allusion, artistic allusion, historical allusion, mythological allusion, social allusion.

ВЗГЛЯДЫ НА ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРИНЦИПОВ И ВИДОВ АЛЛЮЗИВНЫХ ЕДИНИЦ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

В статье представлена информация о принципах цитирования аллюзивных единиц в тексте. Обобщены и проанализированы взгляды мировых лингвистов на виды аллюзивных единиц. Высказано мнение об использовании антропонимов в качестве аллюзивных имен в поэме Мухаммада Юсуфа "Армонларинг бор".

Ключевые слова: Интертекстуальность, аллюзия, художественный текст, реципиент, антропоним, религиозная аллюзия, художественная аллюзия, историческая аллюзия, мифологическая аллюзия

BADIIY MATNDA ALLUZIV BIRLIKLARNI KELTIRISH TAMOYILLARI VA TURLARINI BELGILASHGA OID QARASHLAR

Annonatsiya

Maqolada alluziv birliklarni matnda keltirish tamoyillari haqida ma'lumotlar berilgan. Jahon tilshunoslarining alluziv birliklarning turlari haqidagi qarashlari umumlashtirilgan, tahlil qilingan. Muhammad Yusufning "Armonlaring bor" she'ridagi antroponimlarning alluziv nom sifatida berilishi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Intertekstuallik, alluziya, badiiy matn, retsipient, antroponim, diniy alluziya, badiiy alluziya, tarixiy alluziya, mifologik alluziya, ijtimoiy alluziya.

Kirish. Matnning til sitemasidagi o'rmi, uni lingvistik tahlil qilish bugungi kunda tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan bo'lgan psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitologiya, lingvoklturologiya va ayniqsa lingvopoetika bilan uzviy bog'liq. Bunda matnni qabul qiluvchi bilan birgalikda uni tuzuvchi omili ham asosiy o'ringa qo'yiladi. Matn tuzuvchining millati, ruhiyati, yashash tarzi, dunyoqarashi, bilim darajasi, saviyasi, maqsadi, ifoda yo'sini ham retsipientga matn orqali namoyon bo'ladi. Matn tahlilda undagi birliklarning qay tarzda qo'lanilishi bilan bog'liq masalalar fonetik, leksik- semantik, sintaktik tahlilga tortiladi. [1:54] Badiiy matn shakllanishi va mazmuniy boyishida intertekstuallikning ahamiyati katta. Intertekst – muayyan matn ichida muallif maqsadini yanada ta'sirchan ifoda qilishga ko'maklashadigan matn parchasi. Uning turlari sifatida alluziya, epigraf, sarlavha, havola, aforizmlar, maqol va matallar sanab o'tiladi. "Alluziya (lot. Allucio— ishora, hazil) barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul [3:100]. Alluziyaning berilishi natijasida matn mantiqiy tarkibi kengayadi, voqealar hissiy idrok etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alluziya atamasining kelib chiqishi XVI asr o'rtalariga to'g'ri keladi. G. Blum "...biror narsani aniq eslatmasdan, esga solish uchun mo'ljallangan ibora" deya ta'kidlab, alluziyani "ishora" so'zi bilan sinonim sifatida qo'llagan. XX asrga kelib alluziya termini bilan bog'liq turli qarshlar paydo bo'lib, qizg'in ilmiy tortishuvlarga sabab bo'ldi. Rus tilshunos olimlaridan E.Y. Abramova, O.S. Axmanova, I.V. Gubbenet, E.M. Dronova,

A.S. Evseeva, M.I. Kiose, A.G. Mamaeva, L.A. Mashkova, E.V. Rosen, I.N. Sofronova, Z.Porat va boshqa tilshunos olimlar bu borada o'z fikrlarini bildirganlar [9:67]. O'zbek tilshunosligida alluziya bo'yicha alohida ilmiy izlanish olib borilmagan bo'lsa ham, matn tahliliga oid har bir ilmiy ishdan bu boradagi ma'lumotlarni topishimiz mumkin. Jumladan, B. O'rinboev, R. Qo'ng'urov, J. Lapasov, M. Hakimov, M. Abdupattoyev, E. Qilichev, A. Mamajonov, M. Qurbonova, D. Xudoyberganova, M. Yo'ldoshev, S. Boymirzayeva, M. Homidova kabi olimlar tadqiqotlarida alluziv birliklarning badiiy matn tuzishdagi ahamiyati tahlil qilingan o'rinlar talaygina[4:8-9].

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvopoetik tahlil tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari kesishmasida paydo bo'lganligi sabab alluziv birliklarni o'rganishda tasniflash, tavsiflash, komponent va kontekstual tahlil metodlaridan foydalaniladi[10:7-8].

Tahlil va natijalar. Alluziya tushunchasi haqida bir to'xtamga kelingandan so'ng, uni sinflarga, turlarga tasniflash ham keyingi masala hisoblandi. Ingliz tilidagi adabiy atama lug'atlariga ko'ra, alluziya turlarining eng to'liq tasnifi quyidagilardan iborat:

- 1) alluziya – yaqinda sodir bo'lgan voqealarga ishora;
- 2) shaxsiy alluziya - yozuvchining tarjimai holidagi faktlarga havolalar (shaxsiy ishora);
- 3) metaforik alluziya, uning maqsadi tegishli ma'lumotlarni yetkazishdir;
- 4) boshqa yozuvchilar uslubiga taqlid qiluvchi yashirin alluziya (taqlidli ishora);

5) boshqa asarning tuzilishini aks ettiruvchi strukturaviy alluziya (strukturali ishora) [8:125].

Rus tilshunoslaridan birinchilardan bo'lib Olima Novoxacheva 2 xil alluziyani ajratadi: intertekstga o'tish jarayonida o'zgarishga uchraganlar va o'zgarishsiz berilganlar. Keyinchalik alluziyaning bir qator turlari tasniflana boshlandi.

Leksik- semantik alluziya

Stilistik alluziya

Morfologik alluziya

Yuqoridagi 3 turga ajratish alluziv birliklarning barchasini qamrab olmaganligi sababli yana bir tilshunos olim M.D. Tuxareli alluziyaning 3 turini ajratib ko'rsatadi:

1) antroponimlar – o'ziga xos ismlar, kosmonimlar – sayyoralar, yulduzlar nomlari, toponimlar – geografik nomlar, zoonimlar – hayvonlar, qushlarning nomlari, tematonimlar – tarixiy voqealar, bayramlar va boshqalar nomlari, teonimlar – ma'budlar, jinlar, mifologik belgilar va boshqalarning nomlari;

2) mifologik, bibliyaviy, tarixiy, adabiy va boshqa voqealarga;

3) ishora iqtiboslar, eslatmalar [8:126].

Yosh tilshunos olim L. Kramer esa alluziya turlarini quyidagicha ajratgan:

a) tasodifiy alluziya. Bunda muallif nazarda tungan ishorani hamma ham tushunishi qiyin bo'ladi. U matn mazmunida yaqqol namoyon bo'lmaydi.

b) o'ziga yo'nalgan alluziya. Muallifning o'z asarlaridan biriga qilgan ishorasi berilgan matnning qahramonlar xarakteri, voqealar rivoji yoki holatning umumiyliги birlashtirib turadi.

d) o'zgartirish kiritish alluziyasi. Bunda muallif barchaga ma'lum va mashhur tarixiy asar syujetiga nafaqat ishora qiladi, balki uni o'zgartirib ham yuboradi. Masalan, bir biriga yeta olmagan sevishtanlarni birlashtirib tasvirlaydi.

e) sodda alluziya. Bir voqeaga qilingan ishora.

f) murakkab alluziya. Badiiy matnda bir vaqtning o'zida bir necha asarga, antroponimga, toponimga nisbatan ishlatilgan alluziya.

g) oshkora alluziya. Matnda yaqqol namoyon qilib ifodalangan ishoralar.

h) yashirin alluziya. Badiiy matn tuzilgan muhitga, insonlardagi qusurlarga qilingan ishora. Bunda qarshilik kayfiyati mavjudligi sabab muallif alluziyani juda ham mazmun ichiga yashiradi [8: 10]. Bu tahlilda, bizningcha, ikki yoqlama tasnif mavjud. Biri- mazmuniy, ikkinchisi- shakliy. Alluziv birliklarning tasodifiy, o'ziga yo'nalgan, o'zgartirish kiritish turlari mazmuniy jihatini tashkil qilsa; sodda va murakkab alluziya shakliy tomonidan alohida tasnif bo'la oladi. Bundan tashqari, alluziyaning namoyon bo'lishiga ko'ra oshkora va yashirin alluziya kabi turlarga ajratish mumkin. O'zbek tilshunosligida M. Homidova alluziya haqida to'xtalib o'tib uning quyidagi turlarini sanab o'tadi:

1) diniy alluziyalar: Odam Ato, Momo Havo, Shayton, Ibrohim, Ismoil, Iso, Yusuf, Hizr.

2) tarixiy alluziyalar: Jaloliddin Manguberdi, Chingixon, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur, Muqanna, Shiroq.

3) badiiy alluziyalar: Otabek, Kumush, Anvar, Ra'no, Alpomish, Barchinoy, Farhod, Majnun, Tohir, Zuhra, Layli, Shirin.

4) Mifologik alluziyalar: Kayumars, Axriman, Xumo.

5) Ijtimoiy- maishiy alluziyalar: O'zbek ishi, Covid-19, Yangi O'zbekiston [10:113].

Har bir tasnif o'ziga xos ilmiy ahamiyatga ega. Ularning barchasida alluziya hodisasining alohida xususiyatlari jamlangan.

Badiiy matnda keltirilgan alluziv birliklarni keltirishda mazmunga aloqador asarlardan, tarixiy voqealarda, diniy

ma'lumotlardan xabardorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, alluziv birliklarni berish orqali muallif retsipientga yetkazmoqchi bo'lgan ma'lumot nishonga borib tegishida qisqalikka, mazmuniy izchillikka, daliliy fikrga erishishda yordam beradi. Shoirimiz M. Yusufning "Armonlarning bor" badiiy matnini tahlil qilamiz.

Yurtim, ado bo'lmas armonlarning bor,

Toshlarni yig'latgan dostonlarning bor,

O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,

Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlarning bor. [11: 5]

Tarixdan ma'lumki, Sovet davri ilmsizlashtirish,

bosqinchilik harakatlariga qarshi bosh ko'targan ziyoli qatlam vakillari tuxmat, bo'xtonlar bilan qatl qilingan, borsa kelmas joylarga surgunga yuborilgan. Muallif she'rning umumiy g'oyasi va mazmuniga doir ma'lumotlarni birinchi bandida jamlab ifoda qilgan. Bu retsipientga yo'nalish beradi. Chunki shoirning Vatan haqidagi she'rlari turlicha. Aynan Vatan leksemasining turli semalarini ochishga tarixiy faktlarga ishoralar berilgan.: "dostonlarning bor". Bu ishorani ikki turda tahlil qilish mumkin. Birinchisi- Vatanini yovlardan himoya qilgan mard o'g'lonlar haqidagi xalq dostonlariga ishora ("Go'ro'g'li", "Alpomish", "Rustamxon"). Ikkinchisi- Vatan uchun "kurashgan" jadidlar haqidagi voqealarga ishora. Keyingi o'rinda "ko'ksing to'la shahid o'g'lonlarning bor" ishorasi orqali fikr yo'nalishi yanada aniqlashadi. Retcipient ko'z oldida shahid ketgan bobolarimiz bilan bog'liq voqealardisalar namoyon bo'la boshlaydi.

Bag'rim o'rtar bir o'y bahor ayyomlar,

Oy botgan yoqlarga termulib shomlar.

Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,

Fayzullodek mard maydonlarning bor... [11]

Retcipient matnini o'qir ekan, Akmal Ikromov toponimi haqida ma'lumotga ega bo'lishi, matnning mazmuniga qanday aloqadorligini tahlil qila olishi kerak. Akmal Ikromov 1919-1924-yillarda imkoniyati doirasida o'zbek xalqi manfaatlarini uchun Markaz siyosatiga qarshi kurashgan davlat va siyosat arbobi. Matndagi "aybin bilmay ketganlik" semasini Akmal Ikromov hayoti va faoliyati bilan bog'liq tarixiy faktlar yanada reallashtirib, ochib bergan. Keyingi o'rinda atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchiligining faol ishtirokchisi, "Yosh buxoroliklar" partiyasining rahbarlaridan biri, Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Nozirlar Kengashi raisi Fayzulla Ubaydullayevich Xo'jayev nomi keltirilgan. Tarixiy shaxsning faoliyatini matndagi "mardi maydon" sifatlashi yanada yorqin ifodalaydi. Bundan tashqari matnning keyingi o'rinda Cho'lpon, Usmon Nosir, Qodiriy kabi ziyolilar nomlari keltirilgan. Bizningcha, bu antroponimlarni hech qanday izohsiz ham retsipient tushuna oladi, ularning siyosiy- ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq voqealarni jonlantira oladi. matn tarkibida intertekst sifatida yana tarixiy asar nomlariga ham ishoralar mavjud.

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,

Ana, yurishibdi kiyganlari zar,

Qodiriyni sotib shoir bo'lganlar

Mehrobingdan chiqqan chayonlarning bor... [11]

O'z manfaatini ko'zlab Abdulla Qodiriy faoliyatini teskari talqin qilib, fitna uyushtirgan insonlar ham talaygina edi. Matn tuzuvchi bu borada shoirning o'z asari (" Mehrobdan chiqqan chayon") nomiga ishora qilish bilan ana shu kimsalarga sifat beradi. Tahlildan kelib chiqqan holda alluziya turlari sifatida "asar nomlariga ishora" turini ham sanab o'tishimiz mumkin ekan.

Xulosa va takliflar. Alluziya hodisasini matn tuzuvchining "individual mavzulashtirilgan mundariyasi" deyish mumkin. Chunki har bir muallif retsipientga yetkazmoqchi bo'lgan g'oyasini, estetik ta'sirini oshirishga yordam beradigan antroponim, toponim, asar, qahramonlar nutqidan parchalarni bir joyga jamlaydi. Matndagi ishora

birliklarini tahlil qilish orqali har bir millat, xalqning hayot tarzi, tarixiga ham to'xtalamiz. Biror tilni, madaniyatni o'rganishda ham bu usul katta yordam beradi. Alluziya turlari har bir millat, xalq uchun turlicha talqin qilinadi. Keltirilgan

fikrlar yana vaqt o'tishi bilan yangicha tus olishi hech ajablanarli hodisa emas. Chunki adabiyot yangilanar ekan, uning tahlili ham yangilanib boraveradi.

ADABIYOTLAR

1. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. O'quv qo'llanma. – T: Universitet, 2010
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Fil. fan. doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2010.
3. Xudoyberganova D. Badiiy matnning antropotsentrik tadqiqi. Fil. fan. doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2010.
4. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn tilshunosligi. Darslik. – Farg'ona, 2021.
5. Brower R.A. (1986). Alexander Pope: The Poetry of Allusion. Oxford: Oxford at the Clarendon Press.
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T.: Fan, 2007.
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: Fan, 2008.
8. Ben-Porat Z. (1976). The Poetics of Literary Allusion. PTL: A Journal for Descriptive Poetics and Theory of Literature 1. P. 105—128
9. Никашина Н.В., Супрун Н.Д. Аллюзия как стилистический прием в англоязычной литературе . Вестник РУДН, серия Теория языка. Семиотика. Семантика, 2016, № 1
10. Homidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T., 2021.
11. M. Yusuf . She'rlar. Elektron kitob.



Komila KOMILJONOVA,
Urganch Davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi
E-mail: komiljonova1505@gmail.com

Urganch davlat pedagogika instituti PhD, dots. M.Matquliyeva taqrizi asosida

ERKIN VOHIDOV'S SKILL OF USING «RADIF» IN HIS POEMS

Abstract

In this article, one of the powerful poets of the 20th century, writer Erkin Vahidov, who has his own place in the world of poetry, researches the radifs used in "Devon of Youth". The statistics of the radifs used in the poet's lyrics were made, and certain conclusions were made regarding the purpose of use and their importance in enhancing the meaning. For several ghazals, attention is focused on the same bases taken as a radif, and the commonalities and differences in them are shown.

Key words: Radif, radif of one word, radif of two words, radif of three words, ilmi aruz, ilmi bade, ilmi kafiya, ramal, kafiya, short radif, long radif, modern poetry, talmikh, tazad, proverb, phrase.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАДИФОВ В ЛИРИКЕ ЭРКИНА ВАХИДОВА

Аннотация

В данной статье один из сильных поэтов 20 века, писатель Эркин Вахидов, имеющий свое место в мире поэзии, исследует радифы, используемые в «Девоне юности». Проведена статистика использования радифов в лирике поэта и сделаны определенные выводы относительно цели использования и их значения для усиления смысла. Для ряда газелей акцентируется внимание на одних и тех же основаниях, взятых в качестве радифа, и показаны общие черты и различия в них.

Ключевые слова: Радиф, радиф из одного слова, радиф из двух слов, радиф из трех слов, илми аруз, илми бадэ, илми кафия, рамал, кафия, короткий радиф, длинный радиф, современная поэзия, талмих, тазад, пословица, фраза.

ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA RADIFLARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asrning kuchli shoirlaridan biri, nazm mulkida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan adib Erkin Vohidovning «Yoshlik devoni» da qo‘llanilgan radiflar tadqiq qilingan. Shoir lirikasida qo‘llanilgan radiflarning statistikasi chiqarilgan, qo‘llanish maqsadi va ma‘no kuchaytirishdagi ahamiyati bo‘yicha muayyan xulosalar qilingan. Bir necha g‘azallar uchun radif sifatida olingan bir xil asoslarga diqqat qaratilgan, ulardagi umumiylik va farqli tomonlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Radif, bir so‘zli radif, ikki so‘zli radif, uch so‘zli radif, yig‘iq radif, yoyiq radif, ilmi aruz, ilmi bade, ilmi qofiya, badiiyat, ramal, raviy, qofiyadosh, barmoq vazni, zamonaviy she‘riyat, talmih, tazod, maqol, ibora.

Qadim Sharq mumtoz she‘riyati uch ilmnig ustiga qurilgani ma‘lum. Bular «ilmi bade’», «ilmi aruz» va «ilmi qofiya»ni o‘z ichiga oladi. Har bir shoir shu ilmlar uchligini bilmog‘i shart deb hisoblangan. Chunki shu ilmlar ko‘magidagina ham badiiyati, she‘riy san‘atlari, ham vazni, ham qofiyasi mukammal bo‘lgan benazir asarlar yaratilgan. Ularsiz shoirlik iste‘dodi qaysidir jihatdan notugal bo‘lib qolavergan. Mumtoz adabiyotning ilk davrida ham, keyingi davrlarida ham shu uchlikka birday rioya qilingan. Buning isbotini Lutfiy, Navoiy, Fuzuliyalarda ham, Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Ogahiyalarda ham, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarning she‘riyatida ham ko‘rishimiz mumkin. «Ilmi bade’da har bir she‘riy san‘atning, u xoh lafziy bo‘lsin, xoh ma‘naviy, o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llanilishi, «ilmi aruz»da aruz vaznining qoidalari, qaysi janrning qanday vaznda yozilishi lozimligi, zihof, vasl hodisalari, «ilmi qofiya»da qofiyaning turlari, unsurlari va radif haqida ta‘lim beriladi. Biz ushbu ilmlarning ahamiyatini nazarda tutgan holda maqolamizda radifning qo‘llanilishini Erkin Vohidovning «Yoshlik devoni» misolida o‘rganishni lozim deb topdik.

XX asrga kelib barmoq vazni o‘zbek she‘riyatida ham ommalasha boshladi va ijodkorlar bu vazni istifoda qilish bilan birga uni yuksak bosqichga olib chiqdilar, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham borki, asrlar osha turkiy she‘riyatning qalbi bo‘lgan aruz vazni nazardan chetda qola boshladi. «Eskilik belgisi» sifatida

qarab, davr ijodkorlari bu vaznda biror bayt yozmay qo‘ydilar. Shunday bir paytda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi zamonaviy she‘riyatimiz darg‘alari aruzni ham tashlab qo‘yganlari yo‘q. Xususan, Erkin Vohidov o‘zining aruz vaznda bitgan asarlarini jamlab, «Yoshlik devoni»ni tuzdi. Devonning har bayti shoirning qofiya, she‘riy san‘atlar va aruz ilmini naqadar mukammal bilganini isbotlay oladi. Shoir she‘riyati haqida atoqli shoirimiz, akademik G‘afur G‘ulom shunday fikr bildirgan edilar: «Erkin she‘riyatda taqlid davridan sakrab o‘tib ketdi. Navoiyga ham, Boburga ham, Mashrabga ham taqlid qilmadi. Ularga asir bo‘lib qolmadi ham. O‘sha mumtoz shoirlarning she‘r san‘ati sirlarini o‘rgandi. O‘rganganda ham qayta-qayta o‘rgandi». Darhaqiqat, Erkin Vohidovning birgina radif qo‘llash mahorati misolida shoirning qanchalar buyuk iste‘dod va ilm egasi ekanligini tasavvur qilishimiz mumkin.

Radif—«izma-iz keluvchi» ma‘nosini ifodalovchi so‘z bo‘lib, adabiyotshunoslikda qofiyadan so‘ng kelib, aynan takrorlanuvchi so‘z yoki so‘zlar birikmasini anglatadi.[2,156] Shoirlarning radif qo‘llashdan bir qancha maqsadlari bo‘lishi mumkin. Erkin Vohidov ham radiflardan unumli foydalangan. Jumladan, hisob-kitoblarimiz davomida shoirning «Yoshlik devoni»ga jamlangan 500 baytdan ortiq adabiy merosining 70%izida radif qo‘llanganining guvohi bo‘ldik. Radiflarning yig‘iq va yoyiq, yoxud bir so‘zli, ikki so‘zli, uch so‘zli, ko‘p so‘zli radiflar kabi turlarga ajratilishini inobatga olsak, shoir

ijodida faqat bir so'zli yig'iq radiflar qo'llanilgan. Ayrim so'zlar faqat bir martagina, ya'ni bir g'azaldagina radifga olingan bo'lsa, devonda bir xil radifli bir qancha g'azallarni ham uchratish mumkin. Quyida faqat bir g'azal doirasidagina radifga olingan so'zlarga, shuningdek, radiflarning ma'noviy vazifasiga diqqatini qaratsak:

Barcha shodlik senga bo'lsin, bor sitam, zorlik menga,
Barcha dildorlik senga-yu, barcha xushtorlik
menga.[1,62]

Yuqoridagi baytni bilmaydigan she'riyat ixlosmandi kam bo'lsa kerak. Shohbayt darajasiga ko'tarilgan ushbu bayt bilan boshlanuvchi g'azalda «menga» so'zi radif sifatida qo'llangan. Mumtoz adabiyotimizda «menga» so'zining «manga», «mango» tarzida radifga olinganini Navoiy, Mashrab, Ogahiy kabi ko'plab ijodkorlarning lirikasida ko'rishimiz mumkin. Erkin Vohidovda esa bu yanada o'zgacha ma'no kasb etgan. G'azalning boshidan to oxirigacha qofiyaga olingan «bemorlik, xummorlik, tikanzorlik, dilafgorlik» kabi so'zlarning yonida «menga» radifining takrorlanishi ma'noviy ta'kid, oshiq'larga xos bag'rikenglikni ko'rsatib berishga xizmat qilgan.

Navbatdagi baytga yuzlanamiz:

Aslida kim qarardi yotganda xor surma,
Bo'ldi aziz, ko'ziga surtganda yor surma.[1,64]

Ushbu baytda ham radifga olingan «surma» so'zi kuchli ta'kid ostiga olinishi bilan birga, shoir goh uni ta'riflaydi, goh sifatlaydi, gohida esa to'g'ridan-to'g'ri unga murojaat etadi. Murojaat orqali lirik qahramonning yor ko'ziga qo'ngan surmaga havas qilishini ham anglashimiz mumkin. Chunki surma mahbubaning ko'zida, ya'ni unga yaqin turibdi. Keyingi bayt:

Saydi ishq bo'lgan ko'ngilga qo'ymangiz behuda ayb,
Bo'lsa bandi domi sayyod, yo'q emish ohuda
ayb.[1,69]

«Ayb» radifli g'azal mumtoz adabiyot an'analarini o'zida aks ettirish bilan birga zamonaviy adabiyotga xos xususiyatlarni ham chetlab o'tmagan. G'azalda shoir «ayb»ni goh kimga yoki nimagadir to'nkaydi, gohida esa gunohkorni aybdan oqlaydi. Bizningcha, muallif badiiy-estetik maqsadini amalga oshirish uchun ham aynan «ayb» so'zini radif sifatida qo'llagan. Chunki azaldan e'tiborga molik so'zlar radif sifatida berilib kelingan. Radifga «mas'uliyat yuklash» holatini navbatdagi g'azalda ham ko'rishimiz mumkin:

Kimda iqtidor yo'qdir, ilm ila hunar zoye,
Iqtidor berurman deb chekma ranj, ketar zoye.[1,74]

G'azalni shartli ravishda «Zoye» radifli g'azali deb nomlaymiz. Ushbu g'azaldagi asosiy g'oya radifga olingan so'z yordamida oydinlashadi. Xususan, shoir iqtidori yo'q odamga ilm-hunar o'rgatish, tolesiz odamga oltin-u gavhar berish, muzyurak odamga quyoshni yoqib qo'yish, quyonyurak odamga arg'umoq-u tilla kamar berish besamardir, degan g'oyani o'quvchiga «zoye» so'zini takrorlash orqali yetkazmoqchi bo'lgan va buning uddasidan chiqa olgan ham. Shoirning «Yo'q» radifli g'azali ham badiiyat jihatdan juda mukammal hisoblanadi. Radifga olingan so'z beixtiyor Alisher Navoiyning «Yo'q» radifli g'azalini eslatsa-da, Erkin Vohidovning g'azali nazm mulkining sultonikidan ancha farq qiladi. Buni matla'dan ham sezishimiz mumkin:

Ko'yida men tosh boshimni urmagan ostonaga yo'q,
Elda bor shunday masal: Jon chekmasang, jonona
yo'q[1].

Muallif xalq maqol va iboralarining bilimdoni ekanligini shu ikki misra bilan isbotlagan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki 1-misradagi «tosh boshim» birikmasi xalqimizning «boshing toshdan bo'lsin» degan iborasini eslatsa, ikkinchi misradagi maqol—«Jon chekmasang, jonona yo'q» irsoli masal(maqol keltirish) san'atiga asos bo'lgan. G'azal ohangi va ma'nosi ham juda o'ynoqi, keyingi baytlar

davomida ishlatilgan talmih(Qays), tazod(oqil-devona), tanosub(mast, may, mayxona) va nido(oq qog'ozim) kabi she'riy san'atlar bunga dalil bo'la oladi.

Erkin Vohidov bir xil radifli bir qancha g'azallarni ham yozgan. Buning sababini g'azal mazmuniga faqat shu radif takrori mos bo'lishi bilan yoki shoirning radifga olingan so'zni qo'llashdagi badiiy maqsadi bir g'azalning o'zida yetarlicha amalga oshmagani bilan izohlash mumkin. Masalan, «Yoshlik devoni»da «qalam» radifli ikkita g'azalga duch kelamiz. Muallif bu ikkisini «Qalam» va «Yana qalamga» deya nomlaganidan ham bir g'azal bilan tugal ifodat topmagan fikrlarning keyingi g'azalga ko'chishi, ta'bir joiz bo'lsa, asos bo'lishi deya izohlasak, xato bo'lmaydi, bizningcha. E'tiboringizga ikkala g'azalning ham matla'sini havola qilsam:

Ulfatimdir sham yanglig' kechalar tanho qalam,
Men-ku she'r Majnunidirman, sarvqad Laylo
qalam[1].

Bargi gul qog'ozim o'lsin, shoxi gul—xoro qalam,
Lafzi bulbul birla qilsin ishq so'zin insho qalam[1].

Ikkala g'azal ham bir xil—ramali musammani mahzuf vaznida yozilganidan va qofiyasi ham o'xshash, ya'ni raviiy tovush ikki g'azalda ham «o» harfi bo'lganidan bir qarashda ularni bir-biridan ayro tasavvur qilish qiyinday. G'oyaviy-mazmuniy jihatdan ham ular o'xshash. Chunki shoir 1-g'azalda o'zini Majnun, qalamni Laylo desa, keyingi g'azalida ushbu ashyoni o'ziga dardkash, maslakdosh deb biladi va tashbihlardan foydalanib go'zal ta'riflar yaratadi. Shunday bir xil radifli g'azallarni Devondan izlaydigan bo'lsak, «Davron yuki» va «Hijron yuki» sarlavhali ikki g'azal e'tiborimizni tortishi aniq. Zotan, bu g'azallar ham yuqoridagi radifdoshlar singari bir xil vaznga, bir xil raviiyga va tabiiyki, bir xil radif va ohangga ega.

«Davron yuki»ning matla'si:

Aylanur inson boshidan ming asr osmon yuki,
Dona bug'doy uzra go'yo sangi tegirmon yuki[1].
«Hijron yuki»ning matla'si:

Roziman tushguncha dilga nogahon hijron yuki,
Nogahon, mayli, tanimdan ayru bo'lsin jon yuki [1].

Matla'lardan ham ma'lumki, ikki g'azal bir-biriga shakliy jihatdan yaqin bo'lsa ham, mazmuniy jihatdan juda uzoq. Ya'ni ohangga shaydo bo'lib, ma'noni ko'zdan qochirishimiz kerak. Dastlabki g'azalda ijtimoiy masalalar, olam va odam haqidagi fikrlar, didaktik g'oyalar aks etgan bo'lsa, keyingisiga Alisher Navoiyning «Aylagin jondin judo, etguncha jonondin judo» misrasi epigraf qilib olingan va bosh mavzusi—oshiqning hijron iztiroblarini ko'rsatish.

Erkin Vohidov ijodida yordamchi so'zlarni ham radif sifatida qo'llanilishi holatini ko'rishimiz mumkin. Masalan, «Ham» radifli ikkita g'azal, «Bilan» radifli ikkita g'azal «Yoshlik devoni»ga kiritilgan. «Bilan» radifli g'azallarida ham shakliy, vazniy va qofiyaviy o'xshashlikni ko'ramiz. Ulardan birida tarozu, inju, jodu, kulgu, ko'zgu, orzu so'zlari qofiyaga asos bo'lsa, boshqasida yog'du, suv, og'u, qayg'u, uyqu kabi so'zlar qofiya qilib olingan. Vaznlari mumtoz adabiyot uchun an'anaviy ramali musammani mahzuf vaznida, mavzu jihatdan ikkala g'azal ham ishqiy g'azal. Yuqoridagilardan farqli ravishda, «Ham» radifli g'azallarda shakliy o'xshashlikni sezish qiyin. Buning sababini qofiyadagi raviiylarning bir xil emasligi bilan izohlash mumkin. Ammo ikkala g'azal ham adabiyot muxlislari orasida ma'lum va mashhur. Ulardan birini shoir «Do'st bilan obod uying» deb nomlagan, ikkinchisi esa «Rashkim» deb atalgan. Matla'larga e'tibor qaratsak:

«Do'st bilan obod uying, gar bo'lsa u vayrona ham,
Do'st qadam qo'ymas esa, vayronadir koshona ham.»

[1]

«Seni yotlar tugul hatto qilurman rashk o'zimdanda ham,

Uzoqroq termulib qolsam, bo'lurman g'ash ko'zimdan ham.»[1]

Demak, radifdagi bir xillikni shunchaki tasodifiy o'xshashlik deyishimiz mumkin. Bundan tashqari, Erkin Vohidov bir xil asosli radiflardan ham unumli foydalangan. Ya'ni shoir ijodida «qil» fe'li bilan bog'liq «qilsin, qilur, qilmas, qil» radifli g'azallarni uchratishimiz mumkin. Bu g'azallar mazmun jihatidan bir-biriga yaqin. «Qilsin», «Qilmas» va «Qilur» radifli g'azallar ishqiy mavzuda, ammo «Qil» radifli g'azal shoirning «Kulgu mushoiralari» turkumidan olingan. Muallifning o'zi g'azalni «Nasihah» deb nomlagan va unda hajviy ruh sezilib turadi. Matla'dan ham buni sezishimiz mumkin:

Qo'lni ishga mohir etma, tilni gapga usta qil,

Ishni bir qilgan joyingda gapni albat yuzta qil[1].

Shoir hatto hajviy she'rlarida ham shakliy va ma'noviy mukammallikdan chetlashmagan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Erkin Vohidov «ilmi qofiya»ning bilimdoni sifatida radiflarni ham o'z o'rnida, rang-barang tarzda qo'llay olgan. Radifning qofiyadan keyingi hech bir takrorida ortiqchalik, yuzakilik sezilmaydi. Aksincha, radifga olingan so'zning har bir takrorida o'zgacha ma'no qirralari, o'zgacha ta'kid va o'zgacha ohangni his qilish mumkin. Shu tufayli bo'lsa kerak, shoirning adabiy merosi davrlar almashinsa ham, umrboqiyiligini yo'qotmaydi, o'zining yangi ixlosmandlarini topaveradi, she'riyat muxlislarining qalbini zabt etaveradi.

ADABIYOTLAR

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018.
2. Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998.
3. Husayniy. Badoye us-sano'ye. –Toshkent: G'afur G'ulom, 1981.
4. Hamdam Abdullayev. Erkin Vohidov-zamonamiz klassigi. –Toshkent: 2006.
5. To'xta Boboyev. She'r ilmi ta'limi. –Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.



UDK:821.512.133.0981.38.

Dilnoza QURBONOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail:qurbonovad481@gmail.com

BuxDU dotsenti, PhD M.Akhmedova taqrizi asosida

EFFECTIVE USE OF ELLIPSIS IN ENGLISH AND UZBEK ADVERTISING

Annotation

This article aims at investigating the extent to which the conventions of the English and Uzbek languages are broken in advertising. There are also shown the practical usage of elliptical features, structure and types in this paper. This article is based on several examples of elliptical advertisements which strengthen the theoretical part of it.

Key words: Ellipsis, syntactic form, antecedent, phrase ellipsis, stylistic device, elliptical constructions, verbal ellipsis, nominal ellipsis.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ELLIPSIS (SO‘ZLARNING TUSHIB QOLISHI)DAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek va ingliz tillaridagi reklamalarning birliklaridan bo‘lmish ellipsisning ahamiyati, xususiyatlari hamda turlarini yoritib berishga bag‘ishlangan. Mavzuga aloqador nazariyani yoritib berish maqsadida bir necha misollar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: Ellipsis, sintaktik shakl, elliptik birikmalar, stilistik vositalar, elliptik tuzulish, fe‘lning reklamalarda tushib qolishi, otning reklamalarda tushib qolishi.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЛИПСИС В АНГЛОЯЗЫЧНОЙ И УЗБЕКСКОЙ РЕКЛАМЕ

Аннотация

Данная статья посвящена разъяснению значения, особенностей и видов многоточия, являющегося одной из единиц рекламы на узбекском и английском языках. Он обогащен несколькими примерами, чтобы прояснить теорию, связанную с темой.

Ключевые слова: Эллиipsis, синтаксическая форма, эллиptические сочетания, стилистические приемы, эллиptическая структура, пропуск глагола в объявлениях, пропуск имени существительного в объявлениях.

Introduction. Ellipsis is a linguistic term used in grammatical analysis to refer to a sentence where a part of the structure has been omitted. There are some reasons for usage of elliptical constructions in a certain language can be economy, emphasis of an individual part of a sentence and the matter of style [1]. Ellipsis can be considered to overshadow the basic question of form-meaning correspondence and the usual mechanism of grasping a meaning out of its form is bypassed in the interpretation of elliptical constructions. The fairly various picture of mapping of ellipsis poses a direct impediment for Computational Linguistics. The latter one seems to show that language is a correlation of syntactic forms with meaning and there is a systematic mapping from form to meaning in human language [2]. Ellipsis represents case of context sensitivity. Ellipses provide an interesting view of the sentence structuring process. There are two prevalent and most used types of ellipsis: verbal and nominal.

Literature review. Verb phrase ellipsis is one the most common ellipsis to occur in a linguistic material and consequently it studies relatively more. Any verbal group that does not contain a lexical verb is elliptical. In verbal phrases ellipsis is not expressed but it is identical to an averted verb phrase in the context. By the given description of verb phrase ellipsis we should consider two main questions: that of identity and locality. The dilemma on identity is whether verb phrase is identical to the syntactic form or to the meaning, whereas locality touches the matter of determining verb phrase

ellipsis. Semantically a verb phrase ellipsis should be identical with the antecedent verb phrase.

Research Methodology. The methods applied in this study are the following:

Descriptive analytical was applied in order to test the overview of ellipsis found to characterize persuasive language in television, radio and the press.

Theoretical analysis made it possible to analyze the scientific literature regarding the lexical features of advertising language.

There is observed verbal ellipsis in advertisements in both two languages.

For example:

[Are you] Mates coming around? (advertisement for Heineken beer)

[Are you] Feeling fruity? (advertisement for Del Monte juice)

In this example we see the missing antecedent for the auxiliary verb “to be” and here the full meaning of the sentence is not destructed.

“Aziza Ziyo” orzular ro‘yobi [amalga oshadi] (advertisement for an educational centre)

Hazmi taom uchun uch tomonlama ta’sir [ko’rsatadi] (advertisement for medicine Festal which helps to digest)

As it is obvious in the example above there is the verb is omitted. The omission never interfere the meaning of advertisement.

The second type of ellipsis is nominal ellipsis.

[It] Starts perfect... [It] Stays perfect (advertisement for Max Factor make up foundation)

The dream to [your] dream car is [your] home (advertisement for Halifax Insurance)

In both examples there are pronouns are omitted in order to reach the readability of the ads. Such type of ellipsis could be observed in advertisements in Uzbek as well.

[Siz] O'z mo'jizangizni yarating (advertisement for Melek draught)

[U] Yo'talni zabt etadi (advertisement for Gerbion syrop)

In ads Uzbek examples there are also pronouns are omitted in order to reach the readability of the ads.

Analysis and results. Elliptical construction gives the availability to understand a full meaning with an elided sentence, and the recoverable meaning can be expressed partially contained in ellipsis either in semantic or syntactic terms. The basic premise of specialist is to examine ellipsis in both the given terms (syntactic and semantic) and to provide answers to the identity questions of ellipsis. Ellipsis is ruled by a semantic identity condition.

For example:

My mother practically told me, "You know that what you're doing is a career (1), right?" I said, "Is it [a career], really?" (2)

In the above mentioned example the elided sentence (2) is semantically identical with its antecedent (1) while structural identity match is not witnessed. Ellipsis really has broad connections with external, non-linguistic mechanisms such as inference and deduction.

Logical form identity theory is the most accepted account of VPE. The theory requires the logical form of the elided VP be equivalent to that of the antecedent VP, up to alphabetic variance. Ellipsis occurs more frequently in conversation in replies and questions. In these cases ellipsis is pictured via leaving the main verb out and using modal verbs or just a previously used auxiliary. In questions interest and surprise can be expressed by means of ellipsis.

For example:

What would surprise people the most about you?

People assume because I have a very thick skin that I don't have feelings. I don't

[have feelings], for the most part.

In the underlined part of the given example the elided sentence has a subject expressed by a pronoun and the predicate contains only an auxiliary verb. The non-elliptical version of this answer would sound "I don't have feelings."

The elliptical questions in conversations can only contain a single word (no matter what part of speech it is) only if the context makes the intended meaning clear. The words can be "wh"-word or just a few words such as "now", "tonight", "Coffee, please". Ellipsis in replies has a group of words rather than a full sentence. We generally avoid repeating words used in the question.

For instance:

I keep my hands clean! Why can't he? [keep his hands clean] (Advertisement for Lava soap)

This elliptical answer sentence can be recovered via the question and be easily understood.

Evidence of ellipsis is found in agreements. We utter elliptical sentences when agreeing with what has just been said. Here the common means is using "too" after an auxiliary. Implementation of "so" and "either", "neither", "nor" followed by the auxiliary form of "be".

Noun phrase ellipsis is defined when the noun and the potentially accompanying modifiers are omitted

from a noun phrase. This type of ellipsis is also referred to as nominal, subject ellipsis. Although there have been theoretical attempts to explain English subject ellipsis, they have not generally described the phenomenon in great detail. The studies of child language acquisition have revealed evidences of subject omission in child speech. The most commonly omitted subjects are considered to be "I" and "it" and their identities were recoverable from the preceding linguistic information. Sentences in English typically contain overt subjects. However subject ellipsis is not a rarity especially in conversation [3]

Sentences lacking overt subjects are interpretable and not appear to be errors on the part of speakers. For example in a "don't know" answer to a question one does not know the answer to, we understand who is the doer of the action, although the subject "I" is amiss. Subject ellipsis has been studied within specific genres of text such as diary registers and telegraphic communiqués where economy is paramount. It is suggested, that because English speakers cannot use verbal agreement to identify ellipted subjects, they must look for antecedents in the broader context of the text, but do not make any claims about the syntactic properties of a null subject that might influence its identification. More recently S. Nariyama examined a corpus of Australian English composed of dialogues from Australian TV dramas and argued that the subject sentences in English carry different connotations than their "normal" equivalents. It is also suggested that in emails a more casual attitude is reflected towards the reader on the part of the author. As it is mentioned above, the most commonly omitted subject is "I" while there have been witnessed cases of "he, she, it"- subject ellipsis, too. Anyway, the main characteristic feature of subject ellipsis and generally ellipsis is that of recoverability.

Ellipsis belongs to cohesive devices and it is defined as the omission of part of a structure [4]. Ellipsis in advertising is used for many purposes:

- For economical reasons; to save space and money because words cost money. Cook gives following example of anaphoric textual ellipsis: "When Lisa made a surprise visit, you didn't have time to worry about spotted glasses. Fortunately, you didn't have to. Cascade. Because you don't have time for spots." The second orthographic sentence contains ellipsis. Repetition of these elements would be needless. There is ellipsis also in the last two orthographic sentences 'Cascade' (a single word) and 'Because of you don't have time for spots' (a subordinate clause). In the latter case, a main clause seems to have been ellipted in entirety. But the missing elements are by no means clear." The main clause we can only deduce. It may be started with "You ought to use Cascade... "You ought to buy Cascade... ..because you don't have time for spots." "We recommend Cascade..."

- As he postulates to avoid drawing attention to features of the message which do not serve the advertiser's interest.

- To create a sense of informality.

Conclusions and suggestions. We observed linguistic device which are most frequently used in English advertisements is ellipsis. When ellipsis is used it saves not only space but else money. Because in ads words cost money. Therefore it is economical reasons advertisers prefer such linguistic device.

Ellipsis is normally used in spoken language, in face-to-face casual communication. Ellipsis in advertising creates an effect of closeness with the reader and conversational tone; sometimes suggests immediacy.

There is observed similarities between two languages on the usage of degrees of adjectives in advertising. The above described linguistic features such as grammatical structure, linguistic devices such as ellipsis provide learners a rich

experience of language usage. This learning lightens the flame authentically.
of creativity and motivates them to use the language

REFERENCES

1. Crystal D. Dictionary of Linguistics and Phonetics. – London: Blackwell Publishing, 2008. P. 173.
2. Hardt D. Verb Phrase Ellipsis: Form, Meaning, and Processing. – Philadelphia: University of Pennsylvania, 1993. P. 43.
3. Biber D., Johanson S., Leech G., Conrad S. and Finegan E. Grammar of Spoken and Written English. – UK: Longman Pearson Education Limited, Essex, 1999. P. 47.
4. Goddard A. The language of advertising. – New York: Routledge, 2002. P. 55.
5. Anh N. T. An investigation into linguistic features of some stylistic devices in English and Vietnamese advertising language. – Vietnam: Danang, 2012. P. 59.
6. Lakoff and Johnson. Metaphors We Live By. – Chicago: The university of Chicago press, 1980. P. 11.
7. Reeves R. Language of advertising. – New York: Prentice-Hall, 1973. P. 3.
8. Cuddon J.A. The Penguin dictionary of literary terms and literary theory. – London, UK: Penguin Books. 1999. P. 37.
9. Linguistic encyclopedic dictionary / ch. ed. V.N. Yartsev. -2nd ed., add. M.: Great Russian Encyclopedia, 2002. - 709 p.
10. Makhonina A.A. Experience in the typology of interlingual gaps / A.A. Makhonina, M.A. Sternina // Gaps in language and speech: Sat. scientific tr. Issue. 2. Blagoveshchensk: Publishing house of BSPU, 2005. - pp. 47 - 51.



Ma'suma MO'MINOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: masumamuminova@gmail.com

Taqrizchi Filologiya fanlari doktori, professor Z.T.Xolmanova

“SUV” KOMPONENTLI BARQAROR BIRIKMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotsatsiya

Maqolada “suv” tushunchasining konsept, leksema sifatidagi talqinlari, suv bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar xususida fikr yuritilgan. Suv komponentli lingvistik birliklarning til sohibi dunyoqarashi, ijtimoiy turmush tarzi, madaniy munosabatlari bilan bog'liq belgilarni ifoda etishdagi lingvokulturologik jihatdan ahamiyati ko'rsatib berilgan. Suv leksemasining assotsatsiyalari miqdori va mazmuni ko'rsatilgan tadqiqotlar tahlil etilgan. Turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida suv so'zining semalari dennotativ hamda konnotativ xususiyatlarni namoyon qilishi, “ichish”, “yuvish”, “sug'orish” singari semalarda suvning inson hayotidagi birlamchi vazifasi aks etganligi misollar asosida tahlil qilingan. Suv komponentli frazemalar mazmuni yoritilgan. Suv komponentida o'zbek xalqining ijobiy va salbiy bahosi ifodalangan matnlar izohlangan. Suv leksemasining axborot berishdan tashqari madaniy kod sifatidagi funksiyasi tarixiy-badiiy matnlar misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Suv, konsept, komponent, lingvokulturologiya, denotativ ma'no, konnotativ ma'no, sema, madaniy kod, ijobiy baho, salbiy baho, antroposentrik tilshunoslik.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КОМПОНЕНТА "ВОДА" ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ СОСТАВОВ

Аннотация

В статье рассматриваются трактовки понятия «вода» как концепта, лексемы, а также исследования, проведенные на воде. Показана языковая значимость языковых единиц с водным компонентом в выражении признаков, связанных с мировоззрением, общественным образом жизни, культурными отношениями носителя языка. Проанализированы исследования, указывающие на количество и содержание ассоциаций лексем воды. В тюркских языках, в частности, в узбекском, значения слова вода проявляют денотативные и коннотативные свойства, а первичная функция воды в жизни человека отражается в таких значениях, как «пить», «умывать», «поливать». Объясняется содержание словосочетаний с водным компонентом. В водной составляющей интерпретируются тексты, выражающие положительную и отрицательную оценку узбекского народа. На примере историко-художественных текстов раскрывается функция лексемы воды как культурного кода помимо информационной.

Ключевые слова: Вода, концепт, компонент, лингвокультурология, денотативное значение, коннотативное значение, sema, культурный код, положительная оценка, отрицательная оценка, антропоцентрическая лингвистика.

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF THE "WATER" COMPONENT OF RESTORATION COMPOUNDS

Annotation

The article discusses the interpretations of the concept of "water" as a concept, a lexeme, and the research conducted on water. Linguistic significance of linguistic units with a water component in expressing signs related to the worldview, social lifestyle, and cultural relations of the language owner has been shown. The studies that indicated the quantity and content of water lexeme associations were analyzed. In Turkic languages, in particular, in Uzbek, the meanings of the word "water" show denotative and connotative properties, and the primary function of water in human life is reflected in "drinking", "washing", "watering" themes. In the water component, the texts expressing the positive and negative evaluation of the Uzbek people are explained. The function of water lexeme as a cultural code in addition to providing information is revealed on the example of historical-artistic texts.

Key words: Water, concept, component, linguoculturology, Denotative meaning, connotative meaning, sema, cultural code, positive evaluation, negative evaluation, anthropocentric linguistics.

Kirish. Dunyo tilshunosligida leksema, leksemaning lisonga xos belgilari, semantik tarkibi, valentlik darajasi, uzual va okkazional semalar, milliy-madaniy xususiyatlar, ijtimoiy-diniy, milliy-madaniy munosabatga asoslangan kodlar, hosila semalarning shakllanishi va ularda millatlararo mushtarak semalarning aks etishi, konsept, tushuncha, lug'aviy ma'noning ifoda etilishida mental ong, milliy-madaniy tafakkurning o'rni lingvistik tadqiqotlarda yoritilgan. Bu borada muayyan leksema semantikasi bilan bog'liq bo'lgan sodda va qo'shma leksemalar, birikmalar, tasviriy ifodalar, milliy lisoniy manzara, folklor va yozma adabiyot namunalari, frazeologizm, paremiologik fond namunalari tahlil etishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham suv leksemasi va u bilan bog'liq so'zlar tadqiqi amalga oshirilgan. Jumladan, tilshunos X.Jabborov suv leksemasining 30 ta semasini ajratib, shu asosda leksik birliklarni tahlil qilgan.[Jabborov X. O'zbek tilida suv leksemasining lug'aviy-ma'naviy xususiyatlari. Monografiya, 6] A.Sobirov o'zbekcha suv so'zining bir necha semantik va grammatik xususiyatlarini tahlilga tortadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi paytda rus tilshunosligida lingvokulturologik sathda rus tilidagi paremiyalarni boshqa tillarga qiyosan o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ishlar mavjud (V.Pikalova [Pikalova V.V. Etnokulturniye normi rechevogo povedeniya v paremiologicheskix yedinitсах angliyskoy i russkoy lingvokultur: Avtoref. disc. ... kand. filol. nauk / V.V.

Pikalova, 8]; E.Abisheva [Abisheva YE.M. Konseptualniye inversii: konsept «chudo»: na materiale russkix i irlandskix poslovits, pogovorok i skazok: Avtoref. disc. ... kand. filol. nauk / YE.A. Abisheva, 2]; J.Apekova [Apekova J.SH. O ponyatii "pravda" v kabardinskix paremiyax / J.SH. Apekova // Vestnik Adigeyskogo gosudarstvennogo universiteta. Ser.: Filologiya i iskusstvovedeniye, 3] va boshqalar). V.V.Jdanova tadqiqoti rus paremiyalarining monografik plandagi lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan [Jdanova, V.V. Poslovitsi i pogovorki kak istochnik izucheniya russkogo kulturno-yazikovogo soznaniya / V.V. Jdanova // Russkiy yazyk kak inostranniy: Teoriya. Issledovaniya. Praktika, 5].

Tadqiqot metodologiyasi. Suv tiriklik uchun zarur bo'lgan ne'mat hisoblanib, uning xususiyatlari tabiiy fanlar kesimida tadqiq qilingan. Suvning agregat holatlari, fizik va kimyoviy xossalari, agrotizimdagi o'rni aniq va tabiiy fanlar doirasidagi asosiy mavzulardan biri sanalsa, ijtimoiy fanlar, xususan, falsafada, adabiyot, tilshunoslik sohalaridagi suv bilan aloqadorlikdagi talqinlar moddaning agregat holati va xususiyatlari bilan bog'liq. Ijtimoiy-gumanitar sohalarida suv va inson xarakter-xususiyatlari, temperament, mijoz, xulqning o'zaro bog'liq jihatlari haqidagi qarashlar keng tarqalgan. Aniq va tabiiy fanlarda suv mavjud moddiylik, kimyoviy ashyo sifatida tadqiq qilinadi. Ijtimoiy-gumanitar sohalarida suv konsept, tushuncha, leksema darajasida tahlil qilinadi. Bugungi kunda dunyo tilshunosligida yuzga yaqin tadqiqot metodlari qayd etilgan bo'lib, lingvistik obyektning turli jihatlari va xususiyatlarini aniqlashga, dalillashga qaratilgan. Ularning aksariyatini uch paradigma asosida birlashtirish mumkin bo'ladi: qiyosiy-tarixiy paradigma; struktur-sistem paradigma; antropotsentrik paradigma. Mazkur paradigmalar ketma-ketligini har bir leksema, lingvistik kategoriyalar tadqiqida ko'rish mumkin. Shunga asoslanib, suv leksemasi bilan bog'liq izlanishlarni tadqiqot yo'nalishiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin: 1. Qiyosiy-tarixiy paradigma asosidagi tadqiqotlar. 2. Sistem-struktur paradigma asosidagi tadqiqotlar. 3. Antropotsentrik paradigma asosidagi tadqiqotlar.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati suv va suv komponentli leksemalarning semantik tarkibi o'rganilganligi, dunyo tilshunosligida leksikologiya, semantika sohalarida qo'llanishida namoyon bo'ladi. Komponent tahlil metodi o'zbek tilining leksik, frazeologik, paremiologik birliklariga oid asosiy tadqiq usuli bo'lib, leksikologiya, semantika, kognitiv-semantika, lingvokulturologiya yo'nalishidagi tadqiqotlarda keng foydalaniladi.

Tahlil va natijalar

Suv borliqni, tiriklikni tashkil etuvchi to'rt unsurning biri bo'lib, ilm-fanida suv va uning tabiiy xususiyatlari, xossalari bilan qiziqish qadimgi dunyo sivilizatsiyalaridan beri davom etib kelmoqda. Fanning turli sohalarida uning tarkibi, agregat holatlari, tabiatdagi aylanish tizimi xususida turli nazariyalar yaratildi. Suv havzalari madaniy sivilizatsiyaga ham asos bo'lib, qishloq, aholi yashash putklari va yirik shaharlarning vujudga kelishida poydevor vazifasini o'tagan. Suv insonning birlamchi ehtiyoji va turmush manbasi sanalganligi bois tilning lisoniy zahirasida u bilan birikma hosil qiladigan minglab turg'un birliklar, obrazlar, afsonalar va rivoyatlar vujudga kelgan.

Suvning madaniy kod sifatidagi xususiyati barqaror birikmalarda to'liq namoyon bo'ladi. Frazemalarda madaniy kod obrazli tafakkur fonida namoyon bo'ladi.

Suv komponentli frazemalarda quyidagi milliy-madaniy xususiyatlar aks etgan:

1. Biologik jarayon o'z ifodasini topgan. Og'zining suvi kelmoq frazemasi insonning tabiiy refleksi bilan bog'liq holatini ifoda etadi. Bu ibora, asosan, och holdagi odamda taom yoki yegulik nomini eshinishi, ko'rishi bilan yuz beradigan fiziologik holatni aks ettiradi. Og'zida bezlar

tomonidan ajratiladigan so'lakning paydo bo'lishiga ishora qiladi.

Og'zi suv ochmoq – og'zi qurib qolmoq, chanqamoq. Nordon anor yeyayotgan bolani ko'rib og'zi suv ochib ketgan surnaychining so'lagi to'lib qolgan surnayning uni o'chadi (O'H,41)

Og'zi ko'pirib maqtamoq iborasi ham tez yoki tinimsiz gapirish natijasida so'lakning ko'pirib og'zidan tushish holatni mubolag'ali tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Ko'pirish ham so'lakka asoslansa-da, ko'pirishga nisbatan suv yoki suvlanish so'zlari qo'llanmaydi.

Suv yugurdi nimaga (meva g'o'rasiga) pishishga yaqinlashib, maza kirib qolmoq: Atrof ko'm-ko'k. Daraxtlar quyulgan. Oq o'rik g'o'rasiga suv yugurib, danagi qoraymoqda, gilolar qizarib yetilmoqda. I. Rahim. Ixlos (SHR).

Suvi qochgan –1. Bir oz qota boshlagan. Kampir ...eski dasturxon yozib, suvi qochgan ikkita nonni sindirib, o'rtaga jiyda to'kdi. A. Muxtor. Tug'ilish; 2. Yetilish davridan o'tgan, so'linqiragan (SHR). Abdulla Qahhor bu iboradan shaxsning ko'rinishini tasvirlashda foydalangan:

Xudo yorlaqag'an kun ozodliqning palovi, shunda ham Anvar kech kelib sovg'an oshni yer, uyda issiq non yopilmas, hamisha panjshanba kun yig'ilg'an non suvi qochib, taraqlab kelasi panjshanbag'acha kafolatni o'z ustiga olar edi (AQ.29) "Bordi-yu Latofatxon degani suvi qochib, shoxida mayiz bo'lgan kampirsimon bir inson bo'lsa-chi?" A. Qahhor. Ko'k konvert (SHR).

Suvni loyqalatmoq kim biror masalani ataylab chalkashtirib, orada ishonchsizlik ixtilof keltirib chiqarishga harakat qilmoq: Yana qaytib kelib, yana suvni loyqalata boshladi. S.Anorboyev. Oqsoy (SHR).

Qo'lini sovuq suvga urmoq (O'TIL,3,577) iborasi ham real voqelikka asoslangan. Suvning sovuqlik belgisi "qiyinchilik", "mashaqqat", "mehnat" semalarini ifodalaydi. Iboraning mazmuni qish kunlarida sovuq suvga qo'l urishning salbiy belgilari asosida shakllangan. Shu asosda sovuq suv "mashaqqatli mehnat" semasini ifodalashga muvofiqlashgan.

2. Shaxsning jismoniy faoliyati, to'siqlarni yengish qobiliyati namoyon bo'ladi: Suv kelsa – simirmoq, tosh kelsa – kemirmoq kim har qanday qiyinchilik-to'siqlarni bardosh berib yengib o'tmoq. Bu frazema ham shaxs faoliyatiga berilgan bahoni ifoda etadi. Ha, Valixon-chi, aylanay!.. Qo'ylarim deb suv kelsa – simiradi, tosh kelsa – kemiradi. S. Abduqahhor. Yangi uy (SHR).

Suvga tushsa – cho'kmaydi, o'tga tushsa yonmaydi. Qisqartirilgan shaklda: o'tda yonmaydi, suvda cho'kmaydi, deb ishlatiladi. Ibora har qanday og'ir sinovga ham bardosh berib, o'zligini saqlab qolmoq tushunchasini anglatadi. Varianti: o'tda kuymas, suvda cho'kmas. Yo'q, bizning Egamberdi o't da kuymas, suvda cho'kmas yigitcha. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar (SHR).

O'zini o'tga (ham), suvga (ham) urmoq (O'TIL,3,577) iborasi o't va suvning qarama-qarshi semantikasiga asoslangan. Iborada "hamma narsaga qo'l urmoq", "o'zini ayamaslik", "ko'p harakat qilish", "tinmaslik" semalari aks etgan. Umumlashgan holda "hamma joyga va narsaga" degan tushunchani anglatadi. Bu ibora mumtoz manbalarda ko'p uchraydi: Bog'labon bir pora bo'zda beshu kam, Utqa oni tashlay olg'oy, suvga ham (NR,137). Bu jumladagi o't va suvning takrori umumlashgan ma'no ifodalagan.

Suvini ichib yurmoq– tirikchilik qilmoq. U [Tojiddin] suvchilikning suvini ichib yurgan odam. A. Abduraimov, Cho'l burguti (O'TIL,3,577). O'zbek tilida shu ma'nodagi nonini yemoq, nonini yeb yurmoq iborasi keng qo'llanadi. Suvini ichib yurmoq iborasi kam ishlatiladi.

3. Ruhiiy, psixologik jarayon o'z aksini topgan. Suvini siqib ichmoq – azoblash, ruhiy jihatdan azoblamoq, ezilishga, siqilishga sabab bo'lmoq. Og'ziga suvluq solib olmoq –

jilovlab olmoq, bo'ysundirmoq. Ma'lumki, otga solingan suvluq uni oson bo'ysundirish imkonini beradi. Ot temir suvluqning ra'yiga qarab buriladi va harakatlanadi. Chavandoz suvliq orqali otni istalgan tomoniga yo'naltiradi, boshqaradi. O'zbek tili sohibi bu holatdan insonni izmiga solish, bo'ysundirish, aytganini qildirish holatlarini ta'sirchan ifodalashda foydalanadi.

Suv bo'lib oqmoq – nihoyatda bo'shashmoq. Anvarning qarashidagi ma'noga tushungan Sultonaning yuragi suv bo'lib oqdi va hushsiz, hissiz, Anvar ko'zdan yo'qolg'uncha qarab qoldi...(AQ.146)[Qodiriy A. Mehrobdan chayon, 9].

Sovuq suv quygandek –seskanmoq, kutilmagan xabarni eshitish natijasidagi ruhiy holatni bildiradi: To'satdan uning ustidan bir chelak sovuq suv quyilganday bo'ldi-yu, a'zoyi badani muzlab, bo'shashib, boshi yostiqa «shilq» etib tushdi (YUT,85)

4. Empirik bilim, tajriba aks etgan. Sirkasi suv ko'tarmaydigan odam Gap ko'tarmaydigan, ta'bi nozik odam. Sirka kislotaning suvdagi eritmasi mevalarni konservalashda, ovqatga qo'shiladigan ziravor sifatida ishlatiladigan o'tkir hidli, achchiq-nordon mazali suyuqlik (uy sharoitida uzum, olma va sh.k. shirin mevalarning sharbatidan ham maxsus usulda tayyorlanadi). (O'TIL,III,522). Kislotaning o'zini ishlatib bo'lmaydi, uning suvdagi eritmasi iste'molga yaroqli mahsulot sifatida ishlatiladi. Sirkani suvda eritish – tabiiy va amalga oshirish zarurat hisoblangan jarayon. Frazemaning asosida sirka kimyoviy elementining suvda eritilish xususiyati yotadi.

Suv sepgan – o'chirgan: Saboning salqin yeli bilan yong'inli boshimga suv sepgan yellarga salomlar yubordim. Qora yuragimning so'kilgan yaproqlarini nur iplari bilan yurmalagan to'lg'un oylarga ta'zimlar yo'lladim (VM,96)[Mahmud V. Tanlangan asarlar. Munaqqid haqida so'z,15].

Suv sepgan frazemasi birikma bilan omonimlik hosil qiladi, ya'ni ushbu so'zlar erkin birikma tarzida ham

qo'llanadi. Qayd etilgan matnda yellarning suv sepishi qahramonning yong'inli boshiga yo'naltrilgani uchun ham ko'chma ma'no ifodalab, barqaror birikmani yuzaga keltirilgan.

Xulosa va takliflar. Barqaror birikmalar ikki va undan ortiq leksemalarning semantikasiga asoslangan, ko'chma ma'noda yaxlitlik hosil qiluvchi til birliklaridir. Barqaror birikmalar bir so'zning boshqa so'zlar bilan aloqadorlikdagi semantikasiga asoslangani uchun ham borliqni ifodalashning o'ziga xos lisoniy vositasi sifatida baholanadi. Barqaror birikmalarda konseptning asosiy va muhim qirralarini umumlashtirib, jamlab, yaxlitlikda ko'rsatish imkoniyati mavjud.

2. Suv komponentli frazemalar fikrni ta'sirchan va obrazli ifodalashda ahamiyatlidir. Frazemalarda suvning madniy kod sifatida belgilari aks etadi. Suv ishtirokidagi frazemalar shaxsning ruhiyati, harakat-holati, ijtimoiy faoliyatini ifodalagan. Suv komponentli frazemalar tarkibida xalq qadriyati, urf-odati, an'alariga oid tushunchalar ham ishtirok etib, suv leksemasining semantikasini ifodalashga xizmat qiladi. Frazemalarda suvning "oqish", "tozalik", "poklash", "ketkazish" semalari aks etgan.

3. Suvning to'rt hayot unsurlaridan biri sifatidagi xususiyatlari xalq og'zaki ijodida, mifologik ramzlar, marosimga oid matnlarda, maqollarda kuzatiladi. Xalqning suvga bergan bahosi, munosabati maqollarda o'z ifodasini topgan. Maqollarda suvning xususiyatlari, belgilari xalq tajribasi kuzatishlari asosida namoyon bo'ladi.

4. Suv ishtirokidagi barqaror birikmalar tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan. Frazemalar shakllanishida so'zning nomlash, belgi-xususiyatni ko'rsatish funksiyasi aks etadi. Barqaror birikmalarda xalq dunyoqarashi, urf-odat, an'analari, marosimlari, ijtimoiy-madaniy munosabatlari o'z aksini topgan. Maqollar, frazemalar tarkibida so'zning struktur-semantik belgilariga xos o'zgarishlar kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdushukurov B. XI –XV asr yozma manbalarida qo'llanilgan zoonimlar// Oltin bitiklar. –Toshkent, 2019. –B.78.
2. Абышева Е.М. Концептуальные инверсии: концепт «чудо»: на материале русских и ирландских пословиц, поговорок и сказок: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук / Е.А. Абышева. – Тюмень, 2008. – 20 с.
3. Апекова Ж.Ш. О понятии "правда" в кабардинских паремиях / Ж.Ш. Апекова // Вестник Адыгейского государственного университета. Сер.: Филология и искусствоведение. – СПб.: АГУ, 2009. – Вып. 2 (45). – С. 91-94.
4. Борисова А.В. Особенности лексико-семантической корреляции единиц поля вода/ woda в русском и польском языке / Филология и искусствоведение, 2012. –С. 166-68
5. Жданова В.В. Пословицы и поговорки как источник изучения русского культурно-языкового сознания / В.В. Жданова // Русский язык как иностранный: Теория. Исследования. Практика. – СПб.: РГПУ им. А. И. Герцена, 2000. – С.151-160.



UDK:867.9(876.2)

Dilfuza NARZULLAYEVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: d.b.narzullayeva@buxdu.uz <https://orcid.org/0009-0007-7700-9301>

BuxDU dotsenti, PhD M.Akhmedova taqrizi asosida

“QUR’ONI KARIM”DA RUHIY HOLATNI BELGILOVCHI NUTQIY KONFIGURATSİYALAR

Annotatsiya

Maqolada “Qur’oni Karim” kitobidagi ruhiy holatni belgilovchi nutqiy hosilalarga e’tibor qaratilib, ularning ayrim bir neyropsixolingvistik xususiyatlari o’rganilgan. Unda islomiy-irfoniy tushunchalarning inson ruhiyatiga ta’siri, tinchlantirish va sokinlik alomatlarini borligi asoslab ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar: Nutqiy konfiguratsiya, ruhiy holat, nutqiy hosila, neyropsixolingvistik xususiyat, islomiy-irfoniy tushuncha, inson ruhiyat, nutq, til, madaniyat, ong, xulq-atvor, zikr, kognitiv tuyg’u.

SPEECH CONFIGURATION DETERMINING MOOD IN “QUR’AN KARIM”

Abstract

The article focuses on the speech derivatives that determine the mental state in the book "Holy Qur'an" and some of their neuropsycholinguistic features are studied. It shows the influence of Islamic-mystical concepts on the human psyche, the signs of calming and tranquility.

Key words: Speech configuration, mental state, speech derivative, neuropsychological feature, Islamic-mystical concept, human psyche, speech, language, culture, consciousness, behavior, zikr, cognitive feeling.

РЕЧЕВАЯ КОНФИГУРАЦИЯ, ОПРЕДЕЛЯЮЩАЯ НАСТРОЕНИЕ В “КОРАНЕ КАРИМ”

Аннотация

В статье акцентируется внимание на речевых производных, определяющих психическое состояние в книге «Священный Коран», и изучаются некоторые их нейropsixolingvистические особенности. Показано влияние исламско-мистических представлений на психику человека, признаки успокоения и умиротворения.

Ключевые слова: Речевая конфигурация, психическое состояние, речевая производная, нейropsixологическая особенность, исламо-мистическая концепция, психика человека, речь, язык, культура, сознание, поведение, зикр, познавательное чувство.

Kirish. Globallashuv asrida lingvistik shaxsning jamiyat bilan bo’lgan munosabati avvalambor, uning nutqiy faoliyatiga e’tibordan boshlanadi, ya’ni har bir kadri malakali mutaxassis bo’lib yetishishida ritorika fanining o’rni beqiyos. Shu sababli bu fanning sir-asrorlarini o’rganish insonda notiqlik san’ati qoidalarini va nutq san’atining go’zal hattiharakatlar bilan uyg’unlashtiruvchi lingvistik sohalaridan biridir. Zero, agar insonlararo munosabat ijobiy tus olsa, jamiyat va shaxs ravnaqi muvaffaqiyatli kechadi. Albatta, chiroyli muomala sof qalb, go’zal xulq-atvorni ta’minlamaydi. Buning uchun har bir insonning ichki olamini rivojlantirish, unga yuksak insoniy sifatlarni shakllantiruvchi tarbiyaviy ishlar majmuasidan foydalanish zarurdir. “Qur’oni Karim” shu maqsadni amalga oshirishda amaliy yordam beradi. “Qur’oni Karim”ni musulmonning muomalasi xulq-atvorining ko’zgusi, - deyish mumkin. Boz ustiga yaxshi qiroat qilingan “Qur’oni Karim”dan inson ruhiyatiga nur yog’ilgandek bo’ladi. Ruhiyati tetiklashadi, Allohning najotkorlik xususiyatlariga aqlan oshufta bo’ladi. Shunday ekan, lingvistik shaxsning har bir ishida qalb go’zalligi, salim tuyg’ulari, yuksak diniy va dunyoviy g’oyasi hamda nutq madaniyati yorqin ko’rinib turishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Til va nutq bir-biriga bog’liq hodisadir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas, Til - bu qurol bo’lsa, nutq shu qurolning o’qidir. Shu sababli Alisher Navoiy ham o’zining "Mahbub-ul-qulub" asarida tilga shunday baho beradi: “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir.” Til nutq uchun moddiy materialdir, biroq Ferdinand de Sosyur ta’limotiga asosan ular bir-biridan keskin

farqli hisoblanadi [1, 3]. Til kishilarga doimo o’zaro aloqa, munosabat, madaniy-ma’naviy zaruriyat, jamoa bo’lib birlashish, kurashish vositasi bo’lib xizmat qiladi. Til insonlar o’rtasida aloqa vositasi bo’lib, jamiyat a’zolarining bir-biri bilan fikr almashuviga xizmat qiladi. Til o’zida behisob tushunchalarni mujassamlashtiradi. Til butun jamiyat a’zolarining ongli hayot kechirishi, his-tuyg’ularini ifoda etishi, kurashish va rivojlanishida o’ziga xos benazirligi va buyukligi bilan ajralib turadi. Adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Adabiy tilning paydo bo’lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq ommaviy aloqa vositasini yaratishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Nutqning yuzaga chiqishida aniq bir maqsad - tinglovchi ongiga ta’sir etish vazifa qilib qo’yiladi. Shuning uchun ham ta’sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi [3]. Nutqning ta’sirchanligi deganda, asosan og’zaki nutq jarayonida axborotning inson ruhiyatiga sezilarli darajadagi semantik kuchi nazarda tutiladi. Ruhiy holatlar tizimli hodisalar bo’lganligi sababli, ularni tasniflashdan oldin ushbu tizimning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash kerak. Ruhiy holat tuzilishi quyidagi elementlarni o’z ichiga oladi:

Birinchidan, nutq konfiguratsiyasi tizimni tashkil etuvchi omil uchun muayyan ruhiy holatni ifodalab beruvchi haqiqiy ehtiyoj hisoblanadi. Tashqi muhit sharoitlari (quvonch, ilhom, zavq va boshqalar.) ehtiyojni tez va oson qondirishga yordam bersa, bu ijobiy holatning paydo bo’lishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, nutq konfiguratsiyasida psixologik holatlar muvozanatsiz ravishda namoyon bo'ladi, ya'ni ular emotsional jihatdan o'zgaruvchidir. Yoki qoniqlik ehtimoli past yoki umuman yo'q bo'lsa, u holda ruhiy holat hissiy belgi nuqtai nazaridan salbiy holat yuzaga keladi [4]. A. O. Proxorovning fikricha, dastlab ko'plab psixologik holatlar muvozanatsiz bo'lib, yetishmayotgan ma'lumotni olgandan yoki kerakli resurslarni olgandan keyingina ular statik holatga keladi.

Uchinchidan, nutq konfiguratsiyasi dastlabki davrida holat shakllanishining eng kuchli tomoni qalqib ko'rinadi – yuqori darajadagi his-tuyg'ular paydo bo'ladi. Bu favqulodda ehtiyojni amalga oshirish jarayoniga o'z munosabatini bildiruvchi shaxsning subyektiv reaksiyalari sifatida gavdalanadi. Yangi barqaror holatning tabiatida "maqsadni belgilash bloki" muhim rol o'ynaydi, bu ehtiyojni qondirish ehtimolini ham, kelajakdagi harakatlar xarakterini ham belgilaydi

Xotirada saqlangan ma'lumotlarga qarab, umidlar, munosabatlar, his-tuyg'ular va «idrok filtrlari» ni o'z ichiga olgan holatning psixologik tarkibiy qismi shakllanadi [5]. Tegishli «filtrlar» o'rnatilgandan so'ng, tashqi dunyoning obyektiv xususiyatlari allaqachon ongga ancha zaif ta'sir ko'rsatishi mumkin va asosiy rolni munosabat, e'tiqod va g'oyalar egallaydi. Masalan, sevgi holatida mehr ob'ekti ideal va kamchiliklardan xoli bo'lib ko'rinadi va g'azab holatida boshqa odam faqat «qora rang» da idrok qilinadi va mantiqiy dalillar bu holatlarga juda kam ta'sir qiladi. Agar ijtimoiy obyekt ehtiyojni amalga oshirishda ishtirok etsa, unda his-tuyg'ularda idrok sub'ekti asosiy rol o'ynaydi. Unda subyekt ham, obyekt ham his-tuyg'ular bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kuchli his-tuyg'ular (rashk, hasad tuyg'ulari, qasos, sevgi) bilan ikkinchi shaxs ongida shaxsning o'zidan ham ko'proq joy egallashi mumkin [6]. Tashqi obyektlar yoki ijtimoiy obyektlar bilan muayyan harakatlarni amalga oshirgandan so'ng, odam qandaydir bir qarorga keladi. Bu qaror yoki holatga sabab bo'lgan birlamchi ehtiyojni tushunish (rad etilish) ga imkon beradi yoki yo'q. Bunday holda, yangi holat— umidsizlik, tajovuz va boshqalar paydo bo'ladi. Unda inson yangi resurslarni topadi, bu esa ushbu ehtiyojni qondirish uchun yangi imkoniyatlarni anglatadi [7]. Agar natija salbiy bo'lishda davom etsa, ruhiy holatlarning kuchlanishini kamaytiradigan va surunkali stress ehtimolini kamaytiradigan psixologik himoya mexanizmlari faollashadi.

Tahlil va natijalar. Ruhiy holatlarni tasniflashning qiyinligi shundaki, ular tez-tez kesishadi yoki hatto bir-biriga mos keladi, shuning uchun ularni „ajratish“ juda qiyin — masalan, qandaydir taranglik holati ko'pincha charchoq, monotonlik holatlari fonida paydo bo'ladi [8]. Biroq, ularni tasniflashning ko'plab variantlari mavjud. Ko'pincha ular hissiy, kognitiv, motivatsion, ixtiyoriy turlarga bo'linadi. Psixikaning asosiy integratorlari (shaxs, intellekt, ong) faoliyatining hozirgi xususiyatlarini umumlashtirganda, shaxs holati, intellekt holati, ong holati atamaları qo'llaniladi. Juda ham ko'p ruhiy holatlarni nutq konfiguratsiyasi keltirib chiqaradi [9]. Chunonchi, "Qur'oni Karim" da ifodalangan holatlar shundan dalolatdir. Quyida so'zlarimiz tasdig'i sifatida "Qur'oni Karim" kitobidan bir necha oyatlardan misollar keltiramiz: "Ey imon keltirganlar, fosiq kimsa xabar

keltirsa surishtirib ko'ring. Birovga bilmasdan aziyat yetkazib keyin pushaymon bo'lasiz" (Hujurot surasi 6-oyat 516 bet) [2].


Mazkur oyatda murojaat mazmuniga ega bo'lgan "Ey imon keltirganlar" bosh jumlasini semantik-funksional shakllangan fraza shaklida nutq konfiguratsiyasining markaziga chiqarilgan. Kengaygan kirish undalmali "Ey imon keltirganlar" gapida undalma vazifasidagi "Ey imon keltirganlar" so'z birikmasi bilan kengaygan. "Iymon keltirganlar" o'rnida "musulmonlar" so'zini almashtirish mumkin. Biroq agar "Ey imon keltirganlar" nutq konfiguratsiyasi bilan "Ey musulmonlar" almashtirilganda nutqning ta'sirchanligi, bizning nazarimizda, passayishi mumkin bo'lardi. Unda "fosiq kimsa xabar keltirsa surishtirib ko'ring" to'liq shakllangan gapning to'liq ma'naviy tuzulishiga putur yetgan bo'lardi. Chunonchi, "Ey musulmonlar, fosiq kimsa xabar keltirsa surishtirib ko'ring" dan ko'ra "Ey imon keltirganlar, fosiq kimsa xabar keltirsa surishtirib ko'ring" gapida ma'naviy butunlik va uslubiy aloqadorlik mavjud va juda kuchli. Zero, nutq uslubiyoti nuqtai nazaridan "musulmon" deb murojaat qilganda nutq neytral mazmun kasb etadi, "Ey imon keltirganlar" da esa inonning ibodat jarayoniga kirilgani, iymonda sodiqlik, ibodatga tobelik kabi ma'nolar majmui anglashiladi. Bosh gap ergashgan gapni o'ziga ma'naviy tobelantirib, musulmonlarni hushyorlikka, fisoq-fasodga aql bilan qarshi turishga da'vat qilishga undaydi va ma'no uyg'unligini ta'minlaydi.

Endi "Alloh shunday zotki, shamol yuborib bulutni haydaydi. Uni osmonda o'zi xohlagandek tarqatib pag'a-pag'a qiladi. Undan keyin orasidan yomg'ir chiqishini ko'rsan. Yomg'irdan bahramand bo'lgan bandalarning sevinchi ichiga sig'maydi" (Rum surasi 48-oyat 409 bet) surasi tarjimasiga murojaat qilamiz.

"Alloh shunday zotki" semantik-funksional nutqiy konfiguratsiyada ta'kid va ogohlantirish ma'nosi kuchli ifodalangan. "Shamol yuborib bulutni haydaydi" gapidagi ishtirok vazifasi ta'kid va ogohlantirish ma'nosini ifodalagan "Alloh shunday zotki" orqali har ikki gapga yuklatilgan. "Undan keyin orasidan yomg'ir chiqishini ko'rsan. Yomg'irdan bahramand bo'lgan bandalarning sevinchi ichiga sig'maydi" gaplari kontekstdagi mukammal fikrni yuzaga chiqishi va "Alloh shunday zotki" - Allohning qudrati va karomatiga ishtirokchini ta'minlagan.

Shuningdek, «Ey insonlar! Albatta, Allohning va'dasi haqdir. Bas, sizlarni dunyo hayoti sira aldab qo'ymasin! Yana sizlarni aldamchi (shayton) aldab qo'ymasin!» (Fotir, 5)4; «Bas, Meni yod etingiz, (Men ham) sizlarni yod eturman. Menga shukr qilingiz, noshukrchilik qilmangiz!» (Baqara, 152)5; «Yana Rabbingiz e'lon qilgan (bu so'zlar)ni eslangiz: «Qasamki, agar (bergan ne'matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman» (Ibrohim, 7) gaplarida ham nutqiy konfiguratsiyalarni uchratish mumkin.

Qur'oni Karim" da «Ey insonlar!» «Bas», «Qasamki» kabi nutqiy hosilalar juda ham ko'p uchraydi. Undagi inson fikrini, zikrini, sa'i-harakatini ifodalaydigan nutqiy konfiguratsiyalarni o'rganar ekanmiz, musulmonning «qiyomat» gacha tizimli dasturi amal bo'lgan Alloh taoloning hikmatlariga ishonchimiz orta boradi. Qur'ondagi nutqiy konfiguratsiyalarning yuzaga chiqishiga ko'ra unda ifodalangan leksemalarning tahliliga e'tibor beramiz: (1-rasm)



Qur'on – hikmatlar manbai ekanligi, u odamlar tomonidan tushunilishi, tushunganda ham osonlik bilan tushunilishi uchun arab tilida yuborilganligi bildirilgan: "Alif, Lom, Ro. Bular ochiq-ravshan Kitob oyatlaridir. Darhaqiqat, biz uni anglaysiz deya Qur'onni arab tilida tushirdik" (12-sura, 1-2-oyatlar). Alif, Lom, Ro ham o'ziga xos nutqiy konfiguratsiya hisoblanadi. Ramziy harfiy belgilar aniq oyatlarning nutqiy konfigurativ shakllari ekanligi ma'lum [10, 58-63]. Oyatdan ochiq-ravshan bilib turibdiki, Qur'on koinotning butun sirlarini qamrab olgan ishora va lingvistik belgilar kitobidir. Ya'ni ilmiy ma'noda jamiki ma'lumotlarni bir yerga to'plagan bilimlar xazinasidir. Bu bilim xazinasidagi

hikmatlarni shartli belgi va harflarning ifodasidan shunchaki anglay olishimiz oson ish emas.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, "Qur'oni Karim" kitobidagi ruhiy holatni belgilovchi nutqiy hosilalarga e'tibor qaratish, ularning neyropsixolingvistik xususiyatlarini o'rganish dunyoviy va islomiy-irfoniy tushunchalarning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Oyatlarning inson ruhiyatiga ta'sirini oshirishda, lingvistik shaxsning ruhiy holatini aniqlashtirishga, uni tinchlantirish, sabr-qanoat, fikr uyg'unligi, oxirat tushunchalarini tushuntirishga va musulmonchilikda salimlik, halimlik, sokinlik va fahmiy bilish alomatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Azizxo'ja Inoyatov, G'ani Zikrillaev, «Qur'oni Karim oyatlari mazmun-ma'nosining o'zbekcha izohli tarjimasi», «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2022-yil, 516-bet
2. Azizxo'ja Inoyatov, G'ani Zikrillaev, «Qur'oni Karim oyatlari mazmun-ma'nosining o'zbekcha izohli tarjimasi», «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2022-yil, 409-bet
3. Saussure F. Cours de linguistique générale (1908–1909). Introduction. In: Cahiers de Ferdinand de Saussure, 1957, no. 15. pp. 3–104.
4. Azizxo'ja Inoyatov, G'ani Zikrillaev, «Qur'oni Karim oyatlari mazmun-ma'nosining o'zbekcha izohli tarjimasi», «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2022.
5. Sayfullayeva R. R., Bobokalonov R. R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Globedit, Kshinyov, ISBN: 2023 978-620-0-64878-5
6. Бобокалонов Р.Р. Нуткий хосила, семиотик белги, дискурс ва нейрпсихолингвистик холат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023234 с. ISBN: 978-620-0-64729-0.
7. Бобокалонов Р. Р. Нейрпсихолингвистика: языковая личность и харизматический человек (Теория, практика и методика). Монография, LAMBERT Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 с. ISBN : 978-620-6-15214-9
8. Бобокалонов Р. Р. Неразрывная связь семиотики и нейрпсихолингвистики. Монография, Lambert Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 156 с. ISBN: 978-620-6-16018-2.
9. Jacques Jomier, L'Exégèse scientifique du Coran d'après le Cheikh Amin Al-Khouli, MIDEO, 4, 1957, p. 272-274.
10. Bafoevna N. D., & Ikromdjonovna, K. N. (2023). The Main Directions of Theo linguistic Research In Modern Linguistics. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10 (2S), 2127-2136.
11. Нарзулаева Д. Б. (2022). Теолингвистическая лексема религиозного стиля. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 332-338.
12. Narzoullaeva D. B. (2023). Théolinguistique-une tentative de vulgarisation du terme. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 58-63.



UDK:811.1

Dilnoza NASRIYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilnozanasriyeva0412@gmail.com

f.f.d, professor M.Asadov taqrizi asosida

ARCHETYPES AND RITUALS IN THE ARTISTIC DISCOURSE OF ISAJAN SULTAN

Annotation

Topical issues such as the relationship between language and reality, the relationship between language and culture, the role of humans in the linguistic landscape of the world, which are the focus of anthropocentric linguistics, are the issues that are discussed and analyzed in detail in the study of language systems by world scientists. This article discusses the works of Isajon Sultan used in language, they are considered as an object of research by several sciences, "imbued" with the spirit of the people, and part of the nationwide language culture, archetypes, their manifestations and rituals.

Key words: Language, culture, linguoculturology, text, artistic discourse, ethnography, mythologeme, archetypes, customs and rituals.

АРХЕТИПЫ И РИТУАЛЫ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ ИСАДЖАНА СУЛТАНА

Аннотация

Актуальные вопросы, такие как отношения между языком и действительностью, отношения между языком и культурой, роль человека в языковом ландшафте мира, находящиеся в центре внимания антропоцентрической лингвистики, являются теми проблемами, которые подробно обсуждаются и анализируются в исследовании языковых систем мировыми учеными. В данной статье обсуждаются произведения Исаджана Султана используются в языке, они рассматриваются как объект исследования ряда наук, «пропитанный» духом народа, и часть общенациональной языковой культуры, архетипов, их проявлений и обрядов.

Ключевые слова: Язык, культура, лингвокультурология, текст, художественный дискурс, этнография, мифологема, архетипы, обычаи и ритуалы.

ISAJON SULTON BADIY DISKURSIDA ARXETIPLAR VA IRIM-SIRIMLAR

Annotatsiya

Antroposentrik tilshunoslikning diqqat markazida turgan til va voqelik munosabati, tilning inson ongi va tafakkuri, madaniyat bilan munosabati, olamning lisoniy manzarasida insonning egallagan o‘rni kabi dolzarb masalalar dunyo olimlarining til tizimi tadqiqida atroflicha muhokama va tahlil qilinayotgan muammolardir. Ushbu maqolada Isajon Sulton asarlari tilida qo‘llangan, bir nechta fanlarning tadqiq obyekt sanalgan, xalq ruhi bilan “sug‘orilgan”, umumiy milliy lingvomadaniyatning bir qismi arxetiplar, ularning ko‘rinishlari va irim-sirimlar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Til, madaniyat, lingvokulturologiya, matn, badiiy diskurs, etnofrazim, mifologema, arxetiplar, urf-odat va irim-sirimlar.

Kirish. “Til so‘zlashuvchilarning mulki deb hisoblanadi, kumulyativ vazifasi tufayli milliy madaniyatning haqiqiy oynasidir” [1]. Tilning lisoniy imkoniyati, til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi, tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutashuv nuqtasi, tilning butun jozibasini bo‘y-basti tilning oliy sathi bo‘lmish badiiy matnda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning badiiy til imkoniyatlaridan milliy va umuminsoniy qadriyatni, urf-odat va rasm-rusumni u yoki bu maqsadda foydalanishi, millatning hayoti va mavjudligini lingvokulturologik, lingvokonseptologik til birliklarida ko‘rsatib bera olishi fikrimizning dalilidir. Darhaqiqat, har qanday mamlakatning kuch-qudrati o‘z fuqarolarining ongilligi bilan belgilanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Butun dunyoda yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan bugungi kunda biz Markaziy Osiyoning kelajagi bo‘lmish yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozim”[2]. Shu nuqtayi nazardan badiiy asarlarning o‘rni nihoyatdir. Til, inson, madaniyat, qadriyat va millat beshligining ifodasi esa Isajon Sulton asarlarida mujassam.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Lingvomadaniyatning birligi sanalgan mifologiyalashgan til birliklari badiiy diskursda matnning kompozitsion tuzilmasi elementlaridan sanaladi. Bular arxetiplar va mifologemalar, udumlar va rivoyatlar, taomillar, urf-odatlar va irim-sirimlar sanaladi. Mifologema – bu mifning “bosh qahramoni”, uning muhim personaji yoki vaziyati bo‘lishi va u mifdan mifga o‘tishi mumkin. Mifning asosida odatda arxetip yotadi. Arxetip – individlar ongida paydo bo‘ladigan va madaniyatda tarqaladigan turg‘un obraz. Arxetip tushunchasi K.G.Yung tomonidan 1919 yilda e‘lon qilingan «Инстинкт и бессознательное» maqolasida muomalaga kiritilgan [3]. Jahon tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikka oid ilmiy ishlarda ushbu birliklar salmoqli o‘rganilgan. Zamonaviy fanlarda shvetsariyalik psixoanalitik Karl Gustav Yung tomonidan taklif qilingan “arxetip” atamasi keng tarqaldi. Undan faylasuflar (1), psixologlar (2; 3), adabiyotshunoslar (4; 5; 6; 7; 8) tilshunoslar (9; 10; 11; 12; 13) san‘atshunoslar (14) unumli foydalanadilar [4]. O‘zbek tilshunosligida ham tilga antroposentrik yondashgan ko‘plab olimlar mifologiyalashgan til birliklarini milliy til madaniyati elementlari sifatida baholab, ularning inson madaniyati va hayotidagi o‘rni, dunyoqarashiga ta’sirini u yoki bu ma’noda asoslab berdilar

[5]. Har qanday etnografik xarakterdagi lisoniy birliklarning ildizi ayni mamlakatda yashovchi xalqlarning madaniyati, yashash tarzi va muhiti, tarixi, dini va mifologiyasiga borib taqaladi. Bulardan yana biri irim-sirimlar bo'lib, ma'lum xalqning atrofini o'rab turgan olam haqida qanday fikrlashini ko'rsatadi. Tilshunoslikda antroposentrik paradigma nazariyasining tug'ilishi orqali dunyo tilshunosligi qatorida o'zbek tilshunosligida ham "so'z san'atining ibtidosi"ga lisoniy yondashish tadqiqotlar asosini tashkil etmoqda [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda lingvistik, etnografik, lingvokulturologik, kompleks tahlil, tasvirlash, tavsiflash, tasniflash hamda leksik-semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Har qanday miflar, rivoyat va afsonalar, urf-odatlar zahirida arxetiplar asosiy kalit so'z vazifasini o'taydi. Arxetiplar – ijod va ilhomning cheksiz manbaidir, ayni vaqtda o'sha xalqning lisoniy, madaniy boyligi hamdir. Ular bolalikdan bizga ma'lum bo'lgan turli xil tasvir va ramzlarda, rivoyat va miflarda mujassamlangan. Ular bilan hayotimizning har bir nuqtasida to'qnashamiz va qayta kashf etamiz. Yozuvchi va shoirlar, rassomlar va haykaltaroshlar, umuman, san'at ahli asrlar davomida arxetipik timsollardan ilhomlanib qalbimizdan chuqur joy oluvchi asarlarni insoniyatga taqdim qildi. Yozuvchi Isajon Sulton o'zbek millatining turmush tarzi, ijtimoiy hayotini umumxalq tili va kundalik turmushida mavjud madaniyatni shakllantiruvchi arxetiplar asosida mohirlik bilan tasvirlagan, badiiy maqsadni amalga oshirish uchun arxetiplarning turli ko'rinishlaridan foydalangan. Arxetiplar dunyo ilmida, turli fan sohalarida ayricha ma'no kasb etib, bir necha tur va ko'rinishlarga ega. Tadqiqotlarda yoritilishicha, arxetiplar dastlab milliy va universal arxetiplarga, undan so'ng esa yana ichki ko'rinishlarga bo'linadi. Ijodkor asarlarini varaqlar ekanmiz, ham universal, ham milliy arxetiplarning turli ko'rinishlarini uchratamiz. Non azaldan barcha millat vakillarining rizq-ro'z ne'mati sifatida qadrlanadi. O'zbek xonadonlarida esa nonning ushug'i ham uvul qilinmaydi, gunohlar to'kilishiga ishonib keksa otaxon-u onaxonlarimiz dasturxonidan ushoqlarni bitta qoldirmay terib yeyishadi. Yoki bo'lmasa kech kirganda dasturxonidagi ushoqlar qoqilmasligi, faqat kunduz payti chekkaroqdagi daraxt tagiga qushlar yeb ketishi va savobi tegishi uchun qoqilishi, uzoq yo'lga ketishdan oldin non- kulcha tishlatish, shomdan keyin chaqaloqlarni, yosh bolalarni ko'chaga chiqarganda quchog'iga bir burda non solib qo'yish, ins-jinslardan saqlash va rizq-nasibasi mo'l bo'lishini istab beshikka, yostiq tagiga non-kulcha qo'yish, tandirdan issiq non uzilganda yon qo'shnilariga tarqatish va h.lar nonning aziz va muqaddas ekanligini bildirishi barobarida, ma'lum nomaqbul harakatdan qaytarish, qandaydir yomonlikni oldini olish kabi irim-sirimlarni ham belgilaydi. Nonning qadr qimmatini, uni isrof qilmaslik, e'zozlash bolalarga yoshlikdan uqtiriladi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da ham har qanday yomonlikni, tanballikni yengish uchun mehnatning o'rmini belgilashda non arxetipidan foydalanilgan. Binobarin, non har qaysi zamon va makonda muqaddas hisoblangan. Non "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ikki xil ma'noda izohlangan. 1. Xamirdan tayyorlanib, tandir, o'choq, tova va sh.k da pishiriladigan yegulik. 2. Umuman, yegulik-ichgulik, yashash, tirikchilik uchun zarur narsa [7;57]. Yashash uchun zarur narsa ekan, qanday qilib uni qadrlamaymiz? Isajon Sulton badiiy matnidagi intermatn shaklida keltirilgan rivoyatdagi non arxetipli misolga e'tibor qaratamiz: ...Sandal atrofida qariyalar ertak boshlashadi, shulardan biri – Nuh alayhissalom haqida.

...Bir kuni Nuh alayhissalomning xotini non yopibdi. Nonlari qip-qizarib, po'rsillab pishibdi. Tandirdan uzib savatga solayotsa, qo'li kuyib, bittasi yerga tushibdi.

...Xullas, non yerga tushganida xotini:

Hah, o'lgur, - debdi.

Shunda Nuh payg'ambar aytibdiki:

Hoy nodon, rizqniyam so'kadimi odam? Qani, tavba qil-da, nonni yerdan olib ko'zingga sur-chi!

Xotin shunday qilibdi. Yerga tushgan non bo'lagini olib, puf-puflab ko'zga surtish odati o'shandan qolganmish...[9] Yagona til hamjamiyatining vakillari uchun umumiy bo'lgan bunday mifologik qarashlar qadim zamonlardan buyon "jamoaviy ijod mahsuli" sifatida saqlanib qolganligi sababli universal xarakter kasb etadi. Ijodkor badiiy maqsadini amalga oshirish uchun "muallif-personaj- matn-o'quvchi" to'rtligida diskurs hosil qiladi.

...Odamlar hamma narsani o'zgartirib, jon ato etib olishganiga yana hayron qolasiz. Masalan, nonning joni bormidiki, gapirsa?

Nonni teskari qo'yma, gunoh bo'ladi.

– Nega?

– Rizqing qiyiladi [9] Insonlarni boshqarib turuvchi qandaydir g'ayriixtiyoriy ichki kuch, avloddan avlodga o'tib kelayotgan ishonch-e'tiqod insonlarni go'yoki yomon illatlardan tiyib turgan. Ijodkor o'zining turfa badiiy niyatini yoritishda xalqning teran ildizlariga nazar solib ushbu milliy-madaniy irim-sirimni non arxetipik obrazi orqali tasvirlagan. Muallif badiiy diskursida o'zbeklarning oilaviy-maishiy urf-odatlarida haligacha uchratish mumkin bo'lgan sut arxetipini keltiradi:

...Umuman, sut muqaddas narsa. Yerga sut to'kilsa, ayniqsa, xotirlarning joni chiqadi, sutni to'kkan bolasini ayamay urishadi:

–Nega to'kding, bola bo'lmay o'! Ko'zing ko'r bo'lib qoladi-ya!

Yozuvchi asarda "O'zbek tilining izohli lug'ati" da izohlangan [7] barcha ma'nosidan foydalangan: asalari suti, o't-o'lanlarning suti, qo'y, tuya, echki, mushuk, kuchuklarning suti, odam (ayol) suti haqida to'xtaladi. Ona sutining dardga davo bo'lishini kitobxonga yetkazadi:

– Qulog'iga sut tomiz!

– Uni qaydan olaman?

Narigi qo'shnining kelini ko'zini yorigan, o'shanga aytasang beradi. Sut tomizilsa, quloq og'rig'i barham topadi...[9]. Yetti xazinaning biri sanalgan sigir o'zbek xonadonining boyligi, "...Sigir tug'sa quvonishadi, oqlik deyishadi. Sutining rangi oq bo'lgani uchunmi?"[9]. Yozuvchi sut arxetipiga ramziy ma'no yuklaydi: sutning oqligiga ishora qilib, yorug' hayot, rizq-baraka, ne'mat, to'kin-sochinlik semalarini implitsit tarzda ifodalaydi. Yozuvchi har bir asarida o'zbek lingvomadaniyatini, oilada ota va onaning mavqeyini bot-bot eslatib, asar bag'riga singdiradi: ...Dunyoning bor sarvati ona qadamining bitta iziga arzimidi? Ey o'g'lon, onangga, onangga, onangga undan keyin otangga yaxshilik qil! ...Bilib qo'y, otaga tik boqib so'z qaytarib bo'lmaydi, yurganida undan oldinga o'tib ketib bo'lmaydi, otadan avval taomga qo'l uzatish mumkin emas, qarshisida qo'l qovushtirib, bo'yin bukib turish shart, qoshida qattiq ovoz bilan gapirish mumkin emas!...[10] Arxetiplar, urf-odat va irim-sirimlarimiz biz yashayotgan dunyo tasvirini yaratadiki, yozuvchi uni badiiy tushunchaga "singdiradi" hamda asarda amalga oshiriladigan dolzarb ma'noni ochib berishda foydalanadi:

Kuchukni urma!

Nega?

Erta bir kun Egamga sendan shikoyat qiladi."Uni kuchli, meni zaif qilib yaratuvding, urib jonimni og'ritdi", deydi [9;17]. Azaldan it insonning do'sti, qo'riqchisi sifatida qadrlanadi. Muqaddas diniy kitoblarda ham hayvonlarga ozor bermaslik uqtirilgan. Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasi epigrafida ham Hadisi Sharifdan iqtibos olinadi. "Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu – "Ashobi kahf" ning itidir, deyiladi. Diniy tasavvurlar asosida inson

ongiga va psixikasiga o'rnashib olgan bunday tushunchalar, shuningdek irim-sirimlar adib asarlarida ko'plab uchraydi. Asosan juft so'z shaklida ishlatiladigan "irim" so'zi O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida biron niyat bilan qilinadigan ish, xatti-harakat deyilgan bo'lsa, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da biror maqsad bilan (yaxshi va yomon niyat) qilingan xurofiy tadbir, deya ta'rif berilgan [8]. Isajon Sulton asarlarida irimlarning yaxshi niyatdagi – birovlariga yaxshilik tilash, yomonlikdan qaytarishga qaratilgan ko'rinishlari ko'proq uchraydi. Irimlar ilmiy asoslanmagan, ammo turli sohalarida qo'llanadi, insonlar ongida esa qanday axborot shaklida voqelanishi asosiy omil hisoblanadi. Yana bir misolni olaylik:

Qiblaga qarab choptirma.
Nega?

namozda yuz qaratiladigan tomon

padari buzrukvor
o'likning yuzi qaratiladi
qiblaga qarab qasam ichmoq



qiblaga qarab duo o'qiladi

validayi muhtarama
oyoq uzatilmaydi
kompas va b.

Demak, qibla – muqaddas. U tomonga qarata nojoiz ishlarni qilish gunohi azim.

Yoki:

Kechasi tashqariga bir o'zing chiqma.

Nega?

Oziqchi obketib qoladi[8]. Lisoniy birliklarning madaniy axboroti implitsit xarakterda bo'lib, til belgilari ortida yashiringan bo'ladi. Ijodkor "oziqchi" kimligini tasavvur qilib tasvir usulidan foydalanadi, bu g'alati so'z oziq tishi bilan uyqashligini, bema'ni bir yaratqiy qiyofada gavdalanishini, bolalarni nega olib ketishini birov bilmasligini, ammo katta qozonga suv solib, qaynatib sho'rva qilib ichishini aytib izohlaydi. Matnda asosiy ma'no [kechasi]ga yuklangan, "oziqchi" faqat kech kirsagina yuradi. Umuman, har qanaqa yomonliklar, asosan, tunda sodir bo'lishini anglagan yoshi kattalar bolalarni kech kirganda ko'chaga yolg'iz chiqmaslikdan qaytarish maqsadida "oziqchi" obrazini o'ylab topishgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkin, birinchidan badiiy asar tili – xalq tili, Isajon Sulton milliy koloritni berish, o'quvchi ko'z o'ngida xalq ruhi va

Moxov bo'p qolasan [9]. Olam yaralibdiki, insonlar o'zini tashqi kuchlardan, balo-ofatlardan, yomon ko'zlardan asrash uchun harakat qiladi, bir avloddan ikkinchi bir avlodga o'tib kelayotgan diniy va mifologik tasavvurlarga tayanadi, hayotini osonlashtirish maqsadida muayyan usul yoki vositalardan foydalanadi va atrofidagilarni ham bunga ishontradi. Insonning qo'rqish hissi bilan bog'liq diniy e'tiqodi odamlarni salbiy oqibatlardan – biror falokatga yo'liqmaslikdan – qaytargan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da 1. Qibla arabcha ro'parada turgan narsa; namoz paytida yuz qaratiladigan tomon (Makka tomoni); mehrob; janub. 2. G'arb, kunbotish tomon [11] kabi ma'nolari izohlangan. U o'zida bir necha semalarni birlashtiradi, qibla deganimizda turli lisoniy birliklar ko'z o'ngimizda assotsiatsiyalanadi:

turmushini jonli gavdalanitirish, "muallif–matn–kitobxon" o'rtasidagi badiiy diskursni faollashtirish maqsadida mifologiyalashgan til birliklaridan mohirona foydalangan, ikkinchidan mifologiyalashgan til birliklarining mohiyati shundaki, qaysi davrda va qanday shaklda namoyon bo'lmasin unson qandaydir g'ayritabiiy kuchdan madad kutadi, uning himoyasiga umid bog'laydi. Xalqimizda shunday naql bor: ixlos–xalos, uchinchidan badiiy asarlarda bunday birliklar ramz, shakl, rang, narsa-predmet, shaxs, harakat, holat, stereotip, raqamlar ko'rinishida uchraydi, to'rtinchidan har qanchalik globallashuv davom etmasin, madaniyat yanada rivojlanmasin millat bor ekan arxetiplar, irim-sirimlar, urfodatlar inson bilan birga yashaydi, negaki asrlar osha qon-qoniga singib ketgan, "tana a'zosi"ga aylanib ulguragan – totemistik tasavvurlardan, fetishizm qarashlaridan – lisoniy birliklardan abadiy voz kechib bo'lmaydi. Biz maqolamizda ijodkor tilidagi ayrim birliklarning lisoniy imkoniyatlarini ochib berishga harakat qildik. O'ylaymizki, Isajon Sulton badiiyatidagi o'ziga xosliklarni mifologiyalashgan til birliklari misolida alohida tadqiq etish o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. 31 Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. 4-е изд., перераб. и доп.—М.: Рус. яз., 1990 (Библиотека преподавателя русского языка как иностранного). —С. 16.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. —Т., 2021. — Б.369
3. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. Toshkent. 2019. 28-bet
4. Смирнова А.Ю., Толочин И.В. АРХЕТИП В ЛИНГВИСТИКЕ: ФОРМА И СОДЕРЖАНИЕ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО СЛОВА FIRE) ISSN 1991-5497. МИР НАУКИ, КУЛЬТУРЫ, ОБРАЗОВАНИЯ. № 4 (59) 2016.- С.214.
5. Қаранг: Саидова М, Кўзиев У. Лингвокультурология. Услубий қўлланма. Наманган, 2017. 67-бет;
6. Mirzayev.N. O'zbek tili entografizmlarining izohli lug'ati.Toshkent -Fan 1991; ОМОНТУРДИЕВ А. Ж. ПРОФЕССИОНАЛ НУТҚ ЭВФЕМИКАСИ (Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари чорвадорлари нутки мисолида). Тошкент, ФА «Фан» нашриёти, 2006 йил. В.231; Kasimova Ra'no Rahmatulloeyevna. Qo'lyozma huquqida UO'K:39 (=512,133):811.111'25. "O'zbek to'y va motam marosim folklori matnlarining inglizca tarjimasida etnografizmlarning berilishi. Toshkent-2018
7. Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent. 2006. B. 687
8. Qarang: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 212 b; O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent. 2006. 224 b.
9. Sulton I. Genetik. Roman."Yangi asr avlodi"., 2018.B.141
10. Sulton I. Ozod. Roman."Yangi asr avlodi"., 2018.B.147-304
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent. 2006. 273 b
12. https://ozlib.com/837081/literatura/arhetip_mifologema



UDK:811.1

*Saida NUMONOVA,
Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi*

PhD A.Murtozayev taqrizi asosida

MEHNAT QUROLLARI: HOZIRGI VA QADIMGI NOMLARINING TASNIFLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mehnat qurollarining tasnifi, ularning qadimgi turlari, nomlanishi va hozirgi vaqtdagi ko'rinishlari tasniflangan. Etnograf olimlar hozirgi davrda ishlatiladigan mehnat qurollarining qadimiy ko'rinishi va nomlanishini o'rganish maqsadida, sayyoramizning chekka hududlariga ekspidetsiyalar uyushtirganlar, chunki o'sha hududlardagi aholining turmush tarsi a yashash sharoitida qadimiylik saqlanib qolganligi barchamizga ma'lum. Qadimgi odamlarning mehnat qurollari qo'pol, ishlatishga noqulay, lekin shu bilan birga baquvvat bo'lgan. Bugun mehnat qurollarining qadimiy ko'rinishdagi bo'lgan qirg'ichlar, pichoqlarni bilamiz, ular dastlab qattiq bo'laklardan yasalgan.

Kalit so'zlar: Mehnat qurollari, ibtidoiy jamoa, nayza, kamon, Afrika aholisi, hindular, qo'pol, metal, yog'och, pichoq, qirg'ich.

ОРУЖИЕ ТРУДА: КЛАССИФИКАЦИЯ СОВРЕМЕННЫХ И ДРЕВНИХ НАЗВАНИЙ

Аннотация

В данной статье описывается классификация орудий труда, их древние виды, названия и современный вид. Этнографы организовывали экспедиции в отдаленные районы нашей планеты с целью изучения древнего вида и названий мехматного оружия, используемого в современности, ведь всем известно, что древность сохранилась в образе жизни и условиях жизни людей в тех районах. Рабочие орудия древних людей были грубыми, неудобными в обращении, но в то же время прочными. Сегодня мы знаем скребки и ножи, которые представляют собой древний вид рабочих орудий, которые изначально изготавливались из твердых кусков.

Ключевые слова: Орудия труда, первобытное общество, копье, лук, африканское население, индейцы, грубый металл, дерево, нож, скребок.

WEAPONS OF LABOR: CLASSIFICATION OF PRESENT AND ANCIENT NAMES

Annotation

In this article is written about the classification of tools, their ancient types, names and modern appearance. Ethnographers organized expeditions to remote areas of our planet in order to study the ancient type and names of mechmat weapons used in modern times, because everyone knows that antiquity has been preserved in the lifestyle and living conditions of people in those areas. The working tools of ancient people were rough, inconvenient to use, but at the same time durable. Today we know scrapers and knives, which are an ancient type of working tools that were originally made from hard pieces.

Key words: Tools, primitive society, spear, bow, African population, Indians, rough metal, wood, knife, scraper.

Kirish. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika tarqiyoti asrida, ofislardagi, korhona tashkilotlardagi yumushimizni yengillatadiga gadget – qo'shimcha qurilmalar bizga yordam keldi. Nafaqat katta zavodlarda, balki uylarda ishlatiladigan mehnat qurollarining ham o'ziga yarasha tarihi bor. Antropolog olimlar insonlarning qiyofasini o'rganish bilan birga, ular foydalangan asbob-uskuna, mehnat qurollari ham qiziqirishi tabiiy holdir. Mehnat qurollarining o'zi ham juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, sub'ektlarning murakkabligiga qarab, jamiyatdagi munosabatlarning rivojlanishi, shaxslar orasidan jamoalarning shakllanishi haqida xulosa chiqarish mumkin. Masalan, antilopani va gigant hayvonlarni ovlash jarayonida. Ammo yolg'iz, mamontni o'ldirish va eyish, hatto yaqin qarindoshlarning yordami bilan ham qiyin bo'ladi. Va qabilada guruh manfaatlarini bo'ydoqlarning intilishlaridan ustun qo'yadigan an'analar mavjud edi. Shuning uchun kamon oldidagi nayza uchlari nutqning rivojlanishi va harakatlarni tashkil etishdan dalolat beradi. Shunday qilib, o'sha paytda jamoani yig'ib, guruhni maqsad sari yetaklash mumkin bo'lgan liderlar ajralib chiqq boshladi. Ikkinchidan, qadimiy mehnat qurollarini o'rganar ekanmiz, ular ming yillar o'tgandan keyin ham bir-biriga o'xshashligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, ularni ishlab chiqarishni o'rganish jarayoni bor edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Etnograf olimlar hozirgi davrda ishlatiladigan mehnat qurollarining qadimiy ko'rinishi va nomlanishini o'rganish maqsadida, sayyoramizning chekka hududlariga ekspidetsiyalar uyushtirganlar, chunki o'sha hududlardagi aholining turmush tarsi a yashash sharoitida qadimiylik saqlanib qolganligi barchamizga ma'lum. Masalan, ba'zi qabilalar hali ham tosh asrida Afrika o'rmonlarida yashaydilar. Ularning yashash sharoiti, turmush tarsi haqida bizda yetarlicha ma'lumot yo'q. Tadqiqotchilar ularning turmush tarzini o'rganadilar. Nayzalar va bumeranglar, kamon va o'qlari bugungi kunda turli qit'alarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Biroq, qabilalarning rivojlanish darajasi ularning mehnat qurollari majmuasi bilan ko'rsatiladi. Misol uchun, avstraliyalik aborigenlar piyozni bilishmaydi, ular Afrikada qanday foydalanishni bilishadi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Qadimgi asboblarni o'rganayotgish jarayonida, ularning paydo bo'lgan nomlari ham antropologlarni qiziqtirgan. Shunday qilib, masalan, "tayoq qazuvchi" atamasi nomi ostida ishlatilganini aniqladilar. Bu asbobni hozirgi kundagi o'xshash varianti bilan solishtirdilar. Olimlarning ta'kidlashicha, mazkur qurol belkurakga o'xshamaydigan lekin ishlatilish jarayoni u bilan bir hil vazifani bajarishligini aytib o'tdilar. Umuman olganda, qadimgi odamlar kundalik ehtiyojlariga uchun turli asboblardan foydalanganlar Ya'ni, uy-ro'zg'or, qishloq

ho'jaliklari yumushlarini bajarishda pichoq, vilkalar, belkurak va shunga o'xshash asboblardan foydalanganlar. Bunday mehnat qurollarini ishlab chiqarish qiyin bo'lganligi sababli, narsalar juda qadrlangan[1]. Ayniqsa, yaxshi va muvaffaqiyatli nomlar berildi va ular ajdodlardan meros orqali o'tdi. Axir, har doim ham to'g'ri yo'nalishda chaqmoq toshlari emas, hatto zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, oddiy toshning ta'siri haqida nima deyish mumkin. Qadimgi odamlar hayvonlarni shoxlardan mevalarni yig'ish uchun tayoqlar, qazish uchun - suyak bo'laklaridan, pichoqlar, tayoqlardan foydalanganlar[2].

Tahlil va natijalar. Qadimgi odamlarning mehnat qurollari qo'pol, ishlatishga noqulay, lekin shu bilan birga baquvvat bo'lgan. Bugun mehnat qurollarining qadimiy ko'rinishdagisi bo'lgan qirg'ichlar, pichoqlarni bilamiz, ular dastlab qattiq bo'laklardan yasalgan. Keyinchalik qadimgi odamlar yana bir turdagi mehnat qurollarini ishlab chiqqanlar, ular hozirgi kundagi bolta, belkurak ko'rinishidagi asboblarga o'xshashligi aniqlangan[4]. Zamonlar o'tib, odamlarni moddiy ehtiyojlari ortib borgani sari murakkabroq mehnat qurollariga ehtiyoj sezila boshladi. Birinchi navbatda qadimgi odamlarni nima tashvishga solgan? Yovvoyi hayvonlardan himoyalani, oziq-ovqat, issiqliklarni yaratish uchun ularga murakkabroq va foydalanishga qulayroq mehnat qurollari zarur bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan ular chaqmoqtoshlar yordamida qanday olovni yoqishni o'rgandilar va u bugungi kundagi gugurtning vazifasini bajargan. Olimlarni yana bir mulohazali savol o'ylantirgan[2]. Bu holatda boshqa qadimiy mehnat qurollari qanday bo'lgan, ular qanday ishlatilgan va bugungi kundagi o'xshash yoki uni o'rnida ishlatiladiganlari bormi? G'osht va sabzavotlarni maydalash uchun mahsus pichoqlar va qirg'ichlardan foydalanganlar, ushbu asboblarni kremniydan tayyorlaganlar. Ushbu asboblarni foydalanishga qulayroq bo'lgan, boshqa tomondan - juda kuchli. Ignalar hayvonlar yoki baliqlarning suyak qismlaridan qilingan[3]. Ko'zalar, bolg'a, qaychi keyinchalik zarurat tug'ilganda paydo bo'ldi. Ulardan keyin qurilish asboblari bugungi kunda bo'lgani kabi, uy-joy qurish, qayiq'larni yasash va boshqa ishlarda ishlatilgan[5].

Odamlarni hayvonlardan ajratib turadigan xususiyat, nutq va voqealarga ongli ravishda ta'sir qilish qobiliyati bor edi. Ya'ni, odam biz nomlarini bilmagan, ammo tashqi ko'rinishini tiklashimiz mumkin bo'lgan qadimiy asboblarni ishlab chiqarishga o'rgatilgan. Ota-bobolarimiz nima qilishgan? Barcha kuchlar omon qolishga qaratilgan edi.

O'rtacha umr ko'rish o'ttiz yildan oshmadi. Ochlik, yirtqichlar, qo'shni qabilalar bilan janjallar, kasalliklar - bularning barchasi ibtidoiy odamlarning mavjudligini juda murakkablashtirdi[4].

Qadimgi odamning ovqatlanishining asosi go'sht edi. Don va bog' ekinlarini yetishtirish, bunday ishlarni hanuzgacha qila olmadilar. Kundalik yegulik ehtiyojlariga yetkulik oziq-ovqat, don mahsulotlarini topish ular uchun ancha murakkab bo'lganligi ovchilik qadimgi odamlar tomonidan shug'ullangan asosiy vazifa bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning uchun ularga zaruriy mehnat qurollari kerak bo'lgan edi. Avvalo, kata hayvonlarni ko'pchilik bo'lib ovlaganlari tarihdan ma'lum va bu ishda ularga katta-katta qurollar kerak bo'lgan. Nayzalar o'rnida uzun, qalin yog'ochlardan va toshlardan foydalanganlar. Qishloq ho'jaligi ishlarida ham mehnat qurollarini o'rni juda bilingan, dastlab, yerni ag'darish ya'ni shudgor qilishni bilmaganlar, mehnat qurollarining aksariyati juda qo'pol bo'lgan va yerga ishlov berishda qiyinchilik tug'dirgan. Bu borada, suyak va toshlardan, muzlatilgan yoki quruq tuproqlarni shudgor qilishda qo'l kelgan. Bundan tashqari, bugungi kunda hatto ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida ham yashaydigan ko'plab qabilalar mavjud. Ular janubiy Afrika, Avstraliya, Tinch okeani orollari va Amazon havzasidagi ovchilar va terimchilardir. Ularni o'rganib, etnograflar yuz minglab yillar oldin mavjud bo'lgan narsalarni, shu jumladan mehnat qurollarini bugungi kundagi maqbul variantinini tiklashga harakat qilmoqdalar[4].

Xulosa va takliflar. Yakuniy so'z o'rnida shunday hulosaga keldikki, hozirgi davrda mavjud bo'lgan barcha narchani, hususan mehnat qurollarini ham o'ziga hos tarihi va shu bilan birga o'xshash variantlari bo'lgan. Nemis olimi topilmalarni tasniflash va tobora murakkablashib borayotgan ob'ektlar ishlab chiqarish davriyligini tuzish orqali o'zining ijtimoiy evolyutsiya nazariyasini tasdiqladi. Misol uchun, agar o'sha vaqtda odamlar nayza olib, mamontni o'ldirishsa, butun qabila bir qancha muddatga qorni to'q bo'lgan va u hayvonning terisidan mato sifatida foydalanganlar. Xususan, tayoq va toshlar yordamida ov qilishgan. Keyinchalik, nayza kabi pichoqlar, o'tkir nayzalar paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan o'qlar va o'qlar bilan kamon yaratildi. Bu barcha qadimiy mehnat qurollari odamga atrofda faunadan tezroq va kuchliroq bo'lishga yordam berdi. Axir ota-bobolarimiz o'tkir tishlari ham, tirnoqlari ham bo'lmagan.

ADABIYOTLAR

1. Ireland F. and Dale B. G., "A study on total productive maintenance implementation", Journal of Quality in Maintenance Engineering, vol. 7, No. 3, pp. 183-191.
2. Nord C., Pettersson B. and Johansson B., TPM – Total Productive Maintenance med erfarenheter från Volvo (in Swedish), 2nd ed., Mölndal, Sweden: IVF, 1997.
3. Suzuki T., New Directions for TPM, Cambridge, USA: Productivity Press.
4. <https://en.atomiyme.com/ancient-tools-names/>
5. <https://justwebworld.com/>



UDK:811.1

Nodira SAIDNAZAROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti
E-mail: saidnazarova1997@gmail.com

TDSHU, f.f.n., dots. S. Nurmatov taqrizi asosida

HINDIY VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ATRIBUTIV SO‘Z BIRIKMALARNING SHAKLLARI VA MAZMUNY-SINTAKTIK MUNOSABAT TURLARI

Аннотация

Mazkur maqolada mazmuniy-sintaktik munosabat turlari o‘rganilib, so‘z birikmalari o‘rtasidagi atributiv munosabatlardan hosil bo‘luvchi birikmalar haqida atroflicha to‘xtalib o‘tiladi. Atributiv so‘z birikmalarining turli modellari tadqiq qilinib, hindiy va o‘zbek tillarida mavjud bo‘lgan misollar modellarga ajratib chiqilgan holda tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida hindiy va o‘zbek tillaridagi atributiv so‘z birikmalarining umumiy, bir-biriga o‘xshash, ikkala tildagi o‘ziga xos hamda farqli jihatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: So‘z birikmasi, subordinativ, predikativ, obyektli, atributiv, relyativ munosabat, hokim so‘z, tobe so‘z, koordinativ, oppozitiv munosabat.

FORMS OF ATTRIBUTIVE WORD COMBINATIONS AND TYPES OF CONTENT-SYNTACTIC RELATIONS IN HINDI AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

In this article, the types of meaningful-syntactic relations are studied, and the combinations formed from the attributive relation between word combinations are discussed in detail. Various models of attributive word combinations are researched, and the examples available in Hindi and Uzbek languages are analyzed by separating them into models. In the process of analysis, common, similar, unique and different aspects of attributive phrases in Hindi and Uzbek languages are highlighted.

Key words: Word combination, subordinative, predicative, objective, attributive, adverbial relation, the main word, subordinate word, coordinative relation, appositional phrase.

ФОРМЫ АТРИБУТИВНЫХ СЛОВСОЧЕТАНИЙ В ХИНДИ И УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКАХ И ТИПЫ СОДЕРЖАТЕЛЬНО-СИНТАКСИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация

В данной статье исследуются виды содержательно-синтаксических отношений, а также подробно рассматриваются сочетания, образованные от атрибутивной связи между словосочетаниями. Исследуются различные модели атрибутивных сочетаний, анализируются примеры, имеющиеся в хинди и узбекском языках, путем разделения их на модели. В процессе анализа выделяются общие, похожие, уникальные и разные аспекты атрибутивных сочетаний в хинди и узбекском языках.

Ключевые слова: Словосочетание, субординативное, предикативное, объектное, атрибутивное, обстоятельственное отношение, главное слово, зависимый слово, координативное, оппозиционное отношение.

Kirish. Sintaksis tilshunoslikning eng muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, u tilning sintaktik tuzilishi, sintaktik birliklari hamda ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. Hozirgi vaqtda ko‘pchilik olimlar sintaktik birliklarning faqat ikki turini – so‘z birikmasi va gapni tan oladilar[1]. Sintaksisning eng kichik birligi - so‘z birikmasidir. Maqolada so‘z birikmalari o‘rtasidagi munosabat turlarini o‘rganilib, to‘plangan misollar asosida hindiy va o‘zbek tillaridagi atributiv birikmalar qiyosiy tahlil qilgan holda, modellardagi o‘xshash va farqli jihatlarni ochib berish maqsad qilib olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek va rus tilshunosligida so‘z birikmalari xususida bir qator olimlar izlanish olib borganlar. Jumladan, F.F. Fortunatov, A.M. Peshkovskiy, V.V. Vinogradov, N.N. Prokopovich, V.V. Burlakova, N.I. Filicheva, A.A. Reformatskiy Turkiy va o‘zbek tilshunosligida A.N. Baskakov, Y.M. Seyidov, M.B. Balakayev, F. Abdullayev, A.A. Koklyanova, N. Mahmudov, A. Nurmonov, X. Xoliyurov, M.K. Sharipov, A. Berdialiyev, M. Chetin singari olimlar so‘z birikmalarini keng tadqiq qilganlar va bir qator ilmiy manbalar yaratganlar[2]. Ularda so‘z birikmalari, ularning o‘zaro munosabati, aloqasi, so‘z va so‘z birikmasining farqlari haqida

batafsil to‘xtalib o‘tganlar. Hind olimlaridan esa prof. Suraj Bhan Singh “A Syntactic Grammar of Hindi” kitobida, so‘z birikmalari o‘rtasidagi munosabatlar, ularning turlari haqida umumiy ma‘lumotlar keltirgan. Rus hindshunosligida bo‘lsa hindiy tilida so‘z birikmalari xususida O.G. Ultsiferov[3]ning ishlari ahamiyatlidir. O‘zbek hindshunosligida esa ushbu mavzu dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada bir qator ilmiy manbalar, xalqaro darajadagi ilmiy maqolalar o‘rganilib, hindiy va o‘zbek tillarida yig‘ilgan misollarning o‘ziga xos jihatlari tadqiq qilingan holda, ular tavsifiy, qiyosiy-tipologik metodlar asosida tahlil qilinadi.

So‘zlarning kombinatsiyasi ona tilida so‘zlashuvchining ongi bilan boshqariladi. Ayrim so‘z birikmalari vaqt o‘tishi bilan bosqichma-bosqich o‘zgarishi natijasida qo‘shma so‘zga aylanadi[4]. Bir qator olimlarning qarashlari hamda ushbu fikrlardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, qo‘shma so‘zlar ham avval so‘z birikmasini tashkil qilgan, keyinchalik esa yaxlit holda qo‘llanila boshlangan. Qo‘shma so‘zlardan farqli holda so‘z birikmalari nutq jarayonida hosil bo‘ladi va u inson ongida shakllanadi.

Tahlil va natijalar. Inson ongida aks etgan moddiy dunyodagi elementlarning o'zaro munosabati sintaktik birliklarning mazmuniy munosabati bo'lib, u predmet va uning belgisi, xususiyati orasidagi munosabat, harakat va uning belgisi ya'ni tarzi, o'rni, payti o'rtasidagi munosabat, harakat hamda subyekt, harakat va obyekt o'rtasidagi munosabatga qarab turlarga ajratiladi. Umumiy tarzda mazmuniy-sintaktik munosabatlarni 4 turga ajratish mumkin[5]:

1. Subordinativ munosabat. Bu bir tomonlama munosabat bo'lib, u ham o'z o'rnida quyidagi 4 ta turga ajratiladi: 1) predikativ munosabat – ega va kesim munosabati; 2) obyektli munosabat – to'ldiruvchi va to'ldirilish munosabati; 3) atributiv munosabat – sifatlovchi va sifatlanmish munosabati (qisman, izohlovchi izohlanmish ham atributiv munosabatning bir turi sifatida qaraladi, masalan, shoir Erkin Vohidov); 4) relyativ munosabat – hol va hollanmish munosabati.

2. Koordinativ munosabat ya'ni ikki tomonlama aloqa. Bunda so'zlar ikkala tomondan bog'lanadi ya'ni ham hokim so'z, ham tobe so'z bog'lovchi vosita talab qiladi. Bunga qaratqich-qaralmish munosabati kiradi. Qaratqich kelishigini qabul qilgan qism ya'ni tobe so'z qaralmishni - egalik qo'shimchasini olgan hokim so'zni talab qiladi. Bu koordinativ munosabat hisoblanadi.

3. Kopulyativ munosabat - uyushiq bo'laklar munosabati.

4. Intraduktiv munosabat 2 turga bo'linadi: 1) vokativ munosabat - undalma va gap mazmuni o'rtasidagi munosabat; 2) modal munosabat - kirish so'zning gap mazmuni bilan munosabati. Bulardan subordinativ, koordinativ va kopulyativ munosabatlar sintaktik aloqa vositalariga ega. Intraduktiv munosabat esa bunday xususiyatga ega emas.

Hindiy tili sintaksisi haqidagi zamonaviy ilmiy manbalarda esa aynan so'z birikmalari o'rtasidagi munosabat turlari biroz farq qiladi, hindiy tilidagi so'z birikmalari munosabati asosan, quyidagicha 3 xil turga ajratiladi: atributiv, koordinativ, oppozitiv[6]. Maqola davomida yuqorida keltirilgan sintaktik munosabatlardan atributiv munosabat haqida batafsil to'xtalib o'tiladi hamda hindiy va o'zbek tillari misolida qiyosiy tahlil qilinadi.

Atributiv munosabat – aniqlovchi va aniqlanmish o'rtasidagi munosabatdir[7]. Ya'ni atributiv munosabat belgi, xususiyat + predmet semantik modelidagi so'z birikmasi uchun xosdir. Masalan, qizil qalam, uchta daftar. Shuningdek, shoir Abdulla Oripov tipidagi munosabat ham atributiv munosabatning bir turi sifatida qaraladi[8]. Ayrim tadqiqotchilar, atributiv birikmalarning hosil bo'lishi haqida alohida to'xtalib, atributiv birikmalarda asosan, o'xshashlik munosabati, o'xshashlikning turli xil o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lishini ta'kidlashadi[9]. Demak, atributiv birikmalar tilda u yoki bu obyektini boshqa o'xshash obyektlardan farqlash va ajratib ko'rsatish, unga xos xususiyatlarni aniq aks ettirish zarurati tufayli ham yuzaga keladi. Bu belgilar juda xilma-xil bo'lishi mumkin, ular obyektini tashqi yoki ichki jihatdan tavsiflaydi.

Masalan, tashqi ko'rinish (siyrak qoshlar, uzun sochlar, keng yelkalar, charos ko'zlar; उदास चेहरा - g'amgin yuz, मोटी भौहें - qalin qoshlar, छोटी आँखें - kichik ko'zlar); ichki sifatlar, xarakter xususiyatlari (jahldor yigit, xushchaqchaq ayol, qiziqqon kishi, g'amgin ona; समझदार बच्चे - aqlli bolalar, दयालु पिता - mehribon ota, ईमानदार लकड़हारा - vijdonli o'tinchi); rang-tusi (qizil ko'ylak, moviy dengiz, ko'm-ko'k dala; सफ़ेद रुमाल - oq ro'molcha, लाल किताब - qizil kitob, पीला फूल - sariq gul) kabilarni ifodalaydi.

Atributiv so'z birikmalari hokim so'zga bog'lanib kelgan tobe so'z qismlarining qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishiga ko'ra, quyidagi modellar guruhiga bo'linadi:

1. Ot + ot. Bu turdagi so'z birikmalari o'zbek tilida keng tarqalgan turlardan biri hisoblanadi va yozuvchi Oybek kabi oppozitiv ma'nodagi izohlovchi-izohlanmish shaklidagi birikmalar ham o'zbek tilida atributiv so'z birikmalarining bir turi hisoblanadi va bu tur ham keng qo'llaniladi. Masalan: yog'och uy, kumush qoshiq, yuk mashina, shoir tabiat, shoir Erkin Vohidov;

Hindiy tilida esa ot + ot modelidagi atributiv so'z birikmalari nisbatan kam uchraydi: कविता कोश - she'rilar to'plami, शिक्षा मंत्री - ta'lim vaziri, रक्षा मंत्री - mudofaa vaziri. Hind olimlarining manbalariga ko'ra, ot + ot modelidagi izohlovchi izohlanmish shaklidagi birikmalar o'zbek tilidan farqli ravishda, hindiy tilida oppozitiv[10] so'z birikmalariga kiritiladi, ular atributiv birikmalar hisoblanmaydi: बादशाह अकबर - podshoh Akbar, कवि सूरदास - shoir Surdas, लेखक प्रेमचन्द - yozuvchi Premchand.

2. Olmosh + ot. Olmoshlarning hammasi ham ot va otlashgan so'z bilan ifodalangan hokim so'z bilan birikib kela olmaydi, shu sababli ham bu turda asosan, ko'rsatish va belgilash olmoshlari, kamdan kam hollarda bo'lishsizlik olmoshi hosil qiluvchi hech so'zi ishtirok etishi mumkin. Biroq, hindiy tilida bu tipdagi so'z birikmalarida juda ko'p hollarda ko'rsatish olmoshlari uchraydi: o'sha bog', shu inson, barcha talabalar, hech kishi, butun dunyo; वह सड़क - o'sha ko'cha, यह घर - bu uy, वह सन्दूक - shu sandiq. Bu modeldagi atributiv so'z birikmalarining tobe so'z qismi o'zbek tilida o'zgarishga uchramaydi[11]. Ammo hindiy tilida ko'rsatish olmoshi o'zidan keyingi otning ko'pligiga va otdan keyin ort ko'makchi kelish, kelmasligiga qarab o'zgaradi: ये पुस्तकें - bu kitoblar, वे घर - o'sha uylar, इस घर में - bu uyda, उन कापियो को - o'sha daftarlarni. Hindiy tilidagi olmoshlarning turlari ham farqlanadi, shu sababli, olmosh + ot tipidagi atributiv birikmalar ham o'zbek tilidagidan farqlidir. Hindiy tilida belgilash olmoshlari mavjud emas va ko'proq ko'rsatish olmoshi + ot shaklidagi birikmalar ishlatiladi. Shuningdek, hindiy tilida olmosh + ot tipida कोई, कुछ noaniq olmoshlari ham qo'llaniladi. Masalan: कोई आदमी - biror bir odam, biror kimsa, कोई चीज़ - biror narsa, कुछ लोग - bir nechta odamlar, ayrim odamlar.

3. Son + ot. Bu turda quyidagi tipdagi so'z birikmalarini farqlashimiz mumkin: sanoq son + ot: yigirmata talaba, o'nta ayol; tartib son + ot: yigirma beshinchi maktab; chama son + ot: o'ntacha o'quvchi; taqsim son + ot: ikkitadan qalam. Hindiy tilida esa o'zbek tilidan farqli ravishda, sonlarning chama son va taqsim son turlari mavjud emas, bu ma'nolar hindiy tilida लगभग - taxminan, kabi so'zlarni qo'llash, sonlarni takror ishlatish orqali ifodalangan sababli, ular bu turdagi birikmalarga kirmaydi. Shu sababli hindiy tilida son + ot tipidagi atributiv so'z birikmalarining quyidagi ko'rinishlarini uchratishimiz mumkin: sanoq son + ot: दस विद्यार्थी - 10 ta talaba, सात लड़की - yettita qiz; tartib son + ot: पंद्रहवाँ घर - o'n beshinchi uy, तीसरी मंज़िल - uchinchi qavat.

Hindiy tilida jins kategoriyasi mavjudligi sababli, tartib son + ot tipidagi atributiv so'z birikmalarining tobe so'z qismidagi tartib son hokim so'zning jinsiga va soniga qarab, o'zgarishga uchraydi. Masalan: आठवाँ अस्पताल - sakkizinchi kasalxona, आठवीं मंज़िल - sakkizinchi qavat. O'zbek tilida esa bu kabi holat yuz bermaydi ya'ni son + ot turidagi atributiv so'z birikmalarining tobe so'z qismi hech qanday o'zgarishga uchramaydi va hech qanday so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimchalar qabul qilmaydi, ammo hokim so'zga gap mazmuniga qarab egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari qo'shilishi mumkin: o'ninchi maktabda, beshtadan qalamni. Hindiy tilida ham hokim so'z ko'plikda, ort ko'makchilar bilan ham qo'llanilishi mumkin: बीसवीं शताब्दी में - yigirmanchi asrda, पाँच लड़कियों में - beshta qizlarda.

4. Sifat + ot. Atributiv so'z birikmalari ichida eng ko'p tarqalgan turi shu bo'lib, bunda turli xil ma'noli sifatlar keng qo'llaniladi, masalan, maza-ta'm, xususiyat, shakl-shamoyil, rang, hid, hajm-o'lchov, makon-zamon kabi ma'nolarni ifodalovchi ko'plab sifatlar ishlatilishi mumkin. Bu turdagi atributiv birikmalar o'zbek tilida ham, hindiy tilida ham eng ko'p foydalaniladigan so'z birikmalaridan hisoblanadi: nordon olma, issiq choy, toza havo, uzoq safar, moviy osmon, kuzgi hosil; मज़ेदार भोजन - mazali taom, सुन्दर प्रकृति - go'zal tabiat, उदार व्यक्ति - saxiy inson, विशाल साम्राज्य - ulkan imperiya, बड़ा घर - katta uy, सुगंधित फूल - xushbo'y gullar. O'zbek tilida bu turdagi birikmalarda tobe so'z qismi umuman o'zgar olmaydi, hindiy tilida esa sifat + ot tipidagi atributiv birikmalarda hokim so'zning jinsiga, soniga qarab, o'zgaruvchan sifatlar bilan ifodalangan tobe so'z tarkibida o'zgarishlar yuz beradi ya'ni o'zgaruvchan sifat ot bilan jinsda va sonda moslashadi, o'zgarimas sifatlar tarkibida esa hech qanday o'zgarish yuz bermaydi. Masalan: अच्छा अध्यापक - yaxshi o'qituvchi, अच्छी लड़की - yaxshi qiz, अच्छे बच्चे - yaxshi bolalar.

5. Sifatdosh + ot. Fe'ning funksional shakllaridan biri bo'lgan sifatdosh ham ot bilan birikib, so'z birikmasi hosil qiladi va bu tipda o'zbek tilida asosan, sifatdoshning -gan, -digan, -yotgan qo'shimchasini olgan shakllari ko'p uchraydi va ba'zan kamdan kam hollarda, asosan, badiiy adabiyotlarda -ar, -ur, -jak, -ajak shaklidagi sifatdoshlarning ham ot bilan birikib so'z birikmasi hosil qilishi mumkin: bo'ladigan bola, o'qigan qiz, yozayotgan talaba, borar yo'l;

Hindiy tilida ham sifatdosh + ot turidagi atributiv so'z birikmalari ko'p uchraydi va ularning ham o'zbek tilidan farqli jihati hindiy tilida sifatdosh ham hokim so'zning jinsi va soniga qarab o'zgaradi ya'ni sifatdosh o'zidan keyingi ot bilan jins va sonda moslashadi: चुनी हुई कविताएँ [12] - tanlangan she'rlar, पढ़ी हुई कहानी - o'qilgan hikoya, गाते हुए मज़दूर - kuylayotgan ishchilar, बहता हुआ पानी - oqayotgan suv.

Xulosa va takliflar. Yuqorida olib borilgan izlanish va tahlil natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Predmet va uning belgisi, xususiyati orasidagi munosabat, harakat va uning belgisi, tarzi, o'mi, payti o'rtasidagi munosabat, harakat hamda subyekt, harakat va obyekt o'rtasidagi munosabatga ko'ra, mazmuniy-sintaktik munosabatlar umumiy tarzda subordinativ (predikativ, obyektli, atributiv, relyativ munosabatlar), koordinativ munosabat ya'ni ikki tomonlama aloqa (qaratqich-

qaralmish munosabati), kopulyativ, intraduktiv munosabat (vokativ, modal munosabatlar) kabi turlarga ajratiladi.

2. Atributiv birikmalar predmetlarni farqlash va ajratib ko'rsatish, ularga xos xususiyatlarni aniq aks ettirish zarurati sababli ham yuzaga keladi va obyektning tashqi va ichki jihatdan xilma-xil xususiyatlarini (rang-tus, maza-ta'm, belgi-xususiyat, hajm, hid, tashqi ko'rinish) ifodalaydi.

3. Atributiv birikmalar 5 ta turga ajratib tahlil qilindi, ulardan ot + ot tipidagi birikmalar hindiy va o'zbek tillarida o'xshash hamda farqli jihatlarga ega bo'lib, bu turdagi birikmalar o'zbek tilida anchagina, hindiy tilida esa nisbatan kamroqni tashkil qiladi va izlanishlarimiz davomida, o'zbek tilida izohlovchi-izohlanmish shaklidagi so'z birikmalar ham atributiv birikmalarga kiritilsa, hindiy tilida bu shakldagi so'z birikmalar atributiv birikmalar emas, balki, oppozitiv birikmalar sanalishi aniqlandi.

4. Olmosh + ot tipidagi atributiv so'z birikmalarining tobe so'z qismi o'zbek tilida ko'pincha ko'rsatish, belgilash, bo'lishsizlik olmoshi bilan ifodalanadi, hindiy tilida esa asosan, ko'rsatish olmoshlari, kamdan kam hollarda nisbiy olmosh bilan qo'llaniladi. O'zbek tilida atributiv birikmalarining tobe so'z qismi o'zgar olmaydi, ammo hindiy tilida hokim so'zning ya'ni otning soniga, ort ko'makchi bilan ishlatilish, ishlatilmasligiga qarab, ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan tobe so'z o'zgarishga uchraydi.

5. Son + ot tipidagi atributiv so'z birikmalarining o'zbek tilida sanoq son + ot, tartib son + ot, chama son + ot, taqsim son + ot kabi turlari mavjud. Hindiy tilida esa faqat sanoq son + ot, tartib son + ot modeliga xos atributiv so'z birikmalar uchraydi. Hindiy tilida tartib son + ot modeliga xos atributiv so'z birikmalaridagi tartib son o'zidan keyingi otning jinsi va soniga qarab moslashadi. O'zbek tilida esa bunday holatlar kuzatilmaydi.

6. Sifat + ot shaklidagi atributiv birikmalar o'zbek tilida ham, hindiy tilida ham ko'p. O'zbek tilida bunday birikmalarda tobe so'z qismi ya'ni sifat umuman o'zgar olmaydi, hindiy tilida esa o'zgaruvchan sifatlar bilan ifodalangan tobe so'z o'zidan keyin kelgan ot bilan jins va sonda moslashadi, o'zgarimas sifatlarda esa bu holat kuzatilmaydi.

7. Sifatdosh + ot tipidagi atributiv so'z birikmalari ham hindiy va o'zbek tillarida keng qo'llaniladi. Bu turdagi birikmalarda o'zbek tilida sifatdosh bilan ifodalangan tobe so'z o'zgarishsiz holda bo'ladi, biroq, hindiy tilida sifatdosh hokim so'zning jinsi va soniga qarab u bilan moslashadi.

ADABIYOTLAR

1. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.: Fan, 1992. – B. 5.
2. Sharipov M.K. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari sintaksisi masalasi. – T.: Fan, 1978. – B. 6.
3. Ульциферов О.Г. Словосочетания в хинди. – М.: Наука, 1971. – С. 13.
4. Elena I. Archipova. The Principles of Non-equivalent Word-combinations Selection for Ideographic Dictionary Compiling // Procedia-Social and Behavioral Sciences 200 (2015). – P. 388.
5. Maxmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1995. – B. 15.
6. Suraj Bhan Singh. A Syntactic Grammar of Hindi. – New Delhi, Ocean Books, 2012. – P. 46.
7. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 19.
8. Maxmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1995. – B. 12.
9. Zachary Estes. Attributive and relational processes in nominal combination // Journal of Memory and Language 48 (2003). – P. 306.
10. Suraj Bhan Singh. A Syntactic Grammar of Hindi. – New Delhi, Ocean Books, 2012. – P. 46.
11. Abdullayev F. So'zlar o'zaro qanday bog'lanadi? – T.: Fan, 1974. – B. 8.
12. Хинди - русский словарь. Сост. В.М.Бескровный. Под ред. акад. А.П.Баранникова. – М.: ГИС, 1959. – С. 238.



UDK:811.1

Laylo TO'YCHIYEVA,

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: toychiyevalaylo0@gmail.com

SamDU professori, filologiya fanlari doktori E.Musurmonov taqrizi asosida

“ULISS SARGUZASHTLARI” ROMANING BADIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Irland yozuvchi Jems Joysning ijodi va uslubi tahlil qilingan. Bunda yozuvchining “Uliss sarguzashtlari” romanning badiiy xususiyatlari maxsus o'rganilgan. Romanning syujeti kompozitsiyasi va uslubidagi o'ziga xos xususiyatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jems Joys “Uliss sarguzashtlari” romani. Badiiy uslub. Badiiy xronotop. Badiiy tasvir. Roman syujet. Badiiy kompozitsiya.

ARTISTIC OF THE NOVEL “ADVENTURES OF ULYSSES” CHARACTERISTICS

Annotation

Three articles analyze the work and style of the Irish writer James Joyce. The artistic features of the writer's novel "The Adventures of Ulysses" were specially studied. The peculiarity of the composition and style of the plot of the novel is highlighted. Key words: James Joyce. Adventures of Ulysses. Style. Chronotope.

Key words: The Adventures of Ulysses by James Joyce. Artistic style. Artistic chronotope. Artistic image. Novel plot. Artistic composition.

АРТИСТИКА РОМАНА "ПРИКЛЮЧЕНИЯ УЛИССА" ХАРАКТЕРИСТИКИ

Абстракт

В данной статье анализируется творчество и стиль ирландского писателя Джеймса Джойса. При этом отдельно исследуются и художественные особенности романа писателя «Приключения Улисса». Выделены особенности композиции и стиля сюжета романа.

Ключевые слова: Приключения Улисса Джеймса Джойса. Художественный стиль. Художественный хронотоп. Художественный образ. Роман сюжет. Художественная композиция.

Kirish. XX asr boshlarida Jems Joys ijodini o'rganish keng tus oldi. Insonning ichki olami, uning psixologiyasidagi evrilishlar ijodkorlarni tobora qiziqtiradigan jarayonga aylandi. Shu boisdan “Uliss sarguzashtlari” singari bir qancha asarlar yaratildi. Uni o'rganishga Karl Yung, Viladimir Nobokov, Bernard Shou, Richard Oldington, Arnol Bernetti, Bekket kabi adabiyotshunos va psixologlar kirishdilar. Ushbu olimlar o'zlarining psixologik- falsafiy qarashlarini adabiyot orqali aks ettirdilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson ichki olamini taftish etish negizida yangi uslub va yangi talqin shakli – modernizm adabiyoti yuzaga chiqdi. Jems Joys ushbu oqimning asoschilaridan biriga aylandi. Undan so'ng, Frans Kafka, M.Prust, X.Borxes, J.-P.Sartr, A.Kamyu asarlarida modernizm an'alarini davom ettirdi. O'zbek adabiyotida esa Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Xurshid Do'stmuhammad, To'xtamurod Rustam kabi ijodkorlar shaxs ichki kechinmalari va uni o'rab turgan jamiyatga nisbatan qarashlarini o'ziga xos tarzda aks ettirdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi aksariyat modernistik yozuvchilar ijodida shaxs ruhiyati, uning atrof muhit bilan aloqasi, Jamiyatga kirishuvi ichki olami bilan muloqoti o'z-o'zidan qoniqmaslik holatidagi qahramonlarni gavalantirish masalasi yetakchi motivlardan biri hisoblanadi. “Uliss sarguzashtlari”ni dastlab yevropaning bir qator psixologlari o'rgandilar. Buyuk psixolog Karl Yung roman bo'yicha bir qancha fikrlar bildiradi. U “Uliss”ning labirentlarida uzoq yugurib yurganini ta'kidlaydi. Roman haqida “Jems Joys uslubining sira aqlbovar qilmas ko'p qiyofaliligi odamga gipnosdek ta'sir ko'rsatishi haqida gapiradi.

Bugungi ilm, fan-texnika taraqqiy etgan davrda, adabiyotda modernizm, postmodernizm oqimlari yetakchi bo'lib turgan ayni paytda psixologiya, falsafa, estetika, adabiyot sohalarida global masalaga aylanib ulgurgan shaxs ichki olami hamda uning jamiyat bilan kirishuvini uning ichki monologi, ong oqiminni yoritish bugun tom ma'noda sindrom darajaga ko'tarildi. Ong oqimi, ichki monolog ayni damda adabiyotda ham global masala ekanligini ta'kidlash mumkin.

Tahlil va natijalar. Butun yevropa adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan Irland yozuvchisi Jems Joys o'zining g'ayrioddiy, shu davr yozuvchilaridan butunlay farq qiladigan tarzda yozishi bilan jahon adabiyotida katta o'rin tutadi. Jahon adabiyotshunosligida Jems Joys ijodi ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Bu bahs-munozaralarning asosi nimada? Ijodkorning uslubidami? Roman voqealarining badiiy jihatdan bo'shligidami? Yoki o'zigacha bo'lgan ifoda shakllarining yangilanganligidami? Yuqoridagi savollarning har-biriga qisman bo'lsada asosli tarzda javoblar mavjud. Chunki Jems Joysning o'z uslubi, shuningdek, asarning o'z ixlosmandlari mavjud. Ijodkor qo'lga qalam olar ekan u kitobxonning darajasidan emas o'z ilmiy salohiyatidan kelib chiqib asar yaratadi. Shuning uchun barcha asarlar hammani birdek qamrab ola olmaydi. Kingadir Jems Joys ijodi yoqsa kingadir Frans Kafka, yana kimdir Jek London asarlarini sevib o'qiydi. Har bir yozuvchi yoki shoir asar yozar ekan uning ijodiga o'zi yashab turgan davr va muhitning ta'siri sezilib turadi. Shu o'rinda Jems Joysning hayot yo'liga nazar tashlaydigan bo'lsak uning Irlandiya aholisiga va Irlandiya yozuvchilariga o'xshamagan hayot tarzi borligining guvohi bo'lamiz. Yozuvchi asarlariga boqar

ekanmiz, uning Irland diyoriga bo'lgan mehrini yoki ona yurtida bo'layotgan nohaqliklarga nisbatan qalbida tug'ilgan isyonini ko'ramiz. Ijodkor avtobiografiyasida esa u, hatto, Irlandiyaning ozodligi uchun kurash olib boruvchi Irland ziyolilari bilan bir safda tura olmagani ham ma'lum. Bu haqda adabiyotshunos Akmal Saidov shunday yozadi: "Joys itimoiy va milliy tengsizlikka to'pори boyonlarcha to'qlikka qarshi chiqqan bo'lsa hayotda, inqilobiy o'zgarishlar bo'lishiga ishonmagandi o'z xalqining siyosiy va madaniy ozodligi uchun kurash olib boruvchi Irland ziyolilari bilan hammafas bo'lib ketolmagandi. [Jems Joy "Uliss sarguzashtlari"romani 2013:3]

Ammo J. Joys asarlari ularda qo'llanilayotgan poetik tasvirlar, va voqealar fabulasining asosiy bosh makoni Irlandiya ekanligi barchamizga ma'lum. Bu haqda ijodkorning o'zi shunday yozadi: "Men yurtimning axloqiy tarixidan bir bobni yozish niyatida edim, shu bois sahna sifatida Dublinni tanlagandim, Chunki bu shahar menga falajlik markazidek bo'lib ko'ringan edi..." [Jems Joy "Uliss sarguzashtlari" romani 2013:4] J. Joys 1994- yilda yozilgan "Dublinliklar" hikoyalar to'plami bosilib chiqqanda aynan shu gaplarni aytgan edi. Yuqoridagi fikrlarning aksi o'laroq, Joys ijodiga ko'p sonli adabiyotshunoslar tomonidan salbiy ma'noda tilidan, dinidan, millatidan uzilgan ijodkor. Imkoniyatlardan mosuvo bo'lgan yozuvchi sifatida qarashlar ham mavjud. Bu kabi qarashlar haligacha kitobxonlar o'rtasida munozarali jarayonlarni vujudga keltirmoqda. Bu munozaralarga yozuvchining ona vatani haqida "O'z bolalarini g'ajiyotgan cho'chqa" [Akmal Saidov. Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish 2020:424]- deya salbiy sifat berganligi sabab bo'lgandir, balki. Endi yuqoridagi fikrlarga qaytsak. Joysning hayot yo'li boshqa ijodkorlarinikiga o'xshamaydi va u vatanini juda erta tark etgan. Hatto Irlandiya ozodligi uchun kurash olib borgan ziyolilar safiga ham Joysning qo'shilganini ko'rmaymiz. Biroq uning qalbida mudom vatan o'ylari va vatan tashvishlari borligini asarlaridagi deyarli har bir obraz tilidan bilishimiz mumkin. Ammo, Joys ushbu tuyg'uni juda ham bertartib tarzda bir qarashda kitobxon anglolmaydigan yo'sinda ko'rsatib beradi. Bu esa ijodkor uslubining o'ziga xosligidan dalolatdir.

Ko'plab adiblar singari Jems Joys adabiyotga shoir sifatida kirib keladi. Va "Kamer musiqasi" she'rlar kitobini nashr ettirdi. Ushbu she'riy to'plam ham o'ziga xosligi bilan ajralib turardi. Mana shu davrdan boshlab yozuvchi ijod namunalarida kinoya, taqlid, hajv kabi unsurlardan ajralmagan holda asarlar yaratish davri boshlandi. Va bu holat uning keyingi asarlarida ham davom etdi. Ijodkor sekin-asta nasriy asarlar yozishga o'tadi. Nasriy asar yozganda ham nihoyatda puxta o'ylangan yetti marta o'ylab bir marta yoziladigan asarlar yaratadi. Bu asarlar kitobxonga shunchaki estetik lazzat berib hayotning go'zal taraflarini ko'rsatibgina qolmay, uni biroz o'ylantirishga hayotga real ko'z bilan qarab, mushohada qilishga chorlaydi. "Uliss sarguzashtlari" romani o'zining yozilish uslubi bilan bir qancha asarlardan farq qiladi. Roman yuzasidan adabiyotshunoslarning turli fikrlari mavjud. Yuqorida nomi tilga olingan adabiyotshunos, Akmal Saidov "Uliss sarguzashtlari" romani bo'yicha, uni qanday o'qish kerakligi to'risida kitobxonga manzur bo'ladigan o'nta maslahat beradi. Va ushbu tavsiyani beribgina qolmay roman haqida o'zining hissiy fikrlarini ham bildirib o'tadi: Hech shubhasiz "Uliss" ba'zilar o'lgudek yomon ko'radigan, ammo, yana eng ko'p o'shani o'ylaydigan roman. Yelkangizdan tog' ag'darilgandek o'zingizni engil his etasiz, o'qib bo'lib kitobni yopar ekansiz inson sifatida endi hech qachon oldingidek bo'la olmasligingizni anglaysiz. [Jems Joy "Uliss sarguzashtlari"romani 2013:15] Deya ta'kidlaydi. Darvoqe "Uliss"ni tushungan odam ko'z o'ngida misli ko'rilmagan bir oyna ochilganday va atrofni o'rab turgan tuman bir zumda

yo'q bo'lib ketganday bo'ladi. Buning uchun "Uliss"ni tushunmoq darkor. Aksincha "Uliss"ni tushunmas ekanmiz ko'z oldimizda paydo bo'layotgan xiraliklar quyuqlashib turg'unlashib boraveradi.

Romanning yozilish tarixiga keladigan bo'lsak. Joysning "Uliss sarguzashtlari"romani yozuvchining "San'atkorning yoshlikdagi suvrati" kitobining mantiqiy davomi o'laroq yozilganligi ma'lum. Bu haqda turli manbaalarda ko'plab ta'kidlab o'tilgan.

Jems Joys ijodiga xos xususiyatlardan biri har bir obraz va detallarni ramziy ma'no kasb etishidir. Jamiyatda ro'y berayotgan axloqiy kemtikliklarni ma'lum bir ramzal bilan berilishi ijodkor uslubining o'ziga xosligidir. Masalan it obraz. Roviylardan aytilayotgan har bir hikoyada itning qaysidir harakati keltirib o'tiladi. Yoki bo'lmasa Stevin Dedalning o'qituvchilik faoliyatida uchraydigan uning yoshligiga o'xshab ketadigan bilimga chanqoq ammo, ko'zlari biroz ojiz bo'lgan Sarjin ismli bola. Va asarning boshqa o'rinlarida keladigan ko'rlik holatlari. Yoki Uyqu mamlakati, har bir qismda alohida alohida uchraydigan inson tana a'zolari, o'lik mavsum va boshqalar. Bularning barchasi yuqori darajada ramziy ma'no tashiyotganligini ko'rishimiz mumkin. Joys ijodidagi ramziylikni adabiyotshunos Tilovoldi Jo'rayev quyidagicha ta'riflaydi: "Joys ijodida ramzlar katta o'rin tutadi. Adib uslubidagi bu muhim xususiyat norvegiyalik dramaturg Genrix Ibson metodiga mansub". [«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi 2009 yil 29-son]. Har bir fikrning zo'hiriy va botiniy ma'nosini anglash uchun kitobxon doimo sergak va xushyor turmog'i lozim. Undan tashqari ijodkor uslubiga xos xususiyatlardan yana biri sahnada roviylarning almashinib turishida ko'rinadi. Chunki voqealalar shu darajada shiddat bilan bir makon va zamondan ikkinchi makon va zamonga ko'chadiki, kitobxon ularning ibtidosi-yu, intihosi haqidagi aniqlikni tezda ilg'ab olishi qiyin. Bu esa kitobxon nazariida ma'lum ma'noda mantiqsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu mantiqsizlikdan ma'no topish uchun kitobxondan xushyorlik talab etiladi. Birgina "Uliss sarguzashtlari" romanidagi 15-voqeaga e'tiborimizni qaratsak. Bir maromda tasvirlanib kelinayotgan L. Blumning uydagi holati va tezlikda ko'chada paydo bo'lib qolayotgan L. Blum tasvirlanadi. Hatto, undan keyingi jarayonlar ham biroz tartibsizdek tuyulaveradi. Masalan, Leaopold Blum ayni damda ko'chada xazon oralab ketayotganida bir fohishaxona oldida to'xtab eskittan tanish bo'lgan Zoyaning yonida bo'ladi. Va yana xuddi shu paytda u sud jarayonida paydo bo'ladi. Uslubning bu kabi noodatiyligi haqida buyuk psixolog olim Karl Yung shunday degan edi "Jems Joys uslubining sira aqlbovar qilmas ko'p qiyofaliligi odamga gipnosdek ta'sir ko'rsatadi" [Jems Joy "Uliss sarguzashtlari"romani 2013:5] Bu kabi holatlar kitobning boshidan oxirigacha to'lib yotibdi. Puxta tayyorgarlik ko'rmagan kitobxon ushbu so'qmoqlarda biroz esankirab qolishi hech gap emas. Roman ustida izlanishlar olib borgan va boshqalarga ham uni o'qishni tavsiya etayotgan yozuvchi va tarjimon Viladimir Nabokov "Bu asarni qalb va hissiyot bilan emas miya bilan o'qish kerak" ["Ёшлик", 2016 йил 3-сон] deb aytadi. Chunki, bu yerda bir emas bir qancha g'ayrioddiy ifoda shakllariga duch kelamiz. O'zbek madern adabiyoti vakili Nazar Eshonqul esa ushbu holatga quyidagicha fikr bildiradi. "Joysda tushunarsiz, ma'nosi yo'q jumlar juda ko'p. gazetadagi xabar kabi rasmiy va quruq tildagi lavhalar ham tez-tez uchraydi. Ba'zida she'rga o'xshash sajlar kelib qoladi, Ba'zida tinish belgilarga bo'ysunmagan gaplar tuzilib qoladi. Bularning hammasi ma'lum maqsad bilan asarga kiritilgan ["Yoshlik", 2016 yil 3-son]. Bizning fikrimizcha, ham "Uliss"dagi ushbu tushunarsizliklar atrof muhitda bo'layotgan voqealarga ijodkorning o'zgalarga o'xshagan nigoh bilan bo'qishidir. Natijada yozuvchi ushbu qarashlarini umumlashtirgan holda

o'z uslubini yaratganini ko'rishimiz mumkin. O'qirman kitobxon bu chigalliklarga nisbatan qalbida "...asarda nega aynan bu kabi voqealar qalashib yotibdi?" degan savol bilan biroz jazavaga tushushi turgan gap. Yuqoridagi fikrga qo'shimcha qilgan holda ushbu jarayonlar bekorga keltirilmagan degan xulosaga keldik. Asarda keltirilgan har bir detal avval puxta o'ylab chiqilib keyin tadbiq etilgan. Yozuvchi uslubining yana bir xususiyatlaridan biri u shu kungacha bo'lgan an'analarni inkor etdi. An'anaviy roman tasvirlariga zid tasvir yo'lidan bordi. Shaxs kechinmalarining rang-barang hodisalar bilan to'qnash kelishiga majbur qildi. Inson ruhi, ichki dunyosining tanazzullarini bevosita ochiq oydin aks ettirdi. "Uliss sarguzashtlari" romani tasvirda juda ochiq ma'noda ming bir yashirin holatlarni o'zida aks ettirishi bilan ma'lum aqidalarni buzib yubordi. Yunon afsonasi "Odessiy"ning prototipi tarzida yozilgan "Uliss sarguzashtlari" romanida Telemaxga nisbatan Steven Dedal otani rad etish yo'lidan bordi. Bu kabi zid tasvir usullari

adabiyotshunoslar o'rtasida ko'plab munozalarga sabab bo'lmoqda.

Uslubning yana bir o'ziga xosligi, roman qismlarining har biri mustaqil holda tasvirlanishidir. Va bu har bir qism alohida-alohida ramzlarni hosil qiladi. Ular xuddi tizimlangan umumiylikning qismlariga o'xshaydi. Uning qismlari birlashgandagina asarning umumiy mazmuni ochiladigandek g'oyo

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adibning inson his- tuyg'ularini o'ta botiniy, ammo, juda ham aniq tarzda aks ettirishi boshqa yozuvchilar uslubidan keskin farq qiladi. Yozuvchi romanda bir obraz ichida bir nechta shaxsning namoyon bo'lishini juda ustamonlik bilan yoritgan. Asarning har bir qismida shu kabi inson tuyg'ularining eng yashirin hududlarigacha yetib borgan holatlar ko'rinadi. Buni hech bir kitobxon shunchaki befarq o'qiy olmaydi. Uliss har bir shaxsning botinida kechadigan tuyg'ular jamlanmasidir.

ADABIYOTLAR

1. Jems Joys "Uliss sarguzashtlari" roman Toshkent "O'zbekiston" 2013 y.
2. Джеймс Джойс .Дублинцы. Рассказы. Портрет художника в юности. Роман. 2. Москва Знаменитая Книга 1993
3. Jo'raqulov U. "Nazariy poetika masalalari". T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015.
4. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva.-T.:Fan 2006.
5. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva.-T.:Fan 2006.
6. Jo'raqulov U. O'zbek romani genezisi.-T.: "Nurafshon business"-2022
7. Akmal Saidov "Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish". Toshkent 2020-y
8. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2012. № 11
9. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2009. № 9
10. "Sharq yulduzi" jurnali. 2010. № 1
11. "Yoshlik", 2016 yil 3-son



UDK:821.512.133.09 83.3(5o')

Darmonoy URAEVA,
Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanari doktori
Obodon ADIZOVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: obodon63@gmail.com

Buxoro Davlat Universiteti dotsenti, PhD M.Akhmedova taqrizi asosida

FRANSUZ FOLKLOR JANRINING TARIXI

Annotatsiya

Maqolada folklorshunoslik janri uning tarixi va taraqqiyot tamoyillari yoritilgan. Folklor janrining kelib chiqishi, evolyutsiyasi, xususiyati va tuzilishiga oid ma'lumotlar aniqlab berilgani asoslangan. Shuningdek, maqolada xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik va xalq orasidan chiqqan yuksak shaxslarning asarlaridan namunalar jamlangan, avlodlarning asriy aloqalarini tushunishga yordam beruvchi ma'lumot va xususiyatlar tahlilga tortilgan. Fransiya folklorshunosligi ham boy tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega ekanligi hamda hozirga qadar boshqa rivojlangan Yevropa davlatlari qatorida Fransiyada ham bu janr tez sur'atlar bilan taraqqiy topib borayotganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Folklorga xos an'ana, urf-odat, qadriyat va milliylik tushunchalari o'rganilgan hamda ularga nisbatan munosabat ham e'tiborga olingan. Bolalar o'yin folklori namunalardan manbalar asosida misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy obraz, folklorshunos, xalq og'zaki ijodi, biografik usul, xarakter, urf-odat, tarixiy, etnografiya, vatanparvar, ilmparvar, tarixiy taraqqiyot, an'ana, urf-odat, qadriyat, milliylik, bolalar o'yini, hayotiy, xayoliy hikoya, qo'shiq, o'smirlar o'yinlari, sport mashg'ulotlari, jamoat joylari, qishloq maydonlari, xiyobonlar, hissiy o'yinlar, intellektual o'yinlar, mushak o'yinlari, sakrab o'ynaladigan o'yinlar, arg'imchoqdan sakrash, kurash tushish o'yinlari.

HISTORY OF THE FRENCH FOLKLORE GENRE

Abstract

The article describes the genre of folklore, its history and principles of development. It is based on the information about the origin, evolution, characteristics and structure of the folklore genre. In addition, the article collects examples of folklore, folklore studies and the works of high-ranking people, and analyzes information and characteristics that help to understand the age-old relations of generations. It is reported that French folklore also has rich historical development stages and that this genre is developing rapidly in France along with other developed European countries. The concepts of traditions, customs, value and nationality specific to folklore were studied and the attitude towards them was also taken into account. Examples of children's game folklore are given based on sources.

Key words: Artistic image, folklorist, folklore, biographical method, character, historical, ethnography, patriot, scientist, historical development, tradition, custom, value, nationality, children play, life, fictional story, song, teenage games, sports activities, public places, village squares, alleys, sensory games, intellectual games, muscle games, jumping games, crawling games, jumping, wrestling games.

ИСТОРИЯ ФРАНЦУЗСКОГО ФОЛЬКЛОРНОГО ЖАНРА

Аннотация

В статье описывается жанр фольклора, его история и принципы развития. В ее основу положены сведения о происхождении, эволюции, особенностях и структуре фольклорного жанра. Кроме того, в статье собраны образцы фольклора, фольклористика и произведения высокопоставленных лиц, а также проанализированы сведения и характеристики, помогающие понять вековые отношения поколений. Сообщается, что французский фольклор также имеет богатые исторические этапы развития и что этот жанр бурно развивается во Франции наряду с другими развитыми европейскими странами. Изучались характерные для фольклора понятия традиции, обычаи, ценности и национальности, а также учитывалось отношение к ним. Приведены примеры детского игрового фольклора по источникам.

Ключевые слова: Художественный образ, фольклорист, фольклор, биографический метод, персонаж, исторический, этнография, патриот, ученый, историческое развитие, традиция, обычай, ценность, национальность, детская игра, быт, выдумка, песня, подростковые игры, спортивные занятия, общественные места, деревенские площади, аллеи, сенсорные игры, интеллектуальные игры, игры с мышцами, игры с прыжками, игры с ползанием, прыжки, игры с борьбой.

Kirish. Dunyo xalqlarining ko'p asrlar davomida qaror topgan umummilliy qadriyatlarini tiklashda folklor eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Fransuz xalqi orasida urf-odat, qadimiy hayotiy va xayoliy hikoyalari hamda qo'shiqlarga, shuningdek, bolalar o'yin folklori namunalari jamoatchilik qiziqishi juda katta bo'lgan. Folklorga xos an'ana, urf-odat, an'anaviylik tushunchalari ba'zan siyosiy ma'noga ega bo'lishi mumkinligi inobatga olinib, nafaqat an'anaviy odatlar va urf-odatlar o'rganilgan, balki an'ana yoki

falon an'anaga qarshi bo'lgan aqliy va siyosiy munosabatni ham anglatishi e'tiborga olingan. An'analar doimiy ravishda o'sib, o'zgarib, yillar o'tib rivojlanib borayotganligi, innovatsiyalar doimo yangiligi, hali belgilangan doirada tasniflanmaganligi bilan unga qarshi bo'lganligi sababli, bu chalkashlik xavfi o'qishni istaganlar uchun juda noqulaylik tug'diradi. Lekin buni folklorga ko'p jihatdan ta'sir qiladigan, ammo xalq hayotining boshqa elementlarini, masalan,

iqtidosiy, demografik, shaharsozlik va boshqalarni o'rganishni o'z ichiga olgan regionalizm ham ko'rish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Folklor fan sifatida o'z oldiga xalqning hayoti, qadriyati, e'tiqod va urf-odatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan. U fan sifatida hozirga qadar boshqa rivojlangan Yevropa davlatlari qatorida Fransiyada ham tez sur'atlar bilan taraqqiy topib bormoqda. Jumladan, Fransiya folklorshunosligi ham boy tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega. Xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik xalq orasidan chiqqan yuksak shaxslarning ideallarini, intellekti hosilalarini birlashtiruvchi, avlodlarning asriy aloqalarini tushunishga yordam beradigan fan. Unda barcha fanlarga xos ma'lumot va xususiyatlar o'zaro sintezlashgandir. Qolaversa, xalq og'zaki ijodi faol va qiziqarli fan bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri izlanish, san'at va adabiyotni bog'liqlikda o'rganishni talab qiladi. Fransiyada folklorshunoslik taraqqiyotida Pol Sebillotning ikkita asari – Le Folklore de France (Guilmoto) et Le Folklore (Doin), et par celle, récente, d'un petit traité de Baffaele Corso, Folklore (Rome, éditions Leonardo da Vinci), ya'ni Le Folklore de France (Guilmoto) va Le Folklore (Doin) va yaqinda Baffaele Korso tomonidan kichik risolaning nashr etilishi muhim ahamiyatga ega. Ular orqali fransiya folklori haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlar olish mumkin. Jumladan, ommabop o'yinlar va fransuz bolalar o'yinlari va o'yinchoqlariga oid ma'lumotlarni aytib o'tish joiz. Ularni o'rganish ancha uzoq davrga boshlab boradi. Keltirilgan ma'lumotlar orqali mumtoz antik davrda ham, nisbatan ibtidoiy bo'lmagan Yevropa aholisi orasida ham bu borada muayyan o'xshashliklar borligi ayonlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Etnograflar uzoq vaqt davomida Yevropadagi ko'plab qishloq o'yinlari tarixini, uning taraqqiyot tamoyillarini, rivojlanishini o'rganishdi va bular esaki marosimlarning qoldiqlari ekanligini ko'rsatishdi. Lekin bularni har biri alohida holatda hal qilinishi kerak bo'lgan murakkab muammoning faqat bitta jihati ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, o'yinlarga "sport" degan aristokratik nom ostida har doim insoniyatning o'zini "qolipda" ushlab turishi uchun vosita bo'lib kelgan faoliyatning butun toifasi uchun boshlang'ich nuqta sifatida qarash o'rinlidir. Biologlar esa buni reproduktiv instinkt ekanligini isbotladilar. Kart Groosning "Hayvonlar o'yinlari" va "Inson o'yinlari" bo'yicha ishi faqat bir nechta shaxslar yoki ba'zan sezilarli guruhlar tomonidan bajariladigan ko'proq yoki kamroq zo'ravonlik bilan shug'ullanadigan ritmik mashqlarning biologik ahamiyatini aniq ko'rsatib berdi. Bolalar va o'smirlar o'yinlari sport mashg'ulotlaridan oldingi mashg'ulot, ya'ni kamolot davrida amaliy yoki fiziologik foydali faoliyatga o'rgatish ekanligi o'z-o'zidan ravshan. Avvaldan kelayotgan an'anaviy bolalar o'yinlarining ko'pgina elementlari sport mashg'ulotlariga ham ko'chirilgan. Ayrim o'yinlar uzluksiz va progressiv zamonaviy sport turlari bo'lib davom etib kelmoqda. Masalan, futbol va kriketning ajdodi bo'lgan mashhur Normandiya soule o'yini haqida shunday deyish mumkin. Yoki qadimgi Fransiyada juda urf bo'lgan va Shimoliy Amerika hindulariga ham ma'lum bo'lgan ot ustidagi ma'lum bir tennis o'yini "polo" nomi ham shu jihatdan e'tiborni tortadi. Hali ham ko'p o'yinlar juda qisqa yetib kelgan. Ularda qatnashadigan o'yinchi va kuzatuvchilar uchun odatiy tafsilotlar saqlanmagan.

Kattalarning ko'pgina o'yinlari XIX asrda bolalar o'yinlari darajasiga tushib qolgan, ammo ularning ba'zilari o'ziga xos xususiyatini saqlab qolgan. Masalan, bunday o'yinlar jamoat joylarida, qishloq maydonlarida, xiyobonlarda, kofe maydonlarida o'ynashga ruxsat berilmagan. Kattalar uchun mo'ljallangan o'yinlarda o'g'il bolalar faqat o'n besh yoki o'n olti yoshdan boshlab ishtirok etishi mumkin hisoblangan. Ayollar ham, qizlar ham u yerda o'ynash uchun an'anaviy huquqqa ega bo'lmagan. Bu esa jinsiy taqiqning

bolalar o'yinlariga ham xosligini bildiradi. Fransuz o'yinlari hissiy o'yinlar va intellektual o'yinlarga bo'linadi. Ular yana umumiy yo'nalishlar bo'yicha quyidagicha tasniflanishi mumkin:

birinchisi – ko'rish bilan bog'liq o'yinlar (yashinmchoq);

ikkinchisi – eshitish bilan bog'liq o'yinlar (jumboq, topishmoqlar aytishuvi);

uchinchisi – mushak o'yinlari;

to'rtinchisi – sakrab o'ynaladigan o'yinlar (arg'imchoqdan sakrash);

beshinchisi – kurash tushish o'yinlari;

oltinchisi – sud qilish o'yinlari;

yettinchisi – qal'ani himoya qilish o'yini a.h.k.

Bular orasida qal'ani himoya qilish o'yini ancha mashhur bo'lib, unda bir bola yog'och qo'g'irchoqqa (ko'pincha yog'och toyga) minib, boshqa bolaning ko'kragi o'rtasiga yog'och nayza bilan urishi lozim. Bu xatti-harakat esa olijanob turnirlarning degeneratsiyasi bo'lgan. Turenda Karre de Buserol (Usages singuliers de la Touraine, Tours, 1884) tomonidan o'rganilgan bu o'yin faqat daryoda o'tkazilgan bo'lib, uni o'ynash uchun tegirmonchilar, qayiqchilar va baliqchilar majbur qilingan. Agar ular o'yin qoidasini buzishsa, jarimaga tortilgan. Bu nizom uzoq vaqtlar Turenning barcha lordliklarida amal qilib kelgan. Bu lordlar tomonidan o'z fuqarolarini o'yin-kulgi bilan masxara qilish edi. O'yin ba'zi joylarda Hosil bayrami kuni, boshqalarida Uchbirluk kuni tashkil qilingan. Suv o'yinlari, xususan, Italiya va Okeaniya orollarida haligacha ko'p keng tarqalgan. Suv ustidagi qadimgi o'yinlar ham davom etib kelmoqda. Bolalar ko'pincha kattalar o'yinlarini buzib yoki taqlid qilib o'ynashadi. Masalan, o'g'il bolalarning to'p o'yinlari yigitlar va jangchilar uchun palma o'yinlarining qolgan qismi deb hisoblangan, lekin sakrash, ayiq o'yini (bugun deyarli yo'q bo'lib ketgan), kuchli zarbalar berish kabilarda va boshqalarda kattalarga xos bolalarcha o'yinlarning belgilari yaqqol ko'rinib turadi. Ammo ular XVIII asrda ham kattalar o'yini deb hisoblangan. Bolalar o'yinlari, asosan, davraga moslangan. Masalan, "Minora" o'yinida dialog va qo'shiq sahnalari mavjud. Bolalar minora ostidan o'tkazib turiladi, oxirgisi o'sha yerda qoladi. Unda kattalarning sevgi qo'shiqlaridan kuylanadi. Shu qo'shiqlar orqali bolalar bir-birini masxara qilishadi.

Tahlil va natijalar. O'yinchoqlar haqida gap ketganda, bolalar yarmarkadan sotib oladigan va yil bo'yi o'ynaydigan qo'g'irchoqlar e'tiborni tortadi. Ularning aksariyati cherkov qo'ng'iroqlari tovushini ifodalovchi shovqin soladigan qo'ng'iroq o'yinchoqlardir. Qizlarning qo'g'irchoqlari dastlab go'yo turli xudolarning vakillari bo'lgan. Marokashda qo'g'irchoqlar hali ham Yomg'irni ifodalaydi va qurg'oqchilik paytida ular tantanali ravishda olib ketiladi. Shuning uchun ular ko'chma muqaddas haykalchalar bo'lib hisoblangan. Bular deyarli uch-to'rt asr oldin barcha qizlar uchun umumiy o'yinchoq bo'lib hisoblangan. Bu esa qo'g'irchoqlar kichkina qizlar uchun har doim ham "chaqaloq" bo'lmagan degani emas, chunki ona rolini o'ynash uchun biologik jihatdan xuddi oldindan onalik mashqini qilish lozim sanalgan. Xuddi shuningdek, hassa bilan tasvirlangan ot dunyoning barcha xalqlarida o'g'il bolalarning chavandozlikni egallashdan oldingi mashqi bo'lgan. Neolit qabrlaridan loydan yasalgan hayvonlar nusxalari topilgan. Ular o'yinchoqlarmi yoki hayvonlarni xudolar deb tasavvur qilishganmi, qanday bo'lmasin, kulollar yasagan hayvonlar haykallari bugungi kunda ko'plab qishloq joylarida o'yinchoq bo'lib qolmoqda.

Kulolchilik hayvonlari orasida hushtak chalayotgan qushlarning qiziq tasviri ham bor. Bunda dastlab hushtak chalayotgan qushlar ma'lum agrar marosimlarda ishlatiladigan narsalar bo'lgan. Ba'zilari ichi bo'sh, suv solib qo'yiladigan idish shaklida yasalgan. Ular tabarruk qushlar kabi juda

qadimiy tushunchalar asossida ardoqlangan. Ko'pchiligi bulbulning ovozigacha taqlid qilish uchun tayyorlangan. Bunday qushchalar shaklidagi hushtaklar hozirga qadar saqlanib qolgan va bolalar uchun ishlab chiqarilayapti.

Xulosa va takliflar. Galliya tarixchisi Kamil Jullian Mishelning tarixiy asarini tarannum etar ekan, shunday degan edi: "Men undan oldin folklor so'zini talaffuz qilish mumkin bo'lgan tarixchi bo'lganiga ishonmayman. Bizning olimlarimiz bu yo'lga endigina kirisha boshladilar, xalqlar hayotida xurofotlar yoki olomonning gaplari bilan o'ynagan, endigina boshlanayotgan butun bir fan mavjud. U poygada

g'alaba qozongan...". Yuqorida nomi tilga olingan ko'plab olimlar bu yo'lni tanlaganlar. Haqiqatan ham, folklor "jamoat foydasini e'tirof etish" musobaqasida g'alaba qozonadi. Agar qadim folklorshunoslari bergan ko'rsatmalariga ishonilsa, zamonaviy fransuz folkloriga jadal kirib borish va uni anglash oson bo'ladi. Shunday qilib, shahar va qishloqlarda uzluksiz turli o'yinlarni tashkil qilish hamon davom etib kelmoqda. Ularda turli xil xalq qahramonlarining fe'l-atvorlari bolalarning fe'l-atvoridan ko'ra ochiqroq holda ko'rsatilgan. Jajji odamlar – bolalar o'z qishlog'iga xos intellektual tembrni o'yinlar vositasida saqlab qolishgan.

ADABIYOTLAR

1. Arnold Van Gennepe Le folklore. Croyances et coutumes populaires françaises. Paris : Librairie Stock, 1924, 16 p. Édition complétée le 3 août, 2009 à Chicoutimi, Ville de Saguenay, Québec
2. Fayzulloyev O. M.O'zbek folkloridagi lingvokulteremalarning inglizcha tarjimada berilishi (Bolalar folklori va ertaklar misolida) Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 7 b.
3. Atabayeva N.A. Frazelogik birlik va maqollarda gender talqini (ingliz va o'zbek tillaridagi materiallar asosida): 5A 220102 – Lingvistika (ingliz tili) magistratidiss. – Urganch, 2013. – 84 b.
4. Vejbitskaya A. Sopotovleniye kultur cherez posredstvo leksiki i pragmatiki. – M.: Yaziki slavyanskoy kulturi, 2001. – 272 s.
5. Vigotskiy L.S. Mishleniye i rech: Sobr. soch. v 6 tt. T. 2. M.: Pedagogika, 1982. 54 s.
6. Arnold Van Gennepe Le folklore. Croyances et coutumes populaires françaises. Paris : Librairie Stock, 1924, 23 pp.
7. Пропп В.Я. Фольклор и действительность. Избранные статьи. Москва: издательство «Наука», 1976, 16стр
8. Адизова О. И. (2019). Charle Ogoustine de sainte-beuve is a founder of biographical method. Иностранные языки в Узбекистане, (4), 241-247 . <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/10/article-5738-4205.pdf>
9. Istamovna A. O. The author in revealing the essence of the biographical method the place of identity. scientific reports of bukhara state university, 83. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13268_1_7B1B5AFD76D225E70E785117AFAC3751E6784A3D.pdf#page=85
10. Adizova Obodon, I. World literature and biographical method “. ISJ Theoretical & Applied science. Year: 2018. Issue: 10. Volume: 66. Section 29. Literature. Folklore.Translation,327-330. <https://scholar.google.com/scholar?cluster=11325495035808973656&hl=en&oi=scholar>



UO‘K: 811.111:811.512.133

Madina USAROVA,
O‘zMU tayanch doktranti
E-mail: kuzibekova1202@gmail.com,

Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti, f.f.d. D.Rustamov taqrizi asosida

THE IMPACT OF COVID-19 PANDEMIC ON THE PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article sheds light on the impact of the Covid-19 pandemic on the phraseology of health, medicine, economics and social relations in English and Uzbek. It was pointed out that as a result of the pandemic, changes have taken place in almost all languages of the world. In particular, it was considered that new words and phrases were adopted from other languages or that existing words and phrases in the language began to be used in a new sense. In the article, these phraseological changes are analyzed by comparing English and Uzbek languages. It was analyzed that although there are words or phrases that mean a certain concept in Uzbek or English, during the coronavirus pandemic, foreign words and phrases became more popular and were used in a new sense.

Key words: Pandemic, Covid-19, medicine, borrowed words, word combination, phrase, phraseologism, vocabulary, case, quarantine, epidemics, vaccination, social distance, lockdown.

ВЛИЯНИЕ ПАНДЕМИИ COVID-19 НА ФРАЗЕОЛОГИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Эта статья проливает свет на влияние пандемии Covid-19 на фразеологию здоровья, медицины, экономики и социальных отношений на английском и узбекском языках. Было указано, что в результате пандемии произошли изменения практически во всех языках мира. В частности, считалось, что новые слова и фразы были заимствованы из других языков или что существующие слова и фразы в языке стали использоваться в новом значении. В статье эти фразеологические изменения анализируются путем сравнения английского и узбекского языков. Проанализировано, что хотя в узбекском или английском языке есть слова или словосочетания, обозначающие определенное понятие, во время пандемии коронавируса иностранные слова и словосочетания стали более популярными и стали употребляться в новом значении.

Ключевые слова: Пандемия, Covid-19, медицина, заимствованные слова, словосочетание, словосочетание, фразеологизм, лексика, случай, карантин, эпидемия, вакцинация, социальная дистанция, локдаун.

COVID-19 PANDEMIYASINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDAGI FRAZEOLIGIZMLARGA TA’SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqola Covid-19 pandemiyasining ingliz va o‘zbek tillaridagi salomatlik, tibbiyot, iqtisod va ijtimoiy munosabatlarga oid frazeologizmlarga bo‘lgan ta’siri hamda Covid-19 pandemiyasi natijasida dunyodagi deyarli barcha tillarda frazeologizmlarda o‘zgarishlar ro‘y berilganligiga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Xususan, dunyo xalqlari tillariga boshqa tillardan ayrim yangi so‘zlar va frazalar qabul qilinganligi yoki tildagi mavjud so‘zlar va frazalar yangi ma’noda qo‘llanila boshlanganligi ko‘rib chiqildi. Maqolada ushbu frazeologik o‘zgarishlar ingliz va o‘zbek tillari asosida chog‘ishtirib tahlil qilingan. Garchi o‘zbek yoki ingliz tilida ma’lum bir tushunchani anglatuvchi so‘zlar yoki frazalar mavjud bo‘lsa ham, Covid-19 pandemiyasi davrida chetdan qabul qilingan so‘zlar va frazalar ko‘proq ommalashganligi va yangi ma’noda qo‘llanilishi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Pandemiya, Covid-19, tibbiyot, boshqa tillardan qabul qilingan so‘zlar, so‘z birikmasi, fraza, frazeologizm, lug‘at boyligi, keis, karantin, epidemiya, vaksinatasiya, ijtimoiy masofa, lokdaun.

Kirish. 2020-yilning yanvar oyida Xitoyning Uxan shahrida boshlanib, kutilmaganda butun dunyoga tezlikda tarqalib global inqirozga sababchi bo‘lgan COVID-19 (koronavirus) pandemiyasi insonlar hayoting turli jabhalarida o‘z ta’sirini sezilarli darajada ko‘rsatdi. Bu ta’sir nafaqat tibbiyot, fan-texnika, ta’lim, hukumat boshqaruvi va odamlarning ish faoliyatida kuzatildi balki dunyo bo‘ylab muhim ijtimoiy omil hisoblangan turli tillarga ham yetarlicha yangilik va o‘zgartirishlar kiritganini guvohi bo‘ldik. Biz odatda fantastik filmlarda yoki uzoq o‘lkalar haqidagi xorij xabarlarida eshitishga o‘rgangan “karantin”, “epidemiya”, “pandemiya” kabi so‘zlar bu davrda kundalik nutqimizning ajralmas qismiga aylandi.

Hozirgi kunga kelib virusga qarshi bir necha vaksina turlari yaratilganligi va ko‘plab davlatlarda davolashning bir qator usullari aniq belgilab olinganligi natijasida kasallik tarqalishi dunyo bo‘ylab to‘xtagan va kasallanishlar holati

deyarli qayd etilmayotganligi va Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan berilayotgan statistik ma’lumotlarning kamayganligi sababli nazarimizda COVID-19 pandemiyasi o‘zining ijtimoiy dolzarbligini yo‘qotganday tuyulsada, kundalik hayotimizga pandemiya kiritgan o‘zgarishlar biz o‘ylaganimizdan ham ko‘proq va ularning aksariyati hozir ham amalda qo‘llanilib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A. Chopra (2021), M. Menon, R.Kreuz, E.Uriska, N.Avargal, A.Douney kabi mualliflarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, chog‘ishtirma, tasniflash, kontekstual tahlil kabi bir qator metodlardan foydalanilgan va bir qancha tilshunoslarning ilmiy ishlari tahlili asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Pandemiyaning ijtimoiy hodisa hisoblangan tilga ta’siri natijasida dunyoning deyarli barcha

tillariga yangi so'zlar kirib keldi yoki kam qo'llaniladigan so'zlarning ishlatilishi ommalashdi. Masalan, biz har kuni ishlatadigan lug'atimizga qo'shilgan so'zlar ro'yxatini olaylik. Bir paytlar biz uchun begona bo'lgan yoki deyarli qo'llanilmagan atamalar pandemiya davrida global inqirozdan o'tishga yordam bergan muhim o'planning bir qismiga aylanganligi tilning naqadar muhim ahamiyat kasb etishini va til qanchalik katta kuchga ega ekanligining yaqqol dalili bo'ldi. COVID-19 bilan bog'liq yangi til birliklari bizni biologiya va immunologiyadan tortib statistikaga oid bilimlarga bo'lgan kutilmagan sohalarida atama va so'zlarni o'rganishga majbur qildi.

Shuningdek tillarning lug'at boyligi ko'payganligi quyida keladigan misollarda aniq namoyon bo'ladi. Nemis tili murakkab otlarga yaqinligi bilan yangi so'zlar bilan to'ldirildi va ular pandemiya davrida hayot haqiqatlarini aks ettirishda ingliz tilidagi so'zlariga qaraganda ancha ta'sirchandır. 2022-yilning mart oyida Leybnits nomidagi Nemis tili instituti Germaniyada mavjud bo'lgan 1200 dan ortiq so'zdan tashkil topgan lug'at tuzdi. Bu lug'atdan "abstandbier" – ijtimoiy jihatdan uzoqlashgan pivo, "koronamutationsgebiet" – koronavirus mutatsiyalari keng tarqalgan joy, "gesichtskondom" – yuz prezervativi ("yuz niqobi" ning ekvivalenti sifatida ishlatiladi) kabi so'zlar ham o'rin olgan[1].

O'z tillarini qattiq himoya qiladigan fransuzlar ham yangi so'zlar oqimidan chetlab o'ta olmadilar. Xususan, 2022-yil may oyida fransuzcha Le Petit Larousse lug'ati nashri fransuz tiliga pandemiya bilan bog'liq 170 ta yangi so'z qo'shilganini e'lon qildi. "SARS-CoV-2" va "Covid-19" kabi aniq atamalardan tashqari, "coronapiste" (Parijda pandemiyaning dastlabki oylarida boshlangan velosipedchilar uchun yo'lak) va "télétravailler" - uyda yoki masofadan ishlash kabi ba'zi neologizmlar ham bu lug'atdan o'rin oldi[2].

Ayni paytda, Gollandiyalik lug'at nashriyoti Van Deyl 2022-yilda yil so'zi sifatida "prikspijs"ni tanladi. "Prikspijs, – deydi Van Deyl – kimdir yuqumli kasallikka qarshi emlanganidan keyin boshdan kechiradigan afsuslanish yoki qisqa muddatli og'riqni anglatadi"[3]. Kembridj lug'ati 2020-yilda "quarantine" so'zini yil so'zi deb e'lon qildi. Bu so'z onlayn qidiruv tizimida 2020-yilning noyabr oyigacha 183 000 marta ko'rilgan va qidiruvning eng ko'p qismi 18-24-mart haftasiga to'g'ri keladi. Kembridj lug'ati muharrirlari bu so'zning qanday ishlatilishi xususida tadqiqotlar olib bordi va yangi ma'noni kashf etishdi. Unga ko'ra "quarantine" so'zi endilikda dunyo bo'ylab, ayniqsa, AQSHda "lockdown" so'ziga sinonim so'z sifatida "kasallikka chalinishdan qochib uyda o'tirish" ma'nosida ishlatila boshlandi. Natijada, muharrirlar ayni ma'noni Kembridj lug'atida "quarantine" so'ziga qo'shishdi[4].

2021-yil Budapeshtda ingliz tilida nashr qilingan "Covidictionary" bir tilli lug'ati alohida e'tirofga loyiq. Muallif Erna Urieska bu lug'atga 2020-yilning mart-sentyabr oylari orasida ishlatilgan eng keng tarqalgan so'z va iboralarni, shuningdek, neologizmlarni kiritganini ta'kidlab, bu janm lug'atdan ko'ra "covidocs" deb nomlashni ma'qul ko'rishini aytadi[5, – p.]. Lug'atning 96 sahifadan iboratligi uning qanchalik keng qamrovliligini ko'rsatadi. Bu misollar pandemiyaning tilga qanchalik katta ta'sir ko'rsatganiga dalil bo'la oladi.

Qiyoslanayotgan ikki til – ingliz va o'zbek tillarida COVID-19 pandemiyasi ta'sirida qabul qilingan yangi so'zlar va tildagi mavjud so'zlarning yangi ma'no yaratishda so'z birliklari yoki frazeologizmlar sifatida qo'llanilishi bu ikki tilning keng imkoniyatlarini va moslashuvchan ekanligini ko'rsatib berdi.

Shu o'rinda COVID-19 pandemiyasi davrida ingliz va o'zbek tillarida keng ko'lamda ishlatilgan so'z va frazalarni ikki guruhga bo'lib o'rganib chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik. Bularga: birinchi guruh – boshqa tillardan qabul

qilingan so'z va iboralar; ikkinchi guruh – yangi ma'no yaratishda ishlatilgan tildagi mavjud so'z va iboralar.

Birinchi guruhni ingliz va o'zbek tillariga pandemiya davrida boshqa tillardan qabul qilingan so'z va iboralar tashkil etadi. Ingliz tili dunyo tili bo'lib, xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ish-faoliyati, pandemiya o'ldiruvchi xalqaro forumlar va konferensiyalar ushbu tilda amalga oshirilganligi uning pandemiya davrida dominant til bo'lishini ta'minladi. Shu sababli ham, COVID-19 pandemiyasiga aloqador aksariyat so'zlar aynan ingliz tilidan boshqa tillarga qabul qilindi. Shunga qaramasdan bu davrda ommalashgan ingliz tilidagi ayrim so'zlarning kelib chiqishi boshqa tillarga borib taqaladi. Masalan, epidemic (epidemiya), plague (vabo), pestilence (o'lat) kabi so'zlar ingliz tiliga fransuz tilidan kirib kelgan[6]. Bu davrda o'zbek tilida ham bir qator boshqa tildan kirib kelgan so'zlarning ishlatilishi odat tusiga kirdi. Masalan, lockdown (ingliz tilidan), vaksinatsiya (rus tilidan), kovid (ingliz tilidagi coronavirus disease so'zining qisqartma shakli), izolyatsiya (rus tilidan), keis (ingliz tilidan, kasallanish holatlariga nisbatan ishlatildi), inkubatsiya davri (rus tilidan), antitana testi (ingliz tilidan) kabi so'zlar shular jumlasidan.

Ikkinchi guruhga esa COVID-19 pandemiyasi davrida ingliz va o'zbek tillaridagi mavjud so'zlarning yangi ma'noda ishlatilishi natijasida vujudga kelgan so'z va iboralar kiradi.

Bu kategoriya tillarning qanchalik moslashuvchan xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu xususiyat ayniqsa ingliz tiliga xosdir. Uriska tomonidan 403 ta so'z va frazadan iborat lug'at yaratilishi bu fikrning yaqqol dalili hisoblanadi. Ingliz tilida virusning ijtimoiy tasirini aks ettirgan frazalarga quyidagilar kiradi: antibody testing (antitana testi), border closure (chegaralar yopilishi), chain of infection (kasallik zanjiri), community spread (jamoaviy tarqalish), confirmed case (tasdiqlangan kasallik holati), contact person (koronavirusga chalingan odam bilan aloqada bo'lgan odam), corona babies (COVID-19 pandemiyasi davridagi majburiy karantin vaqtida homila bo'lgan yoki tug'ilgan bolalar), corona-shaming (Omma oldida sog'liqni saqlash qoidalarini buzgan mashhur shaxslarni tanqid qilish), corona/ COVID warrior (COVID-19 jangchilari ya'ni doktorlar, hamshiralalar, politsiya va shu kabi xodimlar), disposable mask (bir martalik yuz niqobi), distance learning (masofadan turib o'rganish), exposure risk (ta'sir qilish xavfi), fatality rate of/ from COVID-19 (infeksiya oqibatida vafot etgan insonlar foizi), first/second wave of COVID-19 (virusning birinchi/ikkinchi to'lqini), hand sanitiser (qo'l yuvish uchun gigiyena vositasi), incubation period (inkubatsiya davri), to lock down (favqulotda vaziyat, pandemiya davrida odamlarni xavfsiz saqlash uchun yopiq xonada qolishga majbur qilish), pandemic padding (pandemiya vaqtida yig'ilgan vazn), panic buying (pandemiya davrida asosiy mahsulotlar va yeguliklarni sotib olish va yig'ib qo'yish, natijada marketlar bo'shab qolgan), post-coronavirus era (covid pandemiyasidan keyingi davr), self-isolation (o'z o'zini yakkalash), social distancing (ijtimoiy masofani saqlash), zoom bombing (birovning zum ilovasidagi video qo'ng'irog'iga tajovuz qilish), zoom fatigue (virtual mitinglarning noodatiy ravishda ko'pligidan umumiy horg'inlik)[7]. Bu misollarni yana davom ettirish mumkin. Yuqorida keltirilgan birikmalar pandemiya davrida eng ko'p ishlatilib ommalashgan iboralaridir.

Bu frazalarning ba'zilari o'zbek tilida qo'llangan bo'lsa ham aksariyati asosan ingliz tiliga xos so'z birliklaridir. Ba'zi tushunchalar bizning jamiyatimizda bo'lsa ham ular uchun ma'lum termin yoki frazalar iste'molga kirib kelmadi. Xususan, zoom bombing (birovning zum ilovasidagi video qo'ng'irog'iga tajovuz qilish) va zoom fatigue (virtual mitinglarning noodatiy ravishda ko'pligidan umumiy horg'inlik) kabi holatlar bizning ziyoli qatlam ishchilari orasida kuzatilgan bo'lsa ham ular uchun maxsus

so'z yoki birikmalar iste'molga kiritilmadi yoki boshqa tildan ham qabul qilinmadi.

O'zbek tilida mavjud iboralarning yangi ma'noda qo'llanish holatlari ham talaygina kuzatildi. Masalan, ijtimoiy masofa, kasallik zanjiri, o'z-o'zini yakkalsh, kasallik holati, ko'rinmas dushman, korona inqirozi kabilar. Bu so'z birikmalari COVID-19 pandemiyasi davrida ommaviy axborot vositalarida, Sog'liqni Saqlash Vazirligi hisobotlarida va albatta insonlarning nutqida faol ravishda ishlatildi. Garchi bu so'zlar pandemiyadan oldin ham tilimizda mavjud bo'lgan bo'lsa ham, Covid-19 pandemiyasi davri ularni yangi ma'noda qo'llashni taqazo qildi. Shu sababli ham pandemiya davri har bir til rivojiga tom ma'noda hissa qo'shdi, tillarni boyitdi deya olamiz.

Xulosa va takliflar. COVID-19 pandemiyasi hayotimizning turli jabhalarida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Jumladan, dunyo tillariga neologizmlar kirib keldi, boshqa tillardan so'zlar qabul qilindi va tildagi mavjud so'zlar yangi ma'noda qo'llanila boshlandi. Dunyo bo'ylab kovid atamalarini o'z ichiga olgan va pandemiya davridagi ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi har xil vaziyatlarni tasvirlab beruvchi so'z va birikmalarni o'z ichiga olgan lug'atlar yaratildi. Koronavirus pandemiyasi davrida ingliz tili global miqyosda dominant til bo'lib qoldi va nafaqat ingliz tilining o'zida, balki dunyodagi boshqa tillarda ham ko'plab yangi tushunchalar ingliz tilida paydo bo'la boshladi. Salomatlik, tibbiyot, iqtisod va ijtimoiy munosabatlarga oid frazeologizmlarning ingliz va o'zbek tillaridagi o'zgarishi yaqqol namoyon bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Peter Breslow, James Doubek. Pandemic Inspires More Than 1,200 New German Words // <https://www.npr.org/2021/03/06/974179580/pandemic-inspires-more-than-1-200-new-german-words>. March 6, 2021.
2. French dictionary adds record number of new words as Covid shapes language // <https://www.theguardian.com/world/2021/may/06/french-dictionary-adds-record-number-of-new-words-as-covid-shapes-language>
3. Murali K Menon. 2 years of the pandemic: Covid-19 expanded our vocabulary, and now we can't unlearn words like covidiot // <https://www.moneycontrol.com/news/trends/features/the-pandemic-expanded-our-vocabulary-and-now-we-cant-unlearn-words-like-covidiot-7891481.html> /. March 11, 2022.
4. The Cambridge Dictionary // <https://view.ceros.com/cambridge/woty/p/1>
5. Erna Uricska. Covidictionary. Words and phrases related to the global pandemic. – Budapest, 2021. – P. 10.
6. Avanindra Chopra. How the pandemic has impacted and added to the English language // <https://brandequity.economicstimes.indiatimes.com/news/research/how-the-pandemic-has-impacted-and-added-to-the-english-language/82697945>
7. Erna Uricska. Covidictionary. Words and phrases related to the global pandemic. – Budapest, 2021. – P. 96.



UDK:37.013.8

Xolmuxammad XUSANOV,
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: Kholmuxusanov1990g@mail.com

ADPI dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Isroilova Dildora Muxtorovna taqrizi asosida

O‘ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDA “GIPERBOLA” KONSEPTI SEMANTIKASINIG LINGVOKOGNITIV TIPOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada kognitiv grammatika (tilshunoslik)ning zamonaviy nazariyasi kognitiv-semantik kategoriyalar, tilshunoslikda mazmundor turg‘un (doimiy) birliklar, invariantlar, yoki “kognitiv-semantik konstanta»lar deb yuritiluvchi, yoki universal (internatsional) tavsifga ega bo‘lgan “konsept” larga asoslanuvchi obyektiv dunyo haqidagi bilimlar tizimining kategoriyalashuviga bevosita aloqadorligini, har bir tilda voqelantirilishi lozim bo‘lgan kognitiv semantik kategoriyalarning jami miqdorini aniqlashga katta ehtiyoj va zarurat tug‘ilayotganligi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, dunyoni konseptualashtirishda va u haqidagi verbal bilimlar tizimini kategoriyalashirishda konseptual konstantalar yoki lingvokognitiv konstantalar, ya‘ni tafakkur va tillardagi doimiy, turg‘un hodissalar va jihatlar universal tabiatga ega bo‘lib, umumlisoniy voqeeliklar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Mikrokonsept, makrokonsept, lingvopragmatika, konseptualitet, tekstologiya, giperbola, mubolag‘alashgan semantika, lingvokognitiv, kommunikativ-pragmatik, lingvokulturologik, psixolingvistik, sotsiolingvistik.

ЛИНГВОКОГНИТИВНАЯ ТИПОЛОГИЯ СЕМАНТИКИ КОНЦЕПТА “ГИПЕРБОЛА” В УЗБЕКСКОМ, АНГЛИЙСКОМ И В РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы теории современной когнитивной грамматики (лингвистики), которая представляет собой объективный мир, основанный на когнитивно-семантических категориях, значимых устойчивых (константных) единицах, инвариантах, или «когнитивно-семантических константах» в языкознании, или «понятиях» с универсальным (международное) описанием. Считается, что существует большая потребность и потребность в определении общего количества когнитивно-семантических категорий, которые должны быть реализованы в каждом языке, что непосредственно связано с категоризацией системы знаний. Также, исследуются общеязыковые реалии при концептуализации и категоризации системы словесных знаний, понятийные константы или лингвокогнитивные константы, т. е. постоянные, устойчивые явления и аспекты в мышлении и в языке, которые имеют универсальный характер.

Ключевые слова: Микроконцепт, макроконцепт, лингвопрагматика, концептуальность, текстология, гипербола, преувеличенная семантика, лингвокогнитивный, коммуникотивно-прагматический, лингвокультурологический, психоллингвистический, социоллингвистический.

LINGUISTIC AND COGNITIVE TYPOLOGY OF THE SEMANTIC CONCEPT “HYPERBOLE” IN THE UZBEK, ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES

Annotation

The article deals with the issue of the theory of modern cognitive grammar (linguistics), which is an objective world based on cognitive-semantic categories, significant stable (constant) units, invariants, or "cognitive-semantic constants" in linguistics, or "concepts" with a universal (international) description. It is believed that there is a great need and need to determine the total number of cognitive-semantic categories that should be implemented in each language, which is directly related to the categorization of the knowledge system. Also, general linguistic realities are investigated in the conceptualization and categorization of the system of verbal knowledge, conceptual constants or linguocognitive constants, i.e. constant, stable phenomena and aspects in thinking and in language, which are of a universal nature.

Key words: Microconcept, macroconcept, linguopragmatics, conceptuality, textology, hyperbole, exaggerated semantics, linguocognitive, communicative-pragmatic, linguoculturological, psycholinguistic, sociolinguistic .

Kirish. Hozirgi paytda kognitiv tilshunoslar oldiga konsept turlari haqidagi masalaning kun tartibiga ko‘ndalang qo‘yilishi, ayniqsa kognitiv grammatika (tilshunoslik), shuningdek lingvopragmatika tomonidan yechim beriladigan vazifalarga bevosita daxldor bo‘lgan “mikrokonsept” va “makrokonsept”lar, ularning voqelantirilishi usullari va texnikasi kabi dolzarb masalalarning bugungi kun tartibiga qo‘yilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi o‘n yilliklarda turli tillardagi olam manzarasi muammosi va aql-zakovot (mentalnost)ning xususiyatlarini tadqiq qilishning dolzarblashuvi va undan kelib chiquvchi milliy va internatsional “lingvalitet” (til haqidagi bilimlar

strukturasi, majmuasi) [1] shuningdek, “konseptualitet” [2], ya‘ni konseptlar haqidagi bilimlar strukturasi, majmuasi bilan bog‘liq holda turli til va madaniyatlarga tegishli konseptlar qizg‘in muhokama etib kelinmoqda. Lekin madaniyat konseptlari emas, balki universal-mantiqiy konseptlar (masalan, vaqt (temporallik), son, miqdor, subyekt, obyekt, person, erkak, ayol, qiz, o‘g‘il kabi konseptlar) kognitiv tilshunoslik uchun birinchi darajali qiziqish uyg‘otadi, lekin faqat bir tafakkur, bir til va bir madaniyatga xos xususiy konseptlarni o‘rganish ham tadqiqotchida undan kam qiziqish uyg‘otmaydi, chunki bunday noyob konseptlar boshqa tillardagi konseptual bo‘shliq (lakuna)larni ko‘rsatib beradilar.

Shu yo'sinda ular mazkur tillarning betakror tipologik belgisi xususiyatlari va jihatlari borligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, konseptlarning turlari va toifalarini farqlash u yoki bu jihatdan ularning bevosita aloqador bo'lgan sohalariga va ular bajaruvchi vazifalariga uzviy bog'liqdir, chunki ayrim konseptlar aynan olingan bir tilda fikrovchilar va so'zlovchilar/yo'zuvchilarning umumiy aql-zakovot va unga mos keladigan idrokiy fondini ifodalaydilar, tavsiflaydilar (masalan, "predmet, gender (jins - biologik), inson, hayvon, erkak, ayol, quyosh, yer, chaqmoq, suv, havo, ovqat, ozuqa, son, miqdor, harakat va h.k.) boshqalari (maxsuslashgan) konseptlar esa u yoki bu fanning universal bo'lgan tushunchaviy aspektini tasvirlaydi. Masalan, tilshunoslikni o'ylaylik, u borliqning o'ziga xos betakror bir tomonining talqini beradi (qiyoslang: gap, matn, funktsiya subyekt, obyekt, predikat, fonema, morfema, leksema, grammema, sintaksema/frazema, sentensema, frazeoyema, tekstem (disskursema) va b.q.).

Bu borada taniqli kognitiv tilshunos olim Sh.S.Safarovning konseptlarning shakllanishi haqida, ya'ni "predmet – hodissalarning ongli idrok etilishi va ularning tasavvurda obraz hosil bo'lish yo'li bilan jamlanadigan bilim turlicha shakllanadi va har xil xarakterga ega bo'ladi" [3] degan fikri asosli ekanligini ta'kidlaymiz, chunki bu bevosita turli guruhdagi va tuzilishdagi konseptlar shakllanishiga sabab bo'ladi. "Konseptlarning guruhlanishida ularning lisoniy ifodalanish usullariga tayaniladi" [4]. Shu bois kognitiv tadqiqotchilar fonologik, morfonologik, morfologik, leksik, frazeologik konseptlar bilan bir qatorda, grammatik (aniqrog'i, sintaktik) konseptlar guruhlarini ham ajratishni taklif qilishgan. Bu guruhlar sirasiga har bir sohaning, shu jumladan stilistika, tekstologiya (disskursologiya)ga oid konseptlar guruhlari ham kiradi desak, xato bo'lmaydi. Zero stilistik konseptlar ham o'ziga xos bir maxsus tizimga ega bo'lib, unda stilistik vositalar bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'plab konseptlar turlarini ajratish mumkin, masalan, "metafora", "metonimiya", "giperbola (giperbola)", "sinekdoxa", epitet, personifikatsiya (shaxslashtirish, jonlantirish), oksymoron, litota, ironiya (qochirig), xiazm, antiteza va shu kabi bir qator stilistik vositalar borki, ularning kognitiv asosini, tabiiyki, stilistik konseptlar tashkil etadi, vaholanki ular (stilistik vositalar) o'z navbatida ma'lum "kognitiv/konseptual semantika"larni voqelantirish uchun maxsuslashgan verbal vositalardir. Bugungi kunda ularni kognitiv nuqtai nazardan olib tahlil qilish kognitiv stilistikaning dolzarb muammolari sirasiga kiradi. Semantik munosabatlar tizimini qoliplashtirishda kognitiv grammatika an'anaviy usulda ham umumiy (universal) konseptlarga (masalan, "vaqt/temporallik/, shaxs-person/personallik/, subyekt/subyektivlik/, predikat/ predikatlik/, obyekt /obyektivlik/, adverbial /adverbiiallik/), ham maxsuslashgan (xususiy) konseptlar (masalan, "jins (gender), son-miqdor, toifa, jonli/animatnost/, jonsiz /inanimatnost/ diateza/nisbat/" va boshqa konseptlar)ga tayanib ish ko'radi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, konseptlarni quyidagi yana boshqa ikki tarkibiy turga ajratish maqsadga muvofiq: 1) sodda konseptlar; 2) qo'shma konseptlar. Qolaversa, qanday verbal vositalar orqali voqelantirilishiga bog'liq holda konseptlar yana ikki katta turga bo'linishi mumkin: 1) vaziyat, holatni ifodalovchi konseptlar (bunday konseptlar ma'lum murakkab hodissani, voqeani, aniqrog'i, ma'lum propozitsiyani ifodalaydilar (shu bois ular ikkinchi toifa konseptlar deb ataladilar), 2) voqea, holatni ifodalamaydigan konseptlar (ya'ni ular ma'lum narsa yoki nominativ sodda hodissani, atash nomlash, aniqrog'i nominatsiya orqali ifodalaydilar (shu bois ular birinchi toifa konseptlar deb yuritiladilar). Bunday holatlarda ikkinchi toifa (vaziatni, holatni ifodalovchi) konseptlar odatda kamida so'z birikmasi yoki gap (jumla) kabi katta verbal vositalar orqali ifodalanaadi. Shunisi muhimki, ularning keyingi turi (ya'ni gap,

jumla)lar aynan maxsuslashgan voqelantiruvchi vositalar bo'lib sanaladilar. Ikkinchi toifa konseptlar (ya'ni voqea, holatni ifodalamaydigan konseptlar) odatda leksik sathning nominativ birligi sanaladigan – leksema (so'z)lar orqali ifodalanaadi.

Insonning tafakkuridagi konseptlar haqidagi bilimlar majmuasi "konseptualitet"ga kelsak, u tilda so'zlovchi insonning obyektiv borliq haqidagi barcha bilimlari yig'indisini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois "konseptualitet" tilda so'zlovchi/yo'zuvchilarning obyektiv borliq haqida umr bo'yi olgan bilimlarining darajasi, cho'g'iga bog'liq holda farqlanishi mumkin. Shuningdek, "konseptualitet" mentilitet kabi milliy tabiatga ega bo'lishi mumkin. Bunday holatda tilda so'zlovchi /yo'zuvchi bir til va u bilan uzviy bog'liq bir milliy madaniyat egasidir, shu bilan bir vaqtda u internatsional xarakterga ega bo'lishi ham mumkin, vaholanki bunday holatda tilda so'zlovchi/yo'zuvchi ikki yoki undan ortiq til va ular bilan uzviy bog'liq birdan ortiq milliy madaniyat sohibidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, muloqot jarayonida tilda so'zlovchilar/yo'zuvchilar suhbatdoshga o'zining muddaosini tushuntirish, unga kerakli ma'lumotlarni yetkazib berish uchun o'zining lingvalitetidagi mavjud bilim va tajribasini ishga solar ekanlar, bevosita nutqni bezovchi va uning ta'sirchanligini hamda bir aniq maqsadga yo'naltirilganligi ta'minlash uchun tildagi stilistik vositalar, shu jumladan troplar va nutq figuralaridan unumli foydalanishga intiladilar. "Giperbola" stilistik vositalarning ichida eng keng tarqalgan, universal vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. So'zlovchi muloqot jarayonida suhbatdoshiga kuchli ta'sir o'tkazish maqsadida, o'zining kommunikativ-pragmatik muddaosi – maqsadi, ya'ni biron bir predmet, yoki hodissaning u yoki bu tavsifini keragicha mubolag'lashtirish zarurati bilan uzviy bog'liq bo'lgan "giperbola kognitiv/konseptual semantikasi"ni to'laqonli voqelantirish niyatida "giperbola" (mubolag'a) stilistik vositasi yordamida muloqotdagi nutqning vaziyatga monand ravishda jozibali, ta'sirchan va ifodali chiqishiga intiladi. Masalan, ingliz tilida "I told you a hundred times", o'zbek tilida "Men senga bu haqda yuz marta aytdim", rus tilida "YA tebe sto raz govoril ob etom" va h.k. fikrimizning dalili bo'la oladi.

"Giperbola"ning universal tabiati shunday bir muhim omil bilan bog'liqlik, uning lingvokognitiv asosi bo'lgan "giperbola konseptual semantikasi" (GKS) tilda so'zlovchi/yo'zuvchi, sog'lom fikrovchi har bir insonning tafakkurida mavjud bo'lgan, aynan olingan sotsium tomonidan meyorlashtirilgan, shu bois sotsiuslar konseptosferasida o'z ifodasini topgan idrokiy hodissa bo'lib, bunday semantika qonuniy ravishda har qanday jonli tilda o'ziga xos, verbal va noverbal vositalarning maxsus tizimi orqali voqelantirilmay iloji yo'q" [5]. Shunday qilib, "har qanday "kognitiv/konseptual semantika" verbal vositalar orqali voqelantirilishi shart" [6], vaholanki bunday semantikalar muloqot vaziyati taqozosi bilan qisman noverbal (noverbal) vositalar, aniqrog'i, "paralingvistik vositalar" [7] orqali ham voqelantirilishi mumkin.

Giperbola bo'yicha maxsus adabiyotda bir qator ishlar mavjud bo'lib, ular giperbolaning turli aspektlariga aloqador muammolarni aksariyat hollarda an'anaviy usulda tadqiq qilishga bag'ishlangan, jumladan ularda tadqiqotchilarning asosiy e'tibori obyektiv borliqdagi turli predmetlarning tavsifini "mubolag'alashgan semantika" orqali voqelantiruvchi betakror vosita giperbolaning funksional-stilistik tabiatini ochib berishga qaratilgan.

Garchi yuqorida ko'rsatib o'tilgan, giperbolaning stilistik vosita sifatida o'rganilishiga bag'ishlangan, an'anaviy struktural-semantik va funksional usulda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar ko'p bo'lsada, giperbolaning bir qator dolzarb muammolari mavjud bo'lib, ular qatoriga, bir

tomondan, mazkur stilistik vosita kognitiv-stilistik kategoriyalardan biri sifatida olinib, uning lingvokognitiv asoslari hanzugacha ochib berilmaganligi, ikkinchi tomondan esa, lingvokognitiv tilshunoslik (to'g'rirog'i lingvokognitiv tipologiya) nuqtai nazaridan uning metatushunchalari, metaatamallari, metanazariyasi va pirovordida uning metatili haligacha yaratilmaganligi, shuningdek giperbolaning lingvokognitiv, kommunikativ-pragmatik, lingvokulturologik, psixolingvistik, sotsiolingvistik va boshqa aspektlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan muammolari tizimli asnoda olib o'rganilmaganligi, qolaversa mazkur stilistik vositaning kognitiv tipologiyasi bilan bog'liq o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar kiradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, giperbolaning asosini (poydevorini), ya'ni uning falsafiy asosini badiiy (ham prozaik, ham poetik) yoki oddiy, kundalik nutqiy mubolag'alashtirish, ya'ni bo'rttirish tashkil etadi, vaholanki bo'rttirish ma'nosi zamonaviy lingvistik va adabiyotshunoslik lug'atlarida, ensiklopediyalarda hamda boshqa ilmiy izlanishlarda o'z aksini topgan. Giperbola bo'yicha aksariyat ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu ishlar mualliflarining ko'pchiligi giperbolani "stilistik figura"lar sirasiga kiritadilar [8,78], ba'zan ular giperbolani "trop" deb talqin qiladilar, ayrimlari uni "stilistik vosita (priyom)" deb xisoblaydilar ba'zilar uni "obrazli iboralar" sirasiga kiritadilar, boshqalari esa uni "ta'sirchanlik vositasi" sifatida ta'riflaydilar va h.k.

Ko'rinib turibdiki, giperbolaning lingvostilistik maqomini aniqlash borasida tilshunos olimlar va ritoriklarning fikrlari bir xil emas. Lekin tillarda giperbolaning turli til birliklari orqali bevosita voqelantirilishidan kelib chiqib (vaholanki u tilning mavjud barcha sathlari birliklari, ya'ni fonemadan tortib to tekstema (diskursema)gacha bo'lgan til birliklari orqali voqelantiriladi), biz uni ham "trop", ham "nutq figurasi" deb hisoblaymiz, lekin bularni bir xil narsa deb hisoblaydigan tadqiqotchilar ham yo'q emas. Gap shundaki, troplarga giperbolaning bir so'z (leksema) orqali ifodalanadigan turlari (bular mubolag'alashtirish semantikasini ifodalaydigan fonemalar, morfemalar, leksemalar)ni kiritish kerak, stilistik figuraga esa nutq iboralar, o'ziga xos qurilishga ega bo'lgan so'z birlikmalari, sintaktik qurilmalar, xullas giperbolaning tarkiban so'zdan yirikroq bo'lgan birliklar orqali voqelantiriladigan verbal turlari (ular frazema, sentensema, frazeoyema va tekstema (diskursema)ni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Terminlar oddiy leksik birliklardan farq qiladi. Morina B. Va Dimitro B. o'zining "The structural and semantic features of computer terms in English" mazusidagi maqolasida Kocherxan M.P terminlarning xususiyatlari xaqidagi nazariyalarini taxlil qilib,terminlarning quyidagi jihatlarin ko'rsatib o'tishadi:

1.Tizimlilik xususiyati (xar bir termin ma'lum bir tizimga mansub bo'lib va o'z ma'nosiga shu tizimda ega bo'ladi)

2.O'z ta'rifiga ega bo'lishi (Terminlar to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki ta'riflanadi)

3.Monosemantik so'zlar,ya'ni bir ma'noli so'zlar guruxiga mansubligi (o'zining semantik maydonida terminlar faqat bir ma'noga ega bo'lishi)

4.Iboralar yo'qligi

5.Stilistik neytrallik xosligi [6].

Shuning uchun, terminlar boshqa so'zlardan o'zining o'zgarma, aniq, qisqa va lo'nda, shuningdek kontekstda mustaqil ma'noga ega bo'lishi va stilistik neytrallik xosligi bilan farq qiladi deb ayta olamiz.

Tilshunos S.Helov S.D fikriga ko'ra terminlar quyidagi jihatlar bilan farqlanadi:

1.Terminlar leksik so'z yoki so'z birikmasi bilan ifodalanadigan tushuncha;

2.Obyektning terminlashgani ya'ni termin bo'lishi uchun sifatiy belgilari shundaki, termindagi turli xil tushunchalar va ifodalashlarning yagona nominal xolatga kelishidir;

3.Qanchalik bir termini izoxlashga ko'p ma'lumot kerak bo'lsa, shuncha uning termin bo'lish darajasi oshadi [10].

Terminshunoslik tarixiga nazar soladigan bo'lsak, terminlarni o'rganishda ikki xil yondashuv paydo bo'lgan. Mustaqil yondashuv namoyondalari terminlarni maxsus so'z bo'lib,kontekstda aniq va mustaqil ma'noga ega deb aytishgan masalan, Lotte (1961), Danilenko (1977), Kandelaki (1977),Golovin va Kobrin (1987).Funksional yondashuv namoyondalari esa terminlarni "maxsus so'zlar emas, balki maxsus vazifa bajaruvchi so'zlardir" deya ta'rif berishadi masalan, Vinokur (1939), Kapanadze (1965), Lejik (1986), Griniov (1993), Tabanakova (2001). Ularining fikriga ko'ra, terminlar juda produktiv so'z sifatida terminshunoslik nazariyasida o'z isbotini topgan, hamda oddiy so'zlar bilan terminlar o'rtasida xech qanday chegara yo'q degan fikrlarni keltirishgan.

Tahlil va natijalar. Tilda giperbola bilan litotaning qorishuvi ham kuzatiladi, natijada yangi qorishiq - sinkretik stilistik vosita, ya'ni «antigiperlitota» ham uchrashi mumkin [12], masalan: "Sizga bu narsalar juda ham yoqib tushmasa kerak. Not at all a drop in the ocean. Ne sovsem kaplya v okeane. She is not at all a tiny creature. Ona ne sovsem kroshechnoye sushestvo. She is not at all stupid in her manners. Ona ne sovsem glupaya v yeyo manerax".

Grotesk bu badiiy stilistik vosita bo'lib, u bevosita real va fantastik, tragik va komik, chiroyli va xunuk voqeliklarning qarshilantirib qo'shilishiga, birlashtirilishiga va qorishishiga, shu yo'sinda hatto ularning odam aqli bovar qilmaydigan darajada o'ta mubolag'alashtirilishiga asoslanadi, masalan:

Ne asrlar asirasi, zulmat qurboni,

Tarixlarning gardanida yoqut, marjoni,

Insonlarning sut emizgan onasi, joni,

Odamlarning teng yarimi, yuragi, qoni,

Yuragimning sadporasi bo'lgan san'atim [13]

U devdek zabardast, tog'ni ursa talqon qiladigan baquvvat, pahlavon yigit [14].

Agar groteskka sinchkovlik bilan qaralsa, u quyidagi muhim jihatlariga ega:

doimo tekstema orqali voqelantiriladi;

u giperbolemaning eng kuchli funksional-semantik turi;

u o'ta mubolag'alashtirishning eng kuchli shakli.

Gradatsiya ham stilistik vosita bo'lib, biron bir voqelik yoki jihatning izchillik va asta-sekinlik bilan bir holatdan ikkinchi holatga yoki kuchayish, yoki susayish yo'li bilan o'tishini ifodalash uchun qo'llaniladi, masalan: I like you, I love you, I adore you, I am mad about you, I am crazy about you! Men seni yaxshi ko'raman, men seni sevaman, men seni jonimdan ham yaxshi ko'raman, men sensiz jinni bo'lib qolaman, men sensiz yashay olmayman! Ti mne nravishsya, ya tebya lyublyu, ya tebya obojayu, ya suma soydu bez tebya, ya ne mogu jit bez tebya!

Antigradatsiya (ya'ni antiklimaks) ham bu o'rinda antigiperbola bilan bir qadar aloqaga kirishadi, chunki u ham ma'lum tavsifning tobora kamayib, susayib, kuchsizlanib borishini ko'rsatadi, masalan: Look, it is ridiculous that such a demon like, big strong and husky fellow is afraid of such a little mouse! Shunday dev sifat, zabardast, pahlavon yigitning kichkina bir sichqondan qo'rqishini qarang, kulasiz!; Smeshno, smotrite-ka, takoy demonopodobniy, zdorovenniy, shiroplechniy, muskulastiy paren boitsya malenkoy mishonki!

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, giperbola, antigiperbola, litota, meyozis, gradatsiya, antigradatsiya, klimaks, antiklimaks va grotesklar hayotda predmetlar tavsifini yoki kuchaytirish (kattaytirish), yoki kichraytirish (kamaytirish) bilan bog'liq ekan, ularning asosiy farqi shundaki, giperbola, antigiperbola va groteskda ma'lum tavsifni doimo o'ta kuchaytirish (kattaytirish) yoki

o'ta kichraytirish (kamaytirish, kuchsizlantirish) kuzatilsa, litota va meyozislarda oddiy, odatiy kichraytirish (kamaytirish) semantikasi bor, lekin "o'ta kichraytirish (kamaytirish)" semantikasi yo'q. Pirovardida ularning qorishuvi bizga "antigipermeyozis" va "antigiperlitota"larni beradi, ular esa yangi "qorishiq (sinkretik)" stilistik vositalar deb qaralishi lozim [15].

ADABIYOTLAR

1. Grigoryev V.P. Materiali k slovaryu paronimov russkogo yazika. M.: IRYaz RAN, 1992. – 47 s.
2. Xoshimov G'.M., K teorii konseptov i ix taksonomiki v kognitivnoy lingvistike.// Sistem-struktur tilshunoslik muammolari. 2010. B. 68-69
3. Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax, "Sangzor" nashriyoti, 2006. 92 -b.
4. Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax, "Sangzor" nashriyoti 2006, B.-16.
5. Karaboyev J.B. Lingvokulturologicheskiye osobennosti verbalizatorov konseptualnoy semantiki "giperbola" v yazikax raznoy tipologicheskoy prinadlejnosti//Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. 2015, 74-75).
6. Jackendoff . Semantics and Cognition . 6th ed. Cambridge Mass. The MIT Press. 1993, R.137 -283
7. Kolshanskiy V.G. Logika i struktura yazika . Lingvisticheskoye naslediye 20 veka. URSS 2005, S. 24
8. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. 1999, S.-412.
9. Xoshimov Abduraximova 2017, 92-95 ,
10. Jo'rayev SH. San'atim, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 233-b. 57 b.
11. O'zbek xalq ertaklari, 197.
12. Xoshimov G'.M., Abduraximova N.K. Lingvokulturologicheskiye osobennosti nominativnix vidov verbalizatorov gendernoy konseptualnoy semantiki v angliyskom i uzbekskom yazikax FarDU-ilmiy xabarlar №3, 2020. 144-148 b.



UDK: 070:323(09)(470)(575.1)

Akbar ELMURODOV,
O‘z JOKU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: elmurodov_akbar@mail.ru

O‘z JOKU professori, s.f.d M.Qirg‘izboev taqrizi asosida

**COVERAGE OF VIEWS ON THE PROMOTION OF THE IDEOLOGY OF INDEPENDENCE IN THE JADID
PRESS: ANALYSIS AND INTERPRETATION**

Annotation

The history of the Uzbek press naturally connects with the name of the jadidist movement and the Jadid intellectuals. Jadidism is a socio-political, literary-educational movement, much deeper, complex, contradictory, at the same time full of news, noble aspirations, practical activities. This article analyzes the issues of coverage of views on the promotion of the ideology of independence in the jadid Press in a scientific and practical way.

Key words: Ideology of independence, jadidism movement, history of Uzbek press, jadid press, ideas of Independence, National Interest, information, spiritual and moral views

**ОСВЕЩЕНИЕ ВЗГЛЯДОВ НА ПРОДВИЖЕНИЕ ИДЕОЛОГИИ НЕЗАВИСИМОСТИ В ДЖАДИДСКОЙ
ПРЕССЕ: АНАЛИЗ И ИНТЕРПРЕТАЦИ**

Аннотация

История узбекской прессы естественным образом связана с именем джадидистского движения и джадидской интеллигенции. Джадидизм - общественно-политическое, литературно-просветительское движение, гораздо более глубокое, сложное, противоречивое, в то же время полное новостей, благородных устремлений, практической деятельности. В данной статье научно-практическим путем анализируются вопросы освещения взглядов на пропаганду идеологии независимости в джадидской прессе.

Ключевые слова: Идеология независимости, движение джадидизма, история узбекской прессы, джадидская пресса, идеи независимости, национальные интересы, информация, духовно-нравственные взгляды.

**JADID MATBUOTIDA MUSTAQILLIK MAFKURASINI TARG‘IB ETISHGA DOIR QARASHLARING
YORITILISHI: TAHLIL VA TALQIN**

Annotatsiya

O‘zbek matbuoti tarixi jadidchilik harakati va jadid ziyolilari nomi bilan tabiiy ravishda bog‘lanadi. Jadidchilik – ancha chuqur, murakkab, ziddiyatli, ayni damda yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to‘la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma‘rifiy harakatdir. Mazkur maqolada mustaqillik mafkurasini targ‘ib etishga doir qarashlarning jadid matbuotida yoritilishi masalari ilmiy-amlaiv jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik mafkurasini, jadidchilik harakati, o‘zbek matbuoti tarixi, jadid matbuoti, istiqloq g‘oyalari, milliy manfaat, axborot, ma‘naviy-ahloqiy qarashlar.

Kirish. “Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” kitobida yozilishicha, milliy mafkura xalqning maqsad - muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o‘tishda uning ruhini ko‘tarib, suyanch va tayanch bo‘ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko‘plab hayotiy va ma‘naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne‘matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql - zakovat, iymon - e‘tiqod tufayli yuksak ma‘naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va taxlikali dunyoda uning taraqqiyot yo‘lini yoritadigan mayoqdir.

Bundan taxminan yuz yildan ortiqroq mukaddam Turkistonda jadidlar milliy manfaat uchun kurash g‘oya va mafkurasini ishlab chiqdilar. Aynan ushbu milliy istiqloq g‘oyasi Turkistonda mustabid sovet tuzumiga qarshi ko‘tarilgan istiqloqchilik harakatining g‘oyaviy asosini tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jadidlarning milliy g‘oyasi va mafkurasini butun millatning milliy istiqloq g‘oyasi darajasiga ko‘tarildi.

Jadidlarning milliy g‘oyasida quyidagi ikki masala asosiy maksad qilib qo‘yilgan edi: a) xalqimizni dunyoning ma‘rifatli millatlar darajasiga ko‘tarish; b) Turkistonning o‘z mustaqilligiga erishuvi.

Jadidlarning davlat va jamiyat haqidagi qarashlarida bu ikki masala bir-biri bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Chunki millat ma‘rifatli bo‘lishi uchun mustaqil bo‘lmog‘i lozim. Mustaqillikka erishishda esa xalqimiz eng avvalo ilm-ma‘rifatni puxta egallashi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asr boshlaridagi mahalliy milliy matbuotda Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti muntazam yoritilishi bilan bir qatorda milliy g‘oya atrofida birlashishga, Turkiston deb atalmish ona yurtini ozod etishga chaqiruvchi maqola va asarlar yozildi. Biz bularni “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuxrat”, “Tujjor”, “Osiyo”, “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, keyinchalik, “Najot”, “Farg‘ona sahifasi”, “Sho‘roi islom”, “Turon”, “Hurriyat”, “Kengash”, “El bayrog‘i”, “Turk eli”, “Farg‘ona nidosi” kabi bir qator mahalliy davriy nashrlar faoliyatida ko‘rishimiz mumkin.

Birgina dunyo yuzini eng kam ko‘rgan “Taraqqiy” gazetasining deyarli barcha sonlarida mahalliy aholini istiqloqcha chaqiruvchi materiallar berilgan. Masalan, gazetada “Toshkent 14 iyun”, “Toshkent 22 iyun”, “Toshkent 16 iyul”, “Toshkent 9 avgust”, “Mamlakat xabarleri”, “Toshkent axbori”, “Rossiya xabarleri”, “Xorijiy xabarleri”, “So‘nggi xabarlar”, “Doxiliya xabarleri”, “Telegraf xabarleri” kabi

ruknlr ostida berilgan maqolalar hanuzga qadar o'z qiymatini yo'qotgan emas.

“Taraqqiy”da bosilgan maqola va xabarlarning mazmuni asosan ilg'or g'oyalarni tarqatish, milliy mustaqillikka erishish yo'llarini izlashdan iborat bo'lgan. U umumiy o'qitishni milliy tilimiz va odatlarimizdan kelib chiqib olib borish kerakligini qattiq talab qilgan edi. Gazetaning ilk satrlaridanoq bu g'oyalar to'la o'z aksini topa borgan. Jumladan, uning birinchi soni va ilk sahifasi shunday satrlar bilan boshlangan: “Biz musulmonlarning hurriyatga haqlari bormu? Yo'q! Qarindoshlar, yuz martaba yo'q!.. Bu ikki yil ichida hamma xalq tortishdi, kurashdi. Musulmonlar esa uxlashdi. Peterburg, Moskva va boshqa joylardagi tortishuvlar, mehnatkashlarning haq-huquq talashganini ko'rib bizning bolalarimiz bizni vahshiylar deb atarlar”.

Bu satrlar “Toshkent 14 iyun” sarlavhali maqoladan olindi. Mana shu satrlarning o'ziyoq, biz o'rganganchalik xalqni inqilob emas, balki milliy mustaqillik uchun kurashga chorlovchi bir da'vat ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

“Duma hususida” deb nomlangan maqolada gazeta Rossiya hukumating qoloq siyosati, yangi tuzilgan Dumaning xalq ahvolini yaxshilay olmasligi haqida fikr yuritadi. Rivojlanish va yuksalishda ilgarilab ketgan Frantsiya ham Angliyada davlatchilikning qonun va nizomlari mustahkamligi, ularning xalq hayotini yaxshilashga qaratilgan tomonlari yoritib beriladi: “... obodligi baland darajaga etg'on mamlakatlarda (Fransiya, Angliya) mamlakatdorlikning - qonuni o'z ma'nig' bilan muvofiq bo'lmay qolg'on nizomlarini mansux qilmoq va yangi nizomlarni chiqarmoq yurtning sohib fuqarolarning ixtiyorida erur. Yurt bul xususda sohib ixtiyor va iqtidor bo'lib, o'z ichidan mo'tabar va inobatlik odamlarni saylab alarni parlament, ya'ni Dumaga yuboradurki, ul saylangan deputatlar (vakillar) parlament, ya'ni Dumaning majlislarida jami fuqarolarga manfaat etkuradurgon nizom va qoidalarini ittifoq bilan ixtiro aylab alarni mustahkam qilmoq uchun mamlakatning boshlig'iga manzur qilurlar. Mamlakat boshlig'iga joizdurki, ul qoidalar anga ma'qul bo'lmasa, alarni uch martag'acha rad qilg'ay”.

“Fel'eton” rukni ostida nashr etilgan Munavvar Qori Abdurashidxonovning “Bizning jaholat - jahli murakkab” sarlavhali maqolasi o'sha davrda beqiyos ahamiyatga molik bo'lgan hodisa edi. Maqolada muallif qalamga olgan salbiy illatlar - maktab va madrasalarning qoloqligi, muallimlar zamonaviy ta'lim-tarbiya usullaridan bexabarliklari barobarida, bu usullarni egallab olishga intilmayotganidan qattiq tashvish tortadi. Shu bilan birga johil muallimning kaltagi zarbidan talabaning vafot etish holati yuz bergani, shunday holatda ham ta'lim-tarbiyani isloh qilish uchun hukumat jon kuydirmayotgani va kuydirmasligini isbotlab bergan. Bunday hollar esa millatning bosqinchilar asoratida qolib ketishiga zamin hozirlashini to'la asoslab bergan: “... har millatning maktab va madrasasi o'ldug'i kabi bizning maktab va madrasalarimiz, garchi benizom va beusul bo'lsa ham, yo'q demak darajada oz emasdur. Va lekin dunyoga nima uchun kelgonini bilmay ilm va maorif-g'a aslo rag'bat qilmay jonidin shirin bolalarini ko'cha-bako'cha kezdirib bechora ma'sumni aziz umrini jaholat otashina yondiruvchi beahamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur. Ko'p dindoshlarimizni ko'rarmizki, o'z farzandlarini aslo maktabg'a bermay orqalaridan ergashtirib ruslar eshigida o'zlarini kabi xizmatchilikg'a o'rg'atub, dunyo va oxiratni saodati o'lg'on ilm va maorifdin mahrum qilmoqdin hech bir ibo qilmaslar”.

Millatning ertasini o'ylab jon kuydirayotgan ziyolilarimizning barchasi bu jaholat millat asoratga tushishiga sharoit hozirlab berishini o'sha davridayok, anglab etib, bunday holga tushmaslik uchun qattiq kurash olib borganlar.

Munavvar qorining yuqoridagi maqolasida quyidagi parcha jaholat insonni, ayniqsa, bitta millatni qay darajaga

tushirib qo'yish tasviri juda ham yuksak iqtidorning aks-sadosi, haqiqiy millatparvar xalqning nidosi edi: “... bu jaholat natijasida o'zimiz erlik musulmonlardan o'ldug'imiz xolda musofir rus va yahudiylar eshigida mardikor va xizmatchi o'lduk. Va bu jaholat xohishdurki, millat foydasi uchun jonini qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni o'ylaridan chiqarib iste'dod va g'ayratlarini choyxona va pivaxonalari g'a sarf etmakdurlari”.

Maqola davomida Munavvar qori bu jaholatning aybdori kim, degan g'oyani ilgari suradi. Va aytadiki, bu jaholatning aybdori bolasini o'qitolmagan ota ham emas, chunki uning bolani o'qitish uchun iqtisodiy tomondan qurbi etmaydi. Buning aybdori maktab muallimlari va madrasa mudarrisilari ham emas. Mazkur yurtda buning aybdori hukmronlikni o'z qo'liga kiritgan va mustamlakachilik tarixida deyarli uchramagan bir odat - millatni asoratga tushirish uchun uning milliy odatlari va milliy ma'naviyati, dini, tilini o'rganishni cheklab qo'yayotgan bosqinchilik tuzumi va shu tuzumning yurt, millatga keltirayotgan hamda keltirajak ofatlarini ko'ra bila turib o'zining halovatini o'yilagan sotqin va xoin maxalliy hukmdorlar edi. Albatta, yuqoridagi maqola mazmunidan buni aniq anglab etish qiyin emas. Maqolada Munavvar qori 10-12 yoshli bolalar ilg'or yo'nalishda yozilgan yuqoridagi buyuk mutasavvuf allomalarimizning asarlarini o'qib olishlari mushkul ekanligini o'z mulohazalari bilan isbotlab beradi.

Gazetaning 3-sonida e'lon qilingan “Toshkent 22 iyun” sarlavhali maqola ham hukumatning nomaqbul siyosati natijasida sodir bo'lgan rus-yapon urushi va buning oqibatida “lashkarni boqmoq”, jang asboblari olmoq, mansabdor va amaldorlarga vazifa bermok, lashkarni tegishli joylarga tezlik bilan yetkazish uchun zarur bo'ladigan otash aravalarining yo'llarini barpo qilmoq va boshqa mablag'ni topishning eng oson yo'li xalqqa turli soliqlar solib undirib olish ekanligini tasvirlaydi. Xalqning og'ir va mashaqqatli mehnati evaziga bunyodga kelgan ozgina mablag'ni shu yo'l bilan undan tortib olib “va yana xalqni din va iymonga taallug'i bor afsonalar bilan battar ozg'urib itoat qafasida tutadurlar”.

Tarixdan ma'lumki, chor Rossiyasi bosqinchilari ingliz mustamlakachilari kabi o'z iqtisodiy va siyosiy mavqeyini oshirish, mustamlakadagi mamlakat boyliklarini o'zlashtirish va odamlarni fikri bilangina cheklanmay, ular bosib olgan millatlarining ich-ichiga singib ketmok, o'zini ular bilan o'sha yerda teng huquqli voris qilib ko'rsatmok hamda tub aholini butkul ruslashtirmok siyosatini ham olib bordilarki, bu mahalliy xalqlar uchun eng tahlikali holat edi. Shuning uchun ham o'sha davrda hukumat amaldorlardan biri O'rta Osiyo aholisini huddi rus mujiklari kabi ichkilikbozlikka o'rgatish lozim, degan gapni aytib o'tgan.

“Taraqqiy” gazetasining “Toshkent axbori” sarlavhasi ostida berilgan maqolaga ko'ra, aholi o'rtasida ichkilikbozlik kuchayib ketgani va bu shubhasiz qandaydir maqsadlarni ko'zlab yo'lga qo'yilgan bir holat ekanligini, buning boshida juda katta kuch turganini to'la his qilamiz. “Bizni Toshkentda ichkulik va pivoxo'rlik chunon shoe' bo'ldiki, bosh bekatlarimizdan boshlab dumaxona ulug'larig'acha choy o'rniga pivo iste'mol qilurlar. Na ulamolarimizdin va na xukumatlarimizdin bir kishi yo'qki, yigitlarimizni ichkulik ichmoqdin man qilsalar. Davlat Dumasig'a vakil saylamok uchun aholi tarafidin ko'zlangan ulug' predsedatellarimiz ichkulik ichib mast bo'lib aholi orasida beibo kezmadalar. Ajabo! Buningday fasod axloq qanday noinsofidurki, aholiga va nasihat qilib iymon yo'lga qaytarmak va qaytmag'onini urub so'kub tazyiq bermok vazifalari o'lg'on ulug'larimiz o'zlarini obro'yini rus qizlari ila gostinitsa zollarida barbod etmadalar. Alloxdan qo'rqib, xalqdan uyal-maslar”.

Bu lavhalar, darhaqiqat, millatni yo'ldan ozdirish, din va iymondan ayirish uchun ko'plab nayranglar qilinganini isbotlovchi bir dalildir.

Gazetaning 9-sonida “Toshkent, 19 iyul” sarlavhali maqola ham nohaqliklarga qarshi ko'tarilgan isyon, haq va huquq talab qilayotgan xalqning sadosi edi.

“Qozon shahrida” degan maqolada esa qora guruhlarning Qozon shahridagi yahudiy va musulmonlarga, hurriyat talab qiluvchilarga tazyiq qilgani, musulmonlar ularga qarshi kurashgani aytilgan.

Toshkentda ham shunday harakatlar yuz bermasligi uchun doimo ittifoq bo'lib turish kerak, deydi va qora guruh odamlariga shunday tavsif beradi: “dinda va so'zda, matbuotda va boshqa narsalarda hurriyat qiluvchi ravshan zamin va ziyolik zotlar'ga eng darajada dushmanliklari ila barobar Rossiya mamlakati faqat ruslar uchun va ham ruslardan boshqa umumxalqni nasoro bo'lmog'ini tilovchi va nasoro dinig'a da'vat qilg'uvchi missionerlar'ga jon va mollari ila quvvat berib bor musulmonlarni ham birinchi dushman kishilaridir”.

Gazetaning shu sonida berilgan “Madrasalarga oid” sarlavhasi ostidagi maqolada ham katta hayotiy haqiqat yotadi. Unda xon va beklar zamonida ko'p e'zozlanib, diqqat-e'tiborda turgan madrasalar va maktablarniig bugungi ayanchli ahvoli o'z ifodasini topgan. Ularni isloh qilish vazifasi bo'lgan hukumatdorlar, ulamo va qozilar bu yo'lda aslo jon koyitmayotganini, millatning taraqqiyotdan keyin ketishi ularni o'ylantirmayotgani yorqin lavhalarda tasvirlangan: “Toshkent madrasalarina kelganda mundog' i madrasa va shogirdlarning ahvolin kimlar isloh qilurlar!

Ulamolar bo'lsalar, qozilarning so'zlaridin o'tib bir ish qilolmasliklari uchun bul janoblardan isloh umid qilmoq to'qson yoshlik bir qari ajuzadan farzand umid etmak qabilidandir”.

Maqolada qozilarimizning ilm islohida bu qadar befarq qarayatganining sababi izoxlanar ekan, ularning mustamlakachi hukumat tomonidan tayinlangan mansabdorlarning buyrug'iga so'zsiz bo'ysunishi va shaxsiy manfaatlarini o'ylab o'z millatiga bu qadar og'ir savdo bo'lmish – jaholat va zulmni ravo ko'rayotganini aytib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz yuqoridagi singari manbalarni o'qib-o'rganish jarayonida millatimizni asoratga

tushirish u darajada oson kechmaganini, bu ish juda qattiq zulm va zarba natijasida amalga oshirilganini bugun to'la anglab yetmoqdamiz. Shuningdek, o'sha davrda nashr qilingan mahalliy gazetalar xabarlarida inqilob haqidagi voqealar emas, balki milliy mustaqillikka intilayotgan musulmon dunyosidagi voqealar ko'proq o'z aksini topgan. Ularda xabarning ahamiyati haqida yo ijobiy, yo salbiy tomoniga qarab tavsif beriladi.

Tahlil va natijalar. Turkiston xalqlari oldida turgan dolzarb muommalarni echib, mustamlakachilikdan ozod bo'lishga intiluvchi maqolalarni chop etish jadidlar matbuotining asosiy g'oyasi edi. Madaniyat va ma'rifatni tiklash uning bosh g'oyasiga aylanadi. Millatparvar fidoiy jadidlar mustamlakachilik siyosati qanchalik taxqirli va havfli bo'lishiga qaramay millat dardini o'z dardi deb bildi. Ayniqsa bu masalada jadidlar milliy matbuotni birinchi darajada rivojlantirishga katta e'tibor berdilar. Bunga “Tujjor” gazetasining 1907-yil 21-avgustda chiqishi yaqqol misoldir. Gazeta muxarriri Toshkentlik soxovatli boylardan biri Saidkarim Saidazimboev bo'lgan.

Bahosi bir yilligi besh so'm, olti oyligi uch so'm, uch oyligi bir so'mi oltmish tiyin, bir oyligi oltmish tiyin, bir nusxasi olti tiyindan sotilgan. E'lonlar gazetada avvalgi sahifada satriga o'n olti tiyindan, oxirgi sahifada o'n tiyindan bosilgan. U “milliy, siyosiy va ma'ishiy gazetai islomiya” edi. Manzili Peterburg ko'chasiidagi xususiy uyda, deb ko'rsatilgan. “Tujjor” gazetasida “Xorij xabarlari”, “Telegraf xabarlari”, “Dohliiy xabarlari”, “Idoraga maktublar”, “Idoradan javoblar” kabi ruknlarda maqolalar e'lon qilingan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish joizki, yuqorida sanab o'tilgan matbuot nashrlari mustamlaka sirtmog' i ichida yozilgan bo'lsa ham, erkin fikrlar, hurriyatni ifoda etuvchi g'oyalar, ilm ma'rifatni va ma'rifatli yoshlar bilan asta-sekin ozodlik sari qadam tashlay olishiga ishongan milliy ma'rifatparvarlarimizning naqadar jasorat ko'rsatganligi va fidoiyiligidan dalolat berib turibdi. Shu boisdan, jadid matbuotida mustaqillik mafkurasini targ'ib etishga doir qarashlarni ilmiy tadqiq etish, o'rganish va o'rgatishning ahamiyati kun sayin oshib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekistonning yangi tarixi. Kontseptual-metodologii muammolari mavzusida Respublika ilmiynazaroii anjumani materiallari. –T.: Akademiya, 1998.-B.151-154.
2. Abduazizova N.A. Milliy jurnalistika tarixi (Genesis va evolyutsiya). Birinchi jild, – T.: Sharq, 2008. – B. 139.
3. Pidaev T., Do'stqoraev B. “Taraqqiy” gazetasi // Xalq so'zi. 1993. 11 iyun.
4. Abduazizova N.A. Milliy jurnalistika tarixi (Genesis va evolyutsiya). Birinchi jild, – T.: Sharq, 2008. – B. 141.
5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. (To'plovchi, nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi-Begali Qosimov). I jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – 232 b.; II jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – 302 b.
6. Alimova D. A. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri// Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar. Davriy to'plam. №1. – Toshkent, Universitet, 1999. – B. 35-52.
7. Isoqboev A.A. Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tatar-boshqird ma'rifatparvarlarining faoliyati(XIX asr oxiri– XX asr boshlari): Tarix fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 28 b.
8. Худойкулов А. М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана(конецXIX – началоXX вв.): Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 1995. – 24 с.
9. Турсунов Р. Н. Воззрения национальных прогрессистов на соци-ально-экономические процессы в Туркестане в начале XX в: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2000. – 29 с.
10. Кенжаев Д. М. Исламские ценности в воззрениях джадидов и их концепция духовного реформирования общества: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2007. – 29 с.



UO'K: 838.2

Rayhon ERGASHEVA,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: ergashevarayhon1994@gmail.com

TISUning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD N. Saloxitdinova taqrizi asosida

BADIIY ASARNING ILG'OR RIVOJLANISHIDA ETNOGRAFIK OQIMNING ROLINI OYDINLASHTIRISH

Аннотация

Tadqiqotning yangiligi adabiy etnografik leksikaning lirik tajribalarini o'rganishdadir. Tadqiqot muammosi etnografik aks ettirish va badiiy idrok obrazini yaratishda o'ziga xosligini aniqlashdan iborat. Shuningdek, badiiy asarlarda etnografizm ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: O'quvchiga etnografik holatni jonli yetkazish, nomalumlik" ni tushuntirish, badiiy asardagi etnografizm, etnografizm kundalik voqeelikdagi folklor elementi sifatida.

ВЫЯСНЕНИЕ РОЛИ ЭТНОГРАФИЧЕСКОГО ТЕЧЕНИЯ В ОПЕРЕЖАЮЩЕМ РАЗВИТИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Аннотация

Новизна исследования заключается в изучении лирических переживаний литературно-этнографической лексики. Задача исследования заключается в определении своеобразия этнографического отражения и художественного восприятия в создании образа, а также рассматривается значение этнографии в художественных произведениях.

Ключевые слова: Яркая подача этнографической ситуации читателю, его понимание «неизвестного», этнография в художественном произведении, этнография как элемент фольклора в бытовой действительности.

CLARIFICATION OF THE ROLE OF THE ETHNOGRAPHIC CURRENT IN THE ADVANCED DEVELOPMENT OF THE WORK OF ART

Annotation

The novelty of the research lies in the study of lyrical experiences of the literary ethnographic lexicon. The problem of the research is to determine the uniqueness of ethnographic reflection and artistic perception in creating an image. Also, the importance of ethnography in artistic works is considered.

Key words: Vivid presentation of the ethnographic situation to the reader, explanation of "unknownness", ethnography in a work of art, ethnography as an element of folklore in everyday reality.

Kirish. Hozirgacha xalqning milliy mavjudligining o'ziga xosligi borasida bir qancha tadqiqot olib borilmoqda. Badiiy asar muvaffaqiyatli amalga oshirilishida milliy urf-odat, marosim etnografiyasi muhim ahamiyatga ega. Birinchi navbatda, yozuvchi shaxsiyatining ma'lum bir ko'lami-la, uning madaniyatni tushunish chuqurligi, eng avvalo o'quvchiga etnografik holatni jonli yetkazish, ishonchli yaratish samarali usullardan biridir. Shuningdek, o'quvchi "nomalumlik" ni tushunishi ya'ni, agar uni "o'zlashtirish" imkoni bo'lmasa, tushuntirish imkonini berish. Badiiy adabiyotda etnografizmalarni qo'llash madaniy, diniy, psixologik munosabatlar, axloqiy me'yorlar, hayotini tartibga solish xususiyatlari, muayyan geografik hududlarda istiqomat qiluvchi muayyan etnik guruhni sifatlash, personajlarning harakatlarini axloqiy baholash uchun foydalaniladi. Hozirda personaj harakatining muvofiqligi yoki nomuvofiqligi (shuningdek, motiv yoki umuman xulq-atvor), shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy hayot tarzi, muayyan axloqiy me'yorlar va talablarni ko'rsatishda etnografizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Badiiy matnning etnik-madaniy makonini belgilaydi, uni muallifning badiiy birlashmalari bilan to'ldiradi etnografizm, etnonim va etnik belgilar haqiqiy tarixiy haqiqiylik vazifasini bajaradi. Etnografik nasr alohida tipologik va individual badiiy hodisa sifatida alohida tadqiqot predmeti hisoblanadi. Hozirgi zamon fanida aniq ta'riflarga ega bo'lmagan etnografik nasrning xarakterologik xususiyatlari terminologik va nazariy jihatdan asoslanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo miqiyosida etnografik voqeelikning ahamiyatini tushungan birinchi rus yozuvchilaridan biri N.V. Gogol. U adabiy va badiiy ijodda xalq og'zaki ijodini chuqur o'rganishga murojaat qilgan birinchi rus yozuvchisi edi. Adabiyotda folklor va etnografik materiallar asosida o'zgarma xaritalar yaratgan. Yozuvchi ayni vaqtda olim-etnograf, folklorchi, tarixchi-tadqiqotchi vazifasini ham bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Amaliy bilimlarni to'plash va etnografizmning shakllanishi jarayonini kuzatish. Tadqiqot materiali sifatida etnografik xususiyat va unsurlar eng aniq namoyon bo'lgan aniq adabiy matnlar, shuningdek, adabiy va folklor sintez hodisasi sifatida bayon qilish turlari kiradi. Materialning keng qamrovli yoritilganligi asarning o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi. Etnografik oqimning rivojlanishi, uning adabiy jarayonga kirib kelishia asar muammosini ko'rib chiqishning janr printsipiga asoslanadi

Tahlil va natijalar. Etnografik material hikoyalar, qissa, romanda tabiat, manzaralar, mulohazalar uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Etnografik nasrni ko'rib chiqishning asosiy predmeti xalqning o'z-o'zini anglashi, uning dunyo tasviri, ruhi. Qahramon - ko'pincha xalqning jamoaviy qiyofasi bo'lib namoyon bo'ladi. Umumlashtirilgan qahramon ma'lum darajada individual psixologik ifodani oladi. Psixologik jihatdan aniq fojiali vaziyatlarni tasvirlash haqiqiy dunyoni etnografik jihatdan aniq tasavvur qilish imkon beradi. Yozuvchilar borliqning abadiy savollarini: inson va odamlar, inson va Xudo, yaxshilik va yomonlik, inson tabiatidagi ideal

va moddiy, urf-odatlar, an'analar, axloq va ideal, hukmron ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini (e'tiqod, insonparvarlik) o'rgandilar. Ular inson hayotining turli sohalarini - ijtimoiy-tarixiy, diniy-axloqiy, milliy miqyosda hal qilishga harakat qiladilar. Etnografik element, eng avvalo, badiiy asar tilida ifodalanadi. Badiiy matnni xalq tili bilan boyitish badiiy asarga etnografik elementni kiritishdir. Shuningdek, xalqning urf-odatlarini, urf-odatlarini tasviri matndagi etnografik elementning ko'rinishidir. Badiiy adabiyotda etnografik elementlarning ba'zi turlarini ta'kidlash mumkin: ijtimoiy, diniy - kundalik, mintaqaviy- geografik. Bu nuqtai nazrdan bir qancha mulohazalar sifatida Belarus tadqiqotchisi V.V. Lukevich "badiiy asardagi etnografizm - bu har bir milliy adabiyotning o'ziga xos "ro'yxatga olinishi" dir [1] hamda Chernov A.V. "Etnografik birliklar badiiy asardagi hayot-maishiy suratlarining ijtimoiy jaranglanishini chuqurlashtiradi",- deb yozadi. U "pazandachilik etnografizmlarining semantikasi, vazifalari, lingvistik va madaniy moslashuv xususiyatlarini o'rganish ham milliy madaniyatga yana qaytish yoki boshqacha aytganda, madaniyatni kengaytirishga imkon beradi. Bu birliklarning asosiy lingvo-stilistik vazifalarini aniqlash orqali badiiy matnni tushunish mumkin"[2]. Milliy xarakterni tasvirlashda etnografik elementlarning roli juda katta. Shuni yodda tutish kerakki, milliy xarakter, A. L. Fokeevning fikriga ko'ra, nafaqat "yozuvchining axloqiy va estetik mezonlari bilan belgilanadigan axloqiy-psixologik kategoriya, balki u yaratilishi ham etnopsixologik tipdir. Bu esa chuqur etnik omillarga asoslanadi[3]. Bularga xalq turmush tarzining, eng avvalo, folklorida aks etgan etnografik xususiyatlari kiradi. Milliy xarakterning xususiyatlari maqol frazeologiyasida eng aniq namoyon bo'ladi. Maqollar xalq xotirasida saqlanib qolgan o'ziga xos etnostereotiplardir. B.N. Putilov "Folklor va xalq madaniyati" monografiyasida "hayot sharoiti milliy o'zlikni anglashni, etnografik xususiyatlar rus xalqining madaniy-tarixiy stereotipiga mos kelishini keltirib chiqaradi. Folklor va etnografiya adabiyot yaratgan milliy xarakterning manbalaridir" deb yozadi. "[4]. Adabiyotda etnografik yo'nalishlar barqaror. Etnografik xususiyat janr-struktura va stilistikaning shakllanishiga hissa qo'shadi:

Bitta adabiy asarda etnografiyaning turli xil variantlari alohida paydo bo'lishi mumkin, bu esa ushbu asarda tasvirlangan hodisalarning xilma-xilligini ko'rsatadi. Bu hilma xillik odatda hududiy kesm chegarasini aniqlab beradi. Etnografizmning har xil turlari boshqalar bilan birlashtirilishi mumkin, buning natijasida etnografik substrat shakllanadi, bu yaxlit xususiyatga ega bo'ladi va tasvirlangan hodisalarning umumiylikni ko'rsatadi. Etnografik badiiy elementlar adabiy asarni idrok etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan noaniq ko'rsatkichdir. Etnografik elementlarning ta'siri va ularning asardagi roli hikoya davomida o'zgarishi mumkin, ammo bundan qat'i nazar, yozuvchi asarida tasvirlangan odamlarning madaniy tomonlarini aks ettirishga qaratilgan aniq kontseptual va mafkuraviy maqsadlarni ko'zlaydi. Adabiy taraqqiyotni belgilovchi omillardan biri sifatida Yu.B. Borev - folklor, xalq hayotining etnografik xususiyatlari, xalq urf-odatlarini va

marosimlari, afsonalar ekanligi to'g'risida fikr bildiradi. Millat, diniy tushunchalar, jamoalarga xos bo'lgan ildiz otgan madaniy an'analar, muloqot shakllari, kundalik turmushdagi o'z urf-odatlar badiiy faoliyat samarasida doimo aks-sado beradi[5]. Badiiy adabiyotdagi etnografik unsurlar uni yanada yorqinroq va original qiladi. Etnografik elementlar o'quvchiga xalq va uning an'analarini butun o'ziga xosligi va go'zalligi bilan ko'rish imkonini beradi. Adabiyotda etnografizm xalq mentaliteti, uning axloqiy me'yorlari va milliy tarixi haqida ma'lumot beruvchi yetakchi ekspressiv vosita sifatida qo'llaniladi. XIX asrning birinchi yarmida folklor va etnografik elementlar "xalq xarakteri" va "xalq hayoti" qiyofasini sezilarli darajada o'zgartirdi. Muallif dunyoqarashining yuzaki illyustratsiyasidan xalq qahramoni obrazi chuqur badiiy izlanish va onga o'tadi. Badiiy asarlarida etnografik rasm alohida etnografik elementlardan, eng xilma-xil mazmundagi etnografik materiallardan ko'paytiriladi, shuningdek, leksik tizim yordamida yaratiladi. Adabiyotga etnografizm kundalik voqelikdagi folklor elementlari sifatida o'zlashtirilgan. Xalq og'zaki ijodi etnografiyaning predmeti sifatida xalqning etno-psixologik xususiyatlari yoritib beriladi, uning falsafiy qarashlari, axloqiy ideallari ochib beriladi. Xalq she'riyatiga murojaat folklor materialini badiiy tizimning teng va tabiiy elementi sifatida erkin kiritish xarakterini. XIX asr adabiyotiga folklorning kirib borish jarayonini yoritish etnografizmni aks ettira boshladi. Adabiy asarlarning badiiy obrazli tuzilishiga xalq e'tiqodlarining kiritilishi "xalq ruhi"ni, dunyoqarashini ifodalovchi yangi nasriy janrlarni izlashga xizmat qildi. Qadimgi afsonalar adabiy asarda badiiy hikoyaga aylanadi. Xalq og'zaki ijodini singdirish usulining o'zi xalq afsonalarini adabiy matnga qayta ko'rib chiqish, o'ziga xos intertekstuallik sifatida ta'riflash mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmida etnografik oqimning, etnografik maktabning shakllanishi nasr janrlarining o'zgarishi, etnografik harkatdagi nasr va badiiy-etnografik asarlar paydo bo'lishiga olib keladi. Demak, kundalik hayot yozuvchisi ayni vaqtda etnograf sifatida etnografizmdan ancha ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Milliy xarakter, xalq qiyofasi va milliy til elementlarini o'rganish, milliy qahramonni tiplashtirishda o'lka etnografiyasining o'rnini, tashqi etnografiya tafsilotlari, etnografik muhit hodisalari badiiy asar uchun asosiy obyekt bo'lib xizmat qiladi.

Nasrning o'ziga xos xususiyati - tasvirlangan hodisalarning etnik belgilarining aniqligi. Keling, turli etnik guruhlar madaniyatining qanday voqeliklari bunday belgini olishini ko'rib chiqaylik:

Xalq vakillariga xos kiyim va poyafzal

Diniy nomlar

Oddiy qurol nomlari

Asosan ma'naviy urf-odat marosim madaniyatga oid umumlashtirilgan tushunchalar.

Xulosa. Xulosa o'rmda shuni aytishimiz mumkinki, badiiy asarlardagi marosim, urf-odatlar, turli predmetlar, pazandachilik ma'nosi bildiruvchi etnografizmlar asar badiiy qiimmatini oshiradi. O'quvchiga qadriyatlarini jonlantirib, tiriltirib beradi. Shuningdek, etnografizm nomlari ayni vaqtda o'z ma'nosi orqali ma'no bersa, u bilan birga yondosh ma'nolarni ham yuzaga chiqaradi, ma'lum jarayon yoki predmat ayni bir nom bilan berilsa uning ma'nosi aniq oydinlashadi. Demak, o'quvchiga badiiy asar birligi bo'lgan etnografizmlar ajdodlaridan meros, axloqiy - me'yor, madaniy, diniy, psixologik munosabatlarni shakllantirishga, qayta gavalantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Люкевич В.В. Самообразие художественного этнографизма в литературе Беларуси начала XIX столетия // Лаўшук А.А. (рэд.) У ракурсе сучаснага асэнсавання. Магілёў: МДУ імя А. Куляшова, 2014. Вып. 6: Філалогія. С. 61-74.268
2. Чернов А.В. Русская беллетристика 20–40-х г. XIX в. (вопросы генезиса, эстетики и поэтики): Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Воронеж: ВГУ, 1996.

3. Фокеев А.Л. Этнографическое направление в русском литературном процессе XIX века: истоки, тип творчества, история развития, диссертация на соискание учёной степени доктора филологических наук, Москва: 2004.
4. Путилов Б. Н. Фольклор и народная культура. Монография СПб.: Наука, 1994.
5. Нестерова И.А. Этнографизм в художественном произведении // Энциклопедия Нестеровых <https://odiplom.ru/lab/etnografizm-v-hudozhestvennom-proizvedenii.html>
6. Boltayeva Q. “O’quvchilarda milliy g’urur tuyg’usini shakllantirishda badiiy asarlardagi to’y va marosimlarning o’rni” Ijodkor o’qituvchi jurnali. 2022.06.05. 19-son